I.ALLAKOV

SONLAR NAZARIYASIDAN MISOL VA MASALALAR

(yechimlari bilan)

Termiz - 2019

I.Allakov. Sonlar nazariyasidan misol va masalalar. O’quv qo’llanma. Toshkent. 2019 yil. 354 bet.

Qo’llanma uch qismdan iborat bo’lib uning birinchi qismida sonlar nazariyasida muhim bo’lgan asosiy mavzular bo’yicha qisqacha nazariy ma'lumotlar hamda ularning tadbiqlariga doir misol va masalalar berilgan. Ikkinchi qismida misol va masalalarning javoblari keltirilgan. Uchinchi qismida esa barcha misol va masalalar ishlab ko’rsatilgan.

Qo’llanma universitetdagi matematika ta'lim yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan bo’lib undan algebra va sonlar nazariyasi fanining sonlar nazariyasi qismini o’tishda, ayniqsa amaliy mashg’ulotlar va mustaqil ishlarni tashkil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek o’rta umumta'lim maktablari va akademik litseylar o’quvchilarining sinfdan tashqari mashg’ulotlarini tashkil qilishda hamda umuman matematikani mustaqil o’rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

Oquv qo’llanma Termiz davlat universiteti ilmiy kengashi tomonidan ma’qullanib nashrga tavsiya etilgan. №1.4.5–sonli bayonnoma, 2018 yil 7 sentyabr.

Taqrizchilar:

O’zbekiston Fanlar Akademiyasi
V.I.Romanovskiy nomli Matematika
Instituti direktori, akademik — Sh.A.Ayupov

Termiz davlat universiteti
matematik analiz kafedrasi professori,
fizika- matematika fanlari doktori — M.Mirsaburov

Samarqand davlat universiteti
algebra va geometriya kafedrasi mudiri,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent — X.X.Ro’zimurodov

Mundarija

Kirish 5

I-bob. Butun sonlar halqasida bol'inish nazariyasi elementlari.....6

I.1-§. Qoldiqli bo'lish haqidagi teorema.…….....6

I.2-§.Eng katta umumiy bo'luvchi va eng kichik umumiy karrali.....7

I.3-§.Tub va murakkab sonlar……...10

II-bob. Sonli funksiyalar va ularning xossalari.....12

II.1-§.$\pi(x)$ − funksiyasi.....12

II.2-§. Butun qism va kasr qism funksiyalari 12

II.3-§. Berilgan sonning bo'luvchilari soni va bo'luvchilari yig'indisini ifodalovchi funksiyalar.....14

II.4-§. Eyler funksiyasi.....16

III-bob. Taqqoslamalarnazariyasi elementlari.....18

III.1-§.Taqqoslamalar va ularning asosiy xossalari.....18

III.2-§.Berilgan modul bo'yicha chegirmalar sinflari.....20

III.3-§.Eyler va Ferma teoremalari…….....23

IV-bob. Bir noma'lumli taqqoslamalar 25

IV.1-§.Bir noma'lumli taqqoslamalar (umumiy ma'lumotlar).....25

IV.2-§. Bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar.....26

IV.3-§. Bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar sistemasi.....29

IV.4-§. Tub modul bo'yicha yuqori darajali taqqoslamalar.....32

IV.5-§. Murakkab modul bo'yicha yuqori darajali taqqoslamalar.....34

IV.6-§. Ikkinchi darajali taqqoslamalar va Lejandr simvoli.....37

V-bob. Boshlang'ich ildizlar va indekslar.....41

V.1-§. Ko’rsatkichga qarashli sonlar va boshlang’ich ildizlar.....41

V.2-§. Indekslar va ularning tadbiqlar.....43

V.3-§.Taqqoslamalar nazariyasining ba’zi tadbiqlari.....46

VI-bob. Uzluksiz kasrlar va ularning tadbiqlari.....51

VI.1 -§. Chekli uzluksiz kasrlar.....51

VI.2 -§. Cheksiz uzliksiz kasrlarning yaqinlashuvchiligi.....54

VI.3 -§.Cheksiz uzliksiz kasrlar va kvadrat irratsionalliklar.....55

VI.4 -§. Algebraik va transtsendent sonlar.....56

Javoblar…….....58

Yechimlar…….....69

Ilovalar 349

Kirish

Qo’llanma uch qismdan iborat bo’lib uning birinchi qismida sonlar nazariyasida muhim bo’lgan asosiy mavzular bo’yicha qisqacha nazariy ma'lumotlar hamda ularning tadbiqlariga doir misol va masalalar berilgan. Ikkinchi qismida misol va masalalarning javoblari keltirilgan. Uchunchi qismida barcha misol va masalalar ishlab ko’rsatilgan.

Qo’llanma universitetdagi matematika ta'lim yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan bo’lib undan sonlar nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi fanlaridan darslarni o’tishda foydalanish mumkin. Shuningdek o’rta umumta'lim maktablari va akademik litseylar o’quvchilarining sinfdan tashqari mashg’ulotlarini tashkil qilishda hamda umuman matematikani mustaqil o’rganishuvchilar foydalanishlari mumkin.

Qo’llanmani yozishda Respublikamizda mavjud bo’lgan adabiyotlar:

1.Xojiev J.X., Faynleyb A.S. Algebra va sonlar nazariyasi kursi. –T., «O’zbekiston», 2001. 304b.;

2.Isroilov M.I., Soleev A.S.Sonlar nazariyasiga kirish. -T., “Fan”. 2003. 190b.

singari darsliklaridan tashqari rus tilidagi:

1. Nesterenko Yu.V. Teoriya chisel. –M., Izdatelskiy tsentr “Akademiya” . 2008. 272s.

2.Vinogradov I.M. Osnovi teorii chisel. -M.: Nauka, 1981. – 176s.

kitoblardan va ingliz tilidagi:

1.Hardy G.H., Wright E. M. An introduction to the Theory of Numbers. 6th.ed., Oxford University Press. -2008. -480p.

2.ManinYu.I., Panchishkin A.A. Introduction to modern number theory Germany, 2007, English. 372p.

kitoblaridan ham foydalandik.

Qo’llanmani qo’lyozma holatida o’qib chiqib uning mazmunini yaxshilash yuzasidan o’z fikrlarini bildirganlari uchun O’zbekiston Fanlar Akademiyasi V.I.Romanovskiy nomli Matematika Instituti direktori, akademik Sh.A.Ayupovga, Termiz davlat universiteti matematik analiz kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori M. Mirsaburovga, Samarqand davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent X.X.Ro’zimurodovga hamda Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi a’zolariga o’z minnatdorchiligimni bildiraman.

Qollanma to’g’risidagi fikr va mulohazalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Muallif iallakov@mail.ru

I-bob. Butun sonlarning bo'linishi.

I.1-§. Qoldiqli bo'lish haqidagi teorema.

Natural sonlar $1,2,3,\dots,n,$ … va ularga qarama-qarshi sonlar $-1,-2,-3,\dots,-n,\dots$ hamda 0 soni birgalikda butun sonlar deyiladi. Butun sonlar nazariyasida qoldiqli bo'lish haqidagi teorema muhim ahamiyatga ega: ixtiyoriy butun a va $m > 0$ sonlari uchun $a = mq + r,\ 0 \le r < m$ tenglikni qanoatlantiruvchi yagona butun q va r sonlari jufti mavjud. Bu yerda a-bo'linuvchi, m-bo'luvchi yoki modul, q to'liqsiz (chala) bo'linma va r qoldiq.

Agar $r=0$ bo'lsa, a soni m ga bo'linadi deyiladi va $a \vdots b$ ko'rinishida yoziladi.

$a = mq + r, 0 \le r < m$ munosabatni $\frac{a}{m} = q + \frac{r}{m}$ $(0 \le \frac{r}{m} < 1)$ ko'rinishda yozish mumkin. Bunday holda, q soni $\frac{a}{m}$ sonning butun qismi, $\frac{r}{m}$ esa uning kasr qismi hisoblanadi.

Shuning bilan birga yig'indining bo'linish alomati muhim tatbiqlarga ega: agar, $a \vdots m$ va b$\vdots m$ bo'lsa, u holda, $(a + b) \vdots m$ bo'ladi.

Quyidagi teskari teorema o'rinli ekanligini qayd qilib o'tish muhim: agar $(a + b) \vdots m$ va $a \vdots m$ bo'lsa, u holda $b\vdots m$ bo'ladi.

Sonlarning bo'linishi refleksivlik $a \vdots a$ va tranzitivlik xossalariga ham ega, ya'ni $a \vdots b$ va $b \vdots c$ lardan $a \vdots c$ kelib chiqadi.

1. 13 ga bo'lganda, to'liqsiz bo'linma 17 teng bo'ladigan eng katta butun sonni toping.
2. Agar bo'linuvchi va to'liqsiz bo'linma mos holda 1) 25 va 3 2) -30 va -4 bo'lsa, bo'luvchi va qoldiqni toping.
3. Isbotlang:
   a) toq natural sonning kvadratini 8 ga bo'lganda qoldiq 1ga teng bo'ladi.
   b) ketma-ket ikkita natural son kvadratlari yigindisini 4 ga bo'lganda qoldiq 1ga teng.
4. p $\ge$ 5 tub sonni 6 ga bo'lganda qoldiq 1 yoki 5 bo'lishini isbotlang.
5. p $\ge$ 5 tub sonning kvadratini 24 ga bo'lganda 1 qoldiq hosil bo'lishini isbotlang.
6. Agar ikki butun sondan har birini m natural soniga bo'lganda 1 qoldiq qolsa, u holda ularning ko'paytmasini m ga bo'lgandagi qoldiq ham 1 ga teng bo'lishini isbotlang.
7. $3m + 2$ $(m = 1,2, \dots)$ ko'rinishdagi sonlar butun sonning kvadratidan iborat emas ekanligini isbotlang.
8. Matematik induksiya metodidan foydalanib 15 ning ixtiyoriy natural darajasi 15^n ni 7 ga bo'lsak qoldiq 1 ga teng bo'lishini ko'rsating.
9. Barcha $2^{2^n} + 1$ $(n = 2,3, \dots)$ko'rinishdagi sonlar 7 raqami bilan $2^{4^n} - 5$ $(n = 1,2, \dots)$ ko'rinishdagi sonlar 1 raqami bilan tugashini isbotlang.
10. Ikkita toq sonning kvadratlari yig'indisi butun sonning kvadratiga teng emasligini isbotlang.

11. Pifagor uchburchagining (tomonlari natural sonlarda ifodalanadigan to'g'ri burchakli uchburchakda) hech bo'lmaganda bitta kateti 3 ga bo'linishini isbotlang.

12. Pifagor uchburchagi tomonlaridan hech bo'lmaganda bittasi 5 ga bo'linishini isbotlang.

13. $S_n = 1 + 2 + 3 + \cdots + n$ yig'indini 5 ga bo'lgandagi qoldiq 1 bo'ladigan barcha *n* natural sonlarni toping.

14. Agar $(ax - by) \vdots m$, $(a - b) \vdots m$ hamda b va m lar 1 dan farqli umumiy natural bo'luvchiga ega bo'lmasa, u holda $(x - y) \vdots m$ ekanligini isbotlang.

15. $4^n + 15n - 1$ $(n = 1,2, \dots)$ ko'rinishdagi sonlar 9 ga karrali ekanligini isbotlang.

16. Natural argumentli $f(n) = 10^n + 18n - 1$ va $F(n) = 3^{2n+3} + 40n - 27$ funksiyalar qiymatlari mos ravishda 27 va 64 ga karrali ekanligini isbotlang.

17. $\frac{n}{2n^2+1}$ va $\frac{n}{n^2+n+1}$ ko'rinishdagi kasrlar sof davriy o'nli kasrlarga aylanishini isbotlang.

18. Agar ikkita uch xonali sonlarning yig'indisi 37 ga bo'linsa, u holda ulardan birini ikkinchisining davomidan yozish natijasida hosil bo'lgan olti xonali sonning 37 ga bo'linishini isbotlang.

19. Quyidagilarni isbotlang:

1) $(m^5 - m) \vdots 5$, 2) $m(m^2 + 5) \vdots 6$ 3) $m(m + 1)(2m + 1) \vdots 6$

20. $2n + 1$ ta ketma-ket natural sonlar yig'indisi $2n + 1$ ga karrali ekanligini isbotlang.

21. $7 \cdot 11 \cdot 13 = 1001$ ekanligini bilgan holda 7, 11 va 13 ga bo'linishning umumiy belgisini keltirib chiqaring va uni 368312 soniga qo'llang.

22. Raqamlari yig'indisi bir xil bo'lgan sonlar ayirmasining 9 ga karrali ekanligini isbotlang.

23. $S_n = 7 + 77 + 777 + \cdots + \underbrace{77 \dots 7}_{n\ ta}$ − yig'indini hisoblang.

24. $48, 4488, 444888, \dots$ sonlarni ikkita ketma-ket juft sonlarning ko'paytmasi shaklida ifodalash mumkinligini ko'rsating.

25. 16, 1156, 111556,11115556, sonlarning to'liq kvadrat bo'lishini ko'rsating.

26. Ixtiyoriy n natural soni uchun $(n + 1)(n + 2) \dots (n + n)$ ning 2^n ga bo'linishini isbotlang.

I. 2-§. Eng katta umumiy bo'luvchi (EKUB) va eng kichik umumiy karrali (EKUK).

Berilgan $a_1, a_2, \dots, a_n$ sonlarning barchasini bo'luvchi sonlarga ularning umumiy bo'luvchilari deyiladi. Umumiy bo'luvchilarining eng kattasiga berilgan sonlarning eng katta umumiy bo'luvchi (EKUB) deyiladi va uni $(a_1, a_2, \dots, a_n)$ ko'rinishda belgilaymiz.

Berilgan $a_1, a_2, \dots, a_n$ sonlarning barchasiga bo'linadigan sonlarga ularning umumiy karralilari (bo'linuvchilari) deyiladi. Umumiy karralilarining eng kichigiga berilgan sonlarning eng kichik umumiy karralisi (EKUK) deyiladi va uni $[a_1, a_2, \dots, a_n]$ ko'rinishda belgilaymiz. Ta'rifdan $(a_1, a_2, \dots, a_n) \geq 1$ va $[a_1, a_2, \dots, a_n] \geq 1$ ekanligi kelib chiqadi.

Bu paragrafda masalalar yechimini topishda EKUB va EKUK ning quyidagi ikki asosiy xossasidan foydalanamiz:

1. Berilgan sonlar EKUBi ularning ixtiyoriy umumiy bo'luvchisiga bo'linadi.
2. Berilgan sonlarning ixtiyoriy umumiy karralisi ularning EKUKiga bo'linadi.

Bir nechta sonlarning EKUB va EKUKini topishda

$$(a_1, a_2, \dots, a_{n-1}, a_n) = \big((a_1, a_2, \dots, a_{n-1}), a_n\big);\ [a_1, a_2, \dots, a_{n-1}, a_n] = \big[[a_1, a_2, \dots, a_{n-1}], a_n\big]$$

rekurrent formulalardan foydalanib, ikkita sonning EKUB va EKUKlarini topishga keltiramiz.

Ikkita sonning EKUBini ularning kanonik yoyilmasi (tub ko'paytuvchilar ko'paytmasiga yoyilmasi) yoki Evklid algoritmidan foydalanib topish mumkin.

a va b lar natural sonlar bo'lib $a > b$ bo'lsin. U holda qo'ldiqli bo'lish haqidagi teoremaga asoslangan quyidagi jarayonga Evklid algoritmi deyiladi:

$$\left.\begin{aligned} a &= bq_1 + r_1, && 0 \leq r_1 < b \\ b &= r_1 \cdot q_2 + r_2, && 0 \leq r_2 < r_1 \\ r_1 &= r_2 \cdot q_3 + r_3, && 0 \leq r_3 < r_2 \\ &\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ r_{n-2} &= r_{n-1}q_n + r_n, && 0 \leq r_n < r_{n-1} \\ r_{n-1} &= r_n \cdot q_n \end{aligned}\right\} \qquad (1)$$

Bu yerda $b > r_1 > r_2 > \cdots > r_{n-1} > r_n$ bajarilgani uchun jarayon albatta chekli bo'ladi. Evklid algoritmidagi noldan farqli oxirgi qoldiq r_n berilgan a va b sonlarning EKUBi bo'ladi, ya'ni $r_n = (a, b)$. Agar $a_1, a_2, \dots, a_n$ sonlari uchun $(a_1, a_2, \dots, a_n) = 1$ bo'lsa, ular o'zaro tub, $i_2 \neq i_1$ bo'lganda $(a_{i_1}, a_{i_2}) = 1$ bo'lsa, juft-juftibilan o'zaro tub sonlar deb ataladi. Ikkita a va b sonlarining EKUB va EKUK lari $(a, b) \cdot [a, b] = a \cdot b$ tenglik orqali bog'langan, ammo bu ko'p hollarda bir nechta sonlar uchun o'rinli emas.

Agar berilgan sonlar juft-jufti bilan o'zaro tub bo'lsa, ularning EKUKi berilgan sonlarning ko'paytmasiga teng bo'ladi.

27. Evklid algoritmidan foydalanib berilgan sonlarning EKUBini toping:
1) 546 va 231; 2) 1001 va 6253; 3) 1517 va 2257.

28. a). $(420, 126, 525)$ va $[420, 126, 525]$;
b). $(529, 1541, 1817)$ va $[529, 1541, 1817]$ ni toping.

29. a). $[6, 35, 143] = 6 \cdot 35 \cdot 143$; b). $[n, n+1] = n(n+1)$ ekanligini isbotlang.

30. Ikkita ketma-ket juft sonlarning EKUBi 2ga, ikkita ketma-ket toq sonlarning EKUBi esa1ga teng ekanligini isbotlang.

31. $(cb, bc, ca) \vdots (a, b, c)^2$ ekanligini isbotlang.

32. Agar$(a, b) = 1$ bo'lsa, u holda $(a + b, a - b)$ 1 ga yoki 2 ga teng ekanligini isbotlang.

33. Agar $\frac{a}{b}$ qisqarmaydigan kasr bo'lsa, $\frac{a}{a+b}$ kasr qisqarmaydigan kasr bo'la

oladimi?

34. Ikkita toq sonlar ayirmasi 2^n ga teng. Bu sonlar o'zaro tub ekanligini isbotlang.

35. Quyidagi sonlarning EKUBini toping:

$a)$ $d=(a,b)$ va $m=[a,b]$ $\quad$ $b)$ $a\cdot b$ va $[a,b]$

$c)$ $a+b$ va ab, bunda $(a,b)=1$ $\quad$ $d)$ $a+b$ va $m=[a,b]$.

36. Quyidagilarni toping:

$a)$ $(n,2n+1)$, $\quad$ $b)$ $(10n+9,n+1)$, $\quad$ $c)$ $(3n+1,10n+3)$

37. $x=[a,b]$ bo'lganda va faqat shunday bo'lgandagina $\left(\frac{x}{a},\frac{x}{b}\right)=1$ bo'lishini isbotlang.

38. a,b,c toq sonlar uchun $(a,b,c)=\left(\frac{a+b}{2},\frac{a+c}{2},\frac{b+c}{2}\right)$ tenglik o'rinli ekanligini isbotlang.

39. 1). Agar $a=cq+r$ va $b=cq_1+r_1$ bo'lsa, u holda $(a,b,c)=(c,r,r_1)$ ekanligini isbotlang. Bu yerda a,b,q,q_1,r,r_1- manfiy bo'lmagan butun sonlar; $c-$ musbat butun son.

2). Birinchi qismda isbotlangan qoida bo'yicha : a) (299, 391, 667), b) (588, 2058, 2849) larni toping.

40. $(a,b)=(5a+3b,13a+8b)$ tenglik o'rinli ekanligini isbotlang.

41. Uchta ketma-ket natural sonlarning EKUB va EKUKlari nimaga teng ekanligini toping.

42. n, a, b – natural sonlar va $(a,b)=1$ bo'lsa, nab sonni $ax+by$ ko'rinishda tasvirlang, bu yerda x,y lar ham natural sonlar.

43. $a=899, b=493$ uchun $d=(a,b)$ ni toping va uni $d=ax+by$ ko'rinishda ifodalab x,y larning qiymatlarini aniqlang.

44. Evklid teoremasini isbotlang: Agar $(a,c)=(b,c)=1$ bo'lsa, u holda $(ab,c)=1$bo'ladi.

45. Ikkita natural sonning EKUBi ular ayirmasidan katta bo'lishi mumkinmi?

46. Agar $(a,c)=1$ bo'lsa, u holda $b\vdots(ab,c)$ o'rinli ekanligini isbotlang.

47. Agar $(a,b)=1$ bo'lsa, u holda $(ac,b)=(c,b)$ekanligini isbotlang.

48. m, n va k natural sonlar uchun $m\cdot n\cdot k=[m,n,k]\cdot(mn,mk,nk)$ munosabat o'rinli ekanligini isbotlang.

49. Quyidagi tenglamalar sistemasini natural sonlarda yeching:

$$a)\begin{cases}x+y=150\\(x,y)=30\end{cases};\qquad b)\begin{cases}(x,y)=45\\\frac{x}{y}=\frac{11}{7}\end{cases};\qquad c)\begin{cases}xy=8400\\(x,y)=20\end{cases};$$

$$d)\begin{cases}\frac{x}{y}=\frac{5}{9}\\(x,y)=28\end{cases};\qquad e)\begin{cases}xy=20\\[x,y]=10\end{cases}.$$

50. $(a-bq) \vdots m$ $(0 \le b \le 9)$ bo'lganda, va faqat shu holdagina $N = 10a + b$ natural son $m = 10q + 1$ ga bo'linishini isbotlang.

51. $a + b(q+1) \vdots m$ bo'lganda, va faqat shu holdagina $N = 10a + b(0 \le b \le 9)$ natural son $m = 10q + 9$ ga bo'linishini isbotlang.

52. $N = \overline{a_n \dots a_1 a_0}$ soni 19 ga bo'linishi uchun, $N_1 = \overline{a_n \dots a_2 a_1} + 2a_0$ sonning 19 ga bo'linishi zarur va yetarli ekanligini isbotlang va misollarda ko'rib chiqing.

53. 52-misoldagi qoida bo'yicha $N = 3086379$ sonining 19 ga bo'linish bo'linmasligini aniqlang.

I.3-§.Tub va murakkab sonlar.

Agar natural son faqat ikkita bo'linuvchi (bir va o'zi) ga ega bo'lsa, bunday natural sonlar tub sonlar deb ataladi. Agar natural son ikkitadan ortiq bo'luvchilarga ega bo'lsa, bunday sonlar murakkab sonlar deyiladi.

Tub sonlar (va ularning natural darajalari) juft-juft o'zaro tub. Birdan farqli berilgan a sonining eng kichik bo'luvchisi p tub son bo'ladi va $p \le \sqrt{a}$ bajariladi. Har bir murakkab sonni tub sonlar ko'paytmasi ko'rinishida yagona usulda tasvirlash mumkin (bu tasdiqga arifmetikaning asosiy teoremasi deyiladi), ya'ni a ni $a = p_1 p_2 \cdots p_n$ ko'rinishda yozish mumkin.

Agar bu yoyilmada p_1 soni α_1 marta, p_2 soni α_2 marta va xokazo p_k soni α_k marta qatnashsa $(k \le n)$, uni $a = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \cdots p_k^{\alpha_k}$ ko'rinishda yozish mumkin. Bu yerdan a ning ixtiyoriy bo'luvchisi d ni

$$a = p_1^{\beta_1} p_2^{\beta_2} \cdots p_k^{\beta_k} \ (0 \le \beta_i \le \alpha_i, i = \overline{1,n}) \quad (*)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin ekanligi kelib chiqadi.

Berilgan (N_0, N_1), $(N_0 < N_1)$ oraliqdagi tub sonlarni ajratish uchun Eratosfen g'alviri deb ataluvchi usuldan foydalaniladi. Unga ko'ra berilgan oraliqdagi 2 ga bo'linadigan sonlarni o'chirib chiqamiz. Qolgan sonlar orasidan 3 ga karralilarini o'chirib chiqamiz, keyin esa 5 ga karrali sonlarni o'chirib chiqamiz va xokazo davom etib p ga (p bu $\sqrt{N_1}$ dan katta bo'lmagan va unga eng yaqin turgan tub son) bo'linadigan barcha sonlarni o'chirib chiqamiz. Bunda p ga karrali sonlarni o'chirishni p^2 dan boshlash kifoya. O'chmay qolgan sonlar izlanayotgan tub sonlar bo'ladi.

Berilgan sonning tub yoki murakkab ekanligini aniqlashda ham shunga o'xshash usuldan foydalanish mumkin. Berilgan a sonining tub yoki murakkab ekanligini aniqlash uchun uni $p \le \sqrt{a}$ shartni qanoatlantiruvchi barcha tub sonlarga bo'lib ko'ramiz. Agar ularning birortasiga ham bo'linmasa *a* tub son, aks holda murakkab son bo'ladi.

54. $6n + 1$ $(n = 1,2, \dots)$ ko'rinishidagi toq sonni, tub sonlar ayirmasi ko'rinishida ifodalab bo'lmasligini isbotlang.

55. Tub sonlar ayirmasi ko'rinishida tasvirlanadigan barcha toq sonlarni toping.

56. $N = 3m + 2$ $(m = 1,2, \dots)$ sonning kvadratini natural son kvadrati va tub sonning yiq'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin emasligini isbotlang.

57. a murakkab sonning eng kichik tub bo'luvchisi $\sqrt{a}$ dan katta emasligini isbotlang. Bu teorema $a = p$ tub son o'rinli bo'ladimi?

58. Oldingi masaladagi teoremadan foydalanib 1) 127 2) 919 3) 7429 sonlarining tub yoki murakkab ekanligini aniqlang.

59. 1) 100 va 110, 2) 190 va 200, 3) 200 va 220, 4) 2640 va 2680 sonlari orasidagi barcha tub sonlarni toping.

60. n va $n!$ $(n > 2)$ natural sonlari orasida hech bo'lmaganda bitta tub son joylashganini isbotlang.

61. 20 ta ketma-ket murakkab sonni yozing.

62. n ning shunday natural qiymatlarini topingki n, $n + 10$ va $n + 14$ sonlarning barchasi tub sonlardan iborat bo'lsin.

63. Shunday p tub sonni topingki $2p^2 + 1$ ham tub son bo'lsin.

64. $4p^2 + 1$ va $6p^2 + 1$ sonlarning har ikkalasi ham tub son bo'ladigan p tub sonni toping.

65. Quyidagi sonlarning bir vaqtda tub son bo'lmasligini isbotlang:

1). $p + 5$ va $p + 10$; 2) $p, p + 2$ va $p + 5$; 3) $2^n - 1$ va $2^n + 1$, bunda $n > 2$.

66. Agar p va $8p^2 + 1$ tub sonlar bo'lsa, u holda $8p^2 + 2p + 1$ ham tub son ekanligini isbotlang.

67. $2^{18} + 3^{18}$ ni tub ko'paytuvchilarga ajrating.

68. $a > 3$ butun son va m, n lar natural sonlar 3 ga bo'lganda mos ravishda 1 va 2 qoldiqli bo'lsalar uchta $a, a + m, a + n$ sonlarining bir vaqtda tub son bo'lmasligi isbotlang.

69. $n > 1$ natural son bo'lsa, $n^4 + 4$ va $n^4 + n^2 + 1$ larning murakkab son bo'lishini isbotlang.

70. $3, 5$ va 7 sonlari yagona egizak tub sonlar uchligi ekanligini isbotlang: (ya'ni ayirmasi 2 ga teng arifmetik progresiya tub sonlar uchligini tashkil etishini isbotlang).

71.$3n + 2$ $(n = 1,2, \dots)$ko'rinishdagi tub sonlarning eng kattasi mavjud emasligini isbotlang.

72. $p_{n+1} < p_1 \cdot p_2 \cdot \dots \cdot p_n$ ekanligini isbotlang, bunda p_i $(i = 1,2, \dots, n)$ – birinchi$n$ ta tub son va p_{n+1}soni p_n dan keyingi tub son.

73. $p_n > 2n$ ekanligini isbotlang, bunda $n = 5, 6, \dots$.

74. Matematik induksiya metodidan foydalanib $p_n \leq 2^{2^n}$ ekanligini isbotlang. Bunda p_n bilan n –tub son belgilangan va tenglik faqatgina $n = 1$ bo'lgandagina bajariladi.

75. Agar $2^n - 1$ tub son bo'lsa, u holda n ning ham tub son bo'lishini isbotlang.

II- bob. Sonli funksiyalar

II.1-§. $\pi(x)$ – funksiyasi

$\pi(x)$ funksiyasi x ning musbat qiymatlarida aniqlangan bo'lib x dan katta bo'lmagan tub sonlarning sonini ifodalaydi. $\pi(x)$ ning qiymati tub sonlar jadvalidan foydalanib bevosita hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. x ning kamma qiymatlarida esa

$$\pi(x) \approx \frac{x}{Inx} \quad \text{va} \quad \pi(x) \approx \int_2^x \frac{du}{Inu}$$

formulalardan foydalanib taqribiy topiladi .

76. Hisoblang: 1) $\pi(5)$; 2)$\pi(10)$; 3)π (25); 4) $\pi(37)$; 5) $\pi(200)$; 6) $\pi(1000)$.

77. $\pi(x) \approx \frac{x}{Inx}$ formuladan foydalanib $\pi(x)$ ning taqribiy qitmatini toping va nisbiy xatosini hisoblang. 1)$\pi(100)$, 2) $\pi(500)$, 3) $\pi(1000)$, 4) $\pi(3000)$.

78. $y = \pi(x)$ funksiyaning grafigini chizing va undan foydalanib $\pi(x) = \frac{x}{2}$ tenglamani yeching.

79. Chebishyev tengsizligi $a < \pi(x)\colon \frac{x}{Inx} < b$, (bunda a va b lar $a < b$, $0 < a < 1$, $b > 1$ shartlarni qanoatlantiruvchi o'zgarmas sonlardir) dan foydalanib $x \to \infty$ da $\frac{\pi(x)}{x} \to 0$ ning bajarilishini ko'rsating.

80. p-tub sonlar uchun $\frac{\pi(p-1)}{p-1} < \frac{\pi(p)}{p}$ tengsizlikning, m-murakkab son uchun $\frac{\pi(m)}{m} < \frac{\pi(m-1)}{m-1}$ tengsizlikning bajarilishini isbotlang.

II.2-§. Butun qism va kasr qism funksiyalari.

$y = [x]$ – funksiyasi x ning barcha haqiqiy qiymatlarida aniqlangan bo'lib, x dan katta bo'lmagan va unga eng yaqin turgan butun sonni ifodalaydi. Bu funksiyaga x ning butun qismi deyiladi.

Tushunarliki, $[x] \le x < [x] + 1$ qo'sh tengsizlik o'rinli. x ni hamma vaqt $x = [x] + \alpha$, (bunda $0 \le \alpha < 1$) ko'pinishda yozish mumkin. Bundan $\alpha = \{x\} = x - [x]$. Bu tenglik yordamida aniqlanuvchi $y = \{x\}$ – funksiyaga kasr qism funksiyasi yoki x ning kasr qismi deyiladi.

Agar x_1 va x_2 sonlardan hech bo'lmaganda bittasi butun son bo'lsa, u holda

$$[x_1 + x_2] = [x_1] + [x_2]$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Sonning butun qismi uchun $\left[\frac{x}{m}\right] = \left[\frac{[x]}{m}\right]$ ayniyat o'rinli. $n!$ sonning kanonik yoyilmasida p tub son

$$\left[\frac{m}{p}\right] + \left[\frac{m}{p^2}\right] + \cdots + \left[\frac{m}{p^s}\right]$$

daraja ko'rsatgich bilan qatnashadi, bu yerda s, $p^s \le m < p^{s+1}$ tengsizlikdan aniqlanadi.

81. Sonlarning butun qismini toping: a) -2,7; b) $2+\sqrt[3]{987}$; c) $\frac{7-\sqrt{21}}{2}$; d) $\frac{10}{3+\sqrt{3}}$;

e) $1,(3)+2tg\frac{\pi}{4}$; i) $3+\sin\frac{13\pi}{7}$; j) $3-2\cos\frac{90\pi}{181}$; f) $2-\lg 2512$;

$l=2-\lg\overline{abcd}$; k) $\sqrt{30}+\sqrt[3]{10}$.

82. $[\pi]^{[e]}+[e]=[e]^{[\pi]}+[\pi]$ tenglikni isbotlang. Bu yerda $\pi=3,14...-$ aylana uzunligining uning diametriga nisbati va

$$e=\lim_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^n=2,7....$$

83. $\left[\frac{p}{4}\right]$ ning $\frac{p-1}{4}$ yoki $\frac{p-3}{4}$ ga tengligini isbotlang. Bu yerda $p>2$ tub son.

84. $\left[\frac{a}{m}\right]=\frac{a-r}{m}$ tenglikni isbotlang , bu yerda r soni $a$ni m bo'lgandagi qoldiq.

85. $\frac{[nx]}{n}\le x<\frac{[nx]}{n}+\frac{1}{n}$, $n=1,2,...$tengsizlikni isbotlang.

86. $\left[\frac{x+y}{n}\right]$ning $\left[\frac{x}{n}\right]+\left[\frac{y}{n}\right]$ ga, yoki $\left[\frac{x}{n}\right]+\left[\frac{y}{n}\right]+1$ ga teng ekanligini isbotlang.

87. Arap $m-$toq son bo'lsa, u holda $\left[\frac{m}{2}\right]=\frac{m-1}{2}$ ekanligini isbotlang.

88. Funktsiya grafigini chizing: $a)\ y=[x]$; $b)\ y=\{x\}$; $c)\ y=\left[-\frac{x}{2}\right]$;

$$d)\ y=\left[\frac{x^2}{2}-1\right];\qquad e)\ y=[sinx].$$

89. Tenglamani yeching.

a) $\left[x^2\right]=2$; b) $\left[3x^2-x\right]=x+1$; c) $[x]=\frac{3}{4}x$ d) $\left[x^2\right]=x$.

90. $[12,4m]=87$ tenglamani qanoatlantiruvchi $m$natural sonning mavjud emasligini isbotlang.

91. $[-x]$va $[x]$ funksiyalar orasidagi bog'lanishni aniqlang.

92. $[\tilde{o}_1+\tilde{o}_2+\cdots+\tilde{o}_n]\ge[x_1]+[x_2]+\cdots+[x_n]$tengsizlikni isbotlang.

93. $[nx]\ge n[x]$tengsizlikni isbotlang, bunda $n=1,2,3,...$

94. 10^6 va10^7 sonlarning orasida 786 ga karrali nechta natural son bor.

95.1000 dan kichik nechta natural son 5 ga ham 7 ga ham bo'linmaydi.

96.36 soni bilan o'zaro tub, 100 dan katta bo'lmagan natural sonlar sonini toping.

97.2017! soni nechta nol bilan tugaydi.

98. $p^n!=1\cdot2\cdot3\cdots p^n$ning kanonik yoyilmasida p tub soni qanday daraja ko'rsatkich bilan ishtirok etadi.

99. 100! ko'paytmada 6 soni qanday daraja ko'rsatkich bilan ishtirok etadi.

100. 11! sonining kanonik yoyilmasini toping.

101. $N = \dfrac{101 \cdot 102 \cdots 1000}{7^{\alpha}}$ son butun son bo'ladigan eng katta natural sonni toping.

102. $(2m)!!$ sonining kanonik yoyilmasida p tup soni qanday daraja ko'rsatkich bilan qatnashishini toping.

103. x ning $[x]-2\left[\dfrac{x}{2}\right]=1$ tenglama to'g'ri tenglikka aylanadigan qiymatlavrini toping.

104. $\left[ax^2+bx+c\right]=d$ (bu yerda $a \neq 0, d$ −butun son) ko'rinishdagi tenglama yechimining mavjudlik shartini toping .

105. a va b lar natural sonlar, $f(x)$ berilgan kesmada manfiy bo`lmagan uzluksiz funksiya bo`lsa, $a \leq x \leq b,\ 0 \leq y \leq f(x)$ egri chiziqli trapetsiyada nechta butun koordinatali nuqtalar bo`ladi.

106. $x^2 + y^2 = 6{,}5^2$ doirada nechta butun koordinatali nuqta bor.

107. 12317 dan katta bo'lmagan va 1575 bilan o`zaro tub bo`lgan butun musbat sonlarning sonini aniqlang.

II.3-§. Berilgan sonning bo'luvchilari soni va bo'luvchilari yig'indisini ifodalovchi funksiyalar.

$\tau(n)$ va $\sigma(n)$ funksiyalari n ning barcha natural qiymatlarida aniqlangan bo`lib, mos ravishda $n$ ning barcha natural bo`luvchilari sonini va barcha natural bo`luvchilari yig`indisini ifodalaydi.Ta`rifdan $\tau(1) = \sigma(1) = 1$ ekanligi kelib chiqadi. Agar $n$ ning kanonik yoyilmasi $n = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \ldots p_k^{\alpha_k}$ bo`lsa, $\tau(n)$ va $\sigma(n)$ lar mos ravishda quydagi formulalar yordamida topiladi:

$$\tau(n) = (\alpha_1 + 1)(\alpha_2 + 1) \ldots (\alpha_k + 1), \quad (1)$$

$$\sigma(n) = \frac{p_1^{\alpha_1+1}-1}{p_1-1} \cdot \frac{p_2^{\alpha_2+1}-1}{p_2-1} \cdot \ldots \cdot \frac{p_k^{\alpha_k+1}-1}{p_k-1}. \quad (1)$$

Ikkala funksiya ham multiplikativ funksiya ya`ni $(m, n) = 1$ lar uchun

$$\tau(m \cdot n) = \tau(m) \cdot \tau(n), \sigma(m \cdot n) = \sigma(m) \cdot \sigma(n)$$

tengliklar o`rinli.

108. Quydagi sonlarning barcha natural bo`luvchilari soni va bo`luvchilari yig`indisini toping; 1) 375; 2) 720; 3) 957; 4) 988; 5) 990; 6) 1200; 7) 1440; 8) 1500; 9) 1890; 10) 4320.

109. Berilgan sonlarning barcha natural bo`luvchilarini toping: 1) 360; 2) 720; 3) 954; 4) 988; 5) 600.

110. Noma'lum natural son x faqat ikkita tub bo`luvchiga ega ekanligi va uning bo`luvchilari soni 6 ga, bo`luvchilarining yig`indisi 28 ga teng bo`lsa, shu sonni toping.

111. $N = p^{\alpha} \cdot p^{\beta}$(p, q lar turli tub sonlar) bo`lsin. Agar $N^2$ soni 15 ta har xil bo`luvchilarga ega bo`lsa, $N^3$nechta natural bo`luvchilarga ega bo`ladi.

112. $\tau(x)$ va $\sigma(x)$ larning grafigni sxematik tasvirlang.

113. Har bir egizak tub sonlar juftligi $p_1 < p_2$ uchun $\sigma(p_1) = \varphi(p_2)$ ekanligini isbotlang. Bunda $\varphi(a)$ −Eyler funksiyasi.

114. $\sigma(m) = 2m - 1$ tenglamaning m natural sonlarda cheksiz ko`p yechimga ega ekanligini isbotlang.

115.1). Agar $(m, n) = d > 1$ bo`lsa, $\tau(m\,n)$ va $\tau(m)\tau(n)$ larda qaysi katta?

2). Agar $(m, n) = d > 1$ bo`lsa, $\sigma(m\,n)$ va $\sigma(m)\sigma(n)$ lardan qaysi katta?

116. m natural sonining barcha natural bo`luvchilarining ko'paytmasi $\delta(m)$uchun formula chiqaring va $\delta(10)$ ni toping.

117. O`zining natural bo`luvchilarining ko`paytmasiga teng bo`lgan barcha natural sonlar to`plami barcha tub sonlar to`plami bilan ustma-ust tushishini isbotlang.

118. $n = p_1^{\alpha_1}\, p_2^{\alpha_2}$ ... p_k^k sonining bo`luvchilarining $k$- darajalarining yig`indisi $\sigma_k(n)$ uchun formula chiqaring.

119. $\sigma_k(n)$uchun (118-misoldagi) formuladan foydalanib hisoblang:

1) $\sigma_2(12)$; 2) $\sigma_2(18)$, 3) $\sigma_3(36)$, 4) $\sigma_2(16)$, 5) $\sigma_3(8)$.

120. $\sigma(n) = 2n$ tenglikni qanoatlantiruvchi n natural sonlarga mukammal sonlar deyiladi. $28,\ 496,\ 8128$ sonlarining mukammal sonlar ekanligini tekshiring.

121. $\sigma(n) < 2n$ shartni qanoatlantiruvchi n soniga yetarli sondagi bo`luvchilarga ega emas, $\sigma(n) > 2n$ shartni qanoatlantiruvchilarga esa ortiqcha bo`luvchilarga ega bo`lgan son deyiladi. $N = p^n$ sonining yetarli bo`luvchilarga ega emasligini isbotlang. Bunda p tup son, n −natural son.

122. $N = p^{\alpha} \cdot q^{\beta}$ ko`rinishdagi toq natural sonning yetarli bo`luvchilariga ega emasligini isbotlang. Bunda p, q lar turli tub sonlar, α, β lar natural sonlar.

123. 1). Barcha bo`luvchilarining ko`paytmasi 5832 ga teng bo`lgan n natural sonini toping.

2). Barcha bo`luvchilarining ko`paytmasi $3^{30} \cdot 5^{40}$ ga teng bo`lgan n natural sonini toping.

124. $N = p_1^{\alpha_1}\, p_2^{\alpha_2}$ ... $p_k^{\alpha_k}$ −ko`rinishdagi kanonik yoyilmaga ega bo`lgan sonni necha xilda 2 ta har xil ko`paytuvchiga ajratish mumkun.

125. Agar $5N$ soni N soniga qaraganda 8 ta ko`p, $7N$ soni $N$ soniga qaraganda 12 ta ko`p, $8N$ soni ega N soniga qaraganda 18 ta ko`p bo`luvchiga ega bo`lsa, $N = 2^{\alpha} \cdot 5^{\beta} \cdot 7^{\gamma}$ sonini toping.

126. N soni $N = 2^x \cdot 3^y \cdot 5^z$ ko`rinishiga ega. Agar $N$ ni 2 ga bo`lsak, hosil bo`lgan sonning bo`luvchilari soni N ning bo`luvchilari sonidan 30 taga kam. Agar $N$ ni 3 ga bo`lsak, hosil bo`lgan sonning bo`lnuvchilari soni N ning bo`luvchilari sonidan 35 taga kam. Agarda $N$ sonini 5 ga bo`lsak, hosil bo`lgan sonning bo`linuvchilari soni N ning bo`linuvchilari sonidan 42 ta kam bo`ladi. Shu N sonini toping.

127. Agar $2^{\alpha+1} - 1$ soni tub son bo`lsa, u holda $2^{\alpha}(2^{\alpha+1} - 1)$ sonining mukammal son ekanligini isbotlang (Evklid teoremasi).

128. Agar $2^{\alpha+1} - 1$ tub son bo`lsa, $2^{\alpha}(2^{\alpha+1} - 1)$ ning yagona juft mukammal son ekanligini isbotlang (Eyler teoremasi).

129. Bo`luvchilar yig`indisi o`zidan 3 marta katta bo`lgan $2^{\alpha} \cdot p_1 \cdot p_2$, ($p_1, p_2$ lar toq tub sonlar) ko`rinishidagi eng kichik sonni toping. (Ferma masalasi).

130. Berilgan natural sonning aniq kvadrat bo`lishi uchun, uning har xil natural bo`luvchilari sonining toq bo`lishi zarur va yetarli ekanligini isbotlang.

II.4-§. Eyler funktsiyasi.

Eyler funksiyasi – *m* dan katta bo'lmagan va *m* bilan o'zaro tub sonlar sonini bildiradi va *φ(m)* orqali belgilanadi. Agar *m=p–* tub son bo'lsa, u holda ta'rifdan *φ(p)=p-1* ekanligi va agar $m=p^{\alpha}$ bo'lsa $\varphi(p^{\alpha}) = p^{\alpha} - p^{\alpha-1} = p^{\alpha}\left(1 - \frac{1}{p}\right)$; umuman agar $m = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_n^{\alpha_n}$ bo'lsa, u holda

$$\varphi(m) = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_n^{\alpha_n}\left(1 - \frac{1}{p_1}\right)\left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \dots \left(1 - \frac{1}{p_n}\right) = m\left(1 - \frac{1}{p_1}\right)\left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \dots \left(1 - \frac{1}{p_n}\right)$$

ekanligi kelib chiqadi. Eyler funksiyasi multiplikativ funksiyadir, ya'ni u aynan nolga teng emas hamda $(m, n) = 1$ shartni qanoatlantiruvchi m, n lar uchun $\varphi(mn) = \varphi(m)\varphi(n)$ bajariladi.

131. $y = \varphi(x)$ funktsiyaning o'zgarishini grafik shaklda tasvirlang. Bu yerda *x*-natural son, $\varphi(x)$ – Eyler funktsiyasi .

132. Hisoblang: 1) φ(125), 2) φ(1000), 3) φ(180), 4) φ(360), 5) φ(1440), 6) φ(1890), 7) $\varphi(11^3)$, 8) $\varphi(23^2)$, 8) $\varphi(12 \cdot 19)$, 10) $\varphi(24 \cdot 28 \cdot 45)$.

133. Maxraji *m* ga teng qisqarmas musbat to'g'ri kasrlarning soni nechta.

134. 1 dan 120 gacha natural sonlar orasida 30 bilan o'zaro tub bo'lmagan sonlar soni nechta.

135. Quyidagi formulalarning o'rinli ekanligini ko'rsating: *a*) $\varphi(2^{\alpha}) = 2^{\alpha-1}$; *b*) $\varphi(p^{\alpha}) = p^{\alpha-1}\varphi(p)$; *c*) $\varphi(m^{\alpha}) = m^{\alpha-1}\varphi(m)$ (m, α lar natural sonlar, *p* esa tub son).

136. $\varphi(2m)$ ning qiymati $\varphi(m)$ yoki $2\varphi(m)$ bo'lishi mumkinligini isbotlang. Bu hollarning har biri uchun o'rinli kriteriyani toping.

137. Quyidagi tengliklarni o'rinli ekanligini isbotlang:

$$a)\ \varphi(4n+2) = \varphi(2n+1);\ b)\ \varphi(4n) = \begin{cases} 2\varphi(n), \text{agar}(n,2) = 1\ \text{bo'lsa;} \\ 2\varphi(2n), \text{agar}(n,2) = 2\ \text{bo'lsa.} \end{cases}$$

138. Tenglamani yeching: $a)\ \varphi(5^x) = 100;\ \ b)\ \varphi(7^x) = 294;\ \ c)\ \varphi(p^x) = p^{x-1};\ \ d)\ \varphi(3^x \cdot 5^x) = 600$, bunda *x* va *y* natural sonlar.

139. Agar $m \geq 3$ bo'lsa $\varphi(m)$ning qiymati juft son ekanligini isbotlang.

140. Agar $\varphi(x) = a$ tenglamaning $x = m$ ildizi bo'lsa, u holda $x = 2m$ ham ildiz bo'lishini isbotlang. Bu yerda $(m, 2) = 1$.

141.Agar $(m, n) > 1$ bo'lsa, $\varphi(m \cdot n)$ va $\varphi(m) \cdot \varphi(n)$ sonlarini taqqoslang.

142. $\varphi(m \cdot n) = \varphi(m) \cdot \varphi(n) \cdot \frac{d}{\varphi(d)}$ ekanligini isbotlang. Bu yerda $(m, n) = d$.

143. Agar $\delta = (m, n)$ va $\mu = [m, n]$ bo'lsa, $\varphi(m \cdot n) = \varphi(\delta) \cdot \varphi(\mu)$ ekanligini isbotlang.

144. $\varphi(1) + \varphi(p) + \varphi(p^2) + \ldots + \varphi(p^\alpha)$ yig'indini toping. Bunda α-natural son.

145. Gauss ayniyatini isbotlang: $\varphi(d_1) + \varphi(d_2) + \ldots + \varphi(d_k) = m$, $\left(\sum_{d \backslash m} \varphi(d) = m\right)$, bunda $d_i - m$ ning natural bo'luvchilari.

146. *m* bilan o'zaro tub va *m*dan kichik natural sonlar yig'indisi $\left(S = \sum_{\substack{x \leq m, \\ (x,m)=1}} 1 \right)$ uchun formula chiqaring.

147. *p* bilan o'zaro tub va *p* dan katta bo'lmagan natural sonlar yig'indisi p^2 bilan o'zaro tub va p^2dan katta bo'lmagan natural sonlar sonidan ikki marta kam bo'lishini isbotlang.

148.Tenglamani yeching: $1)\varphi(x) = p - 1,\ \ 2)\varphi(x) = 14,\ \ 3)\varphi(x) = 8,\ \ 4)\varphi(x) = 12.$

149.Tenglamani yeching: $a)\ \varphi(x) = 2^\alpha;\ \ \ b)\ \varphi(p^x) = 6 \cdot p^{x-2}$.

150.Tenglamani yeching: $\varphi\ (m) = 3600,$ bu yerda $m = 3^\alpha \cdot 5^\beta \cdot 7^\gamma$.

151.Tenglamani yeching: $\varphi\ (x) = 120$, bu yerda $x = p_1 \cdot p_2$va $p_1 - p_2 = 2$.

152.Tenglamani yeching: $\varphi\ (m) = 11424,$ bu yerda $m = p_1^2 \cdot p_2^2$.

153.Tenglamani tekshiring: $a)\ \ \varphi(x) = \varphi(px);\ \ \ b)\ \ \varphi(px) = p\varphi(x);$
$c)\ \ \varphi(p_1 x) = \varphi(p_2 x);\ \ p_1\ , p_2$ turli tub sonlar.

154.Tenglamani yeching: $a)\ \varphi(x) = \frac{x}{2};\ \ \ b)\ \ \varphi(x) = \frac{x}{3};\ \ \ c)\ \varphi(x) = \frac{x}{4}$.

155.Tenglamani tekshiring: $\varphi(p^x) = a$.

156. Eyler funktsiyasi xossalaridan foydalanib barcha tub sonlar to'plami cheksiz ekanligini isbotlang.

157. Maxraji 2 dan n gacha bo'lgan barcha musbatto'g'ri, qisqarmas kasrlar sonini aniqlang.

158. 300 dan kichik va u bilan EKUBi 20 ga teng bo'lgan natural sonlarning sonini aniqlang.

III-bob. Taqqoslamalar nazariyasi elementlari.

III. 1-§.Taqqoslamalar va ularning asosiy xossalari.

Agar ikkita butun a va b sonni $m \in N$ ga bo'lganda hosil bo'lgan qoldiqlar o'zaro teng bo'lsa, a va b sonlar m moduli bo'yicha teng qoldiqli yoki taqqoslanuvchi sonlar deyiladi va $a \equiv b(mod\ m)$ ko'rinishda belgilanadi. m modul bo'yicha taqqoslanuvchi sonlarning ayirmasi shu modulga qoldiqsiz bo'linadi.

Agar $a=b+mt$ bo'lib, b ni m ga bo'lgandagi qoldiq r bo'lsa, a ni ham m ga bo'lgandagi qoldiq r ga teng bo'ladi. Agar $a=mq+r$ bo'lsa, $a \equiv r(mod\ m)$ deb yozish mumkin. Agar $a \vdots m$ bo'lsa, $a \equiv 0(mod\ m)$ bo'ladi.

Taqqoslamalar quyidagi asosiy xossalarga ega:

1. Har bir butun son ixtiyoriy modul bo'yicha o'z-o'zi bilan taqqoslanadi.
2. Taqqoslamaning ikkala tomonini o'zaro almashtirish mumkin(simmetriklik).
3. Taqqoslamalar tranzitivlik xossasiga ega.
4. Bir xil modulli taqqoslamalarni hadlab qo'shish (ayirish), hadlab ko'paytirish mumkin.
5. Taqqoslamaning ikkala tomonini modul bilan o'zaro tub bo'lgan ularning umumiy bo'luvchisiga bo'lish mumkin.
6. Taqqoslamaning ikkala qismi va modulini bir xil songa bo'lish (ko'paytirish) mumkin.
7. Agar taqqoslama biror m modul bo'yicha o'rinli bo'lsa, u shu modulning ixtiyoriy bo'luvchisi m_1 moduli bo'yicha ham o'rinli bo'ladi.
8. Agar taqqoslama bir necha modul bo'yicha o'rinli bo'lsa, u shu modullarning eng kichik umumiy karralisi bo'yicha ham o'rinli bo'ladi.

159. Qanday modul bo'yicha barcha butun sonlar o'zi bilan taqqoslanadi.

160. 8 modul bo'yicha taqqoslanuvchi butun sonlarga misollar keltiring.

161. Quyidagi taqqoslamalardan qaysilari o'rinli: *a*) $1 \equiv -5(mod\ 6)$,
b) $546 \equiv 0(mod\ 13)$, *c*) $2^3 \equiv 1(mod\ 4)$, *d*) $3m \equiv -1(mod\ m)$.

162. Quyidagi taqqoslamalarning o'rinli ekanligini isbotlang:
a)$121 \equiv 13145(mod\ 2)$, *b*) $121347 \equiv 92817(mod\ 10)$, c) $31 \equiv -9(mod\ 10)$,
d) $(m-1)^2 \equiv 1(mod\ m)$, *e*) $2m+1 \equiv (m+1)^2(mod\ m)$.

163. Quyidagi taqqoslamalarning o'rinli emasligini isbotlang.

a) $5^{1812} \equiv 1964(mod\ 25)$, *b*) $7^{103} \equiv 3(mod\ 87)$,

c) $4^{1965} \equiv 25(mod\ 10)$, *d*) $30 \cdot 17 \equiv 81 \cdot 19(mod\ 6)$,

e) $(2n+1)(2m+1) \equiv 2k(mod\ 6)$, bu yerda *n*, *m* va *k* –butun sonlar.

164. Har bir butun son berilgan modul bo'yicha o'zining qoldig'i bilan taqqoslanishini isbotlang.

165. x soni $x \equiv 2(\mathrm{mod}10)$ shartni qanoatlantiradi. Bu shartni parametrik tenglama ko'rinishida yozing va x ning bir nechta qiymatini toping.

166. Quyidagi taqqoslamalarni qanoatlantiruvchi x ning barcha qiymatlarini toping: *a*) $x \equiv 0(mod\ 3)$, *b*) $x \equiv 1(mod\ 2)$.

167. *a)* $20 \equiv 8(\mathrm{mod}\, m)$ *b)* $3p+1 \equiv p+1(mod\ m)$ shartni qanoatlantiruvchi m ning qiymatini toping.

168. Agar $x = 13$ soni $x \equiv 5(modm)$ taqqoslamani qanoatlantirishi ma'lum bo'lsa, bu taqqoslamada modulning mumkin bo'lgan qiymatlarini toping.

169. 10 modul bo'yicha taqqoslanuvchi butun sonlarga misollar keltiring.

170. Quyidagi taqqoslamalardan qaysilari o'rinli: *a*) $1 \equiv -11(mod\ 6)$,
b) $3n \equiv n^2(mod\ n)$, *c*) $2^6 \equiv 1(mod\ 7)$, *d*) $3m \equiv 1(mod\ m)$.

171. $x \equiv 7(mod5)$ taqqoslamani qanoatlantiruvchi x ning barcha qiymatlarini toping.

172. Butun koeffitsiyentli $F(x,y,z) = ax^3 + bx^2y + cxyz + dz$ ko'phad argumentlarining qiymatlari berilgan modul bo'yicha taqqoslanuvchi bo'lsa, u holda ko'phad qiymatlari ham shu modul bo'yicha taqqoslanuvchi bo'lishini isbotlang.

173. Agar $3^n \equiv -1(mod\ 10)$ bo'lsa, unda $3^{n+4} \equiv -1(mod\ 10)$ bo'lishini isbotlang, bu yerda *n* – natural son.

174. $2^{5n} - 1$ soni 31 ga bo'linishini isbotlang, bu yerda *n* –natural son.

175. Agar $x = 3n+1, n = 0,1,2,$ ...bo'lsa,$1 + 3^x + 9^x$ soni 13 ga bo'linishini isbotlang.

176. $(a+b)^p \equiv a^p + b^p(mod\ p)$ o'rinli bo'lishini isbotlang.

177. Agar $a \equiv b(modp^n)$ bo'lsa, $a^p \equiv b^p(mod\ \mathrm{p}^{n+1})$ ekanligini isbotlang.

178. Agar $ax \equiv bx(modm)$ bo'lsa, u holda $a \equiv b\left(mod\frac{m}{(x,m)}\right)$ ekanligini isbotlang.

179. $a_{i+1} = 0$ bo'lganda $\overline{a_{\imath+1}a_\imath} = a_i$ deb hisoblab, agar $\overline{a_4a_3a_2a_1} \equiv 0(mod\ 33)$ bo'lsa, u holda $a_4 + \overline{a_3a_2} + \overline{a_1a_0} \equiv 0(mod\ 33)$ ekanligini isbotlang.

180. $p - i \equiv -i(modp)$, (bu yerda $i = 1,2,\dots,n$ ekanligidan foydalanib
1) $C_{p-1}^n \equiv (-1)^n(mod\ p)$; 2) $C_{p-2}^n \equiv (-1)^n(n+1)(mod\ p)$
o'rinli ekanligini isbotlang.

181. 1) 9^{9^9} 2) $7^{9^{9^9}}$ sonlarning oxirgi ikki raqamini toping.

182. $p^{p+2} + (p+2)^p \equiv 0(mod\ 2p+2)$ taqqoslama o'rinli ekanligini isbotlang, bu yerda $p > 2$.

183. $-\frac{\mathrm{p}-1}{2}, -\frac{\mathrm{p}-3}{2}, \dots, -1, 0, 1, \dots, \frac{\mathrm{p}-3}{2}, \frac{\mathrm{p}-1}{2}$ sonlarning *p>2* modul bo'yicha o'zaro taqqoslanmasligini isbotlang.

184. $i \equiv i - m(mod\ m)$ ekanligidan foydalanib $\sum_{i=1}^{m} i^n \equiv 0(mod\ m)$ o'rinli ekanligini isbotlang, bu yerda *n* va *m* lar toq sonlar.

185. $2^{3^n} \equiv -1(mod\ 3^{n+1})$ taqqoslama o'rinli ekanligini isbotlang, bu yerda $n = 1,2,3,\dots$.

186. 185- masaladagi taqqoslamadan foydalanib $2^m + 1 \equiv 0(modm)$ shartni qanoatlantiruvchi cheksiz ko'p m>1 natural sonlarning mavjudligini isbotlang.

187. $m > 1$-toq son va n –natural son uchun $(m-1)^{m^n} \equiv -1(mod\, m^{n+1})$ ekanligini isbotlang.

188. 187-masaladagi taqqoslama yordamida $2^{2x} + 1 \equiv 0(modx)$ shartni qanoatlantiruvchi natural x sonlarning cheksiz to'plami mavjudligini isbotlang.

189. $N = 3^{2^{4n+1}} + 2$ va $M = 2^{3^{4n+1}} + 3$, (bunda $n = 1,2,3, \dots$) ko'rinishdagi sonlarning murakkab son ekanligini isbotlang.

190. $2^x + 7^y = 19^z$ va $2^x + 5^y = 19^z$ tenglamalarning natural sonlarda yechimga ega emasligini isbotlang.

191. Agar $\frac{11a+2b}{19}$ ko'rinishdagi sonlarning butun ekanligi ma'lum bo'lsa, (a, b – butun sonlar) $\frac{18a+5b}{19}$ ko'rinishdagi son ham butun son ekanligini isbotlang.

192. Agar n toq son bo'lsa, $n^2 - 1 \equiv 0(mod8)$ ning o'rinli ekanligini isbotlang.

193. $2^{11\cdot 31} \equiv 2(mod11 \cdot 31)$ ning o'rinli ekanligini ko'rsating.

194. Agar $p>2$ tub son bo'lsa, $1^{2k+1} + 2^{2k+1} + 3^{2k+1} + \cdots + (p-1)^{2k+1} \equiv 0(modp)$ ning o'rinli ekanligini ko'rsating.

III.2-§.Berilgan modul bo'yicha chegirmalar sinflari.

m modul bo'yicha Z-butun sonlar to'plamini quyidagicha m ta sinfga ajratamiz. m ga bo'lganda bir xil qoldiq qoladigan sonlar to'plamini bitta sinf deb qaraymiz. Ixtiyoriy $a \in Z$ sonini $a = mq + r, 0 \le r < m$ ko'rinishda tasvirlash mumkin bo'lgani uchun, $r = 0, 1, 2, \dots, m-1$ qoldiqlarga mos ravishda

$$C_0, C_1, C_2, \dots, C_{m-1} \qquad (1)$$

sinflarga ega bo'lamiz. C_i sinfning elementlari $a = mq + i$ shaklga ega bo'lib , q ga har xil qiymatlar berish natijasida bu sinfning barcha elementlarini hosil qilish mumkin. (1) ga m moduli bo'yicha chegirmalar sinflari deyiladi. m moduli bo'yicha chegirmalar sinflari to'plami $\frac{Z}{mZ} = \{C_0, C_1, C_2, \dots, C_{m-1}\}$ da qo'shish

$$C_i + C_j = \begin{cases} C_{i+j}, & \text{agar } i + \text{j} < m \text{ bo}'\text{lsa;} \\ C_{i+j-m}, & \text{agar } i + \text{j} \ge \text{m bo}'\text{lsa} \end{cases} \qquad (2)$$

munosabat bilan, ko'paytirish esa

$$C_i \cdot C_j = \begin{cases} C_{ij}, & \text{agar } i\text{j} < m \text{ bo}'\text{lsa;} \\ C_r, & \text{agar } i\text{j} \ge \text{m bo}'\text{lib } ij = mq + r \text{ bo}'\text{lsa} \end{cases} \qquad (3)$$

munosabat bilan aniqlanadi.

m moduli bo'yicha chegirmalar sinflarining har biridan bittadan element olib tuzilgan sonlar to'plami m modul bo'yicha *chegirmalarning to'la sistemasi* deyiladi.

Chegirmalarning m modul bo'yicha to'la sistemasi sifatida odatda qulaylik uchun $\{0, 1, 2, \dots, m-1\}$ – manfiy bo'lmagan eng kichik chegirmalarning to'la sistemasi; $\{1, 2, \dots, m-1, m\}$ – musbat eng kichik chegirmalarning to'la sistemasi; m juft bo'lsa {0; ±1; ±2; …,

±(*m*-2)/2; *m*/2}, *m* toq bo'lsa{0; ±1; ±2; …, ±(*m*-1)/2} – absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarning to'la sistemasilari olib qaraladi.

Berilgan sonlar to'plami biror *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini hosil qilishi uchun bu to'plam elementlari quyidagi ikki shartni qanoatlantirishi kerak:

1) ular *m* modul bo'yicha har xil sinflarning vakillari bo'lishi;

2) ularning soni *m* ga teng bo'lishi kerak .

Bu yerda quyidagi teorema keng qo'llaniladi

1-teorema. Agar *x* o'zgaruvchi *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini qabul qilsa, u holda (*a*,*m*)=1va *b* esa ixtiyoriy butun son bo'lganda *ax*+*b* chiziqli forma ham *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini qabul qiladi.

m moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasidan *m* bilan o'zaro tub bo'lganlarini ajratib olib sistema tuzsak hosil bo'lgan sistemaga *m* moduli bo'yicha *chegirmalarning keltirigan sistemasi* deyiladi.Ta'rifdan chegirmalarning keltirilgan sistemasida φ(*m*)ta chegirma mavjud ekanligi kelib chiqadi.

2-teorema. Agar (*a*,*m*)=1 bo'lib *x* o'zgaruvchi *m* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini qabul qilsa, u holda *ax* ham *m* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini qabul qiladi.

p −tub moduli bo'yicha eng kichik musbat chegirmalarning keltirilgan sistemasi $1,2,3,\dots,p-1$, ularning to'la sistemasi $1,2,3,\dots,p-1,p$ dan p ni tushurib qoldirib hosil qilinadi. Shuningdek, p −tub moduli bo'yicha eng katta manfiy chegirmalarning keltirilgan sistemasi $-(p-1),-(p-2),\dots,-2,-1$; $p>2$ −tub moduli bo'yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarning keltirilgan sistemasi $\pm1,\pm2,\dots,\pm\frac{p-1}{2}$ lardan iborat bo'ladi.

195. 10 moduli bo'yicha barcha sinflarni taqqoslama ko'rinishda yozing.

196. Berilgan modullar bo'yicha chegirmalarning to'la va keltirilgan sistemalarini uch xil (musbat eng kichik chegirmalar, manfiy va absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalar sistemalari) ko'rinishlarida yozing:

1) $m=9$, 2) $m=8$, 3) $p=13$, 4) $m=12$, 5) $p=7$, 6) $m=10$.

197. 10 modul bo'yicha barcha sinflarni $x=10q+r, 0\le r<10$ formula yordamida yozing.

198. Chegirmalarning barcha sinflarini ko'rsating: *a*) 10 modul bilan o'zaro tub bo'lgan; b)10 modul bilan EKUBi 2 ga teng, *c*) 10 moduli bilan EKUBi 5ga teng; *d*) 10 modul bilan EKUBi 10ga teng.

199. *m* modul bo'yicha har bir sinf, *md* modul bo'yicha *d* ta sinfdan tuzilganligini isbotlang.

200. 10 moduli bo'yicha bir nechta chegirmalarning to'la sistemasini toping.

201. m moduli bo'yicha chegirmalar sinflari to'plamining halqa bo'lishligini isbotlang. Bunda sinflar yig'indisi va ko'paytmasi mos ravishda (2) va (3) tengliklar yordamida aniqlanadi.

202. $20,-4,22,18,-1$ sonlari qanday modul bo'yicha chegirmalarning to'la temasini tashkil etadi.

203. $20, 31, -8, -5, 25, 14, 8, -1, 13$ va 6 sonlar sistemasining 10 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etmasligini isbotlang.

204. Istalgan *m* ta ketma-ket kelgan butun sonlar *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil qilishini isbotlang.

205. $-\frac{m-1}{2}, -\frac{m-3}{2}, \dots, -1, 0, 1, \dots, \frac{m-3}{2}, \frac{m-1}{2}$ sonlar *m*- toq modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil qilishini isbotlang.

206. 10 moduli bo'yicha hech bo'lmaganda bitta $3x-1$ ko'rinishdagi chegirmalarning to'la sistemasini toping.

207. 4 moduli bo'yicha $5x$ ko'rinishdagi hech bo'lmaganda bitta chegirmalarning to'la sistemasini toping.

208. Agar $ax_i + b$ $(i = 1, 2, 3, \dots, m)$ ko'rinishdagi son *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil etsa, unga mos x_i sonlar ham *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil qilishini isbotlang.

209. Arap $a_n x_i^n + a_{n-1} x_i^{n-1} + \cdots + a_1 x_i + a_0, (i = 1,2, \dots, m)$ ko'rinishdagi sonlar *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini hosil qilsa, u holda unga mos x_i sonlar ham *m* modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini hosil qiladi va aksincha ekanligini isbotlang.

210. 6 moduli bo'yicha bir nechta chegirmalarning keltirilgan sistemasini tuzing.

211. Nima uchun -5, 13, 11, -21, 5 sonlar sistemasi 12 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etmaydi.

212. *p* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $p-1$ ta chegirmadan tuzilganligini isbotlang.

213. $-\frac{p-1}{2}, -\frac{p-3}{2}, \dots, -1, 1, \dots, \frac{p-3}{2}, \frac{p-1}{2}$ sonlar sistemasi $p>2$ modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etishini isbotlang.

214. $5, 5^2, 5^3, 5^4, 5^5, 5^6$ sonlar sistemasining 7 modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi ekanligini isbotlang.

215. Agar $ax_i, \left(i = 1,2, \dots, \varphi(m)\right)$ sonlari *m* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil qilsa, u holda ularga mos x_i sonlarining ham *m* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etishini isbotlang (yuqoridagi ikkinchi teoremaga teskari teorema).

216. Agar $(a,m)=1$, $b \equiv 0 (mod m)$ va *x* o'zgaruvchining qiymatlari *m* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etsa, unda $ax+b$ funktsiyaning qiymatlari ham *m* modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sitsemasini tashkil qilishini isbotlang.

217. Agar $(a,m)=d$ va *x* o'zgaruvchining qiymatlari $\frac{m}{d}$ modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil etsa, u holda $\frac{a}{d}x + b$ funktsiyaning mos

qiymatlari ham $\frac{m}{d}$ modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil qilishini isbotlang.

218. Agar $(a,m)=d$ va x o'zgaruvchining qiymatlari $\frac{m}{d}$ modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etsa, u holda $\frac{a}{d}x$ funktsiyaning mos qiymatlari ham $\frac{m}{d}$ modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil qilishini isbotlang.

219. m=9 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la va keltirilgan sistemalarini 3 xil (musbat, manfiy bo'lmagan, absolyut qyimati jihatidan eng kichik chegirmalar) ko'rinishda yozing.

III.3-§.Eyler va Ferma teoremalari.

Eyler teoremasi. Agar $m > 1$ va $(a, m)=1$ bo'lsa, $a^{\varphi(m)} \equiv 1(modm)$ bo'ladi. Xususiy holda, agar $m= p$ tub songa teng bo'lsa, Eyler teoremasidan quyidagi Ferma teoremasi kelib chiqadi.

Ferma teoremasi. Agar p tub son va $(a, p)=1$ bo'lsa, u holda $a^{p-1} \equiv 1(mod\ m)$ bo'ladi.

Ferma teoremasidan ixtiyoriy a butun musbat soni uchun $a^p - a \equiv 0(modp)$ ning bajarilishi kelib chiqadi.

220. a) agar $(a,7) = 1$ bo'lsa, $(a^{12} - 1) \vdots 7$; b) agar $(a,65) = (b,65) = 1$ bo'lsa, $(a^{12} - b^{12}) \vdots 65$ ekanligini isbotlang.

221. Kanonik yoyilmasiga 2 va 5 kirmaydigan n natural sonining $12-$ darajasining birliklar xonasidagi raqami 1 ga teng ekanligini isbotlang.

222. $a^{p-1} + p - 1$ ko'rinishdagi son murakkab ekanligini isbotlang, bu yerda $a \not\equiv 0(modp)$.

223. $2^{11\cdot 31} \equiv 2(mod 11 \cdot 31)$ekanligini isbotlang .

224. 2^{30} sonni 13 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

225. 3^{59} sonini 17 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

226. $a^{n(p-1)+1} \equiv a(modp)$ ekanligini isbotlang.

227. 317^{259}sonini 15 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

228. $3^{80} + 7^{80}$ sonini *11* ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

229. $3^{100} + 4^{100}$ sonini *7* ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

230. 197^{157} sonini 35 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

231. $n = 73 \cdot 37$ uchun $2^{n-1} \equiv 1(mod\ n)$ ekanligini ko'rsating.

232. $1^{30} + 2^{30} + \ ... \ + 10^{30} \equiv -1(mod 11)$ekanligini isbotlang.

233. Ixtiyoriy x butun soni uchun 1) $x^7 \equiv x(mod 42)$; 2) $x^{13} \equiv x(mod 2730)$ ekanligini isbotlang.

234. Agar p va q lar har xil tub sonlar bo'lsa, $p^{q-1} + q^{p-1} \equiv 1(modpq)$ ekanligini isbotlang.

235. 2^{100} sonining oxirgi ikkita raqamini toping.

236. 3^{100} sonining oxirgi raqamini toping.

237. 243^{402} sonining oxirgi uchta raqamini toping.

238. Agar $(n, 6) = 1$ bo'lsa, $n^2 \equiv 1(mod24)$ ekanligini isbotlang.

239. Agar p tub son bo'lsa, $\sum_{i=1}^{p-1} i^{k(p-1)} + 1 \equiv 0(modp)$ taqqoslamaning o'rinli ekanligini ko'rsating.

240. Agar p tub son bo'lsa, $(\sum_{i=1}^{n} a_i)^p \equiv \sum_{i=1}^{n} a_i^p (modp)$ taqqoslamaning o'rinli ekanligini ko'rsating.

241. Agar $(a, m) = 1$ bo'lsa $a^x \equiv 1(modm)$ taqqoslamaning eng kichik natural yechimi φ(m) ning bo'luvchisi ekanligini isbotlang.

242. Agar $N = \sum_{i=1}^{n} a_i$ soni 30ga bo'linsa, u holda $M = \sum_{i=1}^{n} a_i^5$ sonining ham 30 ga bo'linishi isbotlang.

243. Ixtiyoriy butun sonning $100-$darajasi 125 ga bo'linadi yoki 125 ga bo'lganda 1 qoldiq qolishini isbotlang.

244. Agar $(a, 10) = 1$ bo'lsa, $a^{100n+1} \equiv a(mod1000)$ ning bajarilishini ko'psating. Bunda n natural son.

245. m va n lar natural sonlar bo'lsalar, $a^{6m} + a^{6n} \equiv 0(mod7)$ taqqoslamaning faqat a soni 7 ga karrali bo'lgandagina o'rinli ekanligini isbotlang.

246. $5^{p^2} + 1 \equiv 0\ (modp^2)$ taqqoslamani qanoatlantiruvchi p tub sonini toping.

247. $p > 3$ tub son bo'lsa, p va $2p + 1$ lar tub sonlar bo'lsalar, u holda $4p + 1$ ning murakkab son ekanligini ko'rsating.

IV-bob. Bir noma'lumli taqqoslamalar

IV.1-§.Bir noma'lumli taqqoslamalar (umumiy ma'lumotlar).

Ixtiyoriy darajali taqqoslamalar yechimlari sinflari. Faraz qilaylik *f(x)* *n*-darajali butun koeffitsientli ko'phad bo'lsin, ya'ni $f(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \ldots + a_{n-1}x + a_n$. U holda

$$f(x) \equiv 0(mod m) \qquad (1)$$

taqqoslamaga *n*-darajali bir noma'lumli taqqoslama deyiladi.

(1) da a_0 soni m ga bo'linmaydi, ya'ni $a_0 \not\equiv 0(mod m)$. (1) ni yechish bu uni qanoatlantiruvchi barcha *x* larni topish yoki uning yechimining yo'q ko'rasatish demakdir. Lekinda agar x_1 (1) ning yechimlaridan biri bo'lsa, ya'ni $f(x_1) \equiv 0(mod m)$ bo'lsa, u holda $x \equiv x_1 (\mathrm{mod}\, m)$ taqqoslamani qanoatlantiruvchi barcha sonlar ham (1) ning yechimi bo'ladi. Haqiqatan ham, $x \equiv x_1 (\mathrm{mod}\, m)$ ni $x = x_1 + mt,\ t \in Z$ deb yoza olamiz. Buni (1) ga olib borib qo'ysak:

$$f(x) = a_0(x_1 + mt)^n + a_1(x_1 + mt)^{n-1} + \ldots + a_{n-1}(x_1 + mt) + a_n =$$
$$= a_0x_1^n + a_1^{n-1}x_1^{n-1} + \ldots + a_{n-1}x_1 + a_n + mT(x_1) = f(x_1) + mT(x_1).$$

Bundan taqqoslamaga o'tsak, $f(x_1 + mt) \equiv 0(mod m)$ ni hosil qilamiz. Shuning uchun ham (1) ning yechimi, deganda alohida olingan birta x_1 son emas, balki $x_1 + mt$ sinf birta yechim deb tushuniladi. *m* modul bo'yicha *m* ta chegirmalar sinflari mavjud bo'lganligi sababli (1) ning barcha yechimlarini *m* moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasidagi chegirmalarni qo'yib sinab ko'rish yo'li bilan topish mumkin. Bu usulga tanlash usuli deyiladi.

Agarda bir xil homa'lumli ikkita taqqoslamaning yechimlari to'plami bir xil bo'lsa, ular teng kuchli taqqoslamalar deyiladi. Quyidagi almashtirishlar natijasida hosil bo'lgan taqqoslamalar teng kuchlidir:

1) taqqoslamaning ikkala tomoniga yoki uning istalgan tomoniga modulga karrali bo'lgan sonni qo'shish;
2) taqqoslamaning ikkala tomonini modul bilan o'zaro tub songa ko'paytirish yoki bo'lish;
3) taqqoslamaning ikkala tomonini va modulini bir xil songa bo'lish;

Agarda berilgan taqqoslamani ixtiyoriy butun son qanoatlantirsa, u holda bu taqqoslamaga ayniy taqqoslama deyiladi. Ayniy taqqoslamaga misol sifatida Ferma teoremasidan kelib chiqadigan $x^p - x \equiv 0(\mathrm{mod}\, p)$ (*p*-tub son) taqqoslamani olish mumkin. Shuningdek, agar *f(x)* ko'phadning barcha koeffitsientlar *m* ga bo'linsa, $f(x) \equiv 0(\mathrm{mod}\, m)$ taqqoslama ayniy taqqoslama bo'ladi.

248. Eng kichik manfiy bo'lmagan chegirmalarning to'la sistemasidagi chegirmalarni sinash yo'li bilan quyidagi taqqoslamalarning yechimini toping:

$a)\ 5x^2 - 15x + 22 \equiv 0(mod 3),$ $b)\ x^2 + 2x + 2 \equiv 0(mod 5),$

$c)\ x^2 - 2x + 2 \equiv 0(mod 3),$ $d)\ x^3 - 2 \equiv 0(mod 5),$

$e)\ 2x^3 - 3x^2 + 2x - 1 \equiv 0(mod 7),$ $f)\ 2x \equiv 7(mod 15)$,

$i)\ 2x^3 + 3x - 5 \equiv 0(mod 7).$

249. $x^3 - x + 1 \equiv 0(mod 3)$ taqqoslamani yeching.

250. Avvalo soddalashtirib, keyin absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarni sinab ko'rish yo'li bilan quyidagi taqqoslamalarni yeching:

$$a)\ 90x^{20} + 46x^2 - 52x + 46 \equiv 0(mod15),$$
$$b)\ 25x^3 - 36x^2 - 18x + 13 \equiv 0(mod12),$$
$$c)\ 21x + 4 \equiv 7(mod6), \quad d)\ x^5 - 2x^3 + 13x - 1 \equiv 0(mod4).$$

251. $7x^3 + 12x^2 - x + 24 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamani noma'lum *x* ning barcha butun qiymatlarining qanoatlantirishini tekshiring.

252. Quyidagi taqqoslamalarni noma'lum *x* ning barcha butun qiymatlarining qanoatlantirishini tekshiring:

$a)x^3 - x + 6 \equiv 0(mod3);$ $b)\ x(x^2 - 1) \equiv 0(mod6);$

$c)\ 20x^5 + x^4 - 10x^3 - 1 \equiv 0(mod5);$ $d)x^{13} - 26x^{12} - x \equiv 0(mod13).$

253. Quyidagi taqqoslamalarni noma'lum *x* ning birorta ham butun qiymatlarining qanoatlantirmasligini tekshiring:

$a)5x \equiv 4(mod5);$ $b)\ x^2 - 2x + 3 \equiv 0(mod4);$ $c)\ 20x^5 + 5x^4 - 10x^3 - 1 \equiv 0(mod5);$ $d)x^{13} - 26x^{12} - x + 5 \equiv 0(mod13).$

254. *a)* $(m,n) = 1$ bo'lsa, *n*-darajali $x^n + a_1x^{n-1} + a_2x^{n-2} + \cdots + a_n \equiv 0(modm)$ taqqoslamani yangi o'zgaruvchi y kiritish yo'li bilan $(n-1)-$ darajali hadi qatnashmagan $y^n + b_2y^{n-2} + \cdots + b_n \equiv 0(modm)$ ko'rinishdagi taqqoslamaga keltirish mumkin ekanligini ko'rsating.

255. 254.*a)* dan foydalanib $x^3 + 5x^2 + 6x - 8 \equiv 0(mod13)$ taqqoslamani uch hadli $y^3 + px + q \equiv 0(mod13)$ taqqoslama ko'rinishiga keltiring.

256. $x^{\varphi(60)} \equiv 1(mod60)$ taqqoslamani yeching.

IV.2-§. Bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar.

Birinchi darajali $a_0x + a_1 \equiv 0(modm)$ taqqoslamani hamma vaqt

$$ax \equiv b(\mathrm{mod}\, m) \qquad (1)$$

ko'rinishga keltirish mumkin. Shuning uchun ham biz (1) ni tekshiramiz. Avvalo, faraz etaylik *(a,m)=1* bo'lsin. U holda *x* o'zgaruvchi *m* moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini qabul qilsa *ax* ham shu sistemasi qabul qiladi. Shuning uchun ham *x* ning faqat birta qiymatida *ax* soni *b* tegishli bo'lgan sinfga qarashli bo'ladi. Shu qiymatda $ax_1 \equiv b(modm)$ga ega bo'lamiz. Shunday qilib, agar *(a,m)=1* bo'lsa, (1) taqqoslama birta (yagona) $x \equiv x_1(modm)$ (yoki $x \equiv x_1 + mt,\ t = 0, \pm1, \pm2, \ldots$) yechimga ega bo'lar ekan.

Endi, faraz etaylik $(a,m) = d > 1$ bo'lsin. Bu holda agar *b* soni *d* ga bo'linsa, $a = a_1 \cdot d,\ b = b_1 \cdot d,\ m = m_1 \cdot d$ deb olib (1) dan

$$a_1x \equiv b_1(\mathrm{mod}\ m_1), \qquad (a_1, m_1) = 1 \qquad (2)$$

taqqoslamani hosil qilamiz. Bu (2) taqqoslama esa yuqorida qarab chiqilgan holga ko'ra yagona yechim $x \equiv x_1(\mathrm{mod}\, m_1)$ ga ega bo'ladi. Biz*m*modulibo'yicha*(m=m₁·d)* (1) taqqoslamaningyechimlarinitopishimizkerak. Buning uchun (2) ning yechimlari

$$\ldots,\ x_1 - m_1,\ x_1,\ x_1 + m_1, \ldots, x_1 + (d-1)m_1,\ x_1 + dm_1, \ldots \qquad (3)$$

$m_1d = m$ modul bo'yicha nechta har xil sinfga tegishli ekanligini aniqlashimiz kerak. Tushunarliki (3) dagi sonlar *d* ta sinfga tegishli bu sinflar sifatida

$$x_1, \quad x_1 + m_1, \quad \ldots, \quad x_1 + (d-1)m_1 \tag{4}$$

larni olish mumkin. Demak (1) ning bu holda *d* ta yechimiga ega bolamiz.

Agarda *(a,m)=d>1* bo'lib *b* soni *d* ga bo'linmasa, u holda (1)-taqqoslama birorta ham yechimga ega emas. Chunki bu holda (1) dan $a_1 dx = b + m_1 dt$ yoki $= b = d(a_1 x - m_1 t)$ tenglikga ega bo'lamiz. *b* soni *d* ga bo'linmaganligi uchun bu tenglikning bajarilishi mumkin emas. Shunday qilib biz quyidagilarni isbotladik:

1). Agar *(a,m)=1* bo'lsa, (1) taqqoslama yagona yechimga ega;

2) Agarda *(a,m)=d>1* va *b* soni *d* bo'linsa, (1) taqqoslama *d* ta yechimga ega;

3) Agarda *(a,m)=d>1* va *b* soni *d* bo'linmasa, (1) taqqoslama birorta ham yechimga ega emas.

(1)-taqqoslamaning yechimini topish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1) tanlash usuli (bu usulda *m* moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasidagi chegermalar qo'yib sinab ko'riladi. Bu usul sodda, lekin *m* modul katta bo'lsa, chegirmalar sinflari soni ko'p bo'lgan uchun amaliy jihatdan noqulaydir);

2) taqqoslamalarning xossalaridan foydalanib koeffitsientlarini almashtirish usuli (bu usulda taqqoslamalarning xossalaridan foydalanib *x* noma'lumning oldidagi koeffitsient 1 bilan almashtiriladi. Bu usul ham koeffitsientlar katta bo'lgan holda aniq yo'llanma (algoritm) bo'lmagani uchun unchalik ham qulay emas. Bunday hollarda (1) ning yechimining topish uchun aniq formulaga ega bo'lish qulaydir);

3) Eyler teoremasidan foydalanib yechish usuli (bu usulda yechim $x \equiv a^{\varphi(m)-1} \cdot b (\mathrm{mod}\, m)$ formula yordamida topiladi) ;

4) uzluksiz (zanjirli) kasrlardan foydalanib yechish usuli mavjud. (Bu usulda yechim $x \equiv (-1)^{n-1} b P_{n-1} (\mathrm{mod}\, m)$ formula yordamida topiladi. Bu yerda P_{n-1} soni $\frac{a}{m}$ kasrning uzluksiz kasrlarga yoyilmasidagi $(n-1)-$ munosib kasrning surati (munosib kasrlar mavzusiga qarang)).

Taqqoslamalardan foydalanib $ax + by = c$ ko'rinishdagi birinchi darajali ikki noma'lumli, butun koeffisientli aniqmas tenglamalarni butun sonlarda yechish mumkin. Berilgan tenglamani $ax = c + b(-y)$ ko'rinishda, buni esa $ax \equiv c(mod b)$ ko'rinishda yozish mumkin. Bu taqqoslamaning yechimini yuqorida qarab chiqilgan usullardan biri bilan topamiz. $x = x_1 + bt, t \in Z$ bo'lsin. U holda x ning bu qiymatini berilgan tenglamaga qo'yib y ni aniqlaymiz: $a(x_1 + bt) + by = c \to y = \frac{1}{b}(c - ax_1 - abt) = \frac{c - ax_1}{b} - at$, ya'ni $y = y_1 - at, t \in Z$ ga ega bo'lamiz.

257. Quyidagi taqqoslamalarning yechimga ega yoki ega emasligini tekshiring, agar yechimga ega bo'lsa, uni tanlash usuli bilan toping:

$a) \; 5x \equiv 3(mod 6), \quad b) \; 8x \equiv 3(mod 10), \quad c) \; 2x \equiv 6(mod 8),$
$d) \; 3x \equiv -6(mod 7), \quad e) \; 4x \equiv 3(mod 12), \quad f) \; 6x \equiv 5(mod 9),$
$g) \; 5x \equiv 7(mod 8).$

258. Quyidagi taqqoslamalarning yechimga ega yoki ega emasligini tekshiring, agar yechimga ega bo'lsa, uni taqqoslamalarning xossalaridan foydalanib koeffitsientlarini almashtirish usuli bilan toping:

$a) \; 5x \equiv 3(mod 7), \quad b) \; 8x \equiv 3(mod 11), \quad c) \; 4x \equiv 6(mod 8),$
$d) \; 4x \equiv 25(mod 13), \quad e) \; 11x \equiv 3(mod 12), \quad f) \; 7x \equiv 5(mod 9),$

$g)\ 5x \equiv 7(mod8), \qquad h)\ 7x \equiv 6(mod15).$

259.Quyidagi taqqoslamalarning yechimga ega yoki ega emasligini tekshiring, agar yechimga ega bo'lsa uni Eyler teoremasidan foydalanib toping:

$a)\ 13x \equiv 3(mod19), \quad b)\ 27x \equiv 7(mod58), \quad c)\ 5x \equiv 7(mod10),$
$d)\ 3x \equiv 8(mod13), \quad e)\ 25x \equiv 15(mod17), \quad f)\ 29x \equiv 35(mod12),$
$g)\ 3x \equiv 7(mod11).$

260.Quyidagi taqqoslamalarning yechimga ega yoki ega emasligini tekshiring, agar yechimga ega bo'lsa uni uzluksiz kasrlardan foydalanib toping:

$a)\ 13x \equiv 1(mod27), \quad b)\ 37x \equiv 25(mod117), \quad c)\ 113x \equiv 89(mod311),$
$d)\ 221x \equiv 111(mod360), \ e)\ 23x \equiv 667(mod693), \ f)\ 143x \equiv 41(mod221),$
$g)\ 20x \equiv 13(mod43).$

261.Quyidagi taqqoslamalarning yeching: $a)\ 12x \equiv 9(mod15),$

$b)\ 12x \equiv 9(mod18), \quad c)\ 20x \equiv 10(mod25), \quad d)\ 10x \equiv 25(mod35),$
$e)\ 39x \equiv 84(mod93), \ f)\ 90x + 18 \equiv 0(mod138), g)\ 15x \equiv 35(mod55).$

262. Quyidagi aniqmas tenglamalarni taqqoslamalardan foydalanib yeching:

$a)\ 5x + 4y = 3, \quad b)\ 17x + 13y = 1, \quad c)\ 91x - 28y = 35,$
$d)\ 2x + 3y = 4, \quad e)\ 4x - 3y = 2, \quad f)\ 3x - 7y = 1,$
$g)\ 7x + 6y = 11.$

263. $a)$. $x = -100$ va $x = 150$ to'g'ri chiziqlar orasida joylashgan va $8x - 13y + 6 = 0$ to'g'ri chiziqda yotuvchi butun koordinatali nuqtalar sonini aniqlang.

$b)$. $x = 1$va $x = 200$ to'g'ri chiziqlar orasida joylashgan va $5x - 7y - 8 = 0$ to'g'ri chiziqda yotuvchi butun koordinatali nuqtalar sonini aniqlang.

264. *x* ning qanday butun qiymatlarida quyidagi funksiyalar butun qiymat qabul qiladi: $a)\ f(x) = \frac{9x-1}{7}; \quad b)\ f(x) = \frac{7x-1}{15}; \quad c)\ f(x) = \frac{2x-1}{11}.$

265.*a).* G'allani tashish uchun 60 kg va 80 kg lik qoplar mavjud. 440 kg g'allani tashish uchun nechta 60 kg va 80 kg lik qoplar kerak bo'ladi.

b). 1490 so'mga 30 so'mlik va 50 so'mlik markalardan necha dona sotib olish mumkin.

c). 6000 so'mga 200 va 250 so'mlik daftarlardan necha dona sotib olish mumkin.

266.a). 523 sonining o'ng tomoniga shunday uchta raqam yozingki, hosil bo'lgan olti xonali son 7,8 va 9 ga bo'linsin.

b). 32 sonining o'ng tomoniga shunday ikkita raqam yozingki, hosil bo'lgan to'rt xonali son 3 va 7 ga bo'linsin.

IV.3-§. Bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar sistemasini yechish.

Ushbu birinchi darajali taqqoslamalar sistemasi

$$\grave{A}_1\tilde{o} \equiv \hat{A}_1 (\mathrm{mod}\ m_1),\ A_2 x \equiv B_2 (\mathrm{mod}\, m_2),\ \cdots, A_k x \equiv B_k (\mathrm{mod}\, m_k) \tag{1}$$

berilgan bo'lsin. Bu sistema yechimga ega bo'lishligi uchun avvalo (1) dagi har bir taqqoslama yechimga ega bo'lishi kerak. Bu taqqoslamalarning har birini yechib (1) ni quyidagicha yozib olish mumkin.

$$x \equiv b_1 (\mathrm{mod}\, m_1,\ x \equiv b_2 (\mathrm{mod}\, m_2), \cdots, x \equiv b_k (\mathrm{mod}\, m_k). \tag{2}$$

(2) sistemani yechaylik. (2) ning birinchi taqqoslamasidan

$$x = b_1 + m_1 t_1, \qquad t_1 \in Z. \tag{3}$$

Bulardan (2) dagi ikkinchi taqqoslamani qanoatlantiruvchilarini ajratib olamiz:

$$b_1 + m_1 t_1 \equiv b_2 (\mathrm{mod}\, m_2). \tag{4}$$

Bundan $m_1 t_1 \equiv b_2 - b_1 (mod m_2)$. Faraz etaylik $(m_1,m_2)=d$ bo'lsin. U holda agarda b_2-b_1 ayirma d ga bo'linmasa, (4) taqqoslama yechimga ega emas. Agarda $d|b_2$-b_1 bo'lsa, (4) d ta yechimga ega va

$$\frac{m_1}{d} t_1 \equiv \frac{b_2 - b_1}{d} \left(\mathrm{mod} \frac{m_2}{d} \right), \qquad \left(\frac{m_1}{d}, \frac{m_2}{d} \right) = 1 \tag{5}$$

taqqoslama yagona $t_1 \equiv t' \left(mod \frac{m_2}{d} \right)$ yoki $t_1 = t' + \frac{m_2}{d} t_2,\ t_2 \in Z$ yechimga ega. $t_1$ning bu qiymatini (3) ga olib borib qo'yib (2) dagi birinchi 2 ta taqqoslamani qanoatlantiruvchi

$$x = b_1 + m_1 \left(t' + \frac{m_2}{d} t_2 \right) = b_1 + m_1 t' + \frac{m_1 m_2}{d} t_2 = b_1 + m_1 t' + [m_1, m_2] t_2$$

ni topamiz. Agarda $x_2 = b_1 + m_1 t'$ deb olsak, u holda

$$x = x_2 + [m_1, m_2] t_2 \quad \text{yoki} \quad x \equiv x_2 \left(\mathrm{mod} [m_1, m_2] \right)$$

ni hosil qilamiz. Shu usulni davom ettirib $x \equiv x_k (mod\ [m_1, m_2, \ldots, m_k])$ ni, ya'ni (2) ning yechimini hosil qilamiz. (2)- sistemada $(m_1, m_j) = 1,\ i \neq j,\ M = m_1 \cdot m_2 \ldots m_k, M_i = \frac{M}{m_i}$

bo'lsin.U holda (2) -sistemaning yechimi $x \equiv x_0 (\mathrm{mod}\, M)$ bo'ladi. Bu yerda

$$x_0 = M_1 \cdot M_1' b + M_2 \cdot M_2' b_2 + \ldots + M_k M_k' \cdot b_k \tag{6}$$

va M_1', M_2', …, M_k' lar ushbu taqqoslamalar sistemasidan aniqlanadi:

$$M_1 M_1' \equiv 1\ (\mathrm{mod}\ m_1), M_2 \cdot M_2' \equiv 1 (\mathrm{mod}\, m_2),\ \cdots,\ M_k M_k' \equiv 1 (\mathrm{mod}\, m_k). \tag{7}$$

(2)-sistemani yechish qadimgi xitoy masalasi deb ataluvchi $m_1$ga bo'lganda b_1, m_2 ga bo'lganda b_2, ...,m_k ga bo'lganda $b_k$qoldiq qoluvchi x sonini toping degan masalaning o'zginasidir.

267. Taqqoslamalar sistemasini yeching:

1) $\begin{cases} x \equiv 6 (\mathrm{mod}\, 15) \\ x \equiv 18 (\mathrm{mod}\, 21), \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 12) \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x \equiv 13 (\mathrm{mod}\, 14) \\ x \equiv 6 (\mathrm{mod}\, 35) \\ x \equiv 26 (\mathrm{mod}\, 45) \end{cases}$ 3) $\begin{cases} x \equiv 19 (\mathrm{mod}\, 56) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 24) \\ x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 20) \end{cases}$ 4) $\begin{cases} x \equiv 4 (\mathrm{mod}\, 5) \\ x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 12) \\ x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 14) \end{cases}$

5) $\begin{cases} x \equiv 13 (\mathrm{mod}\, 16) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 10) \\ x \equiv 9 (\mathrm{mod}\, 14) \end{cases}$ 6) $\begin{cases} x \equiv 9 (\mathrm{mod}\, 10) \\ x \equiv 10 (\mathrm{mod}\, 15) \\ x \equiv 11 (\mathrm{mod}\, 12) \end{cases}$ 7) $\begin{cases} x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 9) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 7) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 12) \end{cases}$ 8) $\begin{cases} x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 12) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 8) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 11) \end{cases}$

9) $\begin{cases} x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 10) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 5) \\ x \equiv 8 (\mathrm{mod}\, 9) \end{cases}$ 10) $\begin{cases} x \equiv 8 (\mathrm{mod}\, 7) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 11) \\ x \equiv 9 (\mathrm{mod}\, 13) \end{cases}$ 11) $\begin{cases} x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 5) \\ x \equiv 8 (\mathrm{mod}\, 11) \\ x \equiv 12 (\mathrm{mod}\, 15). \end{cases}$

268. Modullari juft-jufti bilan o'zaro tub bo'lgan taqqoslamalar sistemasini yeching.

1) $\begin{cases} x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 6) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 7) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 5) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 7) \\ 3x \equiv 4 (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$ 3) $\begin{cases} 3x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 17) \\ 4x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 5) \\ 2x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 9), \end{cases}$ 4) $\begin{cases} 5x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 9) \\ 3x \equiv -1 (\mathrm{mod}\, 13) \\ x \equiv 6 (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$

5) $\begin{cases} 6x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 35) \\ 3x \equiv 4 (\mathrm{mod}\, 17) \\ 10x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 13), \end{cases}$ 6) $\begin{cases} 8x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 17) \\ 5x \equiv 11 (\mathrm{mod}\, 6) \\ x \equiv -1 (\mathrm{mod}\, 19), \end{cases}$ 7) $\begin{cases} 11x \equiv -4 (\mathrm{mod}\, 18) \\ 7x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 11) \\ 3x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 7), \end{cases}$ 8) $\begin{cases} 21x \equiv -2 (\mathrm{mod}\, 23) \\ 12x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 9) \\ x \equiv 6 (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$

9) $\begin{cases} x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 29) \\ x \equiv -5 (\mathrm{mod}\, 12) \\ 2x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$ 10) $\begin{cases} 6x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 31) \\ x \equiv -2 (\mathrm{mod}\, 29) \\ 5x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 27), \end{cases}$ 11) $\begin{cases} x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 7) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 9) \\ x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 11). \end{cases}$

269. m_1, m_2, m_3 sonlariga bo'lganda mos ravishda r_1, r_2, r_3 qoldiq qoluvchi eng kichik natural sonni toping.

№	m_1	m_2	m_3	r_1	r_2	r_3	№	m_1	m_2	m_3	r_1	r_2	r_3
1	7	8	9	1	2	3	**7**	13	21	23	9	1	13
2	3	4	5	1	2	3	**8**	3	5	8	2	4	1
3	9	10	13	3	5	6	**9**	3	5	8	2	4	1
4	4	5	7	2	3	4	**10**	5	7	9	4	6	1
5	3	7	8	2	4	5	**11**	7	13	17	6	12	16
6	7	13	17	4	9	1							

270. a ning qanday qiymatida berilgan taqqoslamalar sistemasi yechimga ega?

1) $\begin{cases} x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 18) \\ x \equiv 8 (\mathrm{mod}\, 21) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 35), \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x \equiv a (\mathrm{mod}\, 7) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 9) \\ x \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$ 3) $\begin{cases} x \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 12) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 11) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 15), \end{cases}$ 4) $\begin{cases} x \equiv 11 (\mathrm{mod}\, 20) \\ x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 15) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 18), \end{cases}$

5) $\begin{cases} x \equiv 19 (\mathrm{mod}\, 24) \\ x \equiv 10 (\mathrm{mod}\, 21) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 9), \end{cases}$ 6) $\begin{cases} x \equiv 6 (\mathrm{mod}\, 15) \\ x \equiv 18 (\mathrm{mod}\, 21) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 11), \end{cases}$ 7) $\begin{cases} x \equiv 19 (\mathrm{mod}\, 56) \\ x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 24) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 20), \end{cases}$ 8) $\begin{cases} x \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 5) \\ x \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 7) \\ x \equiv a (\mathrm{mod}\, 9), \end{cases}$

9) $\begin{cases} x \equiv 1(\mathrm{mod}\,3) \\ x \equiv 5(\mathrm{mod}\,7) \\ x \equiv a(\mathrm{mod}\,11), \end{cases}$ 10) $\begin{cases} x \equiv 14(\mathrm{mod}19) \\ x \equiv 5(\mathrm{mod}\,25) \\ x \equiv a(\mathrm{mod}10) \end{cases}$ 11) $\begin{cases} x \equiv 5(\mathrm{mod}11) \\ x \equiv 4(\mathrm{mod}\,7) \\ x \equiv a(\mathrm{mod}\,9). \end{cases}$

271. Abtsissalar o'qining qaysi butun nuqtalarida shu nuqtalardan o'tkazilgan perpendikulyar berilgan to'g'ri chiziqlarning barchasini bir vaqtda butun koordinatali nuqtalarda kesadi.

1) $x = 2 + 5y\,, x = 1 + 8y\,, x = 3 + 11y\,;$
2) $4x - 7y = 9\,, 2x + 9y = 15\,, 5x - 13y = 12\,;$
3) $3x - 5y = 1, 2x + 3y = 3, 5x - 7y = 7;$
4) $x + 7y = 2\,, x - 5y = 3\,, 2x + 7y = 6\,;$
5) $2x - 3y = 1\,, x - 5y = 3\,, x - 11y = 2\,;$
6) $11x + 5y = 6\,, 10x + 11y = 9\,, 12x + 13y = -1;$
7) $3x - 7y = 5\,, 5x - 8y = 4\,, 11x + 13y = -2\,;$
8) $10x - 9y = 1\,, x - 7y = 3\,, x + 5y = 2\,;$
9) $11x + 17y = 5\,, 19x - 37y = 1\,, 11x - 7y = 4\,;$
10) $x - 19y = 2\,, 5x - 13y = 1\,, 10x + 13y = -3\,;$
11) $x - 7y = 5, 3x + 8y = 7\,, x = 11 + 3y.$

272. a). Agar o'nlik sanoq sistemasidagi $N = 4x87y6$ sonining 56 ga bo'linishi ma'lum bo'lsa uni toping.

b). Agar o'nlik sanoq sistemasidagi $N = xyz138$ sonining 7 ga bo'linishi, $138xyz$ sonini 13 ga bo'lganda qoldiq 6, $x1y3z8$ sonini 11 ga bo'lganda 5 qoldiq qolishi ma'lum bo'lsa, N ni toping.

c). Agar o'nlik sanoq sistemasidagi $N = 13xy45z$ sonining 792 ga bo'linishi ma'lum bo'lsa, x, y, z larni toping.

273. Taqqoslamalar sistemasini yeching:

$a)\begin{cases} x + 3y \equiv 5(mod7) \\ 4x \equiv 5(mod7), \end{cases}$ $b)\begin{cases} 9y \equiv 15(mod12) \\ 7x - 3y \equiv 1(mod12), \end{cases}$ $c)\begin{cases} x \equiv 2(mod4) \\ x - 2y \equiv 1(mod4), \end{cases}$

$d)\begin{cases} 9y \equiv 15(mod12) \\ 3x - 7y \equiv 1(mod12), \end{cases}$ $e)\begin{cases} 3x - 5y \equiv 1(mod12) \\ 9y \equiv 15(mod12). \end{cases}$

274. Taqqoslamalar sistemasini yeching:

$a)\begin{cases} x + 2y \equiv 3(mod5) \\ 4x + y \equiv 2(mod5), \end{cases}$ $b)\begin{cases} x + 2y \equiv 0(mod5) \\ 3x + 2y \equiv 21(mod5), \end{cases}$ $c)\begin{cases} 3x + 4y \equiv 29(mod143) \\ 2x - 9y \equiv -84(mod143), \end{cases}$

$d)\begin{cases} x + 2y \equiv 4(mod5) \\ 3x + y \equiv 2(mod5), \end{cases}$ $e)\begin{cases} x + 5y \equiv 5(mod6) \\ 5x + 3y \equiv 1(mod6), \end{cases}$ $f)\begin{cases} 5x - y \equiv 3(mod6) \\ 2x + 2y \equiv -1(mod6). \end{cases}$

$g)\begin{cases} x - y \equiv 2(mod6) \\ 4x + 2y \equiv 2(mod6), \end{cases}$ $h)\begin{cases} 4x - y \equiv 2(mod6) \\ 2x + 2y \equiv 0(mod6). \end{cases}$

275. a)

$$\begin{cases} a_1x + b_1y \equiv c_1 \\ a_2x + b_2y \equiv c_2 \end{cases}(modm) \qquad (1)$$

taqqoslamalar sistemasida $D=\begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}$ bilan m o'zaro tub bo'lsa, u yagona yechimga ega ekanligini isbotlang.

b) (1)-taqqoslamalar sistemasida $(D,m)=d>1$ bo'lsa, uning yechimga ega bo'lmaslik shartini toping.

c) (1)-taqqoslamalar sistemasida $D\equiv D_1\equiv D_2\equiv 0(modm)$ bo'lsa, uning yechimlari to'plami (1) dagi 1-taqqoslamaning yechimlari to'plami bilan bir xil bo'lishini isbotlang. Bunda

$$D_1=\begin{vmatrix} c_1 & b_1 \\ c_2 & b_2 \end{vmatrix},\quad D_2=\begin{vmatrix} a_1 & c_1 \\ a_2 & c_2 \end{vmatrix}.$$

IV.4-§. Tub modul bo'yicha *n*-darajali taqqoslamalar.

$$f(x)=a_0x^n+a_1x^{n-1}+\cdots+a_n\equiv 0(modp) \qquad (1)$$

ko'rinishdagi taqqoslamaga tub modul bo'yicha *n*-darajali taqqolama deyiladi. Bunda p-tub son, $a_0\not\equiv 0(modp)$, n –butun musbat son, a_i- koeffisientlar butun sonlar.

Eng avvalo $a_0,a_1,\dots,a_n$ sonlarini p moduli bo'yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalar bilan almashtirsak (1) taqqoslama biroz soddaroq ko'rinishga keladi. Masalan:

$$25x^3+17x^2-13\equiv 0(mod11) \qquad (1')$$

ni

$$3x^3-5x^2-2\equiv 0(mod11) \qquad (2')$$

ko'rinishda yozish mumkin.

Ikkinchidan (1) ni hamma vaqt bosh hadining koeffitsienti 1 ga teng bo'lgan holga keltirish mumkin, chunki $aa_0\equiv 0(modp)$ taqqoslama $(a_0,p)=1$ bo'lgani uchun yagona yechimga ega va (1) ning ikkala tomonini a ga ko'paytirsak x^n ning koeffitsientini 1 bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan: $3a\equiv 1(mod11)\to a\equiv 4(mod11)$. Shuning uchun ham (2′) ning ikkala tomonini 4 ga ko'paytiramiz, u holda

$$12x^3-20x^2-8\equiv 0(mod11)\to x^3+2x^2+3\equiv 0(mod11)\,.$$

Uchinchidan ushbu teorema yordamida berilgan taqqoslamani ancha soddalashtirish mumkin.

$1-$ teorema. Agar (1) da $n\geq p$ bo'lsa, uni darajasi $p-1$ dan katta bo'lmagan taqqoslama $R(x)\equiv 0(modp)$ taqqoslama bilan almashtirish mumkin. Bunda $R(x)$ ko'phaq $f(x)$ ni x^p-x ga bo'lishdan chiqqan qoldiq.

Amaliyotda $f(x)$ ni x^p-x ga bo'lishshart emas. Buning uchun x^m ni darajasini *p-1* dan katta bo'lmagan had bilan almashtirish uchun *m* ni *p-1* ga bo'lamiz. $m=(p-1)k+r$. U holda $x\equiv x^p(modp)$ taqqoslamaning ikki tomonini mos ravishda x^{r-1}, $x^{(p-1)1+r-1}$,..

… , $x^{(p-1)(k-1)+r-1}$ larga ko'paytirsak,

$$x^r\equiv x^{(p-1)+r},\qquad x^{p-1+r}\equiv x^{2(p-1)+r},\dots,x^{(p-1)(k-1)+r}\equiv x^{k(p-1)+r}\equiv x^m$$

hosil bo'ladi. Bulardan $x^m\equiv x^r(\mathrm{modp})$. Bu esa yuqoridagi teoremaning yana bir isbotidir.

Misol. $x^8+2x^7+x^5-x^4-x+3\equiv 0(mod5)$ taqqoslamani darajasi 4dan katta bo'lmagan taqqoslama bilan almashtiring.

$$x^{4\cdot 2+0}+2x^{4\cdot 1+3}+x^{4\cdot 1+1}-x^{4\cdot 1}-x+3\equiv 0(mod5)\to 1+2x^3+x-x^0-x+3$$
$$\equiv 0(mod5)\ \to\ 2x^3+3\equiv 0(mod5).$$

2-teorema(yechimlari soni haqida teorema).p-tub moduli bo'yicha n-darajali ($n \le p-1$) taqqoslama$n$-tadan ortiq bo'lmagan ildizga ega.

Agarda $a_0 \not\equiv 0(modp)$shartdan voz kechsak bu teoremadan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija. Agar p-tub modul bo'yicha n-darajali taqqoslama n tadan ortiq ildizga ega bo'lsa uning barcha koeffitsientlari p ga bo'linadi.

3-teorema(Vilson teoremasi). Agar p tub son bo'lsa, u holda

$$(p-1)! + 1 \equiv 0(modp) \quad (3)$$

Bu taqqoslama agar p tub son bo'lmasa, bajarilmaydi. Haqiqatan ham agarda $p = p_1 \cdot d, 1 < d < p,$ bo'lsa $(p-1)!$ soni d ga bo'linadi, u holda $(p-1)! + 1$ soni d ga bo'linmaydi, shuning uchun ham p ga bo'linmaydi. Demak, ushbu teskari teorema ham o'rinli ekan.

4-teorema. Agar butun musbat p soni uchun (3) taqqoslama o′rinli bo′lsa, p-tub son bo'ladi.

Shunday qilib Vilson teoremasini tub sonlarni aniqlash kriteriyasi deb qabul qilish mumkin, lekin $(p-1)! + 1$ soni katta p lar uchun juda katta son bo'lgani uchun amaliyotda qo'llash noqulay.

276. Quyidagi taqqoslamalarning avval darajasini pasaytirib keyin yeching.

a). $6x^{10} - 12x + 1 \equiv 0(mod5)$, b). $x^5 - 2x^3 + x^2 - 2 \equiv 0(mod3)$,

c).$x^5 - 7x^4 + 9x^2 - x + 13 \equiv 0(mod3)$, d). .$x^7 - x^6 + 5x^2 - 3 \equiv 0(mod5)$,

e). $x^5 + x^4 + x^3 - x^2 - 2 \equiv 0(mod5)$, f). $x^7 - 6 \equiv 0(mod5)$,

g). $x^8 + 2x^7 + x^5 - x + 3 \equiv 0(mod5)$, h). $6x^4 + 17x^2 - 16 \equiv 0(mod3)$,

i). $4x^7 - 2x^3 + 8 \equiv 0(mod5)$, j). $3x^7 - 2x^6 + 2x^2 + 13 \equiv 0(mod5)$.

277. Quyidagi taqqoslamalarni berilgan modul bo'yicha ko'paytuvchilarga ajrating.

a). $x^3 + 4x^2 - 3 \equiv 0(mod5)$, b). $x^4 + x^3 - x^2 + x - 2 \equiv 0(mod5)$,

c). $x^4 + x + 4 \equiv 0(mod11)$, d). $x^2 + 2x + 2 \equiv 0(mod5)$,

e). $3x^3 - 1 \equiv 0(mod5)$, f). $2x^4 + x^3 - 3x^2 + 2x - 2 \equiv 0(mod11)$,

g). $x^4 - 7x^3 + 13x^2 + 21x + 23 \equiv 0(mod7)$,

h). $2x^4 + x^3 - 3x^2 + 2x - 2 \equiv 0(mod5)$,

i). $2x^3 + 5x^2 - 2x - 3 \equiv 0(mod7)$, j). $x^4 - 2x^2 + x + 4 \equiv 0(mod7)$.

278. Quyidagi taqqoslamalarning 1-teoremadan foydalanib darajasini pasaytiring va yechimlarini toping:

a). $8x^{20} - 15x^{19} + 7x^{18} + 28x^{17} - 4x^{16} + 30x^{15} + 10x^6 - 4x^3 + 23x^2 - 21x - 11 \equiv 0(mod13)$,

b). $x^{10} + x^8 + x^7 - x^4 - x^2 + 4x - 3 \equiv 0(mod7)$,

c). $x^{101} + 3x^{15} + x^{11} - 3x^5 + 9x^2 + 10x - 5 \equiv 0(mod11)$,

d). $2x^{35} - 17x^{15} + 13x^8 - 3x^5 + 12x + 5 \equiv 0(mod11)$,

e). $x^{12} - 2x^7 + x^3 + 1 \equiv 0(mod5)$.

279. Quyidagi teoremani isbotlang: $f(x) = x^n + \sum_{i=1}^{n} a_i x^{n-i}$va $n < p$ bo'lsin. $f(x) \equiv 0(modp)$ taqqoslamaning n ta yechimga ega bo'lishi uchun $x^p - x$ ni

$f(x)$ ga bolishdan chiqqan qoldiqning barcha koeffisientlarining p ga bo'linishi zarur va yetarli.

280. Agar $a \not\equiv 0(mod7)$ va $b \not\equiv 0(mod7)$ bo'lsa, $x^3 + ax + b \equiv 0(mod7)$ taqqoslamaning uchta yechimga ega bo'lmasligini isbotlang.

281. Tub modul bo'yicha taqqoslama $x^n \equiv a(modp)$ ning $(a,p) = 1$ va $n < p$ bo'lganda n ta yechimga ega bo'lishining zaruriy va yetarli shartini toping.

282.280-misolda topilgan shartdan foydalanib quyida berilgan $x^n \equiv a(modp)$ ko'rinishdagi taqqoslamalarning n ta yechimga ega yoki yechimga ega emas ekanligini aniqlang va yechimga ega bo'lsa ularni toping.

a). $x^3 \equiv 1(mod7)$; b). $x^2 \equiv 2(mod5)$; c). $x^5 \equiv 10(mod11)$;

d). $x^4 \equiv 1(mod11)$; e). $x^6 \equiv 3(mod7)$; f). $x^4 \equiv 3(mod13)$.

283. Agar $p -$ tub son bo'lsa, $(p-2)! \equiv 1(modp)$ ekanligini ko'rsating.

284. p va $p+2$ sonlarining "egizak" tub sonlar bo'lishi uchun $4[(p-1)!+1] + p \equiv 0\ (modp(p+2))$ shartning bajarilishi yetarli va zarur ekanligini (Klement teoremasini) isbotlang.

285. Vilson teoremasidan foydalanib p soni $p = 4n+1$ ko'rinishdagi tub son bo'lganda $(2n)!$ sonining $x^2 \equiv -1(modp)$ taqqoslamani qanoatlantirishini isbotlang.

286. p tub son bo'lganda quyidagi taqqoslamalarningo'rinli ekanligini isbotlang.

a). $a^p + a(p-1)! \equiv 0(modp)$; b). $a^p(p-1)! + a \equiv 0(modp)$.

287. Leybnits teoremasi "$p > 2$ sonining tub son bo'lishi uchun $(p-2)! - 1 \equiv 0(modp)$ shartning bajarilishi zarur va yetarli" ni isbotlang.

288. 279-misoldagi teoremani quyidagi taqqoslamalarni yechishga qo'llang:

a). $x^2 + 2x + 2 \equiv 0(mod5)$, b). $3x^3 - 4x^2 - 2x - 4 \equiv 0(mod7)$.

IV.5-§. Murakkab modul bo'yicha yuqori darajali taqqoslamalar.

Murakkab modulli taqqoslamani yechishni tub modul bo'yicha taqqoslamani yechishga keltirish mumkin. Bunda ushbu teoremadan foydalaniladi:

Teorema. Agar

$$f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, M) \qquad (1)$$

taqqoslamaning moduli M juft-jufti bilan o'zaro tub bo'lgan ko'paytuvchilarga ajratilgan $M = m_1 m_2 \ldots m_k, \quad (m_i, m_j) = 1$ bo'lsa, u holda:

1). (1) taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi

$$f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, m_1),\ f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, m_2)\ ,\cdots,\ f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, m_k) \qquad (2)$$

ga teng kuchlidir.

2). Agarda (1) taqqoslama N ta yechimga ega bo'lib, (2) ning birinchisi n_1, ikkinchisi n_2 va x.k. oxirgisi n_k ta yechimga ega bo'lsa, u holda $N = n_1 \cdot n_2 \cdot \cdots \cdot n_k$ bo'ladi.

Yuqoridagi teoremaga asosan murakkab modul boyicha taqqoslamani hamma vaqt

$$f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^{\alpha}), \qquad p - \text{туб сон}, \ \alpha \geq 1 \qquad (1')$$

ko'rinishdagi taqqoslamani yechishga keltirish mumkin. Bu taqqoslamani tanlash usuli bilan yechish p^{α} katta son bo'lganda ancha noqulay (1) ni yechishni

$$f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p) \qquad (3)$$

ni yechishga keltirish mumkin. Ma'lumki (1') ni qanoatlantiruvchi har bir x_1 soni (3) ni ham qanoatlantiradi. Shuning uchun ham (1') ning yechimlarini (3) ning yechimlari orasidan qidirish kerak. Buni ketma-ket (3) dan p bo'yicha, keyin p^2 va x.k. taqqoslamalarga o'tib bajarish mumkin.

Faraz etaylik (3) ning birorta yechimi topilgan bo'lsin:

$$x \equiv x_1 (\mathrm{mod}\, p) \quad \text{яъни} \qquad x = x_1 + pt_1, \qquad t \in Z \qquad (4)$$

(4) dan

$$f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^2) \qquad (5)$$

taqqoslamani qanoatlantiruvchilarini ajratib olamiz.

$$f(x_1 + pt_1) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^2).$$

Bu taqqoslamaning chap tomonini hisoblash uchun $f(x_1 + pt_1)$ ning Teylor qator yoyilmasidan foydalanish qulay:

$$f(x_1) + pt_1 \cdot f'(x_1) + \frac{(pt_1)^2}{2!} f''(x_1) + \ldots + \frac{(pt_1)^k}{k!} f^{(k)}(x_1),$$

bu yerdagi har bir qo'shiluvchi butun son. Bundan foydalanib oxirgi taqqoslamani quyidagicha yozish mumkin:

$$f(x_1) + pt_1 \cdot f'(x_1) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^2) \qquad (6)$$

Bu yerda $p \setminus f(x_1)$ bo'lgan uchun

$$\frac{f(x_1)}{p} + t_1 f'(x_1) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p)$$

yoki

$$t_1 f'(x_1) \equiv -\frac{f(x_1)}{p} (\mathrm{mod}\, p). \qquad (7)$$

Bu yerda quyidagi uchta hol bo'lishi mumkin:

A. $p \nmid f'(x_1)$ bo'lsa, (7) dan $t_1 \equiv t' (\mathrm{mod}\, p)$, ya'ni $t_1 = t' + pt_2, \quad t_2 \in Z.$

Buni (4) ga qo'ysak, $x = x_1 + p(t' + pt_2) = x_1 + pt' + p^2 t_2$ hosil bo'ladi. $t_2 = 0$ äà $x = x_1 + pt'$. Bundan (5) ning birta $x_2 = x_1 + pt'$ yechimi hosil bo'ladi. Demak $x = x_2 + p^2 t_2$. Buni

$$f(x) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^3) \qquad (8)$$

taqqoslamaga olib borib qo'yib, yuqoridagi singari mulohaza yuritib t_2 ni topamiz.

$f(x_2 + p^2 t_2) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^3)$ yoki $f(x_2) + p^2 t_2 f'(x_2) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p^3)$, bu yerda $p^2 \mid f(x_2)$

bo'lgani uchun

$$\frac{f(x_2)}{p^2} + t_2 f'(x_2) \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p). \qquad (9)$$

$x_2 \equiv x_1\ (modp)$ bo'lgani uchun $f'(x_1) \equiv f'(x_2)(modp)$. Bunda shart bo'yicha $f'(x_1) \not\equiv 0(modp)$ va demak, $f'(x_2) \not\equiv 0(modp)$.

Demak, (9) yagona yechimga ega. $t_2 \equiv t_2' \pmod{p}$, ya'ni $t_2 = t_2' + pt_3$, $t_3 \in Z$. U holda $x = x_2 + p^2(t_2' + pt_3) = x_2 + p^2 t_2' + p^3 t_3$ yoki $x = x_3 + p^3 t_3$, ya'ni $x \equiv x_3 \pmod{p^3}$.

Shu jarayonni takrorlab $x \equiv x_\alpha (mod p^\alpha)$ ni hosil qilamiz.

Shunday qilib, $p \nmid f'(x_1)$ holda (3) ning har bir yechimi (1') ning birta yechimiga olib keladi.

Б. Agarda $p \mid f'(x_1)$ bo'lib, (7) ning o'ng tomoni esa p ga bo'linmasa (7) va demak (5) va (1') ham yechimga ega emas.

В.Agarda $p \mid f'(x_1)$ bo'lib, (7) ning o'ng tomoni ham p ga bo'linsa, (7) ayniy taqqoslamaga aylanadi, uni (4) dagi ixtiyoriy butun son t_1 qanoatlantiradi. Lekin bu yechimlar p^2 moduli bo'yicha p ta sinfga tegishli bo'ladi, ya'ni (5) taqqoslama p ta yechimga ega bo'ladi. Keyin bu yechimlardan umumiy usul bilan p^3 moduli bo'yicha taqqoslamani qanoatlantiruvchilarini ajratib olamiz va x..k.

289. Quyidagi taqqoslamalarni yeching:

1) $3x^3 + 4x^2 - 7x - 6 \equiv 0(mod 15)$; 6) $3x^3 + 6x^2 + x + 10 \equiv 0 \pmod{15}$

2) $6x^3 - 3x^2 - 13x - 10 \equiv 0(mod 30)$; 7) $37x \equiv 17 \pmod{180}$

3) $x^4 - 33x^3 + 8x - 26 \equiv 0(mod 35)$;

4) $x^5 - 3x^4 + 5x^3 + 9x^2 + 4x - 12 \equiv 0(mod 42)$;

5) $x^5 + x^4 - 3x^3 + x^2 + 2x - 2 \equiv 0(mod 77)$;

290. Taqqoslamalarni yeching:

1) $4x^3 - 8x - 13 \equiv 0(mod 27)$; 2) $x^4 - 3x^3 + 2x^2 - 5x - 10 \equiv 0(mod 343)$;

3) $x^4 - 4x^3 + 2x^2 + x + 6 \equiv 0(mod 25)$; 4) $9x^2 + 29x + 62 \equiv 0(mod 64)$;

5) $6x^3 - 7x - 11 \equiv 0(mod 125)$; 6) $x^3 + 3x^2 - 5x + 16 \equiv 0(mod 125)$;

7) $x^4 + 4x^3 + 2x^2 + x + 12 \equiv 0(mod 625)$; 8). $2x^4 + 5x - 1 \equiv 0 \pmod{27}$.

291. Taqqoslamalarni yeching:

1)$x^4 + 4x^3 + 2x^2 + x + 12 \equiv 0(mod 45)$;

2) $x^4 - 3x^3 - 4x^2 - 2x - 2 \equiv 0(mod 50)$;

3) $x^5 - 5x^4 - 5x^3 + 25x^2 + 4x - 20 \equiv 0(mod 147)$;

4) $x^5 + 3x^4 - 7x^3 + 4x^2 + 4x - 10 \equiv 0(mod 175)$;

5) $x^4 - 4x^3 + 2x^2 + x + 6 \equiv 0(mod 135)$;

6) $4x^3 + 7x^2 - 7x - 10 \equiv 0(mod 225)$;

7) $31x^4 + 57x^3 + 96x + 191 \equiv 0(mod 225)$;

8) $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod 441)$;

9) $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod 1225)$.

IV.6-§. Ikkinchi darajali taqqoslamalar va Lejandr simvoli.

1. **Ikkinchi darajali taqqoslamalar va ularning ikki noma'lumli ikkinchi darajali aniqmas tenglamalar bilan bog'liqligi.** Ikkinchi darajali taqqoslamaning umumiy ko'rinishi

$$Ax^2 + Bx + C \equiv 0 \pmod{M} \qquad (1)$$

dan iborat. Bu ushbu ikki noma'lumli aniqmas tenglama

$$Ax^2 + Bx + C = My \qquad (2)$$

ga teng kuchli. (1) ko'rinishdagi taqqoslamani yechishga ikkinchi darajali ikki noma'lumli aniqmas tenglamaning umumiy holi

$$a x^2 + 2b x y + c y^2 + 2 d x + 2e y + f = 0$$

ham keltiriladi. Buni yechish esa o'z navbatida Pell tenglamasi $x^2 - a y^2 = c$ ning yechimi bilan ham bog'liqdir.

2. Ikki hadli taqqoslamaga keltirish. (1) ni hamma vaqt

$$x^2 \equiv a \pmod{m} \qquad (3)$$

ko'rinishga keltirish mumkin. Buni quyidagicha amalga oshiriladi. (1) ning ikkala tomonini 4A ga ko'paytiramiz (modulini ham)

$$4A^2x^2 + 4ABx + 4AC \equiv 0 \pmod{4AM}. \qquad (4)$$

(4) dan

$$(2Ax + B)^2 \equiv B^2 - 4AC \pmod{4AM}.$$

Bu yerda $y = 2Ax + B$, $D = B^2 - 4AC$ deb olsak, $y^2 \equiv D(mod 4AM)$ hosil bo'ladi.

Agar (3) taqqoslamada *(a,m)=1* bo'lib, u yechimga ega bo'lsa *a* ga *m* moduli bo'yicha *kvadratik chegirma*, agar yechimga ega bo'lmasa *kvadratik chegirma emas* deyiladi. Shuningdek, agar $x^n \equiv a \pmod{m}, (a,m) = 1$ taqqoslama yechimga ega bo'lsa, *a* ga *n – darajali chegirma*, aks holda esa *a* ga *m* moduli bo'yicha *n-darajali chegirma emas* deb ataladi.

(3) taqqoslamani yechish umumiy holda

1) $x^2 \equiv a \pmod{p}$, $p > 2$; 2) $x^2 \equiv a \pmod{p^\alpha}$, $\alpha > 1$; 3) $x^2 \equiv a \pmod{2^\alpha}$, $\alpha > 1$.

taqqoslamalarni yechishga keltiriladi.

3. Yechimlari soni.Tanlash yo'li bilan yechimlarini topish. Kvadratik chegirmalar soni. Ushbu

$$x^2 \equiv a \pmod{p}, \qquad p > 2 \qquad (5)$$

taqqoslama berilgan bo'lsin. Agar $p \backslash a$ bo'lsa, trivial hol bo'ladi, ya'ni $x \equiv 0 \pmod{p}$. Shuning uchun ham $x \equiv x_1 \pmod{p}$ deb hisoblaymiz. Tushunarliki, agar $x \equiv x_1 \pmod{p}$ (5) ning yechimi bo'lsa, $x \equiv -x_1 \pmod{p}$ ham (5) ning yechimi bo'ladi. $x \equiv -x_1 (mod p)$ dan $2x_1 \equiv 0 \pmod{p}$ va $\delta > 2 \Rightarrow x_1 \equiv 0 \pmod{p}$ kelib chiqadi, u holda $(a, p) = 1$ ga ziddir. Shunday qilib (5) yechimga ega bo'lsa, u 2 ta har xil yechimga ega bo'lar ekan. (5) yechimlarini tanlash usuli bilan topish jarayoni umumiy holga nisbatan ancha sodda. Bu yerda biz *p* moduli chegirmalarning keltirilgan sistemasini absolyut qiymati jihatidan eng kichik sistema ko'rinishda yozib olib

$$\pm 1, \ \pm 2, \ \ldots, \ \pm \frac{p-1}{2} \qquad (6)$$

musbat va manfiy chegirmalarning (5) ni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmasligi bir vaqtda tekshirishimiz mumkin. Shuning uchun ham (5) da x ning o'rniga

$$1, 2, 3, \ldots, \frac{p-1}{2}$$

larni qo'yib tekshirish yetarli. Bunda chap tomonda:

$$1^2, 2^2, \ldots, \left(\frac{p-1}{2}\right)^2 \qquad (7)$$

hosil bo'ladi. Bulardan birortasi, masalan k^2 soni$a$ bilan *modp* bo'yicha taqqoslanuvchi bo'lsa, u holda $x \equiv \pm k \pmod p$ ga ega bo'lamiz. Shu bilan birga faqat $a \pmod p$bo'yicha (7) da birorta son bilan taqqoslanuvchi bo'lgan (5) ko'rinishdagi taqqoslamalargina yechimga ega. Boshqacha so'z bilan aytganda (7) da $\bmod p$ bo'yicha kvadratik chegirmalar yozilgan. Ularning barchasi har xil sinflarga tegishli. Haqiqatan ham, agar

$1 \le k < l \le \frac{p-1}{2}$ bo'lib $k^2 \equiv l^2 \pmod p$ bo'lsa, u holda (5) 4 ta $x \equiv \pm k$ âà $x \equiv \pm l \pmod p$ yechimga ega bo'ladi. Buning bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, *modp* bo'yicha kvadratik chegirmalar soni $\frac{p-1}{2}$ ga teng va shuning uchun ham kvadratik chegirma emaslar son soni ham $\frac{p-1}{2}$ ga teng bo'ladi.

4. Eyler kriteriyasi. (5) ning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlash uchun Eyler tomonidan taklif etilgan ushbu kriteriyadan foydalanish qulay: Agar a oni *modp* bo'yicha kvadratik chegirma bo'lsa, $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1 \pmod p$ bo'ladi. Agar a soni *modp* bo'yicha kvadratik chegirma bo'lmasa, u holda $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv -1 \pmod p$ bo'ladi. Haqiqatan ham, agar $(a, p) = 1$va $(a, 2) = 1$ bo'lsa, $a^{p-1} \equiv 1 \pmod p$ bo'ladi (Ferma teoremasi). Bundan $a^{p-1} - 1 \equiv 0 \pmod p$ yoki $\left(a^{\frac{p-1}{2}} - 1\right)\left(a^{\frac{p-1}{2}} + 1\right) \equiv 0 \pmod p.$

Bu yerda bu qavslarning hech bo'lmasa birortasi p ga bo'linishi kerak. Ularning ikkalasi bir vaqtda p ga bo'linmaydi, aks holda ularning ayirmasi 2 ham p ga bo'linar edi, lekin $p>2$
Agar a kvadratik chegirma bo'lsa,

$$a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1 \pmod p \qquad (8)$$

bajariladi. Bu yerdan agar $a \pmod p$bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'lsa, u holda

$$a^{\frac{p-1}{2}} \equiv -1 \pmod p$$

bajariladi.

5. Lejandr simvoli va uning xossalari. a sonining $p$moduli bo'yicha kvadratik chegirma yoki chegirma emasligini aniqlashda Eyler kriteriyasidan foydalanish p katta bo'lsa uncha ham qulay emas. Shuning uchun Lejandr simvoli $\left(\frac{a}{p}\right)$ qo'llaniladi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$\left(\frac{à}{ð}\right) = \begin{cases} 1, \text{ agar } à \text{ soni } \bmod p \text{ bo'yicha kvadratik chegirma bo'lsa;} \\ -1, \text{agar } à \text{ soni } \bmod p \text{ bo'yicha kvadratik chegirma bo'lmasa.} \end{cases}$$

Lejandr simvoli ta'rifidan va Eyler kriteriyasidan

$$a^{\frac{p-1}{2}} \equiv \left(\frac{a}{p}\right) (\mathrm{mod}\, p) \qquad (9)$$

kelib chiqadi. Lejandr simvoli quyidagi xossalarga ega.

1^0. Agar $a \equiv a_1 (\mathrm{mod}\, p)$ bo'lsa, $\left(\frac{a}{p}\right) = \left(\frac{a_1}{p}\right)$ bo'ladi. Bundan $\left(\frac{a}{p}\right) = \left(\frac{a+pt}{p}\right)$, $t \in Z$.

$2^0. \left(\frac{1}{p}\right) = 1$, $3^0. \left(\frac{-1}{p}\right) = (-1)^{\frac{p-1}{2}}$, $4^0. \left(\frac{a \cdot b}{p}\right) = \left(\frac{a}{p}\right) \cdot \left(\frac{b}{p}\right)$, $5^0. \left(\frac{2}{p}\right) = (-1)^{\frac{p^2-1}{8}}$,

6^0. $\left(\frac{p}{q}\right) = (-1)^{\frac{p-1}{2} \cdot \frac{q-1}{2}} \left(\frac{q}{p}\right)$.

Lejandr simvolining qiymatini shu xossalardan foydalanib hisoblash mumkin. 6^0 – xossaga kvadratik chegirmalarning o'zgalik qonuni deyiladi.

292. Berilgan taqqoslamalarni ikkihadli taqqoslama ko'rinishiga keltirib, keyin yeching: 1) $2x^2 + 4x - 1 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 5)$; 2) $3x^2 + 2x \equiv 1 (\mathrm{mod}\, 7)$; 3) $2x^2 - 2x - 1 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 7)$;

4) $3x^2 - x \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 5)$; 5) $3x^2 + 7x + 8 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 17)$; 6) $3x^2 + 4x + 7 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 31)$;

7) $4x^2 - 11x - 3 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 13)$; 8) $x^2 - 5x + 6 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, 24)$.

293. x ning qanday natural qiymatlarida quyidagi funksiyalar butun qiymat qabul qiladi:

$$1) \frac{x^2 + 2x + 7}{55}; \; 2) \frac{x^2 + 3x + 1}{25}; \; 3) \frac{x^2 + 3x + 5}{15}.$$

294.a).Eyler kriteriyasidan foydalanib 7 moduli bo'yicha eng kichik musbat chegirmalarning keltirilgan sistemasida qaysi sonlar shu modul bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi.

b). 17 moduli bo'yicha eng kichik musbat kvadratik chegirmalarni aniqlang.

295. Eyler kriteriyasidan foydalanib quyidagi modullar bo'yicha kvadratik chegirma sinflarini aniqlang: 1) 11; 2) 13; 3) 17.

296. Quyidagi taqqoslamalarni berilgan modul bo'yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik (noldan boshqa) chegirmalarni sinab ko'rish yo'li bilan yeching:

1) $x^2 \equiv 2 (\mathrm{mod}\, 7)$; 2) $x^2 \equiv 4 (\mathrm{mod}\, 7)$; 3) $x^2 \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 7)$; 4) $x^2 \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 13)$; 5) $x^2 \equiv 4 (\mathrm{mod}\, 11)$.

297. Lejandr simvolining qiymatini hisoblang:

$$1) \left(\frac{63}{131}\right); \; 2) \left(\frac{35}{97}\right); \; 3) \left(\frac{47}{73}\right); \; 4) \left(\frac{29}{383}\right); \; 5) \left(\frac{241}{593}\right); \; 6) \left(\frac{257}{571}\right); \; 7) \left(\frac{251}{577}\right); \; 8) \left(\frac{342}{677}\right).$$

298. Lejandr simvolidan foydalanib quyidagi taqqoslamalardan qaysilari yechimga ega ekanligini aniqlang va yechimlarini toping:

1) $x^2 \equiv 6 (\mathrm{mod}\, 7)$; 2) $x^2 \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 11)$; 3) $x^2 \equiv 12 (\mathrm{mod}\, 13)$; 4) $x^2 \equiv 3 (\mathrm{mod}\, 13)$;

5) $x^2 \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 11)$; 6) $x^2 \equiv 13 (\mathrm{mod}\, 17)$; 7) $x^2 \equiv 7 (\mathrm{mod}\, 19)$; 8) $x^2 \equiv 5 (\mathrm{mod}\, 17)$.

299. Berilgan taqqoslamalar yechimga ega bo'ladigan a ning qiymatini toping:

$$1)\ x^2 \equiv a \pmod 5;\ 2)\ x^2 \equiv a \pmod 7;\ 3)\ x^2 \equiv a \pmod{11};$$

$$4)\ x^2 \equiv a \pmod{13};\ 5)\ x^2 \equiv 5 \pmod 3.$$

300. $x^2+1 \equiv 0 \pmod p$ taqqoslamaning modulning $p = 4n + 1, (n = 1,2,3, \dots)$ qiymatida va faqat shundagina yechimga ega ekanligini isbotlang.

301. $(a,b)=1$ bo'lganda a^2+b^2 ko'rinishdagi sonning kanonnik yoyilmasida faqat $p = 4n + 1, (n = 1,2,3, \dots)$ ko'rinishdagi tub sonlar qatnashishini isbotlang.

302. Ikki ketma-ket butun sonning ko'paytmasining 13 moduli bo'yicha 1 bilan taqqoslanuvchi bo'lmasligini isbotlang.

303. a ning $x(x+1) \equiv a \pmod{13}$ taqqqoslama yechimga ega bo'ladigan barcha qiymatlarini toping.

304. 300-masaladan foydalanib $p = 4n + 1, (n = 1,2,3, \dots)$ ko'rinishdagi tub sonlar sonining cheksiz ko'p ekanligini isbotlang.

305. Tenglamalarni butun sonlarda yeching (quyidagi egri chiziqlarda yotuvchi butun koordinatali nuqtalarni toping): 1) $4x^2-5y=6$; 2) $11y=5x^2-7$;

3) $x^2-10x-11y+5=0$; 4) $x^2-21x+110=13y$; 5) $15x^2-7y^2=9$.

306. Berilgan sonlar kvadratik chegirma(chegirma emas) bo'lgan modullarni toping: 1) $a=5$; 2) $a=-3$; 3) $a=3$; 4) $a=2$; 5) $a=-7$.

307. Berilgan taqqoslamalar yechimga ega bo'lgan barcha toq tub modullarni toping: 1). $x(x+1) \equiv 1 \pmod p$; 2). $x(x-1) \equiv 2 \pmod p$; 3). $x(x-1) \equiv 3 \pmod p$.

308. Lejandr simvolidan foydalanib quyidagi taqqoslamalar modul $p>2$ ning qiymatiga bog'liq bo'lmagan yechimga ega ekanligini isbotlang:

1) $(x^2-13)(x^2-17)(x^2-221) \equiv 0 \pmod p$;

2) $(x^2-3)(x^2-5)(x^2-7)(x^2-11)(x^2-1155) \equiv 0 \pmod p$.

V-bob. Boshlang'ich ildizlar va indekslar

V.1-§.Ko'rsatkichga qarashli sonlar va boshlang'ich ildizlar.

1.Ko'rsatkichga qarashli sonlar va boshlang'ich ildizlar. Agar *(a,m)=1* bolib δ>0

$$à^{\delta} \equiv 1(\mathrm{mod}\, m) \qquad (1)$$

ni qanoatlantiruvchi eng kichik butun son bo'lsa, u holda*a* soni *m* moduli bo'yicha δ *ko'rsatikichga tegishli* deyiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, agar *(a,m)=d >1* bo'lsa, (1) taqqoslama o'rinli bo'lmaydi,chunki uning o'ng tomoni d ga bo'linmaydi. Ma'lumki, *(a,m)=1* bo'lsa, Eyler teoremasiga ko'ra

$$a^{\varphi(m)} = 1(\mathrm{mod}\, m) \qquad (2)$$

Demak, *0<δ≤φ (m*). Agar δ=φ(m) bo'lsa, ya'ni *a* soni *m* moduli bo'yicha *φ(m)* ko'rsatkichga tegishli bo'lsa, *a* va *m* moduli bo'yicha *boshlang'ich ildiz* deyiladi. Agar *m=p* tub son bo'lsa, a soni *p* modul bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'lishi uchun u *p-1* ko'rsatkichiga tegishli bo'lishi kerak.*a* sonining *m* moduli bo'yicha tegishli bo'lgan ko'rsatkichini topish uchun quyidagicha yo'l tutish mumkin: $a, a^2, a^3, \ldots$ larni hisoblaymiz, toki birinchi $a^{\delta} \equiv 1(\mathrm{mod}\, m)$ shartni qanoatlantiruvchi δ ni hosil qilgunga qadar.

2. Endi ko'rsatkichga qarashli sonlarning ba'zi xossalarini qaraymiz.

$1^0.a_1 \equiv a(\mathrm{mod}\, m)$ bo'lsa, u holda *a* va a_2 lar *m* moduli bo'yicha bir xil ko'rsatkichga tegishli bo'ladi.

Demak, agar *a* soni *m* moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli bo'lsa *a* bilan taqqoslanuvchi sonlar $a + mt$ ning barchasi shu δ ko'rsatkichga tegishli bo'lar ekan.

2^0. Agar *a* soni *m* moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli bo'lsa, u holda

$$a^0,\ a,\ a^2,\ \ldots,\ a^{\delta-1} \qquad (3)$$

sonlari *m* moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanmaydi. Bu xossadan kelib chiqadiki, agar $\delta = \varphi(m)$ bo'lsa, (3) sistema *m* moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil qiladi.

3^0. Agar *a* soni *m* moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli bo'lsa, u holda

$$à^{\gamma} \equiv à^{\gamma_1}(\mathrm{mod}\, m) \qquad (4)$$

bo'lishi uchun $\gamma \equiv \gamma_1(\mathrm{mod}\, \delta)$ bo'lishi zarur va yetarlidir.

Natija.1). Agar *a* soni *m* moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli bo'lib, $a^{\gamma} \equiv 1(modm)$ bo'lishi uchun $\gamma \equiv 0(\mathrm{mod}\, \delta)$ bo'lishi zarur va yetarlidir.

2). Agar *a* soni *m* moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli bo'lsa, $\delta \setminus \varphi(m)$.

2-natijadan foydalanib δ ni topish jarayonini biroz soddalashtirish mumkin, ya'ni δ bu *φ (m)* ning bo'luvchilari orasida bo'ladi.

3). Agar *a* soni *m* moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli bo'lsa, a^k soni $\frac{\delta}{(\delta,k)}$ ko'rsatkichga tegishli bo'ladi. Xususiy holda, agar *(k,δ) = 1* bo'lsa, γ=δ, ya'ni $à^k$ soni ham δ ko'rsatkichga tegishli bo'ladi.

3. Ko'rsatkichga qarashli sinflarning mavjudligi va ularning soni. Biz bundan ilgari har bir *(a,m)=1* shartni qanoatlantiruvchia sonining *m* moduli bo'yicha biror δ $(\delta \setminus \varphi(m))$

ko'rsatkichga tegishli ekanligini ko'rdik. Buning teskarisi, ya'ni $\varphi(m)$ ning har bir bo'luvchisi m moduli bo'yicha biror sinfning ko'rsatkichi bo'ladimi? Xususan $\varphi(m)$ soni ham biror sinfning m moduli bo'yicha ko'rsatkichi bo'ladimi? Ya'ni ixtiyoriy m moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz mavjudmi? Bu savolga faqat $m=p$ – tub son hamda m maxsus (ba'zi bir ko'rinishdagi butun sonlar uchun) ijobiy javob bor.

Lemma. *p-1* sonining bo'luvchisi δ soni p moduli bo'yicha yoki birorta ham sinfning ko'rsatkichi bo'lmaydi yokita $\varphi(\delta)$ ta sinfning ko'rsatkichi bo'ladi.

(Bu lemmani boshqacha qilib quyidagicha aytish mumkin. Agar p moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli biror sinf mavjud bo'lsa (bu yerda $\delta \mid p-1$), u holda shunday sinflar soni $\varphi(\delta)$ bo'ladi).

Agar p moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga tegishli sinflar soninni $\psi(\delta)$ bilan belgilasak lemmani

$$\psi(\delta) = \begin{cases} 0 \\ \varphi(\delta) \end{cases}$$

ko'rinishda yozish mumkin. Bu agar δ ko'rsatkichga tegishli sonlar mavjud bo'lsa mod$p$ bo'yichaularning soni $p-1$ga tengligini bildiradi. Lekin berilgan δ uchun p modul bo'yicha shu ko'rsatkichga tegishli son mavjud yoki mavjud emasligiga javob bermaydi. Bunga ushbu teorema javob beradi.

Teorema (Gauss). p tub modul bo'yicha *p-1* ning har bir bo'luvchisi δ uchun shu δ ko'rsatkichga tegishli bo'lgan $\varphi(\delta)$ ta sinf mavjud. Xususan p moduli bo'yicha $\varphi(p-1)$ ta boshlang'ich ildiz mavjud.

Umuman boshlang'ich ildizlar $m = 2, 4, p^{\alpha}$ và $2p^{\alpha}$ modullari bo'yichagina mavjud. Bu yerda $p>2$ tub son va $\alpha \geq 1$. I.M.Vinogradov p tub son bo'lsa, u holda $2^{2^{\hat{e}}}\sqrt{p}\ln p$ dan katta bo'lmagan boshlang'ich ildiz mavjud ekanligini isbotlagan, bu yerda κ soni *p-1* ning har xil bo'luvchilari sonidir. Boshlang'ich ildizni topishning effektiv usuli esa hozirgacha topilgan emas. Qarab chiqilganlardan agar

$$g^{\frac{p-1}{\delta_1}} \not\equiv 1, \quad g^{\frac{p-1}{\delta_2}} \not\equiv 1, \ \ldots, \ g^{\frac{p-1}{\delta_k}} \not\equiv 1$$

bo'lsa, u holda g ning p moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'lishi kelib chiqadi. Boshlang'ich ildizlarni aniqlashning ikkinchi bir usuli bu, agar p moduli bo'yicha boshlang'ich ildizlardan birortasi (yaxshisi eng kichigi) g ma'lum bo'lsa, qolgan barchasini $g^k (mod p)$ ning eng kichik musbat chegirmasi sifatida aniqlash mumkin. Bunda $(k, p-1) = 1$ va $1 < k < p-1$.

309.1) 2 soni 7 moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichini toping.
2) 3 soni m=7 moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichini toping.
3) 5 ning m=7 moduli bo'yicha qanday ko'rsatkichga tegishli ekenligini aniqlang.

310. Tanlash usuli bilan m moduli bo'yicha 2 dan $m-1$ gacha sonlar orasidan m bilan o'zaro tublari tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini toping:

1). $m = 5$; 2). $m = 7$; 3). $m = 8$; 4). $m = 10$; 5) $m = 11$; 6). $m = 9$.

311. m moduli bo'yicha $m-1$ soni tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichini aniqlang.

312. Quyidagi modullar bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarni toping:

1). $p = 7$; 2) $p = 11$; 3). $p = 13$; 4). $p = 17$.

313. Quyidagi modullar bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarning sonini va eng kichik boshlang'ich ildizni toping:

$1).p = 19;\quad 2)\,p = 23;\quad 3).p = 31;\quad 4).\ p = 37;\ 5).p = 43;\ 6).53.$

314. Quyidagi modullarning har biri bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni bilgan holda barcha boshlang'ich ildizlarni toping:

$$1).p = 19;\quad 2)\,p = 23;\quad 3).p = 31.$$

315. 6 moduli bo'yicha boshlang'ich ildizlarning barcha sinflarini toping.

316. $2, 2^2, 2^3, \dots, 2^{10}$ sonlarining 11 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etishini isbotlang.

317. $2^{2^n} + 1, (n = 1,2,\dots)$ sonining tub bo'luvchilari $k \cdot 2^{n+1} + 1$ ko'rinishda bo'lishini isbotlang.

318. $\varphi(a^m - 1) \equiv 0(modm)$ ekanligini isbotlang. Bunda $a > 1$.

319. 8 moduli bo'yicha boshlang'ich ildizlarning mavjud emasligini isbotlang.

320. Quyidagi taqqoslamalar yechimga ega bo'ladigan b ning barcha qiymatlarini toping. $1).5^x \equiv b(mod9),\ 2).4^x \equiv b(mod9),\ 3).a^x \equiv b(modm)$ taqqoslama yechimga ega bo'lmaydigan b ning barcha qiymatlarini sonini toping. Bunda $(a, m) = 1$.

V.2-§. Indekslar va ularning tadbiqlar

Boshlang'ich ildizlarning asosiy xossalari sonlar nazariyasiga logarifm tushunchasiga o'xshash yangi tushuncha, indekslar tushunchasini kiritish imkoniyatini beradi. Faraz etayli g soni p tub moduli bo'yicha boshlag'ich ildiz bo'lsin. U holda

$$g^0,\ g^1,\ g^2,\ \dots,\ g^{p-1} \tag{1}$$

sonlari p moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini tashkil etadi. Agar a, $(a,p)=1$ bo'lsa, u $modp$ bo'yicha (1) sistemadagi birorta $g^{\gamma_1}, 0 \le \gamma_1 \le p-1$ son bilan taqqoslanuvchi bo'lishi kerak, ya'ni

$$a \equiv g^{\gamma_1} \pmod p, \qquad 0 \le \gamma_1 \le p-1 \tag{2}$$

Agar $(a,p)=1$ bo'lsa,

$$a \equiv g^{\gamma} \pmod p, \quad \gamma \ge 0 \tag{3}$$

(3) shartni qanoatlantiruvchi γ soniga a sonining $p$moduli bo'yicha g asosga ko'ra indeksi deyiladi va $ind_g a$ ko'rinishda yoziladi. Demak (3) dan

$$a \equiv g^{ind\,a} \pmod p\ . \tag{4}$$

Ta'rifdan a bilan $modp$ bo'yicha taqqoslanuvchi barcha sonlar (4) da birta indeksga ega:

$$0, 1, 2,\ \dots\ , p-2 \tag{5}$$

Umuman har bir a soni (5) sistemada birta indeksga ega. Lekin bir asosdan ikkinchi asosga o'tilsa indekslar umuman aytganda o'zgaradi. Ikkinchi tomondan esa berilgan g asosga ko'ra a soni cheksiz ko'p indekslar γ ga ega. (1) va (2) dan bular manfiy bo'lmagan butun sonlar bo'lib $g^{\gamma} \equiv g^{\gamma_1} \pmod p$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bu yerda g soni p modul bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'lganligi sababli, u $p-1$ ko'rsatkichga tegishli. U holda ko'rsatkichga qarashli sonlarning

xossalariga asosan yuqoridagi taqqoslama o'rinli bo'lishi uchun $\gamma \equiv \gamma_1 (\mathrm{mod}\, p-1)$ bo'lishi kerak. Demak, *r* moduli bo'yicha *p* bilan o'zaro tub har bir chegirmalar sinfiga *p*-1 bo'yicha chegirmalarning biror sinfidagi manfiy bo'lmagan chegirmalardan iborat indekslar to'plami mos keladi va aksincha: $ind\, a \equiv ind\, b (\mathrm{mod}\, p-1)$ àâàðàà $a \equiv b (\mathrm{mod}\, p)$ бўлса (4) га асосан

$$\gamma \equiv ind\, a (\mathrm{mod}\, p-1) \qquad (5)$$

Shuningdek indekslar quyidagi xossalarga ega:

1) ko'paytma $a \cdot b \cdot \cdots l$ ning indeksi *p*-1 moduli bo'yicha shu sonlar indekslari yig'indisi bilan taqqoslanuvchidir, ya'ni

$$ind\,(a \cdot b \cdot \ldots \cdot l) \equiv ind\, a + ind\, b + \ldots ind\, l (\mathrm{mod}\, p-1). \qquad (6)$$

2) $ind\, a^n \equiv n\, ind\, a (\mathrm{mod}\, p-1)$.

Shuningdek $ind\, 1 \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p-1)$, $ind\, g \equiv 1 (\mathrm{mod}\, p-1)$.

Indekslar jadvali. Indekslar jadvalini tuzish *p* tub modul bo'yicha berilgan songa ko'ra uning indeksi va aksincha berilgan indeksga ko'ra shu sonni topish imkoniyatini beradi. Bunda asos sifatida *p* modul bo'yicha boshlang'ich ildizlardan birortasi olinadi. Umuman indekslar jadvalini tub bo'lmagan boshlang'ich ildizlar mavjud bo'lgan *m* modul bo'yicha tuzish ham mumkin.

Indekslarning taqqoslamalarni yechishga tadbiqlari.

a) Ikki hadli taqqoslamalarni yechish. Ikki hadli bir noma'lumli tnglamaning umumiy ko'rinishi

$$ax^n \equiv b (\mathrm{mod}\, m) \qquad (7)$$

Ma'lumki, murakkab *m* modul bo'yicha taqqoslamani tub modul bo'yicha taqqoslamani yechishga keltirish mumkin. Shuning uchun ham *m* =*p* bo'lgan holni

$$ax^n \equiv b (\mathrm{mod}\, p), \qquad p \dagger a \qquad (8)$$

qaraymiz. *p*>2 deb olamiz. *p=2* bo'lsa, 0 va 1 chegirmalarni sinab ko'rish yo'li bilan yechish mumkin. (8) dan *inda+nindx≡indb(modp-1)* yoki bundan

$$nindx = indb - inda\ (modp-1). \qquad (9)$$

Demak,1) *(n, p-1)=1* bo'lsa, u holda (9) va demak (8) ham yagona yechimga ega;

2) *(n, p-1)= d>1* bo'lib, *d|ind b-inda* bo'lsa, (9) va demak (8) ham *d* ta yechimga ega;

3) *(n,p-1)=d>1* bo'lib, *d∤ind b-inda* bo'lsa, (9) va demak (8) ham yechimga ega emas.

b). $x^n \equiv a (\mathrm{mod}\, p)$ (10)

taqqoslamaning yechimga ega bo'lish sharti. Bu taqqoslamani indekslasak

$$n\, ind\, x \equiv ind\, a (\mathrm{mod}\, p-1). \qquad (11)$$

Bu yerda $(n, \quad p-1) = d$ bo'lsa, (11) ning yechimga ega bo'lishi uchun

$$ind\, a \equiv 0 (\mathrm{mod}\, d) \qquad (12)$$

shartning bajarilishi zarur va yetarlidir. (12) shartni p va d ga bog'liq holda ifodalaymiz.

(12) ning ikkala tomonini va modulini $\frac{p-1}{d}$ ga ko'paytiramiz, u holda $\frac{p-1}{d} ind\, a \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p-1)$

yoki $ind\, a^{\frac{p-1}{d}} \equiv 0 (\mathrm{mod}\, p-1)$. Bundan esa

$$a^{\frac{p-1}{d}} \equiv 1 (\mathrm{mod}\, p) \qquad (13)$$

Shunday qilib (10) ning yechimga ega bo'lishi uchun (13) shartning bajarilishi zarur va yetarlidir.

в) *Ko'rsatkichli taqqoslamalarni yechish.*

$$a^x \equiv b(\mathrm{mod}\, p). \qquad (14)$$

(14) dan $x\, ind\, a \equiv ind\, b(\mathrm{mod}\, p-1)$. Bu taqqoslamani esa osongina yechish mumkin.

321. Indekslar jadvalini tuzing: 1). 2 asosga ko'ra 29 moduli boyicha; 2). 5 asosga ko'ra 23 moduli boyicha.

322. 11 moduli bo'yicha indekslar jadvalini tuzing.

323. Quyidagi taqqoslamalardan δ ko'rsatkichni aniqlang:

1) $5^{\delta} \equiv 1(mod 7)$; 2) $5^{\delta} \equiv 1(mod 11)$; 3) $8^{\delta} \equiv 1(mod 13)$;
4) $12^{\delta} \equiv 1(mod 17)$; 5) $24^{\delta} \equiv 1(mod 31)$; 6) $10^{\delta} \equiv 1(mod 13)$
7) $27^{\delta} \equiv 1(mod 17)$; 8) $18^{\delta} \equiv 1(mod 11)$; 9) $23^{\delta} \equiv 1(mod 41)$.

324. Indekslashdan foydalanib$p$ tub moduli bo'yicha 2 dan p-1 gacha bo'lgan sonlar tegishli bo'lgan ko'rsatkichlarni toping:1) $p = 5$; 2) $p = 7$; 3) $p = 11$.

325. Indekslashdan foydalanib quyidagi sonlarning 59 moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'lish bo'lmasligini aniqlang:

1) 2; 2) 3; 3) 6; 4) 8; 5) 12; 6) 13; 7) 14; 8) 19.

326. Quyidagi modullar bo'yicha boyicha barcha boshlang'ich ildizlarni toping: 1) $p = 17$; 2) $p = 19$; 3) $p = 23$.

327. Birinchi darajali taqqoslamalarni indekslardan foydalanib yeching:

1) $7x \equiv 23(mod 17)$; 2) $39x \equiv 84(mod 97)$; 3) $125x \equiv 7(mod 79)$;
4) $37x \equiv 25(mod 89)$; 5) $4x \equiv 13(mod 37)$; 6) $37x \equiv 5(mod 221)$;
7) $47x \equiv 13(mod 667)$; 8) $228x \equiv 317(mod 1517)$.

328. Ko'rsatkichli taqqoslamalarni indekslardan foydalanib yeching:

1) $2^x \equiv 7(mod 67)$; 2) $13^x \equiv 12(mod 47)$; 3) $16^x \equiv 11(mod 53)$;
4) $52^x \equiv 38(mod 61)$; 5) $12^x \equiv 17(mod 31)$; 6) $20^x \equiv 21(mod 41)$.

329.Ikki hadli taqqoslamalarni indekslardan foydalanib yeching:

1) $37x^{15} \equiv 62(mod 73)$; 2) $5x^4 \equiv 3(mod 11)$; 3) $2x^8 \equiv 5(mod 13)$;
4) $2x^3 \equiv 17(mod 41)$; 5) $27x^5 \equiv 25(mod 31)$; 6) $11x^3 \equiv 6(mod 79)$;
7) $23x^3 \equiv 15(mod 73)$; 8) $8x^{26} \equiv 37(mod 41)$; 9) $37x^8 \equiv 59(mod 61)$;
10) $18x^8 \equiv 6(mod 13)$.

330.Ikki hadli taqqoslamalarni indekslardan foydalanib yeching:

1) $x^{12} \equiv 37(mod 41)$; 2) $x^{55} \equiv 17(mod 97)$; 3) $x^{35} \equiv 17(mod 67)$;
4) $x^{30} \equiv 46(mod 73)$; 5) $x^8 \equiv 23(mod 41)$; 6) $x^5 \equiv 74(mod 71)$;
7) $x^{27} \equiv 39(mod 43)$; 8) $x^8 \equiv 29(mod 13)$; 9) $x^2 \equiv 59(mod 67)$;
10) $x^2 \equiv 59(mod 83)$; 11) $x^2 \equiv 32(mod 43)$; 12) $x^2 \equiv -17(mod 53)$;
13) $x^2 \equiv -28(mod 67)$; 14) $x^2 \equiv 56(mod 41)$.

331. Eyler kriteriyasi va indekslardan foydalanib quyidagi sonlar 15, 16, 17, 18, 19, 20 dan qaysilari berilgan modul bo'yicha kvadratik chegirma bo'lishini aniqlang: 1) 23 moduli bo'yicha; 2) 29 moduli bo'yicha; 3) 41 moduli bo'yicha; 4) 73 moduli bo'yicha; 5) 97 moduli bo'yicha.

332. Berilgan modul bo'yicha indekslarning bir sistemasidan ikkinchi bir sistemasiga o'tish formulasini keltirib chiqaring.

333. a ning qanday butun qiymatlarida quyidagi munosabatlar o'rinli:

$$1)\ 3a^2 - 5 \vdots 7; \quad 2)\ 7a^2 + 13 \vdots 23; \quad 3)\ 13a^2 - 11 \vdots 29.$$

V.3-§. Taqqoslamalar nazariyasining ba'zi tadbiqlari

1.Berilgan songa bo'lishdan chiqqan qoldiqni hisoblash. Taqqoslamalar yordamida bo'linish belgilarini keltirib chiqarish.

A. Birinchi bo'lib fransuz matematigi B. Paskal berilgan N sonini m ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni hisoblash qulay bo'ladigan qilib boshqa son bilan almashtirishning umumiy usulini ko'rsatgan. Biz bu usulni o'nlik sanoq sistemasida berilgan sonlar uchun qarab chiqamiz. Onlik sistemadagi N soni $N = a_0 + a_1 \cdot 10 + a_2 \cdot 10^2 + \ ... + \ a_n \cdot 10^n$ ko'rinishda bo'lsin. 10^k ning m moduli bo'yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmasini r_k bilan belgilaylik, ya'ni $10^k \equiv r_k(modm),\ k = 0,1, \dots, n$ va $r_0 = 1$ bo'lsin. U holda

$$N = a_0 r_0 + a_1 \cdot r_1 + a_2 \cdot r_2 + \ ... + \ a_n \cdot r_n \qquad (1)$$

yoki

$$N \equiv R_m(modm)$$

bajariladi. Bu yerda $R_m = a_0 r_0 + a_1 \cdot r_1 + a_2 \cdot r_2 + \ ... + \ a_n \cdot r_n$ yuqorida aytib o'tilgan almashtirishni ifodalaydi. (1)-taqqoslama Paskalning bo'linish belgisini ifodalaydi:

1. R_m va N ni m ga bo'lishdan bir xil qoldiq qoladi;
2. N ning m ga bo'linishi uchun R_m ning m ga bo'linishi zarur va yetarlidir.

Endi ba'zi bir xususiy hollarni qaraymiz:

1). Agar $m = 3$ bo'lsa, u holda $10 \equiv 1(mod3)$ va $10^k \equiv 1(mod3)$ bo'lgani uchun $R_3 = a_0 + a_1 + a_2 + \ ... + \ a_n$ bo'ladi. Bundan berilgan sonning 3 ga bo'linishi uchun uni tashkil etuvchi raqamlarining yig'indisining 3 ga bo'linishi zarur va yetarli degan tasdiq kelib chiqadi.

2). Shuningdek, agar $m = 9$ bo'lsa, u holda $10 \equiv 1(mod9)$va $10^k \equiv 1(mod9)$ bo'lgani uchun $R_9 = a_0 + a_1 + a_2 + \ ... + \ a_n$ bo'ladi. Bundan berilgan sonning 9 ga bo'linishi uchun uni tashkil etuvchi raqamlarining yig'indisining 9 ga bo'linishi zarur va yetarli degan tasdiq kelib chiqadi.

3). Agar $m = 11$ bo'lsa, u holda $10 \equiv -1(mod11)$ va $10^k \equiv (-1)^k(mod11)$ bo'lgani uchun $R_{11} = (a_0 + a_2 + \cdots) - (a_1 + a_3 + \cdots)$ bo'ladi. Bundan berilgan sonning 11 ga bo'linishi uchun uni tashkil etuvchi juft o'rindagi raqamlari yig'indisidan toq o'rindagi raqamlarini yigindisining ayirmasi 11 ga bo'linishi zarur va yetarli degan tasdiq kelib chiqadi.

4). Agar $m = 7$ bo'lsa, u holda $10^0 \equiv 1(mod7), 10 \equiv 3(mod7), 10^2 \equiv 2(mod7), 10^3 \equiv -1(mod7),$ $10^4 \equiv -3(mod7), 10^5 \equiv -2(mod7), 10^6 \equiv 1(mod7)$ bo'lgani uchun $R_7 = (a_0 + 3a_1 + 2a_2) - a_3 - 3a_4 - 2a_5 + \cdots$ bo'ladi. Bu yerda endi ifoda biroz murakkab.

B. Endi 10 soni m moduli bo'yicha δ ko'rsatkichga qarashli bo'lgan holga to'xtalamiz: bu holda $10^\delta \equiv 1(modm)$ bo'lgani uchun $r_\delta = 1$. Shuning uchun ham r_δ dan bosglab qoldiqlar takrorlanadi va $R_m = a_0 + a_1 \cdot r_1 + a_2 \cdot r_2 + \ ... + \ a_{\delta-1} \cdot r_{\delta-1} + a_\delta + a_{\delta+1} \cdot r_1 + \cdots$ bo'ladi. 3,7,9,11 modullari bo'yicha 10 soni mos ravishda 1, 6. 1, 2 ko'rsatkichlarga tegishli bo'lgani uchun bu modullar bo'yicha

qoldiqlar mos ravishda r_1, r_6, r_1, r_2 lardan boshlab takrorlanadi. Buni biz yuqoridagi 1)-4)- misollarda ko'rdik.

2.Oddiy kasrni o'nlik kasrga aylantirishda hosil bo'ladigan rasrning davr uzunligini aniqlash. A. Ma'lumki, maxrajida 2 va 5 dan boshqa sonlar qatnashgan qisqarmas oddiy kasr $\frac{a}{b}$ ni o'nlik kasrga aylantirsak cheksiz davriy kasr hosil bo'ladi. Davrdagi raqamlar sonini aniqlash uchun avvalo qisqarmas oddiy kasr $\frac{a}{b}$ maxrajida 2 va 5 sonlari qatnashmagan, ya'ni $(10, b) = 1$ bo'lgan holni qaraymiz. Bunda $(a < b)$ bo'lgan holni ($\frac{a}{b}$ −to'g'ri kasrni) qarash bilan chegaralanish mumkin. Tushunarliki, bunday kasrning surati a soni $b$dan kichik va b bilan o'zaro tub bo'lgan $\varphi(b)$ ta quymatdan birini qabul qiladi. Oddiy kasrrni on'lik kasrga aylantirishdagi singari ish tutib m qadamdan keyin quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} 10a = bq_1 + r_1, \\ 10r_1 = bq_2 + r_2, \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ 10r_{m-1} = bq_m + r_m, \end{cases} \quad (1)$$

bu yerdagi barcha r_i qoldiqlar $0 < r_i < b$ shartni qanoatlantiradi. Shuningdek, $b > a$ bo'lgani uchun $q_1 < 10; b > r_1$ bo'lgani uchun $q_2 < 10$ va xokazo. Shunday qilib, barcha q_i lar raqamlardir. Misol uchun: $\frac{a}{b} = \frac{5}{13}$ bo'lsa, (1) quyidagicha bo'ladi: $10 \cdot 5 = 13 \cdot 3 + 11,$

$$10 \cdot 11 = 13 \cdot 8 + 6, \quad 10 \cdot 6 = 13 \cdot 4 + 8, \quad 10 \cdot 8 = 13 \cdot 6 + 2, \quad 10 \cdot 2 = 13 \cdot 1 + 7,$$
$$10 \cdot 7 = 13 \cdot 5 + 5 \qquad (1')$$

lardan iborat bo'ladi.

(1) da $(10, b) = 1$ va$(a, b) = 1$ bo'lgani uchun $(10a, b) = 1$ bo'ladi bundan esa $(r_i, b) = 1$ ekanligi kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda r_i lar b moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasiga tegishli bo'ladi, ya'ni ularning soni $\varphi(b)$ tadan ko'p bo'la olmaydi. Shuning uchun ham ko'pi bilan $\varphi(b)$ qadamdan keyin qoldiqdagi va ular bilan birga bo'linmadagi raqamlar ham takrorlanadi. Bundan esa davrda $\varphi(b)$ tadan ko'p raqam bo'lmasligi kelib chiqadi.

B. Davrdagi raqamlar va davr haqida aniqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun (1) dagi tengliklarni b moduli bo'yicha qaraymiz:

$$\begin{cases} 10a \equiv r_1 (mod b), \\ 10r_1 \equiv r_2 (mod b), \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ 10r_{m-1} \equiv r_m (mod b), \end{cases} \quad (2)$$

bularni hadlab ko'paytirib va $(r_1 r_2 \cdots r_{m-1}, b) = 1$ bo'lgani uchun $r_1 r_2 \cdots r_{m-1}$ ga qisqartirib

$$10^m a \equiv r_m (mod b) \quad (3)$$

ni hosil qilamiz. Endi m qandaydir bir son bo'lmasdan, balki 10 sonining b moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'satkichi bo'lsin, ya'ni m soni $10^m \equiv 1 (mod b)$ taqqoslama o'rinli bo'lgan eng kichik ko'rsatkich bo'lsin. Bunday m lar uchun (3) dan $a \equiv r_m (mod b)$ kelib chiqadi. Bu yerda $0 < a < b$ va $0 < r_m < b$ bo'lgani uchun $a = r_m$ kelib chiqadi.

Shunday qilib biz berilgan kasrning suratiga teng bo'lgan qoldiqni hosil qildiq. Bu yerdan kelib chiqadiki, shu qadamdan boshlab qoldiqlar takrorlana boshlaydi: $r_{m+1} = r_1, \ r_{m+2} = r_2, \dots$. Tushunarliki, ana shunday aniqlangan m soni kasrning davridagi raqamlari sonini, davrning uzunligini bildiradi.

Demak, bu holda sof davriy kasrga ega bo'lamiz va bunda davrdagi raqamlar soni faqat berilgan kasrning maxrajigabog'liq, suratiga bog'liq emas ekan. Bundan esa maxraji bir xil bo'lgan barcha oddiy kasrlarni o'nlik kasrga aylantirilganda bir xil davr uzunligiga ega degan xulosa kelib chiqadi.

C. Endi maxraji bir xil bo'lgan barcha oddiy kasrlarni o'nlik kasrga aylantirilganda davrda hosil bo'ladigan raqamlarni aniqlaymiz. (1) –tengliklardan $\frac{a}{b} = \frac{r_0}{b}$ kasrning davri $q_1 q_2 \cdots q_m$; $\frac{r_1}{b}$ kasrning davri $q_2 q_3 \cdots q_m q_1$; ... , $\frac{r_k}{b}$ kasrning davri $q_{k+1} \cdots q_k$ dan iborat ekanligi kelib chiqadi.

Shunday qilib $\frac{r_0}{b}, \frac{r_1}{b}, \dots, \frac{r_{m-1}}{b}$ kasrlarning davrlari biridan raqamlarnidoiraviy almashtirish natijasida hosil bo'lar ekan. Bunda $\frac{r_k}{b}$ kasrning davrini hosil qilish uchun $\frac{r_0}{b}$ kasrning davridagi k ta raqamni o'ng tomonga doiraviy almashtirish kerak bo'lar ekan.

Misol. $\frac{a}{b} = \frac{5}{13}$ bo'lsin. 10 soni 13 moduli bo'yicha 6 ko'rsatkichiga tegishli bo'lgani uchun davrda 6 ta raqam bo'lishi kerak. Shuning uchun ham $(1')$ ga asosan

$$\frac{5}{13} = 0,(384615), \quad \frac{11}{13} = 0,(846153), \quad \frac{6}{13} = 0,(461538),$$
$$\frac{8}{13} = 0,(615384), \quad \frac{2}{13} = 0,(153846), \quad \frac{7}{13} = 0,(538461) \qquad (4)$$

larga ega bo'lamiz.

D. Agar 10 soni b moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'lmasa ($b \neq p^{\alpha}, \alpha \geq 1$ bo'lganda bu albatta shunday bo'ladi, chunki bunday *b, (b,10)=1* modul bo'yicha boshlang'ich ildiz mavjud emas) u b moduli bo'yicha biror $m < \varphi(b)$ ko'rsatkichiga tegishli bo'ladi. Ma'lumki, bunda m soni $\varphi(b)$ ning bo'luvchisi bo'ladi, ya'ni $\varphi(b) = m \cdot d$, u holda mahraji b gat eng bo'lgan qisqarmas $\varphi(b)$ ta kasrlar $d$ta sistemaga bo'linadi. Bular:

$\frac{r_0}{b}, \frac{r_1}{b}, \dots, \frac{r_{m-1}}{b}; \frac{s_0}{b}, \frac{s_1}{b}, \dots, \frac{s_{m-1}}{b}; \cdots; \frac{t_0}{b}, \frac{t_1}{b}, \dots, \frac{t_{m-1}}{b}$ lardan iborat bo'ladi. Bu yerda s_0 soni $r_0, r_1, \cdots, r_{m-1}$ lardan farql i $\frac{s_0}{b}$ kasrning surati.

Misol. 10 soni 13 moduli bo'yicha 6 ko'rsatkichiga tegishli bo'lgani uchun u boshlang'ich ildiz emas. Shuning uchun ham maxraji 13 ga teng bo'lgan to'g'ri kasrlar $d = \frac{\varphi(13)}{6} = \frac{12}{6}$ ta sistemaga ajraladi. Bulardan biri bilan biz yuqoridagi misolda tanishdik ((4) ga qarang). Ikkinchisini aniqlash maqsadida maxraji 13 ga teng bo'lgan surati esa (4) dagi kasrlarning suratidan farq qiluvchi biror kasrni olamiz. Masalan, $\frac{1}{13}$, u holda (4) ni tuzishdagi singari yo'l tutib

$$\frac{1}{13} = 0,(076923), \quad \frac{10}{13} = 0,(769230), \quad \frac{9}{13} = 0,(692307),$$
$$\frac{12}{13} = 0,(923076), \quad \frac{3}{13} = 0,(230769), \quad \frac{4}{13} = 0,(307692)$$

larni hosil qilamiz.

E. Endi b bilan 10 soni ozaro tub bo'lmaganda $\frac{a}{b}$ kasrni o'nlik kasrga aylantirishni qaraymiz. Faraz etaylik $b = 2^{\alpha} \cdot 5^{\beta} \cdot b_1$ bo'lsin, bunda $(b_1, 10) = 1$. α va β sonlaridan eng kattasini n bilan belgilab olamiz. U holda

$$\frac{10^n a}{b} = \frac{2^{n-\alpha} \cdot 5^{n-\beta} \cdot a}{b_1} = \frac{a_1}{b_1}.$$

$\frac{a_1}{b_1}$, $(b, 10) = 1$ kasrni o'nlik kasrga aylantirib

$$\frac{10^n a}{b} = \frac{a_1}{b_1} = K,(q_1 q_2 \cdots q_m)$$

ni hosil qilamiz. Bundan $\frac{a}{b}$ ni topish uchun uni 10^n ga bo'lamiz. U holda bergulni n ta belgi chap tomonga surish kerak boladi. Buning natijasida $\frac{a_1}{b_1} = k, k_1 k_2 \cdots k_n (q_1 q_2 \cdots q_m)$ dan iborat aralash davriy kasrga ega bo'lamiz.

3. Arifmetik amallar natijasini tekshirish. Faraz etaylik N_1 sonini N_2 ga qo'shib N soni hosil qilingan bo'lsin:

$$N = N_1 + N_2 \qquad (5)$$

U holda $N_1 \equiv r_1$, $N_2 \equiv r_2, N \equiv r(modm)$ deb yozish mumkin. (5) ga asosan

$$r_1 + r_2 \equiv r(modm) \qquad (5')$$

bajarilisni kerak. Shunga o'xshash

$$N = N_1 - N_2 \qquad (6)$$

bo'lsa,

$$r_1 - r_2 \equiv r(modm); \quad (6')$$

agarda

$$N = N_1 \cdot N_2 \quad (7)$$

bo'lsa,

$$r_1 \cdot r_2 \equiv r(modm); \quad (7')$$

agarda

$$N = N_1 \cdot N_2 + N_3 \quad (8)$$

bo'lsa, ya'ni N ni N_1 ga bo'lsak N_2 tadan tegib N_3 qoldiq qolsa,

$$r_1 \cdot r_2 + r_3 \equiv r(modm) \quad (8')$$

bajarilishi kerak. Tushunarliki, $(5') - (8')$ shartlar $(5) - (8)$ lardagi amallarning to'g'ri bajarilgan ekanligini tekshirishning zaruriy shartlari bo'lib ular yetarli shatlar bo'la olmaydilar.

Amallar natijalarini tekshirish imkoni boricha ishonchli va bir vaqtning o'zida sodda bo'lishi uchun modul sifatida 9 soninni tanlash ma'qul, chunki sonni 9 ga bo'lishdan chiqqan qoldiq shu sonni tashkil etuvchi raqamlar yig'indisini 9 ga bo'lishdan chiiqqan qoldiqga teng. Bu jarayonda berilgan sonning barcha raqamlari ishtirok etadi shuning uchun ham ishonchlilik darajasi yuqori va jarayon sodda bo'ladi. Lekin $m = 10$ ni olsak jarayon yanada soddalashadi, lekin bunday tekshirishni ishonchli deb bo'lmaydi, chunki bu jarayonda berilgan sonning faqat oxirgi raqamigina istirok etadi. Agar tekshirishni $m = 11$ moduli bo'yicha bajarsak, ishonchlilik sezilarli darajada oshadi.

334. a sonini m ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni toping:

1). $a = 2^{64},\ m = 360;$ 2). $a = 1532^5 - 1, m = 9;$

3). $a = (1271^{56} + 34)^{28},\quad m = 111;$ 4). $a = 8!\,, m = 11.$

335. Agar $a^x \equiv 2(mod13)$ va $a^{x+1} \equiv 6(mod13)$ bo'lsa, a ni $m = 13$ bo'lishdan chiqqan qoldiqni toping.

336. Eyler teoremasini qo'llab a sonini m ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni toping:

1). $a = 174^{249}, m = 13;$ 2). $a = 18632^5 - 5, m = 10;$

3). $a = 2^{37\cdot 73-1}, m = 37 \cdot 73.$

337. Quyidagi sonlarning oxirgi ikkita raqamini toping:

1). $203^{20};$ 2). $243^{402};$ 3). $1812 \cdot 1941 \cdot 1965;$ 4). $(116 + 17^{17})^{21}.$

338. Isbotlang: 1).$(2^{32} + 1) \vdots 641;$ 2). $(222^{555} + 555^{222}) \vdots 7;$

3). $(220^{119^{69}} + 69^{220^{119}} + 119^{69^{220}}) \vdots 102;$ 4). $(6^{2n+1} + 5^{n+2}) \vdots 31.$

339. $4^{\varphi(m)-1}$ sonini $m > 1$ toq soniga bo'lishdan chiqqan qoldiqni toping.

340. Indekslardan foydalanib berilgan$a$ sonini $m$ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni toping: 1). $a = 10^{10}, m = 67;$ 2). $a = 178^{52}, m = 11;$

3). $a = 2017^{2018}, m = 11.$

341. Paskalning umumiy bo'linish belgisidan foydalanib 1)6 ga; 2) 8 ga;

3) 12 ga; 4) 15; 18; 45 ga bo'linish belgisini keltirib chiqaring.

342. 792 ga bo'linadigan $13xy45z$ ko'rinishidagi barcha sonlarni toping.

343. Quyidagi oddiy kasrlarni cheksiz o'nli kasrlarga aylantirmasdan davr uzunligini aniqlang: 1) $\frac{4}{21};$ 2) $\frac{9}{91};$ 3) $\frac{1}{43};$ 4) $\frac{a}{97}$, bunda $(a, 97) = 1$

344. Quyidagi oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlang:

1) $\frac{10}{17\cdot 23}$; 2) $\frac{1}{53\cdot 59}$; 3) $\frac{1}{7\cdot 23\cdot 31}$; 4) $\frac{1}{11\cdot 13\cdot 17}$; 5) $\frac{1}{13\cdot 37}$.

345. Quyidagi oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlang: 1) $\frac{1}{14}$; 2) $\frac{7}{550}$; 3) $\frac{1}{5\cdot 23\cdot 31}$; 4) $\frac{1}{4\cdot 53\cdot 73}$; 5) $\frac{1}{10\cdot 37}$.

346. Taqqoslamalardan foydalanib quyidagi tengliklarning xato ekanligini ko'rsating: 1). $4237\cdot 27925 = 118275855$; 2). $42981 : 8264 = 5201$; 3). $1965^2 = 3761225$.

347. Taqqoslamalardan foydalanib quyidagi tengliklarning tog'riligini tekshiring: 1). $25041 + 91382 = 116423$; 2). $42932 - 18265 = 24667$; 3). $13547 - 9862 = 3685$; 4). $235463 - 25376 = 210087$.

VI-bob. Uzluksiz kasrlar va ularning tadbiqlari.

VI.1 -§. Chekli uzluksiz kasrlar.

Agar $\frac{a}{b}$ –qisqarmas (to'g'ri yoki noto'g'ri) oddiy kasr berilgan bo'lsa, uni Evklid algoritmi yordamida

$$\frac{a}{b} = q_0 + \cfrac{1}{q_1 + \cfrac{1}{q_2 + \ddots + \cfrac{1}{q_n}}} \qquad (1)$$

ko'rinishida ifodalash mumkin (I.2- paragrafga qarang). (1) ga $\frac{\grave{a}}{b}$- ratsional sonining chekli Uzluksiz (zanjirli) kasrga yoyilmasa deyiladi. Bunda q_0 – butun son, $q_1, q_2, \ldots, q_n$ lar natural sonlar, q_i larga chala bo'linmalar ham deyiladi. (1) yozuv o'rniga

$$\frac{a}{b} = (q_0, q_1, q_2, \ldots, q_n) \qquad (2)$$

qisqa yozuv ham ishlatiladi. Agarda biz $q_n>1$, bo'lishini talab qilsak (2) yagonadir. Aks holda yagona bo'lmaydi, chunki $q_n = (q_n - 1) + \frac{1}{1}$.

To'g'ri musbat kasrni uzluksiz kasrga yoysak $q_0 = 0$ bo'ladi. Agarda manfiy kasrni uzluksiz kasrga yoysak birinchi elementi $q_0 < 0$ bo'ladi, chunki manfiy sonning butun qismi manfiy, kasr qismi esa hamma vaqt musbat sondir.

Shuningdek har qanday butun sonni *m=(m)* bir elementli uzluksiz kasr deb, har qanday $\frac{1}{m}$ ko'rinishdagi tog'ri kasrni esa $\frac{1}{m} = (0, m)$ deb qarash mumkin.

Uzluksiz kasrlarning tatbiqlarida munosib kasrlar deb ataluvchi ushbu

$$\delta_0 = q_0, \quad \delta_1 = q_0 + \frac{1}{q_1}, \quad \delta_2 = q_0 + \cfrac{1}{q_1 + \cfrac{1}{q_2}}, \ldots, \quad \delta_n = q_0 + \cfrac{1}{q_1 + \ddots + \cfrac{1}{q_n}}$$

yoki

$$\delta_0 = q_0, \quad \delta_1 = (q_0, q_1), \quad \delta_2 = (q_0, q_1, \quad q_2), \quad \ldots, \delta_n = (q_0, q_1, q_2, \quad \ldots, q_n)$$

kasrlar muhim hamiyatga ega. Tushunarliki.

$$\delta_n = (q_0, q_1, q_2, \ldots, q_n) = \frac{a}{b}.$$

δ_k ga odatda k-tartibli munosib kasr deyiladi. Endi $\delta_k = \frac{P_k}{Q_k}$ deb olsak uning surat va maxrajini hisoblsh uchun quyidagi rekurent formula

$$\begin{cases} P_k = P_{k-1}q_k + P_{k-2} \\ Q_k = Q_{k-1}q_k + Q_{k-2} \end{cases}, \quad k = 0,1,2,\ldots$$

o'rinli. Bunda $P_{-2} = 0$, $P_{-1} = 1$ va $Q_{-2} = 1$, $Q_{-1} = 0$ deb olinadi. Munosib kasrlarni hisoblashda quyidagi javdal ancha qulay

q_i			q_0	q_1	…	q_{k-2}	q_{k-1}	q_k	…	q_n
P_i	$P_{-2} = 0$	$P_{-1} = 1$	$P_0=q_0$	P_1	…	P_{k-2}	P_{k-1}	P_k	…	P_n
Q_i	$Q_{-2} = 1$	$Q_{-1} = 0$	$Q_0=1$	Q_1	…	Q_{k-2}	Q_{k-1}	Q_k	…	Q_n

Munosib kasrlar va berilgan $\frac{a}{b}$ kasr orasida quyidagi munosabatlar o'rinli:

$$\frac{P_0}{Q_0} < \frac{P_2}{Q_2} < \frac{P_4}{Q_4} < \ \ldots < \frac{a}{b} < \cdots < \frac{P_5}{Q_5} < \frac{P_3}{Q_3} < \frac{P_1}{Q_1}.$$

Bu yerdan ko'rinadiki, $\frac{a}{b}-$ kasr doimo ikkita qo'shni munosib kasr orasida joylashgan bo'ladi. Bunda munosib kasrlarning tartibi o'sishi bilan ular orasidagi interval kichrayib boradi. $\frac{a}{b}-$ kasrni $\frac{P_k}{Q_k}-$ munosib kasr bilan almashtirishdan hosil bo'ladigan xatoliknk baholash uchun

$$\left|\frac{a}{b} - \frac{P_k}{Q_k}\right| \leq \frac{1}{Q_k Q_{k+1}}$$

munosabatdan foydalanamiz.

348. Berilgan kasrlarni uzluksiz kasrga yoying:

1) $\frac{127}{52}$, 2) $\frac{24}{35}$, 3) 1,23 , 4) $\frac{29}{37}$.

349. Berilgan chekli uzluksiz kasrlarga mos qisqarmas oddiy kasrni toping:

1) (1,1,2,1,2,1,2), 2) (0,1,2,3,4,5), 3) (5,4,3,2,1), 4) (a, a, a, a, a),

5) (a, b, a, b, a), 6) (2,1,1,3,1,2), 7) (1,1,2,3,4), 8) (2,5,3,2,1,4,2,3).

350. Quyidagi kasrlarni uzluksiz kasrlarga yoyishdan foydalanib qisqartiring:

$$1)\ \frac{3587}{2743}, \quad 2)\ \frac{1043}{3427}, \quad 3)\ \frac{3653}{3107}, \quad 4)\ \frac{11281}{6583}, \quad 5)\ \frac{1491}{2247}.$$

351. Tenglamalarni yeching: 1) $(x, 2,3,4) = \frac{73}{30}$, 2) $7(xyz + x + z) = 10(yz + 1)$.

352. Berilgan kasrlarni uzluksiz kasrga yoying va uni $\frac{P_5}{Q_5}-$ munosib kasr bilan almashtirib xatoligini aniqlang hamda almashtirishni taqribiy tenglik yordamida xatoligini ko'rsatgan holda yozing:

$$1)\ \frac{29}{37}, \quad 2)\ \frac{163}{159}, \quad 3)\ \frac{648}{385}, \quad 4)\ \frac{1882}{1651}.$$

353. Berilgan kasrlarni uzluksiz kasrga yoying va uni $\frac{P_5}{Q_5}-$ munosib kasr bilan almashtirib xatoliogini aniqlang hamda almashtirishni taqribiy tenglik yordamida xatoligini ko'rsatgan holda yozing:

$$1)\ \frac{571}{359}, \quad 2)\ \frac{2341}{1721}.$$

354. Tishlari sonining nisbati $\frac{571}{359}$ ga teng bo'lgan ikkita shesterna yordamida tishli uzatma qurish talab etiladi. Tishlari sonining berilgan nisbatini surat maxhaji eng kichik bo'lgan va xatoligi 0,001 dan oshmaydigan uzatmani qurish texnik jihatidan mumkinmi?

355. $(2,2,2,\dots,2)$ uzluksiz kasrni 2 ga bo'lishdan hosil bo'lgan bo'linmani toping.

356. $(a,a,a,\dots,a)$ uzluksiz kasrni 2 ga bo'lishdan hosil bo'lgan bo'linmani toping.

357. Tenglikni isbotlang:

$$\left(\frac{P_{n+2}}{P_n}-1\right)\cdot\left(1-\frac{P_{n-1}}{P_{n+1}}\right)=\left(\frac{Q_{n+2}}{Q_n}-1\right)\left(1-\frac{Q_{n-1}}{Q_{n+1}}\right).$$

358. Agar P_i va Q_i lar $(q_1,q_2,\ \dots,q_n)-$ uzluksiz kasrning munosib kasrlarining elementlari bo'lib, $n\geq 1$ bo'lsa

$$\frac{P_n}{P_{n-1}}=(q_n,q_{n-1},\dots q_1)\text{va}\ \ \frac{Q_n}{Q_{n-1}}=(q_n,q_{n-1},\dots q_2)$$

ekanligini ko'rsating.

359. $\frac{P_n}{P_{n-1}}$ va $\frac{Q_n}{Q_{n-1}}$ larning qisqarmas kasr ekanligini isbotlang.

360. Isbotlang:

$$\left(\underbrace{2,2,2,\dots,2}_{n\text{ta}}\right)=\frac{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1}-\left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1}}{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n}-\left(1-\sqrt{2}\right)^{n}}$$

361. $P_nQ_{n-1}-Q_nP_{n-1}=(-1)^{n-1}$ munosabatdan foydalanib ikki noma'lumli birinchi darajali aniqmas tenglamalarni yechish usulini bayon qiling.

362. 361- misolda bayon qilingan usuldan foydalanib quyidagi tenglamalarni yeching: 1) $38x+117y=209$, 2) $122x+129y=2$, 3) $119x-68y=$ 34,4) $258x-175y=113$, 5) $41x+114y=5$, 6) $70x+33y=1$.

363. Agar a natural son bo'lsa, $\frac{a^4+3a^2+1}{a^3+2a}$ ning qisqarmas kasr ekanligini isbotlang.

364. Simmetrik uzluksiz kasr $(q_n=q_1,\ q_{n-1}=q_2,\dots)$ lar uchun $P_{n-1}=Q_n$ munosabatning o'rinli ekanligini isbotlang.

365. Agar $n\geq 2$ bo'lsa, $Q_n\geq 2^{\frac{n-1}{2}}$ ekanligini isbotlang.

366. $P_nQ_{n-1}-Q_nP_{n-1}=(-1)^n$ munosabatdan foydalanib $ax\equiv b(modm)$ taqqoslamaning $(a,m)=1$ bo'lgandagi yechimini topish uchun formula keltirib chiqaring.

367. 366- misolda bayon qilingan usuldan foydalanib quyidagi taqqoslamalarni yeching: 1) $95x\equiv 59(mod308)$, 2) $91x\equiv 1(mod132)$.

VI.2 -§. Cheksiz uzliksiz kasrlarning yaqinlashuvchiligi.

Munosib kasrlar quyidagi xossalarga ega:

1^0. $\frac{P_k}{Q_k}-\frac{P_{k-1}}{Q_{k-1}}=\frac{(-1)^{k-1}}{Q_kQ_{k-1}}$ yoki $\Delta_k = Đ_ê Q_{k-1} - P_{k-1}Q_k = (-1)^{k-1}$.

Bu yerdan $\frac{P_k}{Q_k}$ qisqarmas kasr degan xulosaga kelamiz, chunki $(P_k, Q_k)=1$.

2^0. Munosib kasrlarning tartibining o'sib borishi bilan ularning juft tartiblilari o'sadi, toq tartiblilari esa kamayadi. Bunda har bir juft tartibli munosib kasr ixtiyoriy toq tartibli munosib kasrdan kichik bo'ladi.

3^0. $\alpha=(q_0,q_1,\dots,q_k,\alpha_{k+1})=\frac{P_k\alpha_{k+1}+P_{k-1}}{Q_k\alpha_{k+1}+Q_{k-1}}$, $k=1,2,\dots$ va $\alpha_{k+1}=(q_{k+1},q_{k+2},\dots)$.

4^0. $\alpha=(q_0,q_1,\dots,q_k,\ \dots)-$ irratsional soni uchun

$$\frac{P_0}{Q_0}<\frac{P_2}{Q_2}<\frac{P_4}{Q_4}<\ \dots<\alpha<\dots<\frac{P_5}{Q_5}<\frac{P_3}{Q_3}<\frac{P_1}{Q_1}$$

va

$$\alpha=\lim_{k\to\infty}\frac{P_k}{Q_k}$$

munosabatlar o'rinli. $\frac{P_k}{Q_k}-$ munosib kasr $\alpha-$ haqiqiy soni uchun eng yaxshi ratsional yaqinlashish bo'ladi, ya'ni maxraji $y\le Q_k$ shartni qanoatlantiruvchi birorta ham $\frac{x}{y}$ ratsional kasr $\alpha-$ haqiqiy soniga $\frac{P_k}{Q_k}-$ munosib kasrga qaragan yaqin bo'la olmaydi. $\frac{P_k}{Q_k}-$kasr $\alpha-$ haqiqiy soniga $\frac{1}{Q_kQ_{k+1}}$ aniqlik bilan yaqinlashadi. $\alpha-$ haqiqiy soniga berilgan ε aniqlik bilan yaqinlashadigan munosib kasrni aniqlash uchun $Q_k>\sqrt{\frac{1}{\varepsilon}}$ bajariladigan qilib olish kerak bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday aniqlikni kichikiroq tartibli munosik kasrlar ham ta'minlashi mumkin.

368. Quyidagi sonlarni 4-tartibli munosib kasrlar bilan almashtiring. va buning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholang:

$$1).\ \frac{587}{103},\quad 2).\ 3{,}14159,\quad 3).\frac{-1+\sqrt{5}}{2},\quad 4).\ \frac{2-\sqrt{3}}{5},$$
$$5).\frac{1+\sqrt{5}}{2},\quad 6)\ \frac{-1+\sqrt{2}}{2}.$$

369. $\frac{1261}{881}-$ sonini imkoni boricha kichik maxrajli munosib kasr bilan almashtiringki, bunda xatolik 0,0001 dan katta bo'lmasin.

370. Berilgan sonlarga 0,001 gacha aniqlikdagi eng yaxshi yaqinlashishni toping:
$1).\sqrt{2},\quad 2).\sqrt{3},\quad 3).\sqrt{7},\quad 4).\sqrt{11}.$

371. Berilgan tenglamalarning ildizlariga 0,0001 gacha aniqlikdagi eng yaxshi yaqinlashishni toping: $1).x^2-5x+2=0,\ 2).4x^2+20x+23=0,$
$3).x^2+9x+6=0,\qquad 4).2x^2-3x-6=0.$

372. Avvalo $\frac{P_n}{Q_n}$ va $\frac{P_n+P_{n+1}}{Q_n+Q_{n+1}}$ larning ikkalasi ham α ning bir tomonida yotishiga ishonch hosil qiling va $\left|\alpha-\frac{P_n}{Q_n}\right|>\frac{1}{Q_n(Q_n+Q_{n+1})}$ tengsizlikning o'rinli ekanligini isbotlang.

373. Agar q_n- chala bo'linma bir necha birlikga ortsa n-tartibli munosib kasr ortadimi yoki kamayadimi?

374. $n\geq 1$ bo'lsa quyidagi tengsizliklardan hech bo'lmasa birtasining o'rinli ekanligini isbotlang: $\left|\alpha-\frac{P_n}{Q_n}\right|<\frac{1}{2Q_n^2}$ yoki $\left|\alpha-\frac{P_{n-1}}{Q_{n-1}}\right|<\frac{1}{2Q_{n-1}^2}$.

VI.3 -§.Cheksiz uzliksiz kasrlar va kvadrat irratsionalliklar.

Butun koeffisientli kvadrat tenglamani qanoatlantiruvchi irratsionallikga kvadrat irratsionallik deyiladi. Kvadrat irratsionallikning umumiy ko'rinishi $\frac{a+\sqrt{b}}{c}$ dan iborat. Bunda $a,c\neq 0$ va $b>0-$ butun sonlar. Cheksiz davriy uzluksiz kasrlar (sof yoki aralash bo'lishidan qat'iy nazar) kvadrat irratsionalliklar bilan yaqindan bog'langan. Bu bog'lanishlarni quyidagi teoremalar yordamida ifodalash mumkin:

1.Har bir cheksiz davriy uzluksiz kasrlar (sof yoki aralash bo'lishidan qat'iy nazar) butun koeffisientli kvadrat tenglamaning haqiqiy ildizi, ya'ni kvadrat irratsionallik bo'ladi.

2. Har bir butun koeffisientli kvadrat tenglamaning haqiqiy irratsional ildizi cheksiz davriy uzluksiz kasr (sof yoki aralash bo'lishidan qat'iy nazar) ga yoyiladi.

375. Quyidagi uzluksiz kasrlar bilan berilgan kvadrat irratsionalliklarni toping:
1). $(\overline{2,3})$, 2). $(\overline{1,1,2,2})$, 3). $(\overline{3,4,5})$, 4). $(1,2,3,\overline{4})$, 5). $(0,1,1,1,1,\overline{2,2,2,})$,
6). $(a,\ \overline{a,2a})$, 7). $(\overline{2,2,1,1})$.

376. Bir xilda chala bo'linmali cheksiz davriy uzluksiz kasrlarga yoyiladigan kvadrat irratsionalliklarning umumiy ko'rinishini toping.

377. Agar 1) $\frac{P_k}{Q_k}=\frac{10}{3},\alpha_{k+1}=\sqrt{2};$ 2) $\frac{P_k}{Q_k}=\frac{37}{13},\ \alpha_{k+1}=\frac{1+\sqrt{3}}{2}$
bo'lsa, α irratsionalliklarni toping.

378. Uzluksiz kasrlarga yoying va $\frac{P_3}{Q_3}$ ni aniqlang: 1) $\sqrt{x^2+1},$ 2) $\sqrt{a^4+2a}$.

379. $\sqrt{a^2+a+1}$ irratsionallik cheksiz davriy uzluksiz kasrlarga yoyilsa, $\frac{P_3}{Q_3}=\frac{2a+1}{2}$ bo'lishini isbotlang.

380. a va b lar natural sonlar bo'lsa, $bx^2-abx-a$ kvadrat uch hadning musbat ildizining sof cheksiz davriy uzluksiz kasrlarga yoyilishini isbotlang. Teskari teorema o'rinli bo'ladimi?

381. Quyidagi teoremani isbotlang: agar butun koeffisientli kvadrat tenglamaning birta ildizi $x = (\overline{a,b})$ bo'lsa, uning ikkinchi ildizi $-\frac{1}{(\overline{b,a})}$ bo'ladi.

382. Agar musbat kvadrat irratsionallik sof cheksiz davriy uzluksiz kasrga yoyilsa, unga qo'shma bo'lgan irratsionallikning $(-1,0)$ intervalga tegishli bo'lishini isbotlang.

383. Agar butun koeffisientli kvadrat tenglamaning birta ildizi $x = (a,\overline{b,c})$ bo'lsa, uning ikkinchi ildizi $a - (\overline{c,b})$ bo'lishini isbotlang.

384. $(\overline{a,b})$ va $(0,\overline{b,a})$ uzluksiz kasrlar ko'paytmasini toping.

385. $\alpha = (a,b,c)$ va $\beta = (c,b,a)$ sonlarining $x = (\overline{a,b,c})$ va $y = (\overline{c,b,a})$ sonlariga proporsional ekanligini isbotlang.

386. $\sqrt{n} - (n \text{ natural son})$ ko'rinishdagi irratsionallikning davri ikkinchi chala bo'linmadan boshlanuvchi cheksiz davriy uzluksiz kasrga yoyilishini isbotlang.

VI.4 -§. Algebraik va transtsendent sonlar

Ushbu

$$a_0x^n + a_1x^{n-1} + \cdots + a_n = 0, \quad (a_0 \neq 0) \tag{1}$$

ratsional koeffisientli n-darajali tenglamaning ildizi α ga algebraik son deyladi. Aks holda α ga transtsendent son deyladi. Boshqacha qilib aytganda algebraik bo'masagan sonlarga transtsendent sonlar deyladi.

Ta'rifdan umuman olgandaα algebraik son, bu kompleks son bo'lishi kelib chiqadi. Ma'lumki, ratsional koeffisientli tenglamani hamma vaqt butun koeffisientli tenglamaga keltirish mumkin.

Agar α

$$x^n + a_1x^{n-1} + \cdots + a_n = 0, \tag{2}$$

ratsional koeffisientli n-darajali bosh hadining koefffisienti 1 ga teng bo'lgan tenglamaning ildizi bo'lsa, α ga butun algebraik son deyladi. Agar α (1) tenglamaning ildizi bo'lib darajasi undan kichik bo'lgan algebraik tenglamaning ildizi bo'lmasa, α ga n-tartibli algebraik son deyladi.

Agar α va β lar algebraik sonlar bo'lsa, u holda $\alpha + \beta, \alpha - \beta, \ \alpha \cdot \beta$ lar va agar $\beta \neq 0$ bo'lsa $\frac{\alpha}{\beta}$ ham algebraik son bo'ladi. Bundan tashqari quyidagi teoremalar o'rinli.

Liuvil teoremasi. Har bir haqiqiy n-tartibli α algebraik son uchun shunday c>0 soni mavjudki, α dan farqli barcha $\frac{a}{b}-$ ratsional sonlar uchun $\left|\alpha - \frac{a}{b}\right| > \frac{c}{b^n}$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Natija. Agar $q_n > (Q_{n-1})^{n-1}, n = 1,2,\ldots$ bo'lsa, $\alpha = (q_0,\ q_1, q_2, \ldots)$ irratsional son transtsendent son bo'ladi.

Gelfond teoremasi. Agar α soni 0 va 1 dan farqli algebraik son, β esa tartibi 2 dan kichik bo'lmagan algebraik son bo'lsa, u holda $\alpha^\beta -$ transtsendent son bo'ladi.

Lindeman teoremasi. $x = 0$ va $y = 1$ dan boshqa hollarda $y = e^x$ tenglamada *x* va *y* sonlari bir vaqtda algebraik son bo'la olmaydi.

387. Quyidagi sonlarning algebraik sonlar ekanligini ko'rsating:

$$1).\frac{3}{5};\quad 2)\ \sqrt{3}\ ;\quad 3).\ \sqrt[3]{3},\quad 4).\ 1+\sqrt{2};\quad 5).\ 2-\sqrt{2};\quad 6).\ 1+i;$$

$$7).\sqrt{3}+\sqrt{5};8).\ \sqrt[4]{4-\sqrt[3]{2}};\quad 9).a+\sqrt[n]{b};\quad 10).a+i\sqrt{b}$$

(bunda a va b lar ratsional sonlar); $11).\cos\frac{\pi}{n}+i\sin\frac{\pi}{n};\qquad 12).\ \ sin10^0.$

388. Quyidagi algebraik sonlarning tartibini aniqlang: $1).a+bi$ (a va $b\neq 0$ lar ratsional sonlar); $2).\ \sqrt[3]{3},\quad 3).\ \sqrt[3]{2}-1;\quad 4).\ \sqrt{2}-\sqrt{3};$
$5).\ \sqrt{3}+\sqrt{5};\quad 6).2+i.$

389. Berilgan tenglamalarning ildizlarining algebraik sonlar ekanligini isbotlang: $1).x^3+2\sqrt{2}x^2+2=0;\quad 2).x^2+2ix+10=0.$

390. Quyidagi berilgan tenglamalarning ildizlarining tartibi berilgan tenglamaning tartibiga teng bo'lgan algebraik sonlar ekanligini isbotlang:

$$1).x^3+2x^2-4x+2=0;\quad 2).2x^5+6x^3-9x^2-15=0,$$
$$3).x^4-5x^2+10x+20=0,\ \ 4).x^5-3x^2+12x-6=0.$$

391. Liuvil metodidan foydalanib birorta transtsendent sonni quring.

392. Liuvil soni $\alpha=\frac{1}{10^{1!}}+\frac{1}{10^{2!}}+\frac{1}{10^{3!}}+$ ... ning transtsendent ekanligini isbotlang.

393. Gelfond teoremasidan foydalanib quyidagi sonlarning transtsendent ekanligini isbotlang: $1).lg2;\ \ 2)log_2 10;\ \ 3).\ ln5;\quad 4).\ 3^{\sqrt{2}};\ \ 5).\ 5^{\sqrt{3}};\ \ 6).2^{i\sqrt{3}};\ \ 7).3^{1-i};$

$$8).5^{2-i\sqrt{2}}.$$

II-qism. Javoblar.

I.1-§.

1. 233. **2.** 1) $b=7,\ 8$ va $r=4,1.$ 2)$b=8,9$ va $r=2,6.$ **13.** $n=\ 5q+1$ va $n=5q+3,\ q=0,1,2,\ldots$.**23.** $S_n=\frac{7}{81}\cdot(10^{n+1}+9n-10).$

I.2-§.

27.1)21. 2) 13. 3) 37. **28.** a)21 va 6300.b) 23 va 2799997. **33.** ha. **35.** a)d. b)m. c)1. d)d. **36.** a)1. b)1. c)1. **39.** 2a)23. 2b)7. **41.** $(n,n+1,n+2)=1;\ [n,n+1,n+2]=n(n+1)(n+2),$ agarda n toq son bo'lsa va $[n,n+1,n+2]=\frac{1}{2}n(n+1)(n+2)$, agarda n juft son bo'lsa. **42.** nab ni $n-1$ ta ko'rsatilgan ko'rinishda ifodalash mumkin. **43.** $(899,493)=29=899(-6)+11\cdot 49$ va $x=-6, y=11.$ **45.** yo'q. **49.** a)(30,120), (60,90), (90,60), (120,30). b)x = 495, y = 315. c)(20,420), (60,140), (140,60), (420,20). d)(140, 252)0. e)(10, 2), (2, 10) **53.** Berilgan son 19 ga bo'linadi.

I.3-§.

55. $N=p_1-2$, bunda p_1- toq tub son. **58.** 1) $127-$ tub son. 2)$919-$ tub son. 3) $7429=17\cdot 437-$ murakkab son. **59.** 1)101,103,107,109 lar tub sonlar. 2)191, 193, 197, 199 lar tub sonlar. 3) 211.4) 2647, 2657, 2659, 2663, 2671, 2677. **61.** $21!+2,\ 21!+3,\ \ldots,\ 21!+20,\ 21!+21.$ **62.** $n, n+10, n+14$ sonlar bir vaqtda tub bo'ladigan n ning faqat 1 ta qiymati $n=3$ mavjud. **63.** $p=3$ qiymatida $2p^2+1=19-$ tub son bo'ladi. **64.** $p=5.$ **67.** $2^{18}+3^{18}=13\cdot 61\cdot 37\cdot 73\cdot 181.$

II.1-§.

76.1)$\pi(5)$=3. 2)$\pi(10)=4.$ 3) $\pi(25)=9.$ 4) $\pi(37)=12.$ 5) $\pi(200)=46.$ 6) $\pi(1000)=168.$ **77.** 1)$\pi(100)\approx 22, \omega=\frac{\Delta\pi(x)}{\pi(x)}=12\%.$ 2) $\pi(500)\approx 80, \omega\approx 16\%.$ 3)$\pi(1000)\approx 145,\ \omega\approx 14\%.$ 4) $\pi(3000)\approx 3{,}75;\ \omega\approx 12\%.$

II.2-§.

81. a)3. b)11. c) 1. d)2. e)3. i)2. j)2. f) -2. l) -1. k) 7. **89.** a) $-\sqrt{3}<x\le-\sqrt{2}$ va $\sqrt{2}<x\le\sqrt{3}.$ b) $x=1.$ c) $x=0,\ \frac{4}{3},\ \frac{8}{3}.$ d) $x=0,1.$ **91.** $[-x]=\begin{cases}-[x] & \text{ga; agar } x \text{ butun son bo'lsa;}\\ -[x]-1 & \text{ga; agar } x \text{ kasir son bo'lsa.}\end{cases}$ **94.** 11450; **95.** 686. **96.** 33. **97.** 502. **98.** $\frac{p^n-1}{p-1}.$ **99.** 48.**100.** $11!=2^8\cdot 3^4\cdot 5^2\cdot 7\cdot 11.$**101.**148. **102.** $p=$ 2bo'lsa, $m+\sum_{i=1}^{k}\left[\frac{m}{2^i}\right]$ ga teng; $p>$ 2bo'lsa, $\sum_{i=1}^{s}\left[\frac{m}{p^i}\right]$ ga teng. **103.** $2m+1\le x<2m+2,$ $m=0,1,2,\ldots$. **104.** $a>0$ bo'lganda $\left[-\frac{b^2-4ac}{4a}\right]\le d;\ a<0$ bo'lganda $\left[-\frac{b^2-4ac}{4a}\right]\ge d.$ **105.** $\sum_{k=a}^{b}([f(k)]+1).$**106.** 136**. 107.** 5631.

II.3-§.

108.1).$\tau(375)=8,\sigma(375)=624$.2). $\tau(720)=30,\sigma(720)=2418$.3). $\tau(957)=8,\sigma(957)=1440$.4).$\tau(988)=12,\ \sigma(988)=1960.$ 5).$\tau(988)=24,\ \sigma(990)=2808.$ 6).$\tau(1200)=30,\ \sigma(1200)=3844$.7).$\tau(1440)=36,\ \sigma(1440)=4914$.8).$\tau(1500)=24,\ \sigma(1500)=4368$.9).$\tau(1890)=32,\sigma(1890)=5760.$ 10).$\tau(4320)=48,\ \sigma(4320)=15120$. **109**. 1). 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 12, 15, 18, 20, 24, 30, 36, 40, 45, 60, 72, 90, 120, 180, 360. Ularnin g jami soni $24\ ta$.2).1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 12, 15,16, 18, 20,24, 30,36, 40, 45, 48, 60, 72, 80,90,120,144,180,240,360,720. $Jami$: $30ta$. 3). 1, 2, 3, 6, 9, 18, 53, 106, 159, 318, 477, 954. $Jami$: 12 ta .4). 1, 2, 4, 13, 19, 26, 38, 52, 76, 247, 494,988. $Jami$: 12 ta. 5).1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12, 15, 20, 24,25, 30, 40, 50,60, 75, 100,120150,200,300,600. $Jami$: 24 ta. **110.**12.**111.**28.**115**. 1). $\tau(m)\tau(n)>\tau(mn)$. 2). $\sigma(m)\sigma(n)>\sigma(mn)$. **116.** $\delta(m)=\sqrt{m^{\tau(m)}}$ va $\delta(10)=100$. **118.** $\sigma_k(n)=\prod_{i=1}^{s}\frac{p^{k(\alpha_i+1)}-1}{p_i^k-1}$.**119.**1). $\sigma_2(12)=210$. 2). $\sigma_2(18)=455$. 3). $\sigma_3(36)=6643$. 4). $\sigma_2(16)=341$.5). $\sigma_3(8)=585$. **123.** 1). $n=18$. 2). $n=16875$. **124.** $\left[\frac{1+\tau(n)}{2}\right]$. **125.** $N=2^3\cdot5^2\cdot7=1400$. **126.** $N=2^6\cdot3^5\cdot5^4=9720000$. **129**. $N=2^3\cdot5\cdot3=120$.

II.4-§.

132. 1).100.2). 400.3). 48. 4). 64. 5). 384.6). 432.7). 1331;8). 506.9).64.10).6912. **133**. $\varphi(m)$. **134**. 88. **138.** *a)***.** 3.b). 3. c).$p>2$ bo'lsa tenglama yechimga ega emas. $p=2$ da ixtiyoriy natural son x tenglamaning yechimi bo'ladi. d).$x=2;\ y=3$. **141**. $(m;n)>1$ bo'lsa, $\varphi(m)\varphi(n)<\varphi(mn)$ bo'ladi. **144**. $p^{\propto}$. 16. $S=\frac{1}{2}m\varphi(m)$. **148**.1).$p=2$ tenglama birta $x=\ p=2$ yechimga, $p>2$ bo'lsa tenglama 2 ta p va $2p$ yechimga ega bo'ladi. 2). Tenglama yechimga ega emas. 3).$x=15;16;20;24;30$. 4). $x=\ 5;13;21;26;28;36;42$. **149.** 1).$x=2^{\propto+1};\ 2^{\alpha-1}\cdot5;\ 2^{\propto}\cdot3;\ 15;\ 2^{\propto-2}\cdot15$.2).$p=3$ ixtiyoriy x qanoatlantiradi $p\neq3$ da yechimi yoq. **150.** $m=7875$. **151**. $x=143$. **152.** 14161.**153.** *a).*$p=2$ da berilgan tenglamani x ning barcha toq qiymatlari qanoatlantiradi; $p\geq3$ bo'lsa tenglama yechimga ega emas. b). Agar $(x;p)=1$ bo'lsa, yechim yo'q. Agar $x=p_1^{\propto_1}\cdot p_2^{\propto_2}\ldots.p_k^{\propto_k}$ bo'lsa, berilgan tenglamani x ning p ga karra natural qiymatlari qanoatlantiradi. **154.** *a).*$x=2^{\propto}$ tenglamaning yechimi ($\propto\geq1$). b). $x=2^{\propto}\cdot3^{\beta}$. c). yechimga ega emas. **157**. $\varphi(2)+\varphi(3)+\cdots+\varphi(n)$. **158**. 8 ta.

III.1-§.

159.Barcha butun sonlar 1 moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanuvchi. **160**. Masalan 9,17 lar. **161**.$a),b)$.**165.** $x=2+10t,\ t\in Z, x=2,12,22,-8,-18$. **166.** *a).*$x\equiv0(mod3),\ x=3t,t\in Z$. b).$x\equiv1(mod2), x=1+2t,\ t\in Z$. **167.**

a).$m = 1,2,3,4,6,12$. b).$m = 1, 2, p, 2p$. **168**. $m = 1,2,4,8$. **169.** Misol uchun $1, 11, 101,\ 1001, \ldots$. **170.** a), b), c). **171**. $x = 2 + 5t_1,\ \ t_1$ - ixtiyoriy butun son. **181.** 1).8 va 9. 2). 0 va 7.

III.2-§.

195.$x \equiv 0,1,2, \ldots, 9(mod10)$.**196.** 1).$1, 2, 3, 4,\ \ldots\ , 9$ lar 9 moduli bo`yicha eng kichik musbat chegirmalarining to`la sistemasi. $-9, -8, -7, \ldots\ , -2, -1$ lar9 moduli bo`yicha eng katta manfiy chegirmalarning to`la sistemasi;$0\ ; \pm 1;\ \pm 2;\ \pm 3;\ \pm 4$ lar 9 moduli bo`yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarining to`la sistemasi. Chegirmalarning keltirilgan sistemalar $1, 2, 4,\ 5,7,8;\ \ c - 8, -7, -5, -4\ , -2, -1;\ \pm 1;\ \pm 2;\ \ \pm 4$lardan iborat.

2). Chegirmalarining to`la sistemalari

$1,2,3,4, \ldots\ , 8; -8, -7, -6, -5, \ldots\ , -2, -1;\ \ \ \pm 1;\ \pm 2;\ \pm 3;\ \pm 4.$

Chegirmalarning keltirilgan sistemalari $1, 3, 5, 7;\ -1, -3, -5, -7;\ \ \pm 1;\ \pm 3$ lardan iborat.

3). Chegirmalarining to`la sistemalari:

$1, 2, 3, 4, \ldots\ , 13; -13, -12, -11, \ldots\ , -2, -1; 0,\ \ \pm 1,\ \ \pm 2,\ \ \pm 3,\ \ \pm 4,\ \ \pm 5,\ \ \pm 6.$

Chegirmalarning keltirilgan sistemalari:

$1, 2, 3, 4, \ldots\ ,12;\ -12, -11, \ldots\ , -2, -1\ ;\ \ \ \pm 1,\ \pm 2,\ \pm 3,\ \pm 4,\ \pm 5,\ \pm 6.$

4).Chegirmalarining to`la sistemalari:

$1, 2, 3, 4, \ldots\ , 12;\ \ -12, -11, -10, \ldots\ , -2, -1\ ;\ \ \ \pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5, \pm 6.$

Chegirmalarning keltirilgan sistemalari:

$1, 5, 7, 11;\ \ -1, -5, -7, -11;\ \pm 1;\ \pm 5.$

5). $\varphi(1440) = \varphi(12^2 \cdot 10) = 4(2^5 \cdot 3^2 \cdot 5) = (2^5 - 2^4)(3^2 - 3)(5 - 1) = 16 \cdot 6 \cdot 4 = 384$;

6). $\varphi(1890) = \varphi(2)\varphi(3^3)\varphi(5)\varphi(7) = (2 - 1)(3^3 - 3^2) \cdot 4 \cdot 6 = 18 \cdot 24 = 432$;

7). $\varphi(11^3) = 11^3 - 11^2 = 121 \cdot 11 = 1331$;

8). $\varphi(23^2) = 23^2 - 23 = 506$;

9). $\varphi(12 \cdot 17) = \varphi(12) \cdot \varphi(17) = \varphi(2^2 \cdot 3) \cdot 16 = 16 \cdot (2^2 - 2) \cdot 2 = 32 \cdot 2 = 64$;

10). $\varphi(24 \cdot 28 \cdot 45) = \varphi(2^3 \cdot 3 \cdot 2^2 \cdot 7 \cdot 3^2 \cdot 5) = \varphi(2^5 \cdot 3^3 \cdot 5 \cdot 7) = (2^5 - 2^4)(3^3 - 3^2) \cdot 4 \cdot 6 = 24 \cdot 16 \cdot 18 = 6912$.

133. $\frac{a}{m}$; $a \le m$; $(a; m) = 1$, tarifiga ko'ra bunday kasrlar soni $\varphi(m)$ ta.

134. Berilgan oraliqda jami 120 ta natural son bor. Shulardan 120 bilan o'zaro tublari $\varphi(120) == \varphi(2^3 \cdot 3 \cdot 5) = (2^3 - 2^2) \cdot 2 \cdot 4 = 32$ ta. Shuning uchun ham izlanayotgan natural sonlarning soni $120 - 32 = 88$ ta.

135.*a).* $\varphi(2^\alpha) = 2^\alpha - 2^{\alpha-1} = 2^{\alpha-1}(2 - 1) = 2^{\alpha-1}$.

b). $\varphi(p^\alpha) = p^\alpha - p^{\alpha-1} = p^{\alpha-1}(p - 1) = p^{\alpha-1}\varphi(p)$.

c). $\varphi(m^\alpha) = m^{\alpha-1}\varphi(m)$ni isbotlash uchun m ning kanonik yoyilmasi $m = p_1^{\gamma_1} p_2^{\gamma_2} \dots p_k^{\gamma_k}$ ni qaraymiz. Bundan $m^\alpha = p_1^{\alpha\cdot\gamma_1} p_2^{\alpha\cdot\gamma_2} \dots p_k^{\alpha\cdot\gamma_k}$ va

$$\varphi(m^\alpha) = m^\alpha \left(1 - \frac{1}{p_1}\right)\left(1 - \frac{1}{p_2}\right)\cdots\left(1 - \frac{1}{p_k}\right) = m^{\alpha-1} \cdot m \cdot \left(1 - \frac{1}{p_1}\right)\left(1 - \frac{1}{p_2}\right)\cdots\left(1 - \frac{1}{p_k}\right) =$$

$$= m^{\alpha-1} \cdot \varphi(m).$$

136. Agar $(m, 2) = 1$ bo'lsa, Eyler funksiyasi multiplikativ bo'lgani uchun $\varphi(2m) = \varphi(2)\varphi(m) = \varphi(m)$.

Agar $(m, 2) > 1$ bo'lsa,$(m, 2) = 2$ bo'ladi. Bu holda $m = 2^\alpha \cdot m_1$, $(m_1; 2) =$ 1deb yozib olamiz va $\varphi(2m) = \varphi(2^{\alpha+1} \cdot m_1) = \varphi(2^{\alpha+1})\varphi(m_1) = 2^\alpha\varphi(m_1) = 2\varphi(2^\alpha) \cdot \varphi(m_1) = 2\varphi(2^\alpha \cdot m_1) = 2\varphi(m)$.

137*.a).* $\varphi(4n + 2) = \varphi\big(2(2n + 1)\big) = \varphi(2)\varphi(2n + 1) = \varphi(2n + 1)$.

b).Agar $(n, 2) = 1$ bo'lsa, u holda $(n, 4) = 1$ bo'ladi. Shuning uchun ham

$$\varphi(4n) = \varphi(4)\varphi(n) = 2\varphi(n).$$

Agarda $n = 2^{\alpha} \cdot k,\ (k;2) = 1$ bo'lsa, u holda $\varphi(4n) = \varphi(2^{\alpha+2} \cdot k) = \varphi(2^{\alpha+2}) \cdot \varphi(k) = 2^{\alpha+1} \cdot \varphi(k) = 2\varphi(2^{\alpha+1}) \cdot \varphi(k) = 2\varphi(2^{\alpha+1} \cdot k) = 2\varphi(2n)$.

138. *a).*$\varphi(5^x) = 100 \to 5^x - 5^{x-1} = 100 \to 5^{x-1} \cdot 4 = 100 \to 5^{x-1} = 5^2 \to x = 3$.

b).$\varphi(7^x) = 294 \Rightarrow 7^{x-1} \cdot 6 = 294 \Longrightarrow 7^{x-1} = 49 \Longrightarrow 7^{x-1} = 7^2 \Rightarrow x - 1 = 2 \Rightarrow x = 3$.

c).$\varphi(p^x) = p^{x-1} \Rightarrow p^{x-1}(p-1) = p^{x-1}$. Bu tenglama $p > 2$ bo'lsa yechimga ega emas. $p = 2$ da ixtiyoriy natural son x tenglamaning yechimi bo'ladi.

d).$\varphi(3^x \cdot 5^y) = 600 \Rightarrow \varphi(3^x) \cdot \varphi(5^y) = 600 \Rightarrow 3^{x-1} \cdot 2 \cdot 5^{y-1} \cdot 4 = 600 \Rightarrow 3^{x-1} \cdot 5^{y-1} = 75 \Rightarrow 3^{x-1} \cdot 5^{y-1} = 3 \cdot 5^2 \Rightarrow x - 1 = 1;\ y - 1 = 2 \Rightarrow x = 2;\ y = 3$.

139. $m = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \dots p_k^{\alpha_k}$ bo'lsin u holda

$$\varphi(m) = p_1^{\varphi_1 - 1}(p_1 - 1)p_2^{\varphi_2 - 1}(p_2 - 1) \dots p_k^{\varphi_k - 1}(p_k - 1)$$

bo'ladi. Bu yerda har bir toq p_k ko'paytuvchiga juft $p_i - 1$ ko'paytuvchi mos keladi va $\varphi(m)$ juft son bo'ladi. Agarda $m = 2^{\alpha} > 3$ ko'rinishida bo'lsa, $\varphi(m) = \varphi(2^{\alpha}) = 2^{\alpha-1}$juft son bo'ladi.

140. $x = m$ soni $\varphi(x) = a$ ning ildizi bo'lsa u holda $\varphi(m) = a$ bajariladi. Bu holda $\varphi(2m) = \varphi(m) = a$; chunki shartga ko'ra $(2;m) = 1$. Bu yerdan $x = 2m$ soni ham berilgan tenglamaning ildizi ekanligi kelib chiqadi.

141. m ning ham n ning ham bo'luvchisi bo'lgan p tub soniga $\varphi(mn)$ da birta $(1 - \frac{1}{p}) < 1$ ko'paytuvchi mos keladi. $\varphi(m)\,\varphi(n)$da esa ikkita shunday ko'paytuvchi $\left(1 - \frac{1}{p}\right)^2$ mos keladi. $\left(1 - \frac{1}{p}\right)^2 < 1 - \frac{1}{p}$ bo'lgani uchun $(m;n) > 1$ bo'lsa, $\varphi(m)\varphi(n) < \varphi(mn)$ bo'ladi. Xususiy holda $\varphi^2(m) \le \varphi(m^2)$, bu yerda tenglik faqat $m = 1$ da bajariladi.

142. $q_1, q_2, \dots\dots\dots q_t$ lar faqat m ning kanonik yoyilmasiga kiruvchi tub sonlar,$p_1, p_2, \dots, p_k$ lar$m$ va n larning ikkalasining ham kanonik yoyilmasiga

kiruvchi tub sonlar,$l_1, l_2, \dots, l_s$ lar faqat n ning kanonik yoyilmasiga kiruvchi tub sonlar bo'lsinlar. U holda

$$\varphi(m \cdot n) = mn \prod_{i=1}^{t}\left(1-\frac{1}{q_i}\right)\prod_{i=1}^{k}\left(1-\frac{1}{p_i}\right)\prod_{i=1}^{s}\left(1-\frac{1}{l_i}\right) =$$

$$\left\{m\prod_{i=1}^{t}\left(1-\frac{1}{q_i}\right)\prod_{i=1}^{k}\left(1-\frac{1}{p_i}\right)\right\}\cdot\left\{n\prod_{i=1}^{k}\left(1-\frac{1}{p_i}\right)\prod_{i=1}^{s}\left(1-\frac{1}{l_i}\right)\right\}\frac{d}{d\prod_{i=1}^{k}\left(1-\frac{1}{p_i}\right)}$$

$$= \varphi(m)\varphi(n)\cdot\frac{d}{\varphi(d)}.$$

$Izoh$: Agar $\frac{d}{\varphi(d)} \geq 1$ ekannligini inobatga olsak isbotlangan tenglikdan 11-misoldagi munosabat to'gridan to'g'ri kelib chiqadi.

143. $[m;n] = \frac{mn}{(m;n)} \to \mu \cdot \delta = mn$ bo'lgani uchun $\varphi(mn) = \varphi(\mu\delta) =$

$\varphi(\mu)\varphi(\delta)\cdot\frac{d}{\varphi(d)} = \varphi(\mu)\cdot\varphi(\delta)$. $d = (\mu;\delta) = \left(\frac{mn}{(m;n)}; mn\delta\right) = 1$

144. Yig'indini bevosita $\varphi(p^{\propto}) = p^{\propto} - p^{\propto-1}$ formuladan foydalanib hisoblaymiz: $\varphi(1) + \varphi(p) + \varphi(p^2) + \cdots \dots + \varphi(p^{\propto}) =$

$$= 1 + p - 1 + p^2 - p + \cdots + p^{\propto} - p^{\propto-1} = p^{\propto}.$$

145. Agar a natural sonning kanonik yoyilmasi $a = p_1^{\propto_1}p_2^{\propto_2}\dots p_k^{\propto_k}$ va θ multiplikativ funksiya bo'lsa, u holda

$$\sum_{d\backslash a}\theta(d) = \left(1+\theta(p_1)+\theta(p_1^2)+\cdots+\theta\left(p_1^{\propto_1}\right)\right)\times$$

$$\times\left(1+\theta(p_2)+\theta(p_2^2)+\cdots+\theta\left(p_2^{\propto_2}\right)\right)\times\dots$$

$$\times\left(1+\theta(p_k)+\theta(p_k^2)+\cdots+\theta\left(p_k^{\propto_k}\right)\right) \quad (1)$$

ayniyat o'rinli. Haqiqatan ham (1) ning o'ng tomonidagi qavs ichidagi ifodalarni ko'paytirib qavslarni ochsak va $\theta(a)$ ning multiplikativligidan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\prod_{i=1}^{k}\left(1+\theta(p_i)+\theta\left(p_i^2\right)+\cdots+\theta\left(p_i^{\alpha_1}\right)\right)$$

$$=1+\theta(p_1)\ +\theta(p_2)+\cdots+\theta(p_k)+\cdots$$

$$+\theta\left(p_1^{\alpha_1}\right)\theta\left(p_2^{\alpha_2}\right)\ldots\theta\left(p_k^{\alpha_k}\right)$$

$$=\sum_{\beta_1}^{\alpha_1}\sum_{\beta_2}^{\alpha_2}\ldots\sum_{\beta_k}^{\alpha_k}\theta(p_1^{\beta_1}p_2^{\beta_2\cdot}\ldots p_k^{\beta_k})=\sum_{d/a}\theta(d).$$

Bu yerda biz $a=p_1^{\alpha_1}p_2^{\alpha_2}\ldots p_k^{\alpha_k}$ sonining ixtiyoriy bo'luvchisi d ni $d=p_1^{\alpha_1}p_2^{\alpha_2}\ldots p_k^{\alpha_k}$, $0\le\beta_i\le\alpha_i$, $i=1,2,\ldots,k$ ko'rinishidagi ifodalash mumkinligidan foydalandik. Endi (1) da $\theta(d)=\varphi(d)$ deb olamiz. U holda (1) dan

$$\sum_{d/a}\varphi(d)=\prod_{i=1}^{k}\left(1+\varphi(p_i)+\varphi\left(p_i^2\right)+\cdots+\varphi\left(p_i^{\alpha_i}\right)\right)$$

$$=\prod_{i=1}^{k}\left(1+p_i-1+p_i^2-p_i+\cdots+p_i^{\alpha_i}-p_i^{\alpha_i-1}\right)=\prod_{i=1}^{k}p^{\alpha_i}=a.$$

146. Avvalo, agar $(a;m)=1$ bo'lsa, u holda $(a;m-a)=1$ ekanligini ko'rsatamiz . $(a;m-a)=d>1$ bo'lsin deb faraz etaylik. U holda $a=da_1, m-a=d\cdot t$ deb yoza olamiz. Bu yerdan $m=a+dt=d(a_1+t)$ ga, yani $(a;m)=d>1$ga ega bo'lamiz. Bu esa $(a;m)=1$ ga qarama-qarshidir.

Endi m dan kichik va m bilan o'zaro tub sonlarni o'sib borish tartibida yozib chiqamiz:

$$1,\quad a_1,\quad a_2,\quad \ldots,\quad m-a_2,\quad m-a_1,\quad m-1. \qquad (2)$$

Bularning soni $\varphi(m)$ ta. Bu yerda har bir a_i ga birta $m-a_i$ soni mos keladi. Ularning yig'indisi $a_i+(m-a_i)=m$ ga teng. Bunday juftliklar soni $\frac{1}{2}\varphi(m)$ ta. Shunday qilib (2) dagi sonlar yig'indisini S deb belgilasak $S=\frac{1}{2}m\varphi(m)$ ga ega bo'lamiz.

147.16 – masalada isbotlangan formuladan foydalanib

$$S_1=\frac{1}{2}p\varphi(p)=\frac{1}{2}p(p-1);\quad S_2=\varphi(p^2)=p^2-p=p(p-1)$$

$$\frac{S_2}{S_1} = \frac{p(p-1)}{\frac{1}{2}p(p-1)} = 2$$

topamiz.

148. 1). $\varphi(x) = p-1,\ x = p^{\propto} \cdot y,\ (p;y) = 1$ deb olamiz. $\varphi(x) = \varphi(p^{\propto} \cdot y) = p^{\propto-1}(p-1)\varphi(y) = p-1$ yoki$p^{\propto-1} \cdot \varphi(y) = 1$ hosil bo'ladi. Bundan $\alpha = 1,\ \varphi(y) = 1$ yoki $y = 1$ va $y = 2$. $\alpha = 1$ va $y = 1$ da $x = p = 2$ tenglama birta yechimi, $p > 2$ bo'lsa tenglama 2 ta p va $2p$ yechimga ega bo'ladi.

2). $\varphi(x) = 14 \Rightarrow \varphi(x) = 2 \cdot 7dan\varphi(x) \vdots 7$ yani x ning yoyilmasida 7 qatnashishi kerak u holda $\varphi(x) \vdots 6$, lekin $\varphi(x)$ ifoda 6 bo'linmaydi. Demak tenglama yechimga ega emas.

3). $\varphi(x) = 8 = 2^3 \Rightarrow \varphi(x) \vdots 2,\ \varphi(x) \vdots 4,\ \varphi(x) \vdots 8.$

a) $x = 2^{\propto} \cdot 3^{\beta} \cdot 5^{\gamma}$ bo'lsin u holda $\varphi(x) = (2^{\propto} - 2^{\propto-1})\left(3^{\beta} - 3^{\beta-1}\right)(5^{\gamma} - 5^{\gamma-1}) = 8 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 3^{\beta-1} \cdot 5^{\gamma-1} \cdot 2 \cdot 4 = 8 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 3^{\beta-1} \cdot 5^{\gamma-1} = 1 \Rightarrow \alpha = 1;\ \beta = 1;\ \gamma = 1$ va $x = 30,\ \varphi(30) = 4 \cdot 2 = 8;$

$b)\ x = 2^{\propto} \cdot 3^{\beta} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot 3^{\beta-1} \cdot 2 = 8 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 3^{\beta-1} = 4 \Rightarrow \alpha = 3,\ \beta = 1 \Rightarrow x = 8 \cdot 3 = 24.$

c). $x = 2^{\propto} \cdot 5^{\gamma} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot 5^{\gamma-1} \cdot 4 = 8 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 5^{\gamma-1} = 2 \Rightarrow \gamma = 1;\ \propto = 2 \Rightarrow x = 4 \cdot 5 = 20.$

$d).\ x = 3^{\beta} \cdot 5^{\propto} \Rightarrow \varphi(x) = 3^{\beta-1} \cdot 5^{\gamma-1} \cdot 8 = 8 \Rightarrow 3^{\beta-1} \cdot 5^{\gamma-1} = 1 \Rightarrow \beta = 1,\ \gamma = 1 \Rightarrow x = 15.$

$e).\ x = 2^{\propto};\ \varphi(x) = 2^{\propto-1} = 8 = 2^3 \Rightarrow \propto = 4 \Rightarrow x = 16.$

Demak, **javob** $x = 15; 16; 20; 24; 30.$

4). $\varphi(x) = 12 = 2^2 \cdot 3$. Mumkin bo'lgan hollarni qarab chiqamiz.

a) $x = 2^2 \cdot 3^{\beta} \cdot 7^{\gamma} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot 2 \cdot 3^{\beta-1} \cdot 6 \cdot 7^{\gamma-1} = 12 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 3^{\beta-1} \cdot 7^{\gamma-1} = 1 \Rightarrow \propto = 1, \beta = 1, \gamma = 1 \Rightarrow x = 42.$

b) $x = 2^{\propto} \cdot 3^{\beta} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot 2 \cdot 3^{\beta-1} = 12 \Rightarrow 2^{\propto} \cdot 3^{\beta-1} = 2^2 \cdot 3 \Rightarrow \propto = 2;\ \beta = 2 \Rightarrow x = 36.$

c)$x = 2^{\propto} \cdot 7^{\gamma} \Rightarrow \quad \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot 6 \cdot 7^{\gamma-1} = 12 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 7^{\gamma-1} = 2;\ \gamma = 1;\ \propto = 2 \Rightarrow x = 28.$

d) $x = 3^{\beta} \cdot 7^{\gamma} \Rightarrow \varphi(x) = 3^{\beta-1} \cdot 2 \cdot 6 \cdot 7^{\propto-1} = 12 \Rightarrow 3^{\beta-1} \cdot 7^{\gamma-1} = 1 \Rightarrow \beta = 1, \gamma = 1 \Rightarrow x = 21.$

e) $x = 2^{\propto} \cdot 13^{\delta} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot 13^{\delta-1} \cdot 12 = 12 \Rightarrow 2^{\propto-1} \cdot 13^{\delta-1} = 1 \Rightarrow \delta = 1,\ \propto = 1 \Rightarrow x = 26.$

g)$x = 13^{\delta} \Rightarrow \varphi(x) = 13^{\delta-1} \cdot 12 = 12 \Rightarrow 13^{\delta-1} = 1 \Rightarrow \delta = 1 \Rightarrow x = 13.$

Javob: $x = 5; 13; 21; 26; 28; 36; 42.$

149. 1). $\varphi(x) = 2^{\propto}\ ;\ x = 2^{k} \cdot 3^{l} \cdot 5^{m}$

a) $x = 2^{k} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{k-1} = 2^{\propto} \Rightarrow k - 1 = \propto \Rightarrow k = \propto + 1 \Rightarrow x = 2^{\propto+1}.$

b) $x = 2^{k} \cdot 5^{m} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{k-1} \cdot 5^{m-1} \cdot 4 = 2^{\propto} \Rightarrow m - 1 = 0; m = 1,$ $k + 1 = \propto, \quad k = \propto - 1 \Rightarrow x = 2^{\alpha-1} \cdot 5.$

c) $x = 2^{k} \cdot 3^{l} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{k-1} \cdot 3^{l-1} \cdot 2 = 2^{\propto} \Rightarrow k = \propto,\ l = 1 \Rightarrow x = 2^{\propto} \cdot 3.$

d) $x = 3^{l} \cdot 5^{m} \Rightarrow \varphi(x) = 3^{l-1} \cdot 2 \cdot 5^{m-1} \cdot 4 = 2^{\propto} \Rightarrow \propto = 3\ ; l = 1\ ;\ m = 1 \Rightarrow x = 15\ .$

e) $x = 2^{k} \cdot 3^{l} \cdot 5^{m} \Rightarrow \varphi(x) = 2^{k-1} \cdot 3^{l-1} \cdot 2 \cdot 5^{m-1} \cdot 4 = 2^{\propto} \Rightarrow$ $2^{k+2} \cdot 3^{l-1} \cdot 5^{m-1} = 2^{\propto} \Rightarrow k = \propto - 2\ ;\ l = 1\ ;\ m = 1 \Rightarrow x = 2^{\propto-2} \cdot 15.$

Javob: $x = 2^{\propto+1};\ 2^{\alpha-1} \cdot 5;\ 2^{\propto} \cdot 3;\ 15;\ 2^{\propto-2} \cdot 15.$

2).$\varphi(p^{x}) = 6 \cdot p^{x-2} \Rightarrow p^{x-1}(p-1) = 6p^{x-2} \Rightarrow p(p-1) = 6 \Rightarrow p = 3$ ixtiyoriy x qanoatlantiradi $p \neq 3$ da yechimi yoq.

150. $\varphi(m) = 3600,$ bunda $m = 3^{\propto} \cdot 5^{\beta} \cdot 7^{\gamma}.\ 3600 = 2^{4} \cdot 3^{2} \cdot 5^{2} \Rightarrow \varphi(m) = 3^{\propto-1} \cdot 2 \cdot 5^{\beta-1} \cdot 4 \cdot 7^{\gamma-1} \cdot 6 = 2^{4} \cdot 3^{2} \cdot 5^{2} \Rightarrow 3^{\propto-1} \cdot 5^{\beta-1} \cdot 7^{\gamma-1} = 3 \cdot 5^{2} \Rightarrow \propto - 1 = 1\ ;\ \propto = 2\ ;\ \beta - 1 = 2\ ;\ \beta = 3\ ;\ \gamma = 1 \Rightarrow m = 3^{2} \cdot 5^{3} \cdot 7 = 7875.$

151. $\varphi(x) = 120,\ x = p_1 \cdot p_2$ va $p_1 - p_2 = 2 \Rightarrow \varphi(x) = (p_1 - 1)(p_2 - 1) = 120\ ;\ p_1 = p_2 + 2 \Rightarrow (p_2 + 1)(p_2 - 1) = 120 \Rightarrow p_2 = 11\ ;\ p_1 = 13\ ;\ x = 143.$

152. Masalaning shartiga ko'ra: $\varphi(m) = 11424\ ;\ m = p_1^{2} \cdot p_2^{2}$. Bulardan va $11421 = 2^{5} \cdot 3 \cdot 7 \cdot 17$ ekanligidan $\varphi(p_1^{2} \cdot p_2^{2}) = (p_1^{2} - p_1)(p_2^{2} - p_2) =$

$p_1(p_1-1)p_2(p_2-1)=2^5\cdot 3\cdot 7\cdot 17=16\cdot 17\cdot 7\cdot 6$ hosil bo'ladi. Bundan esa $p_1=17$; $p_2=7$; $m=(p_1\cdot p_2)^2=119^2=14161$ ni hosil qilamiz.

153. *a).*$\varphi(x)=\varphi(px)$da agar $p=2$ bo'lsa $\varphi(x)=\varphi(2)\varphi(x)=\varphi(x)$, x ning barcha toq qiymatlari qanoatlantiradi, chunki bu holda $(2;x)=1$; $p\geq 3$ bo'lsa $x=p_1^{\propto_1}\cdot p_2^{\propto_2}\ldots p_k^{\propto_k}$desak, $\varphi(x)=\left(p_1^{\propto_1}-p_1^{\propto_1-1}\right)\left(p_2^{\propto_2}-p_2^{\propto_2-1}\right)\ldots\left(p_k^{\propto_k}-p_k^{\propto_k-1}\right)$.

Agar $(p;x)=1$ bo'lsa, $\varphi(px)=\varphi(x)(p-1)\neq\varphi(x)$. Agarda $(p;x)=p$; $(p=p_i)$ bolsa, $px=p_1^{\propto_1}\cdot p_2^{\propto_2}\ldots p_i^{\propto_i+1}\cdots p_k^{\propto_k}$ va $\varphi(px)=\left(p_1^{\propto_1}-p_1^{\propto_1-1}\right)\left(p_2^{\propto_2}-p_2^{\propto_2-1}\right)\ldots\left(p_i^{\propto_i+1}-p_i^{\propto_i}\right)\cdots\left(p_k^{\propto_k}-p_k^{\propto_k-1}\right)=p_i\cdot\varphi(x)\neq\varphi(x)$

Demak, $p=2$ da berilgan tenglamani x ning barcha toq qiymatlari qanoatlantiradi; $p\geq 3$ bo'lsa tenglama yechimga ega emas.

b). $\varphi(px)=p\varphi(x)$. 1). Agar $(x;p)=1$ bo'lsa, $\varphi(px)=\varphi(p)\varphi(x)=(p-1)\varphi(x)\Rightarrow\varphi(x)(p-1)=p\varphi(x)\ \Rightarrow\ \varphi(x)=0$. Demak yechimi yo'q.

2). $x=p_1^{\propto_1}\cdot p_2^{\propto_2}\ldots p_k^{\propto_k}$ bo'lsa, $(p;x)=p$; $(p=p_i)$; $\varphi(px)=p_i\cdot\varphi(x)=p\varphi(x)$. Demak bu holda berilgan tenglamani x ning p ga karra natural qiymatlari qanoatlantiradi.

c).$\varphi(p_1\cdot x)=\varphi(p_2\cdot x)$; $p_1\neq p_2$; $x=q_1^{\propto_1}\cdot q_2^{\propto_2}\ldots q_k^{\propto_k}$;

1) $p_1\neq q_i$; yani$(x;p)=1$ bo'lsa $\varphi(p_1\,x)=(p_1-1)\,\varphi(x)$, agarda $(x;p_1)=p_1$bo'lsa, $\varphi(p_1x)=p_1\varphi(x)$.

2) $p_2\neq q_i$yani $(x;p_2)=1\ \Rightarrow\ \varphi(p_2x)=(p_2-1)\varphi(x)$; agarda $(x;\ p_2)=p_2$; $\varphi(p_2x)=p_2\varphi(x)$.

Bulardan quyidagi tenglamalarni hosil qilamiz:

1) $(p_1-1)\varphi(x)=(p_2-1)\varphi(x)$;
2) $(p_1-1)\varphi(x)=p_2\varphi(x)$;
3) $(p_2-1)\varphi(x)=p_1\varphi(x)$;
4) $p_2\varphi(x)=p_1\varphi(x)$.

1) dan $(p_1-1-p_2+1)\varphi(x)=0\Rightarrow(p_1-p_2)\varphi(x)=0\ \Rightarrow\ p_1-p_2\neq 0$. Demak $\varphi(x)=0$ bo'lishi kerak bu holda tenglama yechimga ega emas.

2) dan $(p_1-p_2-1)\varphi(x)=0$; $p_1=p_2+1$; $p_1=3$; $p_2=2$ da tenglamani x ning berilgan shartilarini qanoatlantiruvchi, yani $(x;3)=1$ va $(x;2)=2$ (x ning 2 ga bo'linib 3 ga bo'linmaydigan qiymatlari) tenglamani qanoatlantiradi.

3) dan $((p_1 - p_2 - 1)\varphi(x) = 0$. Bundan yuqoridagi singari $p_1 = 2\ ;\ p_2 =$ 3 da bajariladi. Yani x ning 3 gabo'linib 2 bilano'zaro tub qiymatlarining berilgan tenglamani qanoatlantirishi kelib chiqadi.

4) dan $(p_2 - p_1)\varphi(x) = 0\ ;\ p_1 \neq p_2$ bo'lgani uchun bu holda tenglama yechimga ega emas.

154. *a).*$\varphi(x) = \frac{x}{2} \Rightarrow \frac{x}{2}$ – butun son bo'lishi kerak. Shuning uchun ham $x = 2^{\propto} \cdot q,\ (q; 2) = 1$ deb yozish mumkin. Bu holda $\varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot \varphi(\mathrm{q}) = 2^{\propto-1} \cdot \mathrm{q} \Rightarrow \varphi(q) = q \Rightarrow q = 1.$ Bundan $x = 2^{\propto}$ tenglamaning yechimi $(\propto \geq 1)$ bo'ladi.

b).$\varphi(x) = \frac{x}{3} \Rightarrow x = 3^{\beta} \cdot q \Rightarrow \varphi(x) = 3^{\beta-1} \cdot 2 \cdot \varphi(q) = \frac{3^{\beta} \cdot q}{3} \Rightarrow \varphi(q) = \frac{q}{2} \Rightarrow q = 2^{\propto} \Rightarrow x = 2^{\propto} \cdot 3^{\beta}.$

c).$\varphi(x) = \frac{x}{4} \Rightarrow x = 2^{\propto} \cdot q\ ;\ \propto \geq 2\ ;\ (2^{\propto}; q) = 1 \Rightarrow \varphi(x) = 2^{\propto-1} \cdot \varphi(q) = \frac{2^{\propto} \cdot q}{4} = 2^{\propto-2} \cdot q.$ Bundan $\varphi(q) = \frac{q}{2}$ ni hosil qilamiz. Bundan esa a) ga asosan $q = 2^k$ kelib chiqadi, lekin bizda $(2^{\propto}; \mathrm{q}) = 1$ bo'lishi kerak edi, bu qarama qarshilikdan berilgan tenglama ni yechimga ega emas degan xulosa kelib chiqadi.

155. $\varphi(p^x) = a \rightarrow p^{x-1}(p-1) = a \Rightarrow$

$$(x-1)\ln p = \ln\frac{a}{p-1} \Rightarrow\ x = 1 + \frac{\ln\frac{a}{p-1}}{\ln p}\ ,$$

bundan *a* birga teng yoki juft son .

156. $p_i (i = 1,2 \ldots, \mathrm{k})$ barcha tub sonlaar bo'lsin. U holda $a = p_1 p_2 \ldots p_k$ soni uchun

$$\varphi(a) = (p_1 - 1)(p_2 - 1) \ldots (p_k - 1). \qquad (*)$$

Ikkinchi tomondan esa har bir $\leq a$ natural son $p_1, p_2, \ldots, p_k$ tub sonlarning birortasiga bo'linadi va *a* bilan o'zaro tub emas.Shuning uchun ham $\varphi(a) = 1.$ Shunday qilib (*) ga asosan $(p_1 - 1)(p_2 - 1) \ldots (p_k - 1) = 1$ hosil bo'ladi. Bunday bo'lishi mumkin emas. Bu qarama-qarshilik tub sonlar soni chekli *k* ta bo'lsin deganimizdan kelib chiqdi. Demak, tup sonlar soni cheksiz ko'p.

157. $\frac{a}{b}$; $(a;b)=1$; $0<a<b$ musbat, to'g'ri, qisqarmas kasr berilgan bo'lsin. Maxraji b ga teng musbat, to'g'ri, qisqarmas kasrlar soni $\varphi(b)$ ta. Shuning uchun ham izlanayotgan son $\varphi(2)+\varphi(3)+\cdots+\varphi(n)$ ga teng bo'ladi.

158. $x \leq 300$ va $(x;300)=20$ bajarilishi kerak. Bundan $\left(\frac{x}{20};15\right)=1$.

$y=\frac{x}{20}$ deb olsak $(y;15)=1$ va $y \leq 15$ bo'lishi kerak, bunday y lar soni $\varphi(15)=8$ ta. Bular $y=1,2,4,7,8,11,13,14$ va bunga mos x lar $x=20,40,80,140,160,220,260,280$ lardan iborat.

III. 1-§.

159. Barcha butun sonlarni 1 ga bo'lsak 0 qoldiq qoladi, ya'ni barcha butun sonlar 1 moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanuvchi.

160. 8 moduli bo'yicha taqqoslanuvchi sonlar $8q+r$, $0 \leq r < 8$; masalan $r=1$ da 9,17 lar 8 moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanadi, chunki $9=8\cdot 1+1$ va $17=8\cdot 2+1$.

161. a) $1 \equiv -5(mod6), 1 \equiv 6-5(mod6), 1 \equiv 1(mod6)$;

b) $546 \equiv 0(mod13), 546 \equiv 13\cdot 42+0, 0 \equiv 0(mod13)$;

c) $2^3 \equiv 1(mod4), 8 \equiv 1(mod4),\ 0 \equiv 1(mod4)$?

d) $3m \equiv -1(modm), 0 \equiv m-1(modm)$?

Demak, $a), b)$ taqqoslamalar o'rinli, $c), d)$ lar o'rinli emas.

162. $a \equiv b(modm)$ taqqoslamaning o'rinli ekenligini ko'rsatish uchun a va b larni m ga bo'lganda bir xil qoldiq qolishini, yoki $(a-b) \vdots m$ ni ko'rsatish yetarli.

a) $121 \equiv 13145(mod2)$, chunki $121 \equiv 2\cdot 60+1$ va $13145 \equiv 2\cdot 6572+1$

Berilgan sonlarni 2 ga bo'lsak bir xil qoldiq qoladi. Shuning uchun ham ular 2 moduli bo'yicha taqqoslanuvchi.

b) $121347 \equiv 92817(mod10)$, bu yerda $121347=12134\cdot 10+7$, $92817=9281\cdot 10+7$. Demak ta'rifga ko'ra taqqoslama o'rinli.

c) $31 \equiv -9(mod10), 31-(-9) \equiv 40 \vdots 10$. Demak, taqqoslama o'rinli.

d) $(m-1)^2 \equiv 1(modm)$, bu yerda $(m-1)^2-1=m^2-2m=m(m-2) \vdots m$. Demak, taqqoslama o'rinli.

e) $2m+1 \equiv (m+1)^2 (mod m)$, chunki $2m+1-(m+1)^2 = 2m+1-m^2-2m-1 = -m^2 \vdots m$. Demak, berilgan taqqoslama o'rinli.

163. *a)* $5^{1812} = (5^2)^{906} = (25 \cdot 1 + 0)^{906} \equiv 0 (mod 25)$. Shuningdek $1964 = 1950 + 14 = 78 \cdot 25 + 14 \equiv 14 (mod 25)$, demak, bu sonlar 25 moduli bo'yicha teng qoldiqli emas, ya'ni $5^{1812} \not\equiv 1964 (mod 25)$.

b) agar $a \equiv b (mod m)$ bo'lsa, $(a, m) = (b, m)$ bo'lishi kerak. Bizning misolimizda $(7^{103}; 87) = 1;\ (3; 87) = 3$. Demak, $7^{103} \not\equiv 3 (mod 87)$.

c) $4^{1965} \equiv 25 (mod 10)$ da $(4^{1965}; 10) = 2$ va $(25,10) = 5,\ 5 \neq 2$ bo'lgani uchun $4^{1965} \not\equiv 25 (mod\ 10)$.

d) $30 \cdot 17 \equiv 81 \cdot 19 (mod 6) da\ 30 \cdot 17 \equiv 0 (mod 6), 81 \cdot 19 \not\equiv (mod 6)$ demak, taqqoslama o'rinli emas.

e) $(2n+1)(2m+1) \equiv 2k (mod 6)$. Bu yerdan tenglikga o'tsak,

$(2n+1)(2m+1) = 2k + 6t = 2(k+3t)$. Bu tenglikning o'ng tomoni 2 ga bo'linadi, chap tomoni esa 2 ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham taqqoslama o'rinli emas.

164. a butun son va $m > 0$ butun soni berilgan bo'lsin. U holda qoldiqli bo'lish haqida teoremaga asosan $a = m \cdot q + r,\ 0 \leq r < m$ deb yoza olamiz. Bundan $a - r = mq$, ya'ni $(a-r) \vdots m$. U holda ta'rifga asosan $a \equiv r (mod m)$.

165. $x \equiv 2 (mod 10)$ ni tenglik ko'rinishida yozsak $x = 2 + 10t,\ t \in Z, x = 2, 12, 22, -8, -18$.

166. *a)* $x \equiv 0 (mod 3), x = 3t, t \in Z;$ b) $x \equiv 1 (mod 2), x = 1 + 2t,\ t \in Z$.

167. *a)* $20 \equiv 8 (mod m) \Rightarrow \left.\begin{matrix} 20 = mq + r \\ 8 = mq_1 + r \end{matrix}\right\} \Rightarrow 12 = m(q - q_1) \Rightarrow m =$ 1,2,3,4,6,12.

b) $3p + 1 \equiv p + 1 (mod m) \Rightarrow 3p + 1 - p - 1 \equiv 0 (mod m) \Rightarrow 2p \equiv 0 (mod m) \Rightarrow\ 2p \vdots m.$ $2p$ ning bo'luvchilari $m = 1, 2, p, 2p$.

168. $13 \equiv 5 (mod m) \rightarrow 13 - 5 \equiv 0 (mod m) \rightarrow 8 \equiv 0 (mod m) \Rightarrow m =$ 1,2,4,8.

169. Ta'rifga ko'ra 10 modul bo'yicha taqqoslanuvchi butun sonlarni 10 ga bo'lganda bir xil qoldiq qolishi kerak, ya'ni ular $a = 10 \cdot q + r, 0 \leq r < 10$

shartni qanoatlantirishi kerak. Misol uchun $r = 1$ deb olsak barcha 10 ga bo'lganda $1, 11, 101,\ 1001, \ldots$ larga ega bo'lamiz.

170. Berilgan taqqoslamalardan qaysilari o'rinli ekanligini aniqlash uchun m modul bo'yicha taqqoslanuvchi sonlarning ayirmasi shu modulga qoldiqsiz bo'linishini tekshirib ko'rish kifoya.

a) da $1-(-11)=1+11=12$ va 12 soni 6 ga qoldiqsiz bo'liadi. Demak, berilgan taqqoslama o'rinli.

b) da $3n-n^2=n(3-n)$ va$n(3-n)$ soni $n$ga qoldiqsiz bo'liadi. Demak, berilgan taqqoslama o'rinli.

c) da $2^6-1=63=7\cdot 9$ va $7\cdot 9$ soni 7 ga qoldiqsiz bo'linadi. Demak, berilgan taqqoslama o'rinli.

d) da $3m-1=2m+(m-1)$ va $2m+(m-1)$ soni $m>1$ga qoldiqsiz bo'linmaydi. Demak, berilgan taqqoslama o'rinli emas.

Shunday qilib berilgan taqqoslamalardan a), b), c) lar o'rinli, d) esao'rinli emas.

171. Berilgan taqqoslamani parametrik tenglik qilib yozsak $x=7+5t$, bunda t ixtiyoriy butun son. Bundan $x=2+5+5t=2+5(t+1)=2+5t_1$, t_1 - ixtiyoriy butun son. Demak x 5ga bo'lganda 2 qoldiq qoluvchi sonlardan $\cdots, -13, -8, -3, 2, 7, 12, 17, \cdots$ iborat bo'lar ekan.

172. Faraz etaylik $\left.\begin{matrix} x\equiv\alpha \\ y\equiv\beta \\ z\equiv\gamma \end{matrix}\right\}(modm)$ bo'lsin. U holda

$$\left.\begin{matrix} ax^3\equiv a\alpha^3 \\ bx^2y\equiv b\alpha^2\beta \\ cxyzc=c\alpha\beta\gamma \\ dz\equiv d\gamma \end{matrix}\right\}(modm)$$ bajariladi. Bundan $F(x,y,z)\equiv F(\alpha,\beta,\gamma)(modm)$ kelib chiqadi.

173. $3^n\equiv -1(modm)$ ni $3^4=81\equiv 1(mod10)$ taqqoslamaga hadlab ko'paytirsak $3^{n+4}\equiv -1(mod10)$ hosil bo'ladi.

174. $2^{5n}-1=(2^5)^n-1=(31+1)^n-1\equiv(1^n-1)(mod31)\equiv 0(mod31)$demak$(2^{5n}-1):31$.

175. $x = 3n + 1$bo'lsa $1 + 3^x + 9^x = 1 + 3^{3n+1} + 9^{3n+1} = 1 + 3 \cdot 3^{3n} + 9 \cdot 9^{3n} = 1 + 3 \cdot (3^3)^n + 9 \cdot (9^3)^n = 1 + 3(26 + 1)^n + 9(128 + 1)^n = 1 + 3(13 \cdot 2 + 1)^n + 9(13 \cdot 56 + 1)^n \equiv 1 + 3 \cdot 1^n + 9 \cdot 1^n (mod 13) \equiv 13(mod 13) \equiv 0(mod 13)$. Demak, $1 + 3^x + 9^x$ soni $x = 3n + 1$ $(n = 0,1,2, \dots)$ bo'lganda 13 ga bo'linadi.

176. $(a + b)^p$ ni Nyuton binomi formulasidan foydalanib yoyib, keyin p moduli bo'yicha taqqoslamaga o'tamiz. $(a + b)^p = a^p + pa^{p-1}b + \frac{p(p-1)}{21} a^{p-2}b^2 + \cdots + ab^{p-1} + b^p \equiv a^p + b^p (mod p)$, ya'ni $(a + b)^p \equiv a^p + b^p (mod p)$.

177. Masalaning sharti bo'yicha $a \equiv b(mod p^n)$. Buni tenglik qilib yozsak $a = b + p^n \cdot t$, $(t = 0, \pm 1, \pm 2 \dots)$. Bu tenglikni ikkala tomonini p-darajaga ko'taramiz, u holda$a^p = (b + p^n t)^p = b^p + p^{n+1} q$, $(q = 0, \pm 1, \pm 2, \dots)$. Oxirgi tenglik esa $a^p \equiv b(mod p^{n+1})$ taqqoslamaga teng kuchli.

178. Agar $(x; m) = 1$ bo'lsa $ax \equiv bx(mod m)$ taqqoslamaning ikkala tomonini x ga qisqartirish mumkin, ya'ni $a \equiv b(mod m)$, bunda$a \equiv b \left(mod \frac{m}{(x,m)}\right)$ taqqoslama o'rinli 'kanligi kelib chiqadi. Agar $(x, m) = d > 1$ bo'lsa $x = dx_1$ va $m = dm_1$, $(m_1; x_1) = 1$ deb yoza olamiz. Bulardan foydalanib $ax \equiv bx(mod m)$ taqqoslamani $adx_1 \equiv bdx_1 (mod m_1 d)$ deb yoza olamiz. Berilgan taqqoslamaning ikkala tomonini va modulini ularning umumiy bo'luvchisiga qisqartirish mumkin. Shuning uchun ham oxirgi taqqoslamani $ax_1 \equiv bx_1 (mod m_1)$ ko'rinishda yozish mumkin. Bundan, $(x_1; m_1) = 1$ bo'lgan uchun, $a \equiv b(mod m_1)$ ga, ya'ni $a \equiv b(mod \frac{m}{d})$ ga ega bo'lamiz. Bunda $d = (m, x)$ bo'lgani uchun $a \equiv b \left(mod \frac{m}{(x,m)}\right)$ ni hosil qilamiz.

179. Bunda $\overline{a_4 a_3 a_2 a_1 a_0} \equiv 0(mod 33)$ taqqoslamani $a_4 10^4 + \overline{a_3 a_2} \cdot 10^2 + \overline{a_1 a_0} \equiv 0(mod 33)$ ko'rinishda yozib olamiz va undan $9999a_4 + 99\overline{a_3 a_2} \equiv 0(mod 33)$ ayniy taqqoslamani hadlab ayiramiz. U holda isbotlanishi talab etilgan taqqoslama $a_4 10^4 + \overline{a_3 a_2} + \overline{a_1 a_0} \equiv 0(mod 33)$ hosil bo'ladi.

180. 1). Berilgan taqqoslamalarni $p-1\equiv -1(modp),\ p-2\equiv -2(modp),\dots,p-n\equiv -n(modp)$ ko'rinishida yozib olib hadlab ko'paytiramiz. U holda $(p-1)(p-2)\dots(p-n)\equiv(-1)^n n!\,(modp)$ hosil bo'ladi. Bunda $(n!,p)=1$ bo'lgani uchun oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini $n!$ ga bo'lib $\frac{(p-1)(p-2)\dots(p-n)}{n!}\equiv(-1)^n(modp)$ ni hosil qilamiz. Buning chap tomoni C_{p-1}^n ga teng. Shuning uchun ham $C_{p-1}^n\equiv(-1)^n(modp)$ bajariladi.

2) 22.1-misoldagi singari $p-2\equiv -2(modp),\dots,p-n\equiv -n(modp),\ p-(n+1)\equiv -(n+1)(modp)$ lardan $(p-2)(p-3)\dots(p-n)\big(p-(n+1)\big)\equiv(-1)^n(n+1)!\,(modp)$ ni, bundan esa $\frac{(p-2)(p-3)\dots(p-n)\big(p-(n+1)\big)}{n!}\equiv(-1)^n(n+1)(modp)$ ni hosil qilamiz. Shuning uchun ham $C_{p-2}^{n+1}\equiv(-1)^n(n+1)(modp)$.

181. 1). $9^{10}=(10-1)^{10}=100t+1\equiv 1(mod100)$ bo'gani uchun $9^{10q+r}\equiv 9^r(mod100)$ bo'ladi. $9^9=(9^2)^4\cdot 9=81^4\cdot 9\equiv 9(mod10)$ dan $9^9=9+10t_1$; u holda $9^{9^9}\equiv 9^{9+10t_1}(mod100)\equiv 9^9(mod100)\equiv(9^3)^3\equiv 729^3(mod100)\equiv 29^3(mod100)\equiv 24389(mod100)\equiv 89(mod100)$. Demak, izlanayotgan oxirgi ikkita raqam 8 va 9.

2) $7^4=2401\equiv 1(mod100)$dan$7^{100}=(7^4)^{25}\equiv 1(mod100)$. Bu yerdan $7^{9^{9^9}}\equiv 7^{100q+89}(mod100)$ (1) − misolgaqarang) $7^{100q+89}\equiv(7^{100})^q\cdot 7^{89}(mod100)\equiv 7^{89}(mod100)\equiv 7^{88}\cdot 7(mod100)\equiv(7^4)^{22}7(mod100)\equiv 7(mod100)$. Demak, izlanayotgan oxirgi 2ta raqam 0 va 7.

182. $p>2$ – toq tub son bo'lgani uchun $p+2$ ham toq son bo'ladi, ya'ni $p\equiv p+2\equiv 1(mod2)$ (1) bajariladi. Bundan $p^{p+2}+(p+2)^p\equiv(2k+1)^{p+2}+(2q+1)^p\equiv 2(mod2)\equiv 0(mod2)$. Shuningdek tushunarliki, $p\equiv -1(mod\,p+1)$ va $p+2\equiv 1(mod\,p+1)$ bajariladi. Oxirgi 2 ta taqqoslamadan $p^{p+2}+(p+2)^p\equiv(-1)^{p+2}+1^p(mod\,p+1)\equiv -1+1(mod\,p+1)\equiv 0(mod\,p+1)$ (2). (1) va (2) dan$p^{p+2}+(p+2)^p\equiv 0(mod\ 2p+2)$ taqqoslama kelib chiqadi.

183. Qaralayotgan sonlarni juft-jufti bilan birlashtirib (noldan tashqarilarini) $\pm\frac{p-x}{2},\ (x=1,2,\dots p-2)$ ko'rinishda yozish mumkin. Endi agarda bu sonlar ichida $p>2$ moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanuvchilari bor desak

$\pm\frac{p-x}{2} \equiv 0(modp)$ yoki $\frac{p-x_1}{2} \equiv \pm\frac{p-x_2}{2}(modp)$ larning birortasi bajarilishi kerak. Bulardan $x \equiv p(modp)$va$x_1 \equiv \pm x_2(modp)$ larga ega bo'lamiz. Birinchi holda $x = 0$ (chunki $x < p$), ikkinchi holda esa $x_1 = x_2$ yoki $x_1 = -x_2$ga ega bo'lamiz. Bu esa qaralayotgan sonlar orasida o'zaro taqqoslanuvchilari yo'q ekanligini bildiradi.

184. Berilgan $i \equiv i - m(modm)$ taqqoslamadan $i = 1,2, \dots, m$ da

$1 \equiv 1 - m, 2 \equiv 2 - m, \dots, m - 2 \equiv (m - 2) - m \equiv 2, m - 1 \equiv m - 1 - m \equiv -1,\ m \equiv -m(modm)$ larga ega bo'lamiz. Bularning barchasini n-darajaga ko'tarib keyin hadlabqo'shsak:

$$1^n + 2^n + \cdots + m^n \equiv (-1)^n + (-2)^n + \cdots + (-m)^n(modm) \qquad (1)$$

hosil bo'ladi. Bundan agar $n = 2k + 1$toq son bo'lsa (shart bo'yicha m va n lartoqsonlar), $1^n + 2^n + \cdots + m^n \equiv -(1^n + 2^n + \cdots + m^n)(modm)$, yoki

$$2\sum_{i=1}^{m} i^n \equiv 0(modm), \text{ya'ni} \sum_{i=1}^{m} i^n \equiv 0(modm)$$

kelib chiqadi.

185. Taqqoslamaning o'rinli ekanligini matematik induksiya metodidan foydalanib isbotlaymiz. $n = 1$ da berilgan $2^{3^n} \equiv -1(mod3^{n+1})$ taqqoslama $2^3 \equiv -1(mod9)$ ko'rnishni oladi. Bu taqqoslama $2^3 \equiv 8(mod9)$ ayniy taqqoslamaga teng kuchli. Demak, $n = 1$ da taqqoslama o'rinli. Endi faraz etaylik berilgan taqqoslama $n = k$ uchun$2^{3^k} \equiv -1(mod3^{k+1})$ o'rinli bo'lsin va biz $n = k + 1$ uchun uning, yani $2^{3^{\kappa+1}} \equiv -1(mod3^{k+2})$ ning o'rinli ekanligini ko'rsatamiz.

$$2^{3^{k+1}} + 1 = \left(2^{3^k}\right)^3 + 1^3 = \left(2^{3^k} + 1\right)\left(2^{3^k \cdot 2} - 2^{3^k} + 1\right)$$

bu yerda induktivlik farazimizga ko'ra $2^{3^k} + 1 \equiv 0(mod3^{k+1})$ va $2 \equiv (-1)(mod3)$ bo'lgani uchun $2^{2\cdot 3^k} - 2^{3^k} + 1 \equiv 0(mod3)$bo'ladi. Bulardan $2^{3^k} + 1 \equiv 0(mod3^{k+1})$ ning bajarilishi kelib chiqadi. Demak, matematik induksiya metodiga ko'ra berilgan taqqoslama ixtiyoriy natural n soni uchun o'rinli.

186. Masalaning shartiga ko'ra$2^{3^n}+1\equiv 0(mod3^{n+1})$ bajariladi. U holda $2^{3^n}+1\equiv 0(mod3^n)$ taqqoslama albatta bajariladi.Agar bundan $m=3^n,(n=1,2,3,\dots)$deb olsak, $2^m+1\equiv 0(modm)$ taqqoslama kelib chiqadi. Bu yerda $m=3^n,(n=1,2,3,\dots)$ bo'lgani uchun $2^m+1\equiv 0(modm)$ taqqoslama natural sonlarda cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi.

187. Taqqoslamaning o'rinli ekanligini n bo'yicha matematik induksiya metodini qo'llab isbotlaymiz. $n=1$ da berilgan$(m-1)^{m^n}\equiv -1(modm^{n+1})$ taqqoslama $(m-1)^m\equiv -1(modm^2)$ ko'rinishni oladi. Bundan $(m-1)^m+1\equiv 0(modm^2)$, yoki $(m>1-\text{toq son})(m-1+1)((m-1)^{m-1}-(m-1)^{m-2}+\cdots+1)\equiv 0(modm^2)$. Bu taqqoslamaning ikkala tomoni va moduli m ga bo'lib

$(m-1)^{m-1}-(m-1)^{m-2}+\cdots+1\equiv 0(modm)$ga ega bo'lamiz. Bundan$(-1)^{m-1}-(-1)^{m-2}+\cdots+1\equiv 0(modm)$. Yoki $\underbrace{1+1+1+1+\cdots+1}_{mta}\equiv 0(modm)\to m\equiv 0(modm)$. Shunday qilib berilgan taqqoslama $n=1$ da o'rinli ekan. Endi faraz etaylik $n=k$ uchun berilgan taqqoslama, ya'ni $(m-1)^{m^k}\equiv -1(modm^{k+1})$ o'rinli bo'lsin. Biz berilgan taqqoslamaning $n=k+1$ bo'lganda, ya'ni $(m-1)^{m^{k+1}}\equiv -1(modm^{k+2})$ taqqoslamaning o'rinli ekanligini isbotlaymiz. Bu yerda$m$ −toq son va

$$(m-1)^{m^{k+1}}+1=\left[(m-1)^{m^k}\right]^m+1=\left[(m-1)^{m^k}+1\right]\left((m-1)^{(m-1)m^k}-(m-1)^{(m-2)m^k}+\cdots+1\right)\equiv 0(modm^{k+2}).$$

Oxirgi taqqoslamaning o'ng tomonidagi birinchi ko'paytuvchi uchun induktivlik farazimizga asosan $(m-1)^{m^k}+1\equiv 0(modm^{k+1})$ bajariladi. Ikkinchi ko'paytuvchi uchun esa $(m-1)^{(m-1)m^k}-(m-1)^{(m-2)m^k}+\cdots+1\equiv \underbrace{1+1+\cdots+1}_{mta}\equiv m(modm)\equiv 0(modm)$ bajariladi. Keyingi 2 ta taqqoslamadan $(m-1)^{m^{k+1}}\equiv -1(modm^{k+2})$ kelib chiqadi. Shunday qilib matematik induksiya prinspiga asosan berilgan taqqoslama ixtiyoriy n natural soni uchun o'rinli.

188. Masalaning shartiga ko'ra $(m-1)^{m^n}\equiv -1(modm^{n+1})$ taqqoslama o'rinli. Bundan $m=5$ da $4^{5^n}\equiv -1(mod5^{n+1})$, ya'ni $4^{5^n}+1\equiv 0(mod5^{n+1})$.

Bu holda $4^{5^n}+1\equiv 0(mod5^n)$ taqqoslama albatta bajarilishi kerak. Endi agar biz $5^n\equiv x\ (n=1,2,3,\dots)$ deb olsak $2^{2x}+1\equiv 0(modx)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bu yerda $x=5^n\ (n=1,2,3,\dots)$ bo'lgani uchun oxirgi taqqoslama natural sonlarda cheksiz ko'p yechimga ega.

189.1). Bu yerda $2^{4n+1}\equiv 2\cdot(2^4)^n(mod5)$, ya'ni $2^{4n+1}=2+5t, t\in N$ bo'lgani uchun $N=3^{2^{4n+1}}+2=3^{2+5t}+2=9\cdot(3^5)^t+2=9(243)^t+2\equiv 9(11\cdot 22+1)^t+2\equiv 9+2(mod11)\equiv 0(mod11)$, ya'ni $N>11$ va $N\vdots 11$. Demak u murakkab son.

2).Bu yerda $3^{4n+1}=3\cdot(81)^n=3\cdot(8\cdot 10+1)^n\equiv 3(mod10)$, ya'ni $3^{4n+1}=3+10k,\ k\in N$. Shuning uchun ham $M=2^{3^{4n+1}}+3=2^{3+10k}+3=2^3\cdot(2^5)^{2k}+3=8(32)^{2k}+3\equiv 8(-1)^{2k}+3(mod11)\equiv 0(mod11)$. Bu yerdan $M>11$ bo'lgani uchun $M\vdots 11$ va u murakkab son degan xulosa kelib chiqadi.

190.1).$2^x+7^y=19^z$ tenglamani qaraymiz. $19\equiv 1(mod3)$ bo'lganidan $19^z\equiv 1(mod3)$. Lekin $2^x\equiv(-1)^x(mod3)$ va $7^y\equiv 1(mod3)$ bo'lgani uchun $2^x+7^y\equiv(-1)^x+1(mod3)$. Bu yerdan, agar x juft son bo'lsa, $2^x+7^y\equiv 2(mod3)$; agarda x −toq son bo'lsa, $2^x+7^y\equiv 0(mod3)$ larga ega bo'lamiz. Shunday qilib $2^x+7^y\not\equiv 19^z(mod3)$. Bundan $2^x+7^y=19^z$ tenglama x,y,z natural sonlarda yechimga ega emas degan xulosaga kelamiz.

2).Endi $2^x+5^y=19^z$ tenglamani qaraymiz. Bu holda 1)-misolga asosan $2^x+5^y=(-1)^x+(-1)^y(mod3)$. Agar bu yerda $x$va$y$ larning ikkalasi ham toq son bo'lsa, $2^x+5^y\equiv -2\equiv 1(mod3)$ bo'ladi hamda $2^x+5^y=19^z(mod3)$ kelib chiqadi. Lekinda, agar $2^x+5^y=19^z$ tenglama x,y,z larning biror natural qiymatlarida o'rinli bo'lsa, 2^x+5^y va 19^z lar ixtiyoriy modul bo'yicha ham taqqoslanuvchi bo'lishi kerak $x=2n+1, y=2n+1$ bo'lsin. $2^x+5^y=19^z(mod5)$ taqqoslamani qaraymiz. $2^{2n+1}+5^{2n+1}=2\cdot 4^n+5^{2n+1}\equiv 2(-1)^n(mod5)$, qaralayotgan tenglamaning ikkinchi tomoni $19^z\equiv(-1)^z(mod5)$ bo'lgani uchun $2^{2n+1}+5^{2n+1}\not\equiv 19^z(mod5)$. Demak, $2^x+5^y=19^z$ tenglama x,y,z- natural sonlarda yechimga ega emas.

Izoh: Bu tenglamalarning yechimga ega emasligini taqqoslamalardan foydalanmasdan turib ham isbotlash mumkin. Masalan birinchi tenglamadan $2^x = 19^z - 7^y = (19^z - 1) - (7^y - 1) = 18(19^{z-1} + 19^{z-2} + \cdots + 1) - 6(7^{y-1} + 7^{y-2} + \cdots + 1) = 3[6(19^{z-1} + 19^{z-2} + \cdots + 1) - 2(7^{y-1} + 7^{y-2} + \cdots + 1)]$. Bu yerdan ko'rinadiki $(19^x - 7^y) : 3$. Lekinda 2^x soni 3 ga bo'linmaydi. Demak, $2^x \neq 19^z - 7^y$, ya'ni $2^x - 7^y \neq 19^z$.

191. Masala shartiga ko'ra $11a + 2b \equiv 0(mod\ 19)$ bo'lib, bu yerda taqqoslamalarning xossasiga ko'ra $30a + 2b \equiv 0(mod\ 19) \Rightarrow 15a + b \equiv 0(mod\ 19) \Rightarrow b \equiv 4a(mod\ 19)$ ekanligini hosil qilamiz. Bunday holda $18a + 5b \equiv 18a + 20a \equiv 38a \equiv 0(mod\ 19)$ bo'lib, bundan esa $18a + 5b \equiv 0(mod\ 19)$ ekanligi kelib chiqadi. Bu esa $\frac{18a+5b}{19}$ ning ham butun son ekanligini isbotlaydi.

192. Berilgan taqqoslamada $n^2 - 1 = (n-1)(n+1)$ bo'lib n toq son bo'lgani uchun $(n-1)$va $(n+1)$ lar ketma-ket keluvchi juft sonlar bo'ladi. Shuning uchun ham $n-1$ soni 2ga bo'linsa, $n+1$ soni 4ga bo'linadi. U holda ularning ko'paytmasi 8 ga bo'linadi. Shu tasdiqni taqqoslamalar tilida $n^2 - 1 \equiv 0(mod 8)$ ko'rinishda yoziladi.

193. Bu yerda $11 \cdot 31 - 1 = 340 = 5 \cdot 68$ va $2^5 \equiv -1(mod 11)$ bo'lgani uchun $2^{11 \cdot 31 - 1} = (2^5)^{68} \equiv (-1)^{68} \equiv 1(mod 11)$. Shuningdek $2^5 \equiv 1(mod 31)$ bo'lgani uchun $2^{11 \cdot 31 - 1} = (2^5)^{68} \equiv 1^{68} \equiv 1(mod 31)$.

Agar taqqoslama bir necha modul bo'yicha o'rinli bo'lsa, u shu modullarning eng kichik umumiy karralisi bo'yicha ham o'rinli bo'ladi (8-xossa). Shuning uchun ham $2^{11 \cdot 31 - 1} \equiv 1(mod 11 \cdot 31)$. Bu oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini ayniy taqqoslama $2 \equiv 2(mod 11 \cdot 31)$ga ko'paytirsak isbotlanishi talab etilgan taqqoslama kelib chiqadi.

194. Bu yerda $1, 2, 3, \ldots, \frac{p-1}{2}, \frac{p+1}{2}, \ldots\ p-2, p-1$ sonlarini qarab ulardan quyidagi $\frac{p-1}{2}$ ta taqqoslamalarni tuzamiz:

$$1 \equiv -(p-1)(mod p),\ \ 2 \equiv -(p-2)(mod p), \ldots, \frac{p-1}{2} \equiv -\frac{p+1}{2}(mod p).$$

Bu taqqoslamalarning har birini $2k+1$ darajaga ko'tarib qo'shamiz. U holda

$1^{2k+1}+2^{2k+1}+3^{2k+1}+\cdots+\left(\frac{p-1}{2}\right)^{2k+1}\equiv-(p-1)^{2k+1}-(p-2)^{2k+1}-$

$(p-3)^{2k+1}-\cdots-\left(\frac{p+1}{2}\right)^{2k+1}(modp)$ hosil bo'ladi. Bundan

$$1^{2k+1}+2^{2k+1}+3^{2k+1}+\cdots+\left(\frac{p-1}{2}\right)^{2k+1}+\left(\frac{p+1}{2}\right)^{2k+1}+\ \ldots$$
$$+(p-3)^{2k+1}+(p-2)^{2k+1}+(p-1)^{2k+1}\equiv 0(modp).$$

III.2-§.

195. $m=10$ moduli bo'yicha barcha sinflarni $x=10\cdot q+r,\ 0\le r<10$ ko'rinishda yozish mumkin. Bu tenglamani taqqoslama ko`rinishida yozsak $x\equiv r(mod10)$, bunda $r=0,1,2,\ldots,9$. Buni $x\equiv 0,1,2,\ldots,9(mod10)$ ko`rinishida yozsak bo`ladi.

196. 1). $m=9$ bo`lsa, $m$moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemalari: $1,2,3,4,\ \ldots,9$ 9 moduli bo`yicha eng kichik musbat chegirmalarining to`la sistemasi. $-9,-8,-7,\ldots,-2,-1$ 9 moduli bo`yicha eng katta manfiy chegirmalarining to`la sistemasi; $0;\pm1;\ \pm2;\ \pm3;\ \pm4-$ 9 moduli bo`yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarining to`la sistemasi.

Endi $m=9$ modul bo`yicha chegirmalarning keltirilgan sistemalarini yozamiz. Ular mos ravishda quydagicha bo`ladi (buning uchun yuqorida yozilgan to`la sistemadagi chegirmalardan 9 bilan o`zaro tublarini ajratib olish kifoya):

$1,2,4,5,7,8;\qquad -1,-2,-4,-5,-7,-8;\qquad \pm1;\ \pm2;\ \pm4.$

2). $m=8$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan to`lasi stemalari:

$1,2,3,4,\ldots,8;\qquad -8,-7,-6,-5,\ldots,-2,-1;\qquad \pm1;\ \pm2;\ \pm3;\ \pm4.$

$m=8$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan keltirilgan sistemalari:

$$1,3,5,7;\quad -1,-3,-5,-7;\quad \pm1;\ \pm3.$$

3). $p=13$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan to`la sistemalari:

$1,2,3,4,\ldots,13;\quad -13,-12,-11,\ldots,-2,-1;\quad 0,\ \pm1,\ \pm2,\ \pm3,\ \pm4,\ \pm5,\ \pm6.$

$p = 13$ - moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan keltirilgan sistemalari:

$1, 2, 3, 4, \dots, 12;\ -12, -11, \dots, -2, -1;\quad \pm 1,\ \pm 2,\ \pm 3,\ \pm 4,\ \pm 5,\ \pm 6.$ 4).

$m = 12$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan to`la sistemalari:

$1, 2, 3, 4, \dots, 12;\quad -12, -11, -10, \dots, -2, -1;\quad \pm 1,\ \pm 2,\ \pm 3,\ \pm 4,\ \pm 5,\ \pm 6.$

$m = 12$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan keltirilgan sistemalar

$$1, 5, 7, 11;\quad -1, -5, -7, -11;\ \pm 1;\ \pm 5.$$

5). $p = 7$-moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan to`la sistemalari:

$1, 2, 3, 4, 5, 6, 7;\quad -7, -6, -5, -4, -3, -2, -1;\quad 0, \pm 1, \pm 2, \pm 3.$

$p = 7$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan keltirilgan sistemalari:

$1, 2, 3, 4, 5, 6;\quad -7\ -6, -5, -4, -3, -2, -1;\quad \pm 1, \pm 2, \pm 3.$

6). $m = 10$ – moduli bo`yicha chegirmalarning izlanayotgan to`la sistemalari:

$1, 2, 3, 4, \dots, 10; -10, -9, -8, \dots, -2, -1; \pm 1,\ \pm 2,\ \pm 3,\ \pm 4,\ \pm 5,$

$m = 10$ – moduli do`yicha chegirmalarning izlanayotgan keltirilgan sistemalari:

$$1, 3, 7, 9;\quad -9, -7, -3, -1;\quad \pm 1,\ \pm 3.$$

197. $x = 10q + r, 0 \le r < 10$ dan $x = 10q,\quad x = 10q + 1,\ x = 10q + 2,\ x = 10q + 3,\ x = 10q + 4,\quad x = 10q + 5,\ x = 10q + 6, x = 10q + 7, x = 10q + 8,\ x = 10q + 9.$

198. *a)* $(10, x) = 1$ va $x \le 10$ bo`lishi kerak. Ularning soni $\varphi(10) = 4$ ta va ular $x = 10q + 1, x = 10q + 3, x = 10q + 7,\quad x = 10q + 9,$ bularni taqqoslama ko`rinishida yozsak. $x \equiv 1(mod 10), x \equiv 3(mod 10), x \equiv 7(mod 10),\ x \equiv 9(mod 10),$ yoki qisqacha yozsak $x \equiv 1, 3, 7, 9(mod 10).$

b) $(10, x) = 2$ va $x \le 10$ bo`lishi kerak, 3 – misoldan $x = 10q + 2,\ x = 10q + 4,\ x = 10q + 6,\ x = 10q + 8,$ yoki bulardan $x \equiv 2, 4, 6, 8(mod 10).$

c) $(10, x) = 5$ va $x \le 10$ bo`lishi kerak, ya`na 3-misoldan $x = 10q + 5,$ ya`ni $x \equiv 5(mod 10).$

d) $(10, x) = 10$ va $x \le 10$ bo`lishi kerak, 3-misoldan $x = 10q,$ ya`ni $x \equiv 0(mod 10).$

199. Buni isbotlash uchun quyidagi 2 ta holatni e'tiborga olish kifoya.Birinchidan *md* modul bo'yicha sinflar soni, *m* modul bo'yicha sinflar sonidan *d* marta ko'p. Ikkinchidan *m* modul bo'yicha taqqoslanmaydigan sonlar *md* modul bo'yicha ham taq qoslanmaydi.

200. Masalan:

$1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10; -10, -9, -8, -7, -6, -5, -4, -3, -2, -1;$

$\pm 1,\ \pm 2,\ \pm 3,\ \pm 4,\ \pm 5$, umumiy holda $x = 10q + r, 0 \le r < 10$va $q \in Z$.

201. $\frac{Z}{10Z} = \{C_0,\ C_1, C_2, \dots, C_9\}$ to`plamlarni qarasak va bu to`plamda qo`shish hamda ko`paytirish amallarini (2) va (3) tengliklar yordamida aniqlash bu to`plam shu amallarga nisbatan yopiq ekanligini jadvallardan ko`rish qiyin emas.

+	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9
C_1	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9	C_0
C_2	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9	C_0	C_1
C_3	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9	C_0	C_1	C_2
C_4	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9	C_0	C_1	C_2	C_3
C_5	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4
C_6	C_6	C_7	C_8	C_9	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5
C_7	C_7	C_8	C_9	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6
C_8	C_8	C_9	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7
C_9	C_9	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8

*	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9
C_0	C_0	C_0	C_0	C_0	C_0	C_0	C_0	C_0	C_0	C_0
C_1	C_0	C_1	C_2	C_3	C_4	C_5	C_6	C_7	C_8	C_9
C_2	C_0	C_2	C_4	C_6	C_8	C_0	C_2	C_4	C_6	C_8
C_3	C_0	C_3	C_6	C_9	C_2	C_5	C_8	C_1	C_4	C_7
C_4	C_0	C_4	C_8	C_2	C_6	C_0	C_4	C_8	C_2	C_6
C_5	C_0	C_5	C_0	C_5	C_0	C_5	C_0	C_5	C_0	C_5
C_6	C_0	C_6	C_2	C_8	C_4	C_0	C_6	C_2	C_8	C_4
C_7	C_0	C_7	C_4	$C_{1`}$	C_8	C_5	C_2	C_9	C_6	C_3
C_8	C_0	C_8	C_6	C_4	C_2	C_0	C_8	C_6	C_4	C_2
C_9	C_0	C_9	C_8	C_7	C_6	C_5	C_4	C_3	C_2	C_1

$\langle \frac{Z}{10\,z};\ +;\cdot\rangle$ ning halqa bo`lishi uchun additiv Abel gruppasi, multipikativ yarim gruppa va distributuvlik sharti $(C_i + C_s)C_j = C_iC_j + C_sC_j$ bajarilishi kerak.

Endi shu shartlarning bajarilishini tekshiramiz.

I. AdditivAbel gruppasi: a) $\forall C_i, C_{e,} C_s \in \frac{Z}{10Z}$ elementlar uchun $(C_i + C_e) + C_s = C_i + (C_e + C_s)$ - assotsiativlik sharti bajarilishi kerak. Bu yerda $C_i = (10q + i), C_e = (10q + e),\ \ C_s = (10q + s)$ bo`lgani uchun $(C_i + C_e) + C_s = C_{i+e} + C_s = C_{i+e+s}$ (yoki $C_{i+e-m+s-m} = C_{i+e+s-m}$). Shuningdek $C_i + (C_e + C_s) = C_i + C_{e+s} = C_{i+e+s}$ (yoki $C_{i+e+s-2m}$ ). Bu tengliklarning o`ng tomonlari teng, demak chap tamonlari ham teng bo`lishi kerak. Bundan assotsiativlik shartining bajarilishi kelib chiqadi.

b) $\forall C_i \in \frac{Z}{10Z}$ uchun $\exists\ C_0 \in \frac{Z}{10Z}$ bo`lib $C_i + C_0 = C_0 + C_i = C_i$ bajariladi, ya`ni qaralayotgan to`plamda nol element mavjud.

c) $\forall C_i \in \frac{Z}{10Z}$ uchun $\exists\ C_{10-i} \in \frac{Z}{10Z}$ bo`lib $C_i + C_{10-i} = C_{10-i} = C_{10} = C_0$ bajariladi, ya`ni qaralayotgan to`plamda $\forall\ C_i$ ga qarama-qarshi element C_{10-i} mavjud.

d) $\forall C_i \in \frac{Z}{10Z}$ uchun $C_i + C_j = C_j + C_i = C_{i+j}$ (yoki C_{i+j-m}) bajariladi.

Shunday qilib qaralayotgan to`plam qo`shishga nisbatan additiv Abel gruppasi bo`lar ekan.

II. $< \frac{Z}{10Z};\cdot >$ ning multiplikativ yarim gurppa bo`lishini tekshiramiz:

$\forall\ C_i, C_j, C_e\ \in \frac{Z}{10Z}$ uchun $C_i\big(C_j \cdot C_e\big) = \big(C_i \cdot C_j\big)C_e$ ning bajarilishini ko`rsatish yetarli tenglikning chap tomoni $C_i\big(C_j \cdot C_e\big) = C_i \cdot C_{je} = C_{ije} = C_r$, bunda $ije = 10q + r$. O'ng tomoni $\big(C_i \cdot C_j\big)C_e = C_{ij} \cdot C_e = C_{ije} = C_r$, Bulardan isbotlanishi kerak bo`lgan tenglik kelib chiqadi.

III. Distributivlik sharti $\forall C_i, C_j, C_e \in \frac{Z}{mZ}$ lar uchun $\big(C_i + C_j\big)C_e = C_iC_e + C_jC_e$ tenglikning bajarilishini tekshiramiz. Bu tenglik chap tomoni (soddalik uchun $i + j + l < m$ deb qaraymiz; $i + j + l > m$ holi ham shunga o`xshash qaraladi).

$(C_i + C_j)C_e = C_{i+j} \cdot C_e = C_{(i+j)e}$. O`ng tomoni $C_i \cdot C_e + C_j C_e = C_{ie} + C_{je} = C_{ij+je} = C_{(i+j)e}$ demak, bu tenglikning chap tomonlari teng, o`ng tamonlari ham teng bo`lishi kerak. Bundan ega isbotlanish talab etilgan tenglik kelib chiqadi. Shunday qilib $\langle \frac{Z}{10Z}; +; * \rangle$ sistema halqa bo`lar ekan.

202. m moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasida m ta chegirma bo`lib ular shu modul bo`yicha o`zaro taqqoslanmaydigan bo`lishi kerak. Bizga 5 ta son $20, -4, 22, 18, -1$, berilgan. Demak, m =5 deb olib, berilgan sonlarning 5 moduli bo`yicha o`zaro taqqoslanuvchi emas ekanligini ko`rsatamiz. Buning uchun berilgan sonlarni manfiy bo`lmagan eng kichik chermalar ko`rinishiga keltirib olamiz. U holda $0, 1, 2, 3, 4$ larga ega bo`lamiz. Bular $m = 5$ moduli bo`yicha o`zaro taqqoslanmaydi. $J: m = 5$.

203. Berilgan $20, 31, -8, -5, 25, 14, 8, -1, 13$ va 6 sonlar ning soni 10 bo`lib ularni eng kichik musbat chegirmalar ko`rinishida yozsak: $0, 1, 2, 5, 5, 4, 8, 9, 3, 6$ hosil bo'ladi. Bunda -5 va 25 lar $m = 10$ moduli boyicha o`zaro taqqoslanuvchi, ya`ni ular bitta sinifga tegishli. Shuning uchun ham berilgan sonlar $m = 10$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini tashkil etmaydi.

204. Istalgan m ta ketma-ket kelgan $x + b$, $x = 0, 1, 2, \ldots, m - 1$ sonlarni qaraymiz. Bu yerda $(m, 1) = 1$ va 1-teoremani ($a = 1$ deb) qo`llasak $x + b, x = 0, 1, 2, \ldots, m - 1$ sonlarni $m$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini hosil qiladi degan xulosaga kelamiz.

205. Berilgan sonlarning soni m ta bo`lib ular $m$ moduli bo`yicha o`zaro taqqoslanmaydi. Agar $-\frac{m-i}{2} \equiv \frac{m-j}{2}(modm)$ desak $(1 \le i, j < m$

$-\frac{m-i}{2} - \frac{m-j}{2} \equiv 0(modm) \Rightarrow \frac{-2m+j+i}{2} \equiv 0(modm)$ yoki $\frac{j+i}{2} \equiv 0(modm) \Rightarrow j \equiv -i(mod) \Rightarrow j = -i + mt$. U holda $\frac{-m+i}{2} \equiv \frac{m+i-mt}{2}(mod) \Rightarrow \frac{i}{2} \equiv \frac{i}{2}(modm)$, ya`ni $-\frac{m-i}{2}$ va $\frac{m-j}{2}$ chegirmalar bitta sinfdan olingan. Demak, $-\frac{m-i}{2} \not\equiv \frac{m-j}{2}(modm)$ va berilgan sonlar $m$ moduli bo`yicha chegirmalarining to`la sistemasini tashkil etadi.

206. $(10,3)=1$ bo`lgani uchun 1- teoremaga ko`ra agar x o`zgaruvchi $m=10$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini qabul qilsa,$3x-1$ ham shu sistemani qabul qiladi, ya`ni

x	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
$3x-1$	9	2	5	8	1	4	7	0	3	6

Bu yerda $3x-1$ning qiymatlarini 10 moduli bo`yicha manfiy bo`lmagan eng kichik chegirma ko`rinishida yozdik.

207. 4 modul chegirmalarning to'la sistemasida 4 ta 4 moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanmaydigan chegirma bo'lishi kerak.Bizga ma'lumki, agar (*a,m*)=1 bo'lib *x* o'zgaruvchi *m* moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini qabul qilsa *ax+b* ham shu sistemami qabul qiladi. Bizning misolimizda *a=5*, *b=0*, *m=4* va (*5,4*)=1. Shuning uchun ham*x* ga *x*=0, 1, 2, 3 qiymatlar bersak 5x= 0, 5, 10,15 lar hosil bo'ladi. Bularni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirmalar ko'rinishida yozib olsak 0, 1, 2, 3 izlanayotgan sistema hosil bo'ladi.

208. ax_i+b $(i=1,2,\dots,m)$ ko`rinishidagi sonlar $m$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini tashkil qilsa, ularning soni $m$ ta bo`lib m moduli bo`yicha o`zaro taqqoslanmasligi kerak.

U holda $x_i(i=1,2,\dots,m)$ lar qiymatlari ham m ta bo`lib ular ham $m$ moduli bo`yicha o`zaro taqqoslanmaydigan bo`ladilar. Haqiqatan ham, agar $x_l \equiv x_r(modm)$ desak, $(a,m)=1$ sonini tanlab olib taqqoslamaning ikkala tamonini a ga ko`paytiramiz, u holda $ax_l \equiv ax_r(modm)$ bo`ladi. Bu taqqoslamaga $b \equiv b(modm)$ ayniy taqqoslamani hadlab qo`shsak $ax_l+b \equiv ax_r+b(modm)$ hosil bo`ladi. Masalaning shartiga ko`ra bunday bo`lishi mumkin emas. Bu qarama-qarshilik $x_l \equiv x_r(modm)$ deganimizdan kelib chiqdi va demak, $x_l \not\equiv x_r(modm)$. Shuning uchun ham qaralayotgan sonlar $x_i(i=1,2,\dots,m)m$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini tashkil etadi.

209. $f(x_i)=a_nx_i^n+a_{n-1}x_i^{n-1}+\cdots+a_1x_i+a_0, (i=1,2,\dots,m),$ $(a_i,m)=1$ ko`rinishidagi sonlar $m$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini tashkil qilsa, demak ularning soni m ta va $f(x_i) \not\equiv f(x_j)(\text{mod}m)$

bajariladi. Bu holda $x_i(i = 1, 2, \dots, m)$ larning soni ham m ta bo`ladi va ular $m$moduli bo`yicha o`zaro taqqoslanmaydigan bo`ladi. Haqiqatan ham, agar $x_s \equiv x_k(modm)$ desak, $x_s^2 \equiv x_k^2(modm), \dots, x_s^{n-1} \equiv x_k^{n-1}(modm), x_s^n \equiv x_k^n(modm), a_0 \equiv a_0(modm)$ lar bajariladi. Bu taqqoslamalarning ikkala tomonini mos ravishda $a_1, a_2, \dots, a_{n-1}, a_n$ larga ko`paytirib keyin qo`shsak $f(x_s) \equiv f(x_k)(modm)$ ga ega bo`lamiz. Lekin masalaning shartiga ko`ra $f(x_s) \not\equiv f(x_k)(modm)$. Bu qarama-qarshilik $x_i(i = 1, 2, \dots, m)$ lar ichida o`zaro taqqoslanuvchilar yo`q ekanligini bildiradi va demak ular$m$ moduli bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasini tashkil qiladi. Aksincha tasdiq ham shunga o'xshash isbotlanadi.

210. m moduli bo`yicha chegirmalar keltirilgan sistemasida $\varphi(m)$ta chegirma bo`lib ularning har biri m moduli bilano`zaro tub bo`lishi kerak. Masalada $m = 6,\ \varphi(6) = \varphi(2) \cdot \varphi(3) = (2-1)(3-1) = 2.$ $x \le 6$ va $(x;\ 6) = 1$ shartlarni qanoatlantiruvchi sonlarni yozib olish kifoya: $1, 5;\quad -5, 5;\quad -5, -1;\quad 7,\ 11;\quad 13, 17.$

211. Qulaylik uchun berilgan chegirmalarni eng kichik musbat chegirmalar ko`rinishida yo`zib olamiz. U holda $7, 1, 11, 3, 5$ va $\varphi(12) = \varphi(2^2 \cdot 3) = \varphi(2^2) \cdot \varphi(3) = (2^2 - 2)(3-1) = 4$ bo`lgani uchun $12$ modulli bo`yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasida 4ta chegirma bo`lish kerak va ularning har biri $12$ bilan o`zaro tub bo`lishi kerak. Bizda $5$ ta chegirma bor, lekin$(3, 12) = 3$. Shuning uchun ham berilgan sonlar sistemasi 12 moduli bo`yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etmaydi.

212. p modul bo`yicha chegirmalarning to`la sistemasi sifatida $1, 2, 3, \dots, p-1,\ p$ larni olish mumkun. Bularning ichidan p bilan o`zaro tublarini ajratib olsak: $1, 2, 3, \dots, p-1$ chegirmalarning keltirilgan sistemasi hosil bo`ladi. Bu sistemadagi chegirmalar soni $p-1$ ta.

213. Berilgan chegirmalar soni $\varphi(p) = p - 1$ ta va ularning ham biri p bilano`zaro tub, ya`ni $\left(\frac{p-i}{2};\ p\right) = 1,$ bunda $p > 2$ tub son, $i = 2k + 1$ toq son $\frac{p-i}{2} < p$ va demak $\frac{p-i}{2}$ soni p tub soniga bo`linmaydi. Qaralayotgan

chegirmalarning p moduli bo`yicha har xil siniflarga tegishli ekanligi 212-masalada isbotlangan edi. Demak qaralayotgan sonlar sistemasi $p > 2$ moduli bo`yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etadi.

214. Qaralayotgan sistemada $\varphi(7) = 7 - 1 = 6$ ta son bor. Ularning har biri 7 bilan o`zaro tub, chunki $(5;\ 7) = 1$. Ular turli sinflarga tegishli, chunki $5^i \equiv 5^j (\mathrm{mod} 7)$ $(0 < j \leq i \leq 6)$ dan $5^{i-j} \equiv 1(\mathrm{mod} 7)$, bundan $i = j$ kelib chiqadi. Demak, chegirmalarning keltirilgan sistemasining ta`rifiga asosan berilgan sonlar sistemasi 7 modul bo`yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etadi.

215. $ax_i, (i = 1,2, \dots \varphi(m))$ sonlarni m moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etsa, ularning soni $\varphi(m)$ ta bo'lib $(ax_i; m) = 1$ va $ax_1 \not\equiv ax_s\ (modm)$ bo'lishi kerak. Bundan $(a; m) = 1$ va$(x_i; m) = 1$ kelib chiqadi. Bizda x_i $(i = 1,2, \dots \varphi(m))$ larning soni $\varphi(m)$ ta va $(x_i; m) = 1$ $x_s \not\equiv x_k\ (modm)$ ekanligini ko'rsatamiz. Faraz etaylik $x_s \equiv x_k\ (modm)$ bo'lsin, u holda bu taqqoslamaning ikkala tomoni $a, (a, m) = 1$ soni ko'paytiramiz. U holda $ax_s \equiv ax_k\ (modm)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Masalaning sharti bo'yicha $ax_s \not\equiv ax_k (modm)$. Bu qarama–qarshilik $x_s \equiv x_k\ (modm)$ bo'lsin degan farazimizdan kelib chiqdi. Demak $x_s \not\equiv x_k\ (modm)$ ekan. Shunday qilib, agar ax_i $(i = 1,2, \dots \varphi(m))$ sonlari m modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil qilsa, x_i $(i = 1,2, \dots \varphi(m))$ sonlari ham m moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil qilar ekan.

216. x o'zgaruvchining qiymatlari $x_1, x_2, \dots, x_{\varphi(m)}$ (bunda $(x_i, m) = 1$ va $x_i \not\equiv x_j (modm)$) lar m modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini tashkil etgani uchun bu qiymatlarni $ax + b$ ga qo'yib $\varphi(m)$ ta $ax_1 + b,\ ax_2 + b,\ \dots\ , ax_{\varphi(m)} + b$ songa ega bo'lamiz.

Endi ularning har xil sinflarga tegishli ekanligini va m modul bilan o'zaro tub ekanligini ko'rsatamiz. Agar $ax_i + b \equiv ax_j + b (modm)$ desak, bu taqqoslamalarning xossalariga ko'ra $ax_i \equiv ax_j (modm)$ ga teng kuchli. Buning ikkala tomonini $a, (a, m) = 1$soniga qisqartirsak $x_i \equiv x_j (modm)$ ga ega

bo’lamiz. Bu esa$x_i \not\equiv x_j (mod m)$shartga ziddir. Demak, qaralayotgan sonlar m moduli bo’yicha har xil sinflarga tegishli ekan. $(ax_i + b,\ m) = d > 1$ desak, $ax_i + b \equiv 0(mod d)$ va $m \equiv 0(mod d)$ ga ega bo’lamiz. $b = m \cdot b_1$ va $m \equiv d \cdot m_1$ bo’lgani uchun $b = d \cdot (m_1 \cdot b_1)$ bo’ladi, ya’ni b soni$d$ ga bo’linadi. U holda $ax_i + b \equiv 0(mod d)$ dan $ax_i \equiv 0(mod d)$ ni hosil qilamiz. $(a, m) = 1$ dan $(a, d) = 1$ ekanligi kelib chiqadi. Shuning uchun $ax_i \equiv 0(mod d)$ dan $x_i \equiv 0(mod d)$ bajarilishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Bunday bo’lishi mumkin emas, chunki $(x_i, m) = 1$ va demak, $(x_i, d) = 1$. Bu yerdan $\varphi(m)$ta $ax_1 + b$, $ax_2 + b$, ... , $ax_{\varphi(m)} + b$ larning har xil sinflarga tegishli ekanligi kelib chiqadi.

217. $(a; m) = d$ shart $\left(\frac{a}{d}; \frac{m}{d}\right) = 1$ ga teng kuchli. Shuning uchun ham a ning o’rniga $\frac{a}{d}$ va m ning o’rniga $\frac{m}{d}$ ni olib 1- teoremani qo’llaymiz. U holda 1-teoremadan – agar x o′zgaruvchi $\frac{m}{d}$ moduli bo’yicha chegirmalarning to’la sistemasini qabul qilsa, $\frac{a}{d}x + b$ ham $\frac{m}{d}$ moduli bo’yicha chegirmalarning to’la sistemasini qabul qiladi degan tasdiq kelib chiqadi.

218. $(a; m) = d$ shartdan $\left(\frac{a}{d}; \frac{m}{d}\right) = 1$ shart kelib chiqadi. Shuning uchun ham a ni $\frac{a}{d}$ bilan, m ni$\frac{m}{d}$ bilan almashtirib 2 – teoremani qo’llaymiz. U holda 2-teoremadan – “agar x o’zgaruvchi $\frac{m}{d}$ moduli bo’yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini qabul qilsa, u holda ax ham$\frac{m}{d}$ moduli bo’yicha chegirmalarning keltirlgan sistemasini qabul qiladi” – degan tasdiqqa ega bo’lamiz.

219. m=9 moduli bo’yicha chegirmalarning to’la sistemasida 9 ta son bo’lib ular o’zaro taqqoslanmaydigan bo’lishi kerak. Shuning uchun ham:

$1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9-$lar m=9 moduli boyicha musbat eng kichik chegirmalarning to’la sistemasi;

$0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8-$ lar m=9 moduli boyicha manfiy bo’lmagan eng kichik chegirmalarning to’la sistemasi;

$0, \pm1, \pm2, \pm3, \pm4-$ lar m=9 moduli boyicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarning to’la sistemasi bo’ldi.

Endi m=9 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemalarini 3 xil (musbat, manfiy bo'lmagan, absolyut qyimati jihatidan eng kichik chegirmalar) ko'rinishda yozish uchun to'la sistemalardagi chegirmalarning m bilan o'zaro tublarini ajratib olish kifoya, ya'ni ularning har birida φ(9)=6 ta chegirma bo'ladi. Shuning uchun ham:

$1, 2, 4, 5, 7, 8$ − lar m=9 moduli boyicha musbat eng kichik chegirmalarning keltirilgan sistemasi;

$1, 2, 4, 5, 7, 8 -$ lar m=9 moduli boyicha manfiy bo'lmagan eng kichik chegirmalarning keltirilgan sistemasi;

$\pm 1, \pm 2, \pm 4-$ lar m=9 moduli boyicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarning keltirilgan sistemasi bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu misolda$m$=9 moduli boyicha musbat eng kichik chegirmalarning va manfiy bo'lmagan eng kichik chegirmalarning keltirilgan sistemalari bir xil bo'lar ekan.

III.3-§.

220. a) $(a, 7) = 1$ bo'lganligi uchun Ferma teoremasiga ko'ra $a^6 \equiv 1(mod 7)$ bajariladi. Bundan $a^{12} \equiv 1(mod 7)$, ya'ni $(a^{12} - 1) \vdots 7$.

b) $(a, 65) = 1$ dan $(a; 5 \cdot 13) = (a; 5) = (a; 13) = 1$ kelib chiqadi. Demak, Ferma teoremasiga asosan $a^{12} \equiv 1(mod 13)$ va $a^4 \equiv 1(mod 5)$. Oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini kubga ko'tarsak $a^{12} \equiv 1(mod 5)$ hosil bo'ladi. $a^{12} \equiv 1(mod 5)$ va $a^{12} \equiv 1(mod 13)$, hamda $(5; 13) = 1$ dan $a^{12} \equiv 1(mod 65)$ kelib chiqadi. $(b; 65) = 1$ bo'lganligi uchun yuqoridagidek mulohaza yuritib $b^{12} \equiv 1(mod 65)$ ni hosil qilamiz. $a^{12} \equiv 1(mod 65)$ va $b^{12} \equiv 1(mod 65)$ taqqoslamalardan $a^{12} - b^{12} \equiv 0(mod 65)$ ga ega bo'lamiz. Bu esa $a^{12} - b^{12} \vdots 65$ ga teng kuchli.

221. Kanonik yoyilmasiga 2 va 5 sonlari kirmaydigan natural sonni $x$desak $(x, 10) = 1$ va $\varphi(10) = 4$ bo'lgani uchun Eyler teoremasiga ko'ra $x^4 \equiv 1(mod 10)$. Shuning uchun ham $x^{12} \equiv (x^4)^3 \equiv 1(mod 10)$. Demak, kanonik yoyilmasiga 2 va 5 sonlari kirmaydigan natural sonning 12 −darajasining birlik raqami 1ga teng ekan.

222. $a \not\equiv 0(modp)$ bo'lgani uchun $(a;p)=1$ deb yozish mumkin. U holda, Ferma teoremasiga ko'ra $a^{p-1} \equiv 1(modp)$ bajariladi. Bundan $a^{p-1}-1 \equiv 0(modp)$. Bu taqqoslamaning chap tomoniga p ni qo'shsak (taqqoslamaning istalgan tomoniga yoki ikkala tomoniga modulga karalli bo'lgan sonni qo'shish va ayirish mumkin) $a^{p-1}+p-1 \equiv 0(modp)$ hosil bo'ladi. Bundan $(a^{p-1}+p-1) \vdots p$, ya'ni $a^{p-1}+p-1$ soni murakkab son.

223. Ferma teoremasiga asosan $2^{11-1} \equiv 1(mod11)$, $2^{30} \equiv 1(mod31)$ yoki$2^{11} \equiv 2(mod11)$, $2^{31} \equiv 2(mod31)$. Birinchi taqqoslamadan $(2^{11})^{31} \equiv 2^{31}(mod11) \equiv 2 \cdot (2^6)^5(mod11) \equiv 2 \cdot (-2)^5(mod11) \equiv 2 \cdot (-32)(mod11) \equiv 2(mod11)$. Shunga o'xshash $(2^{31})^{11} \equiv 2^{11}(mod31) \equiv 2 \cdot (2^5)^2(mod31) \equiv 2(mod11)$. Shunday qilib, $2^{11 \cdot 31} \equiv 2(mod11)$ va $2^{31 \cdot 11} \equiv 2(mod31)$ hamda $(11;31)=1$ bo'lgani uchun $2^{11 \cdot 31} \equiv 2(mod11 \cdot 31)$.

224. Ferma teoremasiga ko'ra $2^{12} \equiv 1(mod\ 13)$. Shuning uchun $2^{24} \equiv 1(mod\ 13)$. Bundan tashqari $2^6 \equiv 64 \equiv -1(mod\ 13)$ ekanligidan $2^{30} \equiv -1 \equiv 12(mod\ 13)$ bo'ladi. Demak, izlangan qoldiq 12 ga teng.

225. $3^{16} \equiv 1(mod17)$ bo'lganligi uchun $3^{59} \equiv 3^{11} \cdot (3^{16})^3 \equiv 3^{11}(mod17) \equiv (3^3)^3 \cdot 3^2(mod17) \equiv 10^3 \cdot 9(mod17) \equiv 1000 \cdot 9(mod17) \equiv 14 \cdot 9(mod17) \equiv 126(mod17) \equiv 7(mod17)$. Demak 3^{59} ni 17 ga bo'lsak 7 qoldiq qoladi.

226. Ferma teoremasiga asosan $a^{p-1} \equiv 1(modp)$, $(a;p)=1$. Bu taqqoslamaning ikkala tomonini n-darajaga ko'taramiz. U holda $a^{n(p-1)} \equiv 1(modp)$ hosil bo'ladi. Bundan va $a \equiv a(modp)$ dan $a^{n(p-1)+1} \equiv a(modp)$ kelib chiqadi. Keyingi taqqoslama $a \vdots p$ bo'lsa ham o'rinli. Shunday qilib ixtiyoriy a butun, n-natural va p tub sonlar uchun $a^{n(p-1)+1} \equiv a(modp)$ taqqoslama o'rinli.

227. 317 ni 15 ga bo'lgandagi qoldiq 2 ga teng bo'lgani uchun, ya'ni $317 \equiv 2(mod15)$ ekanligidan $317^{259} \equiv 2^{259}(mod\ 15)$ bo'lishini topamiz. Eyler teoremasiga ko'ra$2^{\varphi(15)} \equiv 1(mod15)$va $\varphi(15)=\varphi(3 \cdot 5)=\varphi(3) \cdot \varphi(5)=2 \cdot 4=8$ bo'lgani uchun $2^8 \equiv 1(mod15)$. $259=32 \cdot 8+3$ ekanligidan

$2^{259} = (2^8)^{32} \cdot 2^3 \equiv 8(mod15)$≡8(mod15) bo'ladi. Demak 317^{259} sonini 15 ga bo'lgandagi qoldiq 8 ga teng ekan.

228. Bu yerda$(3,11) = 1$. Shuning uchun ham Eyler teoremasiga ko'ra $3^{\varphi(11)} \equiv 1(mod11). \varphi(11) = 11 - 1 = 10$ bo'lganligi sababli $3^{10} \equiv 1(mod11)$ bo'ladi. Bundan

$$3^{80} = (3^{10})^8 \equiv 1^8 \equiv 1(mod11). \qquad (1)$$

Shunga o'xshash $(7,11) = 1$ va Eyler teoremasiga ko'ra $7^{\varphi(11)} \equiv 1(mod11)$ bo'lganligi sababli $7^{10} \equiv 1(mod11)$ bo'ladi. Bundan

$$7^{80} = (7^{10})^8 \equiv 1^8 \equiv 1(mod11). \qquad (2)$$

(1) va (2) taqqoslamalarni hadlab qo'shib

$$3^{80} + 7^{80} \equiv 2(mod11)$$

ni hosil qilamiz. Demak, $3^{80} + 7^{80}$sonini 11 ga bo'lgandagi qoldiq 2 ga teng ekan.

229. Avvalo 3^{100} ni 7 ga bo'lgandagi qoldiqni topamiz. $(3; 7) = 1$ bo'lganligi uchun Ferma teoremasidan $3^6 \equiv 1(mod\ 7)$ kelib chiqadi. Shuning uchun ham

$3^{100} \equiv (3^6)^{16} \cdot 3^4(mod\ 7) \equiv 3^4(mod\ 7) \equiv 4(mod\ 7).$ (1)

Endi 4^{100} ni 7 ga bo'lgandagi qoldiqni aniqlaymiz. Bu yerda $(4; 7) = 1$ va $4^6 \equiv 1(mod\ 7)$. Shuning uchun

$4^{100} \equiv (4^6)^{16} \cdot 4^4(mod7) \equiv 4^2 \cdot 4^2(mod7) \equiv 9 \cdot 9(mod7) \equiv 4(mod7)$ (2)

(1) va (2) taqqoslamalardan $4^{100} + 3^{100} \equiv 1(mod7)$ hosil bo'ladi.

Demak $4^{100} + 3^{100}$ ni 7 ga bo'lsak 1 qoldiq qoladi.

Izoh. $4^{100} + 3^{100} \equiv 3^{100} + (-3)^{100}(mod7) \equiv 2 \cdot 3^{100}(mod7)$ dan foydalanib ham shu natijani olish mumkin.

230. $197 = 35 \cdot 5 + 22$ bo'lganligi uchun $197^{157} \equiv (35 \cdot 5 + 22)^{157} \equiv 22^{157}(mod35)$. Bu yerda $(22; 35) = 1$ va Eyler teoremasiga asosan $22^{\varphi(35)} \equiv 1(mod35)$ yoki $22^{24} \equiv 1(mod35)$. Bundan $22^{157} \equiv (22^{24})^6 \cdot 22^{13}(mod35)$

$\equiv 22^{13}(mod35) \equiv (22^2)^6 \cdot 22^1(mod35) \equiv (-6)^6 \cdot 22(mod35) \equiv ((-6)^2)^3 \cdot 22(mod35) \equiv 22(mod35)$. Shunday qilib 197^{157} ni 35 ga bo'lgandagi qoldiq 22 chiqar ekan.

231. $2^{72} \equiv 1(mod73)$ va $2^{36} \equiv 1(mod37)$. Bulardan $2^{73} \equiv 2(mod73)$ va$2^{37} \equiv 2(mod37)$. Bu yerdagi birinchi taqqoslamaga asosan $(2^{73})^{37} \equiv 2^{37}(mod73) \equiv (2^6)^6 \cdot 2(mod73) \equiv (-9)^6 \cdot 2(mod73) \equiv ((-9)^2)^3 \cdot 2(mod73) \equiv 8^3 \cdot 2(mod73) \equiv 1024(mod73) \equiv 2(mod73)$, ya'ni

$$(2^{73})^{37} \equiv 2(mod73). \qquad (3)$$

Endi $2^{73} \equiv 2(mod37)$ taqqoslamadan $(2^{37})^{73} \equiv 2^{73}(mod37) \equiv (2^{36})^2 \cdot 2(mod37)) \equiv 2(mod37)$, ya'ni

$$(2^{37})^{73} \equiv 2(mod73). \qquad (4)$$

(3) va (4) taqqoslamalardan $(2^{37})^{73} \equiv 2(mod37 \cdot 73)$, yoki bundan $2^{n-1} \equiv 1(modn)$, bu yerda $n = 37 \cdot 73$.

232. $1^{30} \equiv 1(mod11)$,$2^{30} \equiv (2^{10})^3 \equiv 1(mod11)$, … , $10^{30} \equiv 1(mod11)$. Bu yerda $i = 1,2,3,\ldots,10$ bo'lsa, $i^{10} \equiv 1(mod11)$ ekanligidan foydalandik. Bundan $1^{30} + 2^{30} + \cdots + 10^{30} \equiv 10(mod11) \equiv -1(mod11)$ kelib chiqadi.

233. *a*) $x^7 \equiv x(mod42)$ dan $x^7 \equiv x(mod2 \cdot 3 \cdot 7)$. Demak, biz $x^7 \equiv x(mod7)$, $x^7 \equiv x(mod3)$ va $x^7 \equiv x(mod2)$ taqqoslamalarning ixtiyoriy x butun soni uchn o'rinli ekanligini ko'rsatishimiz kerak. Birinchi taqqoslama Ferma teoremasidan bevosita kelib chiqadi. 2- va 3- larni bevosita chegirmalarning to'la sistemasini tekshirib ko'rish bilan ishonch hosil qilamiz. 2 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0 va 1 dan iborat va bularning ikkalasi ham $x^7 \equiv x(mod2)$ taqqoslamani qanoatlantiradi. 3 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2 dan iborat va bularning uchalasi ham $x^7 \equiv x(mod3)$ taqqoslamani qanoatlantiradi.

b) $x^{13} \equiv x(mod2730)$ dan $x^{13} \equiv x(mod\ 2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 13)$. Bu yerdan $x^{13} \equiv x(mod13)$, (Ferma teoremasiga ko'ra); $x^{13} \equiv x(mod2)$ (0,1 ni qo'yib tekshirsak); $x^3 \equiv x(mod3)$ dan $x^{13} \equiv (x^3)^4 \cdot x \equiv x^5 \equiv x^3 \cdot x^2(mod3) \equiv x^3(mod3) \equiv x(mod3)$. $x^{13} \equiv x(mod5)$ va $x^{13} \equiv x(mod7)$ lar ham shunga

o’xshash isbotlanadi. Endi hosil bo’lgan $x^{13} \equiv x(mod2)$, $x^{13} \equiv x(mod3)$, $x^{13} \equiv x(mod5)$, $x^{13} \equiv x(mod7)$ va $x^{13} \equiv x(mod13)$ taqqoslamalarning ixtiyoriy x butun son uchun o’rinli ekanligidan $x^{13} \equiv x(mod\ 2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 13)$ ning, yoki bundan $x^{13} \equiv x(mod2730)$ ning o’rinli ekanligi kelib chiqadi.

234. p va q lar $(p; q) = 1$ shartni qanoatlantiruvchi tub sonlar bo’lgani uchun $p^{q-1} \equiv 1(modq)$ va $q^{p-1} \equiv 1(modp)$. Bu taqqoslamalarni tenglik qilib yozsak $p^{q-1} - 1 = qt,\ q^{p-1} - 1 = pl, t, l\epsilon\ Z.$ Bulardan $(p^{q-1} - 1)(q^{p-1} - 1) = pqtl$ yoki $p^{q-1} \cdot q^{p-1} - p^{q-1} - q^{p-1} + 1 = pqtl.$ Endi taqqoslama qilib yozsak$q^{p-1} + p^{q-1} - p^{q-1} \cdot q^{p-1} - 1 \equiv 0(modpq)$. Bundan $q^{p+1} + p^{q+1} \equiv 1(modpq)$ kelib chiqadi.

235. 2^{100} sonining oxirgi ikkita raqamini topish uchun uni 100 ga bo’lishdan chiqqan qoldiqni topish kifoya. Bu yerda $100 = 25 \cdot 4$ va Eyler teoremasiga ko′ra$2^{\varphi(25)} \equiv 1(mod25)$, ya’ni $2^{20} \equiv 1(mod25)$ hamda $2^{100} = 2^{98} \cdot 2^2$ bo’lgani uchun $2^{98} \equiv 2^{80} \cdot 2^{18}(mod25) \equiv 2^{18}(mod25) \equiv (2^9)^2(mod25) \equiv 144(mod25) \equiv 19(mod25)$. Buni tenglik qilib yozsak $2^{98} = 19 + 25t$. Bu tenglikni ikkala tomonini 4 ga ko’paytirib taqqoslama ko’rinishida yozamiz. U holda $2^{100} = 76 + 100t$ yoki $2^{100} \equiv 76(mod\ 100)$. Demak, 2^{100} ning oxirgi raqami ikkita raqam 7 va 6.

236. Berilgan sonning oxirgi raqamini topish uchun uni 10 ga bo’lishdan chiqqan qoldiqni topish kifoya. $(3,10) = 1$va Eyler teoremasiga ko’ra $3^{\varphi(10)} \equiv 1(mod11)$. Bunda $\varphi(10) = \varphi(2 \cdot 5) = \varphi(2) \cdot \varphi(5) = (2 - 1) \cdot (5 - 1) = 4$ bo’lganligi sababli $3^4 \equiv 1(mod10)$ bo’ladi. Shuning uchun ham $3^{100} = (3^4)^{25} \equiv 1^{25} \equiv 1(mod10)$. Demak,$3^{100}$ sonining oxirgi raqami 1 ga teng bo’lar ekan.

237. 243^{402} sonining oxirgi uchta raqamini topish uchun uni 1000 ga bo’lishdan chiqqan qoldiqni topish kerak bo’ladi. $243 = 3^5$, $1000 = 10^3 = 5^3 \cdot 2^3$ bo’lgani uchun $(243; 1000) = 1$ va Eyler teoremasiga asosan $243^{\varphi(1000)} \equiv 1\ (mod1000)$ bajariladi. Bu yerda $\varphi(1000) = \varphi(2^3 \cdot 5^3) = \varphi(2^3) \cdot \varphi(5^3) = (2^3 - 2^2)(5^3 - 5^2) = 4 \cdot 100 = 400$ bo’lgani uchun $243^{400} \equiv 1(mod1000)$.

Shuning uchun ham $243^{402} \equiv 243^{400} \cdot 243^2 \equiv 243^2 (mod 1000) \equiv 59049 (mod 1000) \equiv 49 (mod 1000)$. Demak, uchta raqami 0,4,9.

238. Shartga asosan $(n; 6) = 1$. Bundan $(n; 2) = 1$ va $(n; 3) = 1$ bo'lgani uchun u toq son $n = 2k + 1$, u holda $n^2 - 1 = (n-1)(n+1) = (2k+1-1)(2k+1+1) = 4k(k+1)$ ifoda 8 ga bo'linadi , ya'ni $n^2 - 1 = 0 (mod 8)$ yoki bundan

$$n^2 \equiv 1 (mod 8). \quad (5)$$

Ikkinchi tomondan $(n; 3) = 1$ bo'lgani uchun Ferma teoremasiga asosan

$$n^2 \equiv 1 (mod 3). \quad (6)$$

Hamda $(8; 3) = 1$ bo'lgani uchun (5) va (6) dan $n^2 \equiv 1 (mod 24)$ kelib chiqadi.

239. Ferma teoremasiga ko'ra : $1^{p-1} \equiv 1 (mod p)$, $2^{p-1} \equiv 1 (mod p)$, ... , $(p-1)^{p-1} \equiv 1 (mod p)$. Bunda p- tub son . Bu taqqoslamaning har birini $k \epsilon N$ darajaga ko'tarib keyin hadlab qo'shamiz . U holda

$$1^{k(p-1)} + 2^{k(p-1)} + \cdots + (p-1)^{k(p-1)} \equiv p - 1 (mod p)$$

hosil bo'ladi. Bundan

$$1^{k(p-1)} + 2^{k(p-1)} + \cdots + (p-1)^{k(p-1)} + 1 \equiv 0 (mod p).$$

Buni qisqacha

$$\sum_{i=1}^{p-1} i^{k(p-1)} + 1 \equiv 0 (mod p)$$

ko'rinishda yozishimiz mumkin.

240. Ma'lumki, $a^p - a \equiv 0 (mod p)$. Shunga asosan $(a_1 + a_2 + \cdots + a_n)^p \equiv a_1 + a_2 + \cdots + a_n (mod p)$. Bu yerda $a_1 \equiv a_1^p (mod p)$, $a_2 \equiv a_2^p (mod p)$,..., $a_n \equiv a_n^p (mod p)$ ekanligini e'tiborga olsak : $(a_1 + a_2 + \cdots + a_n)^p \equiv a_1^p + a_2^p + \cdots + a_n^p (mod p)$ ga, ya'ni isbotlanishi kerak bo'lgan taqqoslama $(\sum_{i=1}^{n} a_i)^p \equiv \sum_{i=1}^{n} a_i{}^p$ (modp) ga ega bo'lamiz.

241. Eyler teoremasiga asosan $(a; m) = 1$ bo'lsa , $a^{\varphi(m)} \equiv 1 (mod m)$ bo'ladi. Endi faraz etaylik x soni $a^x \equiv 1 (mod m)$ taqqoslamaning eng kichik

yechimi bo'lib $\varphi(m) = x \cdot q + r$, $0 \le r < x$ bo'lsin u holda $a^{\varphi(m)} \equiv (a^x)^q \cdot a^r \equiv 1 \cdot a^r (mod m) \equiv 1 (mod m)$, ya'ni $a^r \equiv 1 (mod m)$. Bu esa x soni $a^x \equiv 1 (mod m)$ taqqoslamaning eng kichik yechimi deganimizga zid. Demak, $r = 0$ va $\varphi(m) = x \cdot q$, ya'ni x soni $\varphi(m)$ ning bo'luvchisi.

242. Ferma teoremasiga asosan

$$a_i^5 \equiv a_i (mod 5) \text{ va } a_i^5 \equiv a_i (mod 2), a_i^5 \equiv a_i (mod 3). \quad (7)$$

Keyingi ikkita taqqoslamaning o'rinli ekanligini bevosita chegirmalarning to'la sistemasini qo'yib tekshirib ko'rish mumkin. Bulardan

$$a_i^5 \equiv a_i (mod 30), \quad i = 1,2,\dots,n.$$

Bu taqqoslamalarni hadlab qo'shsak

$$\sum_{i=1}^{n} a_i^5 \equiv \sum_{i=1}^{n} a_i (mod 30),$$

ya'ni $M \equiv N (mod 30)$. Bundan, agar N soni 30 bo'linsa, M ning ham 30 ga bo'linishi kelib chiqadi.

Izoh.(7) taqqoslamalar $a_i^5 \equiv a_i (mod 6)$ ga teng kuchli bu taqqoslamani

$$a_i^5 - a_i \equiv a_i(a_i^4 - 1) \equiv a_i(a_i - 1)(a_i + 1)\left(a_i^2 + 1\right)(mod 6)$$
$$\equiv (a_i - 1)a_i(a_i + 1)\left(a_i^2 + 1\right)(mod 6).$$

Bunda $(a_i - 1)a_i(a_i + 1) \equiv 0 (mod 6)$ bo'lganligi uchun $a_i^5 - a_i \equiv 0 (mod 6)$ bajariladi.

243. Agar a soni 5 ga karrali bo'lsa, $a = 5k$ va $a^{100} \equiv (5k)^{100} \equiv 5^{100} \cdot k^{100} \equiv 0 (mod 125)$. Agarda $(a; 5) = 1$ bo'lsa, u holda Eyler teoremasiga asosan $a^{\varphi(125)} \equiv 1 (mod 125)$. Bundan $a^{\varphi(125)} \equiv a^{\varphi(5^3)} \equiv a^{5^3 - 5^2} \equiv a^{100} \equiv 1 (mod\ 125)$. Demak, agar a butun soni 5 ga karrali bo'lsa, a^{100} ni 125 ga bo'lishdan chiqqan qoldiq 0 ga teng, aks holda qoldiq 1 ga teng bo'lar ekan.

244. Masalaning shartiga ko'ra $(a; 10) = 1$. Bu esa $(a; 2) = 1$ va $(a; 5) = 1$ larga teng kuchli. Agar $(a; 5) = 1$ bo'lsa, 24-masalaga asosan

$$a^{100} \equiv 1 (mod\ 125). \quad (8)$$

Ikkinchi tomondan esa Eyler teoremasiga asosan $a^{\varphi(8)} \equiv 1 (mod 8)$. Bundan $a^4 \equiv 1 (mod 8)$. Bu taqqoslamaning ikkala tomonini 25 –darajaga ko'taramiz, u holda

$$a^{100} \equiv 1(mod\ 8) \qquad (9)$$

taqqoslama hosil bo'ladi. (8) va (9) dan $(8;125) = 1$ bo'lgani uchun $a^{100} \equiv 1(mod\ 1000)$ ni hosil qilamiz. Bu oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini n −darajaga ko'taramiz va keyin ikkala tomonini a ga ko'paytirsak

$$a^{100n+1} \equiv a(mod\ 1000)$$

ga ega bo'lamiz .

245. a soni 7 ga bo'linmasa, u holda $(a;7) = 1$ bo'ladi va $a^6 \equiv 1(mod\ 7)$ bo'ladi. Bu taqqoslamani avval m −darajaga keyin eas n −darajaga ko'taramiz. U holda $a^{6m} \equiv 1(mod\ 7)$ va $a^{6n} \equiv 1(mod\ 7)$ larga ega bo'lamiz. Bularni hadlab qo'shsak $a^{6m} + a^{6n} \equiv 2(mod\ 7)$ ni hosil qilamiz. Ya'ni agar a soni 7 ga bo'linmasa $a^{6m} + a^{6n}$ ni 7 ga bo'lsak 2 qldiq qolar ekan. Endi $a \vdots 7$ bo'lsin. U holda $a^{6m} \vdots 7$ va $a^{6n} \vdots 7$ bajariladi. Bundan $(a^{6m} + a^{6n}) \vdots 7$, ya'ni $a^{6m} + a^{6n} = 0(mod 7)$.

246. Bu yerda $p \neq 5$ chunki, agarda $p = 5$ bo'lsa, $5^{25} + 1 \equiv 0(mod 25)$ bo'lishi kerak.Lekin bu yerda ikkinchi qo'shiluvchi 25 ga bo'linmaydi. Berilgan taqqoslamani quyidagicha yozib olamiz:

$$5^{p^2} + 1 = (5^{p^2} - 5) + 6 = 5\left(5^{p^2-1} - 1\right) + 6 = 5[(5^{p-1})^{p+1} - 1] + 6$$
$$\equiv 0(mod p^2).$$

Ferma teoremasiga asosan $5^{p-1} - 1 \equiv 0(mod p)$. Bu yerda $(5^{p-1})^{p+1} - 1$ soni $5^{p-1} - 1$ ga karrali bo'lganligi uchun $[(5^{p-1})^{p+1} - 1]$ soni p ga bo'linadi. Demak, 6 ham p ga bo'linishi kerak. Bundan $p = 2$ yoki $p = 3$. Agar $p = 2$ bo'lsa, u holda $5^{2^2} + 1 = 5^4 + 1 \equiv 626 \not\equiv 0(mod 2^2)$, agarda $p = 3$ bo'lsa, u holda $5^{3^2} + 1 = 5^9 + 1 \equiv 1953126 \equiv 0(mod 3^2)$. Shunday qilib izlanayotgan son $p = 3$ ekan .

247. Masalaning sharti bo'yicha p va $2p + 1$ lar tub sonlar. Shuninig uchun ham Ferma teoremasiga ko'ra $(2p + 1)^2 \equiv 1(mod 3)$ va $p^2 \equiv 1(mod 3)$. Ikkinchi taqqoslamani 4 ga ko'paytirib $4p^2 \equiv 4(mod 3)$ birinchisidan ayiramiz, u holda $4p^2 + 4p + 1 - 4p^2 \equiv 1 - 4(mod 3)$ yoki $4p + 1 \equiv -3(mod 3)$. Bundan

$4p+1 \equiv 0(mod3)$. Demak, $4p+1$ soni 3 dan katta va 3 ga bo'linadi. Shuning uchun ham u murakkab son.

IV.1-§.

248. a). Bu holda 3 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2 dan iborat. Bu sonlarni berilgan taqqoslama qo'yib sinab ko'ramiz va $x_1 = 1, x_2 = 2$ larning uni qanoatlantirishiga ishonch hosil qilamiz. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimlari $x \equiv 1(mod3)$ va $x \equiv 2(mod3)$ yoki buni $x = 1 + 3t\ , t\epsilon Z$ va $x = 2 + 3t, t\epsilon Z$ ko'rinishda yozishimiz mumkin.

b). 5 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2,3,4. Bu sonlarni berilgan taqqoslamaga qo'ysak ulardan $x_1 = 1$ va$x_2 = 2$ lar uni qanoatlantirishini ko'ramiz. Shuning uchun ham yechimlar$x \equiv 1(mod5)$va $x \equiv 2(mod5)$ lardan iborat. **Javob** $x = 1 + 5t\ , t\epsilon Z$ va $x = 2 + 5t, t\epsilon Z$.

c). 3 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2 lardan iborat. Bularning birortasi ham berilgan taqqoslamani qanoatlantirmaydi. Demak, taqqoslama yechimga ega emas.

d). 5 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2,3,4 lardan iborat. Bularni berilgamn taqqoslamaga qo'yib sinab ko'rsak, $x_1 = 3$ uni qanoatlantiradi. Demak, javob $x \equiv 3(mod5)$, ya'ni $x = 3 + 5t, t\epsilon Z$.

e). 7 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2,3,4,5,6 lardan iborat. Bularni taqqoslamaga bevosita olib borib qo'ysak, $x_1 = 1$ va$x_2 = 2$ lar uni qanoatlantiradi. **Javob:** $x = 1 + 7t, x = 2 + 7t, t\epsilon Z$.

f).15 moduli bo'yicha manfiy bo'lmagan eng kichik chegirmalarning to'la sistemasi $0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14$ lardan iborat.Bularni berilgan taqqoslamaga qo'yib sinab ko'rib $x_1 = 11$ ning uni qanoatlantirishini topamiz. Demak, $x \equiv 11(mod15)$, ya'ni $x = 11 + 15t, t\epsilon Z$ berilgan taqqoslamaning yechimi.

Izoh. Bu holda $x = 1,2,\ldots,14$ larning barchasi emas, balki $2x > 15$ shartni qanoatlantiruvchilari$x = 8,9,10,11,12,13,14$ni ham tekshirish kifoya bo'ladi.

249. 7 moduli boyicha chegirmalarning to'la sistemasini, tekshirish qulay bo'lsin uchun uni absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalar sistemasi ko'rinishda $0, \pm 1, \pm 2, \pm 3$ yozib olamiz. Berilgan taqqoslamaga bu sonlarni qo' yib tekshirsak faqat 1 uni qanoatlantiradi, demaк $x \equiv 1(mod 7)$ berilgan taqqoslamaning yagona yechimi.

250. Bu yerda 3 moduli bo'yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm 1$ dan iborat, lekin bularning birortasi ham berilgan taqqoslamani qanoatlantirmaydi, ya'ni berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

251.a). Avvalo koeffitsentlarini berilgan 15 moduli bo'yicha bo'yicha absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalar bilan almashtiramiz.Bunda$90 = 15 \cdot 6 + 0,\ 46 = 15 \cdot 3 + 1,\ 52 = 15 \cdot 3 + 7$ bo'lgani uchun berilgan taqqoslama $x^2 - 7x + 1 \equiv 0(mod 15)$ taqqoslamaga teng kuchli. Endi 15 moduli bo'yicha chegirmalrning to'la sistemasi $0, \pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5, \pm 6, \pm 7$ larni qo'yib tekshirib ko'ramiz. U holda $x_1 = -4$ ning berilgan taqqoslamani qanoatlantiradi. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimi $x = -4 + 15t, t \epsilon Z$.

b). Bunda $25 = 12 \cdot 2 + 1, 36 = 12 \cdot 3 + 0, 18 = 12 \cdot 1 + 6, 13 = 12 \cdot 1 +$ 1bo'lgani uchun berilgan taqqoslama$3x^3 - 6x + 1 \equiv 0(mod 12)$ taqqoslamaga teng kuchli.Endi 12 moduli bo'yicha chegirmalrning to'la sistemasi $\pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5, \pm 6$ larni qo'yib tekshirib ko'ramiz. Bularning birortasi ham berilgan taqqoslamani qanoatlantirmaydi.Taqqoslamaning yechimi yo'q.

Izoh. Buni quyidagicha izohlash ham mumkin.$3x^3 - 6x + 1 \equiv 0(mod 12)$ taqqoslama

$$\begin{cases} 3x^3 - 6x + 1 \equiv 0(mod 3) \\ 3x^3 - 6x + 1 \equiv 0(mod 4) \end{cases}$$

ga teng kuchli. Bu yerda birinchi taqqoslama $1 \equiv 0(mod 3)$ ziddiyatli taqqoslama bo'lgani uchun sistema va demak, berilgan taqqoslama ham yechimga ega emas.

c).$21x + 4 \equiv 7(mod 6) \rightarrow 3x - 2 \equiv 1(mod 6) \rightarrow 3x \equiv 3(mod 6) \rightarrow x \equiv 1(mod 2), x = 1 + 2t,$ tϵZ, $x \equiv 1,3,5(mod 6)$. Yechimlar $x \equiv 1(mod 6), x \equiv -2(mod 6), x \equiv -1(mod 6)$,ya'ni $x = 1 + 6t, x = -2 + 6t, x = -1 + 6t, t \epsilon Z$

d).$x^5-2x^3+13x-1\equiv 0(mod4)\rightarrow x^5-2x^3+x-1\equiv 0(mod4)$. $x=\pm1,\pm2$ larni qo'yib tekshiramiz. U holda bularning birortasi ham bu taqqoslamani qanoatlantirmaydi va berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

252. Bunda $12=3\cdot4+0,\quad 24=3\cdot8+0$ va $7=3\cdot2+1$ bo'lganligi uchun koeffisientlarini absolyut qiymati jihatidan eng kichik chegirmalar bilan almashtirib $x^3-x\equiv 0(mod3)$ ni hosil qilamiz. Ferma teoremasiga ko'ra p tub son bo'lganda $x^p-x\equiv 0(modp)$ bajariladi. Bizda p=3, ya'ni oxirgi taqqoslama va demak berilgan taqqoslama ham ayni taqqoslama. Shuning uchun ham no'ma'lum x ning barcha butun qiymatlari berilgan taqqoslamani qanoatlantiradi.

253. a).$x^3-x+6\equiv 0(mod3)$. Bunda Ferma teoremasiga ko'ra $x^3-x\equiv 0(mod3)$ va $6\vdots 3$. Shuning uchun berilgan taqqoslama x ning ixtiyoriy butun qiymatida o'rinli.

b). $x(x^2-1)\equiv 0(mod6)$. Bu taqqoslamani $(x-1)x(x+1)\equiv 0(mod6)$ ko'rinishda yozib olish mumkun . Bu yerda chap tomondagi ifoda uchta ketma-ket sonlarning ko'paytmasi sifatida 6 ga bo'linadi, ya'ni berilgan taqqoslama x ning ixtiyoriy butun qiymatida o'rinli.

c). $20x^6+x^5-10x^3-x+15\equiv 0(mod5)$. Bunda koeffitsentlarni absolyut qiymat jihatdan eng kichik chegirmalar bilan almashtirib soddalashtiramiz.U holda $x^5-x\equiv 0(mod5)$ ayniy taqqoslamaga ega bo'lamiz.

d).$x^{13}-26x^{12}-x\equiv 0(mod13)\rightarrow x^{13}-x\equiv 0(mod13)$. Bu taqqoslama x ning ixtiyoriy butun qiymatlarida bajariladigan ayniy taqqoslama.

254. a).Berilgan $5x\equiv 4(mod5)$taqqoslama $0\equiv 4(mod5)$ ziddiyatli taqqoslamaga teng kuchli.Shuning uchun taqqoslama yechimga ega emas.

b). $x^2-2x+3\equiv 0(mod4)$. Bu yerda 4 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0,1,2,3$ larni qo'yib tekshirib ko'ramiz.U holda ularning birortasi ham berilgan taqqoslamani qanoatlantirmaydi. Demak, taqqoslama yechimga ega emas.

c).$20x^5 + 5x^4 - 10x^3 - 6 \equiv 0(mod5)$ taqqoslama $-1 \equiv 0(mod5)$ ziddiyatli taqqoslamaga teng kuchli. Shuning uchun ham berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

d). $x^{13} - 26x^{12} - x + 5 \equiv 0(mod13)$ taqqoslama $x^{13} - x + 5 \equiv 0(mod13)$ taqqoslamaga teng kuchli. Bu yerda $x^{13} - x \equiv 0(mod13)$ ayniy taqqoslama bo'lganligi uchun berilgan taqqoslama $5 \equiv 0(mod13)$ ziddiyatli taqqoslamaga teng kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

255.*a)*.Bu yerda $y = x + a$ almashtirish olib berilgan taqqoslamaga qo'yamiz, u holda $(y + a)^n + a_1(y + a)^{n-1} + a_2(y + a)^{n-2} + \cdots + a_n \equiv 0(modm)$ ni hosil qilamiz. Oxirgi taqqoslamada y ning bir xil darajalari oldidagi koeffisientlarni yig'sak $y^n + (a_1 + na)y^{n-1} + \cdots + (a^n + a_1 \cdot a^{n-1} + \cdots + a_n) \equiv 0(modm)$ hosil bo'ladi. a ixtiyoriy bo'lgani uchun uni $a_1 + na \equiv 0(modm)$ shart bajariladigan qilib tanlaymiz. Uholda $y^n + b_2y^{n-2} + \cdots + b_n \equiv 0(modm)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz.

b). $x^3 + 5x^2 + 6x - 8 \equiv 0(mod13)$. $a_1 = 5, m = 13, n = 3$a) qismdagiga asosan $a_1 + na \equiv 0(modm)$ dan $5 + 3a \equiv 0(mod13)$ ga ega bo'lamiz . Bundan $3a \equiv -5(mod13) \rightarrow -10a \equiv -5(mod13) \rightarrow 2a \equiv 1(mod13) \rightarrow 2a \equiv 14(mod13) \rightarrow a \equiv 7(mod13)$. Demak, $a = 7$ va biz $x = y + 7$ almashtirish bajaramiz u holda $(y + 7)^3 + 5(y + 7)^2 + 6(y + 7) - 8 = (y + 7)(y^2 + 14y + 49 + 5y + 35 + 6) - 8 = (y + 7)(y^2 + 19y + 90) - 8 = y^3 + 19y^2 + 90y + 7y^2 + 133y + 630 - 8 = y^3 + 26y^2 + 223y + 622 \equiv y^3 + 2y - 2 \equiv 0(mod13)$. Demak, izlanayotgan taqqoslama $y^3 + 2y - 2 \equiv 0(mod13)$ dan iborat.

256. Eyler teoremasiga ko'ra berilgan taqqoslamani $(x, 60) = 1$ shartni qanoatlantiruvchi barcha x lar qanoatlantiradi, ya'ni $\varphi(60) = \varphi(2^2 \cdot 3 \cdot 5) = \varphi(2^2) \cdot \varphi(3) \cdot \varphi(5) = (2^2 - 2) \cdot (3 - 1) \cdot (5 - 1) = 2 \cdot 2 \cdot 4 = 16$ ta yechimga ega. Bu yechimlar x ning $x \leq 60, (x, 60) = 1$ shartlarni qanoatlatiruvchi

qiymatlari $x \equiv 1,\ 7,\ 11,\ 13,\ 17,\ 19,\ 23,\ 29,\ 31,\ 37,\ 41,\ 43,47,\ 49,\ 53,\ 59\ (mod 60)$ dan iborat.

IV.2-§.

257. a). Bunda$(5,6) = 1$. Shuning uchun ham taqqoslama yagona yechimga ega. Bu yechimni tanlash usuli bilan topish uchun 6 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasini biror ko'rinishda (masalan: $0, 1, 2, 3, 4, 5$) yozib olib bu sonlarni berilgan taqqoslamaga qo'yib tekshiramiz. x_1=3 berilgan taqqoslamani qanoatlantiradi. Shuning uchun berilgan taqqoslamaning yechimi $x \equiv 3(mod\ 6)$,yani $x = 3 + 6t, t \in Z$.

b).$8x \equiv 3(mod\ 8)$taqqoslamada$(8,10) = 2$, lekin 3 soni 2ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham taqqoslama yechimga ega emas.

c). $2x \equiv 6(mod\ 8)$ taqqoslamada $(2,8) = 2$ va 6 soni 2 ga bo'linadi. Shuning uchun ham berilgan taqqoslama 2 ta yechimga ega. Bu holda berilgan taqqoslama$x \equiv 3(mod\ 4)$ga teng kuchli. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimlari $x \equiv 3,7(mod\ 8)$,ya'ni $x = 3 + 8t$ va $x = 7 + 8t, t \in Z$ lardan iborat bo'ladi.

d).$3x \equiv -6(mod\ 7)$ning o'ng tomoniga 7 ni (modulni) qo'shsak $3x \equiv 1(mod\ 7)$ taqqoslama hosil bo'ladi. Bunda $(3,7) = 1$ bo'lgani uchun u yagona yechimga ega. 7 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi 0,1,2,3,4,5,6 larni taqqoslamaga qo'yib tekshirib ko'rib $x \equiv 5(mod\ 7)$,ya'ni $x = 5 + 7t, t \in Z$ ning berilgan taqqoslamaning yechimi ekanligini topamiz.

e). $4x \equiv 3(mod 12)$da $(4,12) = 4$,lekin 3 soni 4 ga bo'linmagani uchun ham taqqoslama yechimga ega emas.

f).$6x \equiv 5(mod\ 9)$ da $(6,9) = 3$ va 5 soni 3 ga bo'linmaydi shuning uchun ham berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

g). Bu yerda $(5,8) = 1$ va 8 –moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm 1, \pm 2, \pm 3,\ 4$ dan iborat. Bularni qo'yib tekshirib$x \equiv 3(mod 8)$ berilgan taqqoslamani yechimi ekanligini aniqlaymiz.

258. a).$5x \equiv 3(mod\ 7)$ taqqoslamada $(5,7) = 1$ bo'lgani uchun taqqoslama yagona yechimga ega.Bu yechimni taqqoslamalarning xossalaridan foydalanib

topish uchun taqqoslamaning o'ng tomoniga modulni qo'shamiz.U holda $5x \equiv 10(mod\ 7)$ ni hosil qilamiz. Bu taqqoslamaning ikkala tomonini 5 ga qisqartiramiz.($(5;7) = 1$ bo'lgani uchun bu ishni amalga oshirish mumkin). U holda $x \equiv 2(mod\ 7)$ ya'ni $x = 2 + 7t, t \in Z$ berilgan taqqoslamaning yechimiga ega bo'lamiz.

b).$8x \equiv 3(mod 11)$ taqqoslamada $(8;11) = 1$. Demak, taqqoslama yagona yechimga ega. Bu taqqoslamaning o'ng tomonidan 11 ni ayirsak $8x \equiv -8(mod\ 11)$ taqqoslama hosil bo'ladi. Oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini 8 ga (chunki (8;11)=1) qisqartirsak $x \equiv -1(mod 11)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimi $x = -1 + 11t, t \in Z$.

c). $4x \equiv 6(mod 8)$ taqqoslamada $(4,8) = 4$ va 6 soni 4 ga bo'linmaydi, shuning uchun ham berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

d).$4x \equiv 25(mod 13)$ da $(4;13) = 1$ bo'lgani uchun taqqoslama yagona yechimga ega. Bu taqqoslamaning o'ng tomonidan 13 ni ayirib, hosil bo'lgan taqqoslamani ikkala tomonini 4 ga bo'lsak $x \equiv 3(mod 13)$ taqqoslama hosil bo'ladi. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimi $x = 3 + 13t, t \in Z$.

e). $11x \equiv 3(mod 12)$ taqqoslamada $(11,12) = 1$ bo'lgani uchun taqqoslama yagona yechimga ega. Berilgan taqqoslama yagona yechimga ega.Berilgan taqqoslamaning chap tomonidan uning modulini ayirsak, $-x \equiv 3(mod\ 12)$ yoki $x \equiv -3(mod\ 12)$ taqqoslama hosil bo'ladi. Bundan $x = -3 + 12t,\ t \in Z$ berilgan taqqoslamaning yechimi ekanligi kelib chiqadi.

f).$7x \equiv 5(mod\ 9)$ taqqoslamada $(9,7) = 1$. Demak, berilgan taqqoslama yagona yechimga ega. Bu taqqoslamaning ikkala tomonidan modul 9 niayiramiz. U holda $-2x \equiv -4(mod\ 9)$ hosil bo'ladi. Bundan $x \equiv 2(mod\ 9)$, ya'ni $x = 2 + 9t, t \in Z$ ekanligi kelib chiqadi.

g). Bunda $(5,8) = 1$ bo'lganli uchun taqqoslama yagona yechimga ega. Taqqoslamaning istalgan tomoniga modulga karrali sonni qo'shish yoki ayirish mumkin. Shuning uchun ham $5x \equiv 7 + 8(\mathrm{mod}8) \rightarrow 5x \equiv 15(\mathrm{mod}8)$.

Taqqoslamaning ikkala tomonini modul bilan o'zaro tub songa qisqartirish mumkin bo'lgani uchun $(5;15)=5$ va $(5,8)=1$ ekanligini e'tiborga olib oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini 5 ga qisqartiramiz. U holda $x\equiv 3(mod 8)$ yechimni hosil qilamiz.

h). $(7,\ 15)=1$ bo'lganli uchun bu taqqoslama yagona yechimga ega.

$7x\equiv 6+15(\text{mod } 15)$, $7x\equiv 21(\text{mod } 15)$, $(7,\ 21)=7$ va (7,15)=1

ekanligini e'tiborga olib oxirgi taqqoslamaning ikkala tomonini 7ga qisqartiramiz. U holda $x\equiv 3(mod 15)$ yechimni hosil qilamiz.

259. a).$13x\equiv 3(mod 19)$ taqqoslamada $(13,19)=1$ bo'lgani uchun yagona yechimga ega. Ma'lumki, agar $(a,m)=1$bo'lsa, $ax\equiv b(mod\ m)$ taqqoslamaning yechimini $x\equiv a^{\varphi(m)-1}\cdot b(modm)$ taqqoslamadan foydalanib topish mumkin. Bizning misolimizda $a=13,b=3,m=19$ bo'lgani uchun

$x\equiv 13^{\varphi(19)-1}\cdot 3(mod\ 19)$ bo'ladi. Bunda $\varphi(19)=18$ va $13^{17}=(13^{2})^{8}\cdot 13==169^{8}\cdot 13=(19\cdot 9-2)^{8}\cdot 13$ bo'lgani uchun $x\equiv(-2)^{8}\cdot 3\cdot 13(\text{mod } 19)\equiv$

$$256\cdot 133(mod\ 19)\equiv(19\cdot 13+9)\cdot 3\cdot 13(mod 19)\equiv\equiv 3\cdot 9\cdot 13(mod\ 19)$$
$$\equiv 3\cdot 117(mod\ 19)\equiv(19\cdot 6+3)\cdot 3(mod\ 19)\equiv 9(mod\ 19).$$

Demak, berilgan taqqoslamaning yechimi $x=9+19t,t\in Z$.

b).$27x\equiv 7(mod\ 58)$ taqqoslamada $(27,58)=1$ va $\varphi(58)=\varphi(2\cdot 29)=\varphi(2)\cdot\varphi(29)=28$ bo'lgani uchun $x\equiv 27^{27}\cdot 7(mod\ 58)\equiv 3^{81}\cdot 7(mod\ 58)\equiv(3^{4})^{20}\cdot 21(mod\ 58)\equiv 23^{20}\cdot 21(mod\ 58)\equiv(58\cdot 7+7)^{20}\cdot 21(mod\ 58)\equiv 7^{10}\cdot 21(mod\ 58)\equiv(7^{3})^{3}\cdot 147(mod\ 58\equiv 343^{3}\cdot(2\cdot 58+31)(mod\ 58)\equiv(5\cdot 58+53)^{3}\cdot 31(mod\ 58)\equiv 53^{3}\cdot 31(mod\ 58)\equiv 53^{2}\cdot 53\cdot 31(mod\ 58)\equiv(-5)^{3}\cdot 31(mod\ 58)\equiv -9\cdot 31(mod\ 58)\equiv -279(mod\ 58)\equiv 11(mod\ 58)$.

Demak, berilgan taqqoslamaning yechimi $x\equiv 11(mod\ 58)$, ya'ni $x=11+58t,t\in Z$.

c). $5x\equiv 7(mod\ 10)$ taqqoslamada $(5,10)=5$, lekin 7 soni 5 ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham taqqoslama yechimga ega emas.

d). $3x\equiv 8(mod\ 13)$, bunda$(3,13)=1$ bo'lgani uchun taqqoslama yagona yechimga ega. Bizda $a=3,b=8,m=13$ va $\varphi(13)=12$ bo'lgani uchun $x\equiv 3^{11}\cdot$

$8(mod\ 13) \equiv (3^3)^3 \cdot 3^2 \cdot 8(mod\ 13) \equiv 72(mod\ 13) \equiv 7(mod\ 13)$. Demak berilgan toqqoslamaning yechimi $x = 7 + 13t, t \in Z$.

e).$25x \equiv 15(mod\ 17)$ da $(25,17) = 1$ bo'lgani uchun u yagona yechimga ega va $(5,17) = 1$ bo'lganidan taqqoslamaning ikkala tomonini 5 ga qisqartirish mumkin.Uholda$5x \equiv 3(mod\ 17)$ taqqoslama hosil bo'ladi. Shuning uchun ham $x \equiv 5^{\varphi(17)-1} \cdot 3(mod\ 17) \equiv 5^{15} \cdot 3(mod\ 17) \equiv (5^3)^5 \cdot 3(mod\ 17) \equiv$

$(17 \cdot 7 + 6)^5 \cdot 3(mod\ 17) \equiv 6^5 \cdot 3(mod\ 17) \equiv$

$$\equiv (6^2)^2 \cdot 18(mod\ 17) \equiv 2^2 mod(17) \equiv 4(mod\ 17).$$

Demak, izlanayotgan yechim $x = 4 + 17t, t \in Z$.

f). $29x \equiv 35(mod\ 12)$, bunda $(29,12) = 1$ bo'lgani uchun berilgan taqqoslama yagona yechimga ega. Bu taqqoslamaning koeffisentlari moduldan katta bo'lgani uchun ularni 12 moduli bo'yicha eng kichik manfiy bo'lmagan chegirmalar bilan almashtiramiz. Bunda $29 \equiv 12 \cdot 2 + 5, 35 \equiv 12 \cdot 2 + 11$ bo'lgani uchun,berilgan taqqoslamani $5x \equiv 11(mod\ 12)$ ko'rinishida yozib olish mumkin. $\varphi(12)=\varphi(2^2 \cdot 3)= =(2^2 - 2)\cdot 2=4$ va $x \equiv 5^{\varphi(12)-1} \cdot 11\ (mod\ 12) \equiv 5^3 \cdot 11(mod\ 12) \equiv 125 \cdot (-1)(mod 12) \equiv -5(mod 12) \equiv 7(mod\ 12)$. Demak, izlanayotgan yechim $x = 7 + 12t, t \in Z$.

g). Bu yerda $x \equiv a^{\varphi(m)-1} \cdot b(\mathrm{mod}\, m)$ formuladan foydalanamiz. Bizda *a=3, b=7, m=11* bo'lgani uchun $x \equiv 3^{\varphi(11)-1} \cdot 7(mod 11)$ ni hosil qilamiz. Bunda $\varphi(11) = 11 - 1 = 10$ bo'lganidan $x \equiv 3^9 \cdot 7(mod 11)$. Endi oxirgi taqqoslamaning o'ng tomonidagi ifodani eng kichik musbat chegirma ko'rinishiga keltiramiz. $3^9 \cdot 7(mod 11) = (3^3)^3 \cdot 7(mod 11) \equiv 27^3 \cdot 7(mod 11) \equiv 5^3 \cdot 7(mod 11) \equiv 4 \cdot 7 \equiv 6(mod 11)$. Shunday qilib berilgan taqqoslamaning yechimi: $x \equiv 6(\mathrm{mod} 11)$.

260. a). Berilgan $13x \equiv 1(mod\ 27)$ taqqoslamada $(13; 27) = 1$ bo'lgani uchun u yagona yechimga ega.Bu yechimni munosib kasrlardan foydalanib, ya'ni $x \equiv (-1)^{n-1} \cdot bP_{n-1}(modm)$ $(*)$ formuladan foydalanib topish uchun,avvalo P_{n-1} ni (oxirgidan oldingi munosib kasrning suratini) aniqlashimiz

kerak.Buning uchun esa $\frac{m}{a}=\frac{27}{13}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyamiz. Bunda $27=13\cdot 2+1,\ \ 13=1\cdot 13+0$ lardan $\frac{27}{13}=2+\frac{1}{13}=(2;13)$.

Endi P_{n-1} ni aniqlaymiz:

q_i		2	13
P_i	$P_0=1$	$P_1=2$	27

Jadvaldan $P_{n-1}=2$ va $n=2$. Bularni (*) ga olib borib qo'ysak $x\equiv(-1)^{2-1}\cdot 2\cdot 1(mod\ 27)\equiv -2(mod\ 27)$, yani $x=-2+27t, t\in Z$.

Tekshirish: $13\cdot(-2)\equiv 1(mod\ 27)\ \rightarrow 1\equiv 1(mod\ 27)$ doimo bajariladi.

b). Berilgan $37x\equiv 25(mod\ 117)$ taqqoslamada $(37;117)=1$ bo'lgani uchun u yagona yechimga ega. P_{n-1} ni aniqlaymiz. Buning uchun $\frac{117}{37}$ kasrnii uzluksiz kasrlarga yoyamiz. $117=37\cdot 3+6, 37=6\cdot 6+1,\ \ 6=1\cdot 6+0$ lardan q_1=3, $q_2=6,\ q_3=6$ ekanligigini topamiz. U holda $\frac{117}{37}=(3,6,3)$ va

q_i		3	6	6
P_i	$P_0=1$	3	19	117

bo'lganidan $n=3, P_{n-1}=P_2=19$ hamda $x\equiv(-1)^2\cdot 19\cdot 25(mod\ 117)\equiv 475(mod\ 117)\equiv 7(mod\ 117)$. Demak, izlanayotgan yechim $x=7+117t, t\in Z$. **Tekshirish:** $37\cdot 7\equiv 259\equiv(117\cdot 2+25)\ (mod\ 117)\equiv 25(mod\ 117)$, ya'ni yechim to'g'ri topilgan.

c) $113x\equiv 89(mod\ 311)$ taqqoslamada $(113,311)=1$ bo'lgani uchun u yagona yechimga ega. Endi $\frac{311}{113}$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz: $311=113\cdot 2+85, 113=85\cdot 1+28,\ \ 85=28\cdot 3+1,\ \ 28=1\cdot 28+0$. Demak, $q_1=2,\ q_2=1,\ q_3=3,\ q_4=28$ va $\frac{311}{113}=(2;1;3;28)$ hamda

q_i		2	1	3	28
P_i	$P_0=1$	2	3	11	311

bo’lganligi uchun P_{n-1}=11, $n = 4$ va $x \equiv (-1)^3 \cdot 11 \cdot 89 (mod\ 311) \equiv -979 (mod\ 311) \equiv -46 (mod\ 311)$, ya’ni $x = -46 + 311t, t \in Z$.

Tekshirish: $113 \cdot (-46)\ (mod\ 311) \equiv -5198\ (mod\ 311) \equiv (311 \cdot 16 + 222)\ (mod\ 311) \equiv -222 (mod\ 311) \equiv 89\ (mod\ 311)$. Demak, taqqoslamaning yechimi to’g’ri topilgan.

d) $221x \equiv 111 (mod\ 360)$. Bunda $221 = 13 \cdot 17$ va $360 = 36 \cdot 10 = 2^2 \cdot 3^2 \cdot 2 \cdot 5 = 2^3 \cdot 3^2 \cdot 5$, ya’ni $(221; 360) = 1$.Shuning uchun ham berilgan taqqoslama yagona yechimga ega. Shu yechimni topish uchun $\frac{360}{221}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyamiz. $360 = 221 \cdot 1 + 139, 221 = 139 \cdot 1 + 82, 139 = 82 \cdot 1 + 57, 82 = 57 \cdot 1 + 25, 57 = 25 \cdot 2 + 7, 25 = 7 \cdot 3 + 4, 7 = 4 \cdot 1 + 3, 4 = 1 \cdot 3 + 1, 3 = 1 \cdot 3 + 0$. Bulardan $q_1 = 1, q_2 = 1, q_3 = 1, q_4 = 1,\ q_5 = 2,\ q_6 = 3,\ q_7 = 1,\ q_8 = 1,\ q_9 = 3$ va $\frac{360}{221} = (1, 1, 1, 1, 2, 3, 1, 1, 3)$ larni topamiz. Endi P_{n-1} ni aniqlaymiz.

q_i		1	1	1	1	2	3	1	1	3
P_i	P_0	1	2	3	5	13	44	57	101	360

Bundan P_{n-1}=101, $n = 9$, va $x \equiv (-1)^8 \cdot 101 \cdot 111 (mod\ 360) \equiv 11100 + +111 (mod\ 360) \equiv (30 \cdot 360 + 300 + 111) (mod\ 360) \equiv 411 (mod\ 360) \equiv 51 (mod\ 360)$. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimi $x = 51 + 360t, t \in Z$.

Tekshirish: $221 \cdot 51 \equiv 11271 \equiv (360 \cdot 31 + 111) \equiv 111 (mod\ 360)$.

Bu yerdan ko’rinadiki berilgan misolning yechimi to’gri topilgan.

e) $39x \equiv 84 (mod\ 93)$ da $39 = 3 \cdot 13,\ 93 = 3 \cdot 31$, ya’ni $(39; 93) = 3$ bo’lgani va 84 soni 3 ga bo’lingani uchun berilgan taqqoslama 3 ta yechimga ega bo’ladi. Berilgan taqqoslamani 3 ga qisqartirib yagona yechimga ega bo’lgan $13x \equiv 28 (mod\ 31)$ taqqoslamani hosil qilamiz. Endi $\frac{31}{13}$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. Bunda $31 = 13 \cdot 2 + 5,\ 13 = 5 \cdot 2 + 3, 5 = 1 \cdot 3 + 2, 3 = 1 \cdot 2 + 1,\ 2 = 1 \cdot 2$ bo’lgani uchun q_1=2, q_2=2, q_3=1, q_4=1, q_5=2 va $\frac{31}{13} = (2, 2, 1, 1, 2)$. Endi P_{n-1}ni aniqlaymiz.

q_i		2	2	1	1	2
P_i	1	2	5	7	2	31

Bundan $n = 5,\ P_{n-1}$=12 va $x \equiv (-1)^4 \cdot 12 \cdot 28 (\text{mod } 31) \equiv 12 \cdot (-3) \ (\text{mod } 31) \equiv -5 (mod\ 31)$. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimlari $x \equiv -5, 26, 57 (mod\ 93)$ ya'ni $x = -5 + 93t, x = 26 + 93t,\ x = 57 + 93t,\ t \in Z$.

Tekshirish: $x_1 = -5$bo'lsa,$39 \cdot (-5) = -195\ (mod\ 93) \equiv 84 (mod 93)$;$x_2 = 26$ bo'lsa, $39 \cdot 26 = 1014 \equiv 93 \cdot 23 + 84 \equiv 84 (mod 93)$;

$x_3 = 57$ bo'lsa, $39 \cdot 57 = 2223 = 93 \cdot 23 + 84 \equiv 84 (mod 93)$. Bulardan ko'rinadiki uchala yechim ham to'g'ri topilgan.

f). $143x \equiv 41 (mod 221)$ taqqoslamada $143 = 11 \cdot 13$, $221 = 13 \cdot 17$ bo'lgani uchun $(143, 221) = 13$, lekin 41 soni 13ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

g). Bu yerda $x \equiv (-1)^{n-1} b P_{n-1} (\text{mod } m)$ (1)formuladan foydalanamiz. Avvalo P_{n-1} ni aniqlab olamiz. Buning uchun $\frac{m}{a} = \frac{43}{20}$kasrni uzluksiz kasrga yoyamiz va munosib kasrlarini topamiz, u holda $43 = 20 \cdot 2 + 3,\quad 20 = 3 \cdot 6 + 2,\quad 3 = 2 \cdot 1 + 1,\quad 2 = 1 \cdot 2.$ Demak, $q_1 = 2,\ q_2 = 6,\ q_3 = 1,\ q_4 = 2.$ $\frac{m}{a} = \frac{43}{20} = (2,\ 6,\ 1, 2)$. Endi munosib kasrlarning suratlarini hisoblab P_{n-1}ni topamiz.

q_i		$q_1 = 2$	$q_2 = 6$	$q_3 = 1$	$q_4 = 2$
P_i	$P_0 = 1$	$P_1 = 2$	$P_2 = 13$	$P_3 = 15$	$P_4 = 43$

Demak, $n = 4, P_3 = 15$. Topilgan qiymatlarni (1) ga olib borib qo'ysak $x \equiv (-1)^3 \cdot 15 \cdot 13 (mod 43) \equiv -195 (mod 43) \equiv -195 + 43 \cdot 5 (mod 43) \equiv 20 (mod 43)$ hosil bo'ladi. **Javob**: $x = 20 + 43t,\ t \in Z$.

261. a). $12x \equiv 9 (mod\ 15)$ taqqoslamada $(12,15) = 3$ va 9 soni 3 ga karrali bo'lgani uchun u 3 ta yechimga ega. Berilgan taqqoslamaning ikkala tomoni va modulini 3ga qisqartirsak $4x \equiv 3 (mod\ 5)$ taqqoslama hosil bo'ladi. Bunda $(4,5) = 1$ bo'lgan uchun u yagona yechimga ega. Uning yechimini aniqlaymiz.

$4x \equiv (3+5)(mod\ 5)$yoki $4x \equiv 8(mod\ 5)$. Keyingi taqqoslamaning ikkala tomonini 4 ga bo'lsak $x \equiv 2(mod\ 5)$ hosil bo'ladi. Demak, berilgan taqqoslamaning yechimlari $x \equiv 2,7,12(mod\ 15)$, ya'ni

$$x = 2 + 15t\ , x = 7 + 15t\ , x = 12 + 15t, t \in \mathbb{Z}.$$

b).$12x \equiv 9(mod\ 18)$taqqoslamada $(12,18) = 6$, lekin 9 soni 6 ga bo'linmaydi. Shuning uchun berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

c). $20x \equiv 10(mod\ 25)$ taqqoslamada $(10,35) = 5$ va 25 soni 5 gabo'linadi. Demak, taqqoslama 5 ta yechimga ega berilgan taqqoslamaning ikkala tomonini va modulini 5ga bo'lib $4x \equiv 2(mod\ 5)$ taqqoslamani hosil qilamiz. Bundan$4x \equiv (2 + 5 \cdot 2)(mod\ 5) \rightarrow 12(mod\ 5) \rightarrow x \equiv 3(mod\ 5)$. Demak, taqqoslamaning yechimlari $x \equiv 3,3,13,18,23(mod\ 15)$, ya'ni$x = 3 + 25t\ , x = 8 + 25t\ ,$

$x = 13 + 25t, x = 18 + 25t, x = 23 + 25tt \in \mathbb{Z}$ lardan iborat bo'ladi.

ga teng kuchli. Buning birinchisidan $x^4 - 4x^3 + 2x^2 + x + 6 \equiv x^4 + x^3 + 2x^2 + x + 1 \equiv 0(mod\ 5)$. Buni 5 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm 1, \pm 2$ dagi chegirmalarni sinab ko'rish usuli bilan yechsak $x \equiv 2, -2(mod\ 5)$ laruning yechimi ekanligini topamiz.

Endi (1) dagi ikkinchi taqqoslamani yechamiz. Buning uchun avvalo, $f(x) \equiv 0(\text{mod } 3)$ ni, ya'ni $x^4 - 4x^3 + 2x^2 + x + 6 \equiv 0(mod\ 3)$ ni qaraymiz. Bu taqqoslama $x^4 - 4x^3 + 2x^2 + x + 6 \equiv 0(mod\ 3) \rightarrow x^4 - x^3 - x^2 + x \equiv 0(mod 3) \rightarrow x(x^3 - x^2 - x + 1) \equiv 0(mod 3) \rightarrow x(-x^2 + 1) \equiv 0(mod 3)$.

Bundan $x \equiv 0, \pm 1(mod 3)$ lar berilgan taqqoslamaning yechimi ekanligini topamiz.

$a_1). x \equiv 0(mod 3)$ – ni qaraymiz. $x = 3t_1$ bo'lgani uchun 290-misoldagi (7) – formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(0)}{3} + f'(0)t_1 \equiv 0(mod 3)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda$f(0) = 6$ va $f'(x) = 4x^3 - 12x^2 + 4x + 1,\ f'(0) = 1$ bo'lgani uchun$2 + t_1 \equiv 0(mod 3) \rightarrow t_1 \equiv 1(mod 3) \rightarrow t_1 \equiv 1 + 3t_2 \rightarrow x = 3 + 9t_2.$ x ning bu qiymatidan foydalanib navbatdagi qadamni amalga oshiramiz. U holda t_2 ga nisbatan $\frac{f(3)}{9} + f'(3)t_2 \equiv 0(mod 3)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda $f\ (3) = 0, f'(3) = 13$ b'olgani uchun $13t_2 \equiv 0(mod 3)$ ga ega bo'lamiz. Bundan $\mathrm{t}_2 = 3\mathrm{t}_3 \rightarrow x = 3 + 27\mathrm{t}_3 \in \mathrm{Z}$.

$a_2)$. Endi ikkinchi yechim$x \equiv 1(mod 3)$ ni qaraymiz. Bundan $x = 1 + 3t_1$ bo'lgani uchun 290-misoldagi (7) –formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(1)}{3} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod 3)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda$f(1) = 6$ va $f'(x) = f'(1) = -3$bo'lgani uchun$2 - 3t_1 \equiv 0(mod 3) \rightarrow 3t_1 \equiv 2(mod 3)$ ni hosil qilamiz. Bu yerda $(3,3) = 3$, lekin 2 soni 3ga bo'linmaydi.Shuning uchun ham oxirgi taqqoslama yechimga ega emas.

$a_3)$.Uchunchi yechim $x \equiv -1(mod 3)$ ni qaraymiz. Bu holda $f(-1) = 12,$ $f'(-1) = -19$ bo'lgani uchun $\frac{f(-1)}{3} + f'(-1)t_1 \equiv 0(mod 3)$ dan $4 - 19t_1 \equiv 0(mod 3) \rightarrow 19t_1 \equiv 4(mod 3) \rightarrow t_1 \equiv 1(mod 3) \rightarrow t_1 = 1 + 3\mathrm{t}_2$ ni hosil qilamiz. Buni x ning ifodasiga olib borib qo'ysak $x = -1 + 3t_1 = 2 + 9t_2$ ifoda hosil bo'ladi. x ning bu ifodasidan foydalanib keyingi qadamni amalga oshiramiz. U holda t_2 ga nisbatan $\frac{f(2)}{9} + f'(2)t_2 \equiv 0(mod 3)$ taqqoslama kelib chiqadi. Bunda $f(2) = 0,\ f'(2) = -7$ bo'lgani uchun $-7t_2 \equiv 0(mod 3) \rightarrow t_2 \equiv 0(mod 3) \rightarrow t_2 = 3t_3 \rightarrow x = 2 + 27t_3$ ga ega bo'lamiz.

Shunday qilib berilgan taqqoslamani yechishni quyidagi birinchi darajali taqqoslamalar sistemasini yechishga keltirdik:

$$b_1)\begin{cases} x \equiv -2(mod 5) \\ x \equiv 3(mod 27) \end{cases} \qquad b_2)\begin{cases} x \equiv -2(mod 5) \\ x \equiv 2(mod 27) \end{cases}$$

$$b_3)\begin{cases} x \equiv 2(mod5) \\ x \equiv 3(mod27) \end{cases} \qquad b_4)\begin{cases} x \equiv 2(mod5) \\ x \equiv 2(mod27) \end{cases}.$$

Endi bularning har birining yechimini izlaymiz.

b_1) dan

$$\begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ -2 + 5t_1 \equiv 3(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ 5t_1 \equiv 5(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ t_1 \equiv 1(mod27) \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ t_1 \equiv 1 + 27t_2 \end{cases} \to x = 3 + 135t_2,\ t_2 \in Z.$$

b_2) dan

$$\begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ -2 + 5t_1 \equiv 2(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ 5t_1 \equiv 4(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ 5t_1 \equiv 85(mod27) \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} x = -2 + 5t_1 \\ t_1 \equiv 17 + 27t_2 \end{cases} \to x = 83 + 135t_2,\ t_2 \in Z.$$

b_3) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ 2 + 5t_1 \equiv 3(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ 5t_1 \equiv 1(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ 5t_1 \equiv 55(mod27) \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ t_1 \equiv 11 + 27t_2 \end{cases} \to x = 57 + 135t_2,\ t_2 \in Z.$$

b_4) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ 2 + 5t_1 \equiv 2(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ 5t_1 \equiv 0(mod27) \end{cases} \to \begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ t_1 \equiv 0(mod27) \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} x = 2 + 5t_1 \\ t_1 \equiv 27t_2 \end{cases} \to x = 2 + 135t_2,\ t_2 \in Z.$$ **Javob**: $x \equiv 2,3,57,83(mod135)$.

6).$f(x) = 4x^3 + 7x^2 - 7x - 10 \equiv 0(mod225)$ taqqoslamani qaraymiz. Bu yerda $225 = 3^2 \cdot 5^2$ bo'lgani uchun bu taqqoslama

$$\begin{cases} f(x) \equiv 0(mod\ 3^2) \\ f(x) \equiv 0(mod\ 5^2) \end{cases} \qquad (1)$$

ga teng kuchli.

a). $f(x) = 4x^3 + 7x^2 - 7x - 10 \equiv 0(mod3^2)$ taqqoslamani yechamiz. Buning uchun $4x^3 + 7x^2 - 7x - 10 \equiv 0(mod3) \to x^3 + x^2 - x - 1 \equiv 0(mod3) \to x^2 - 1 \equiv 0(mod3) \to (x+1)(x-1) \equiv 0(mod3)$ taqqoslamani yechishimiz kerak. Buning yechimlari $x \equiv -1, 1(mod3)$ dan iborat.

a_1) $x = 1 + 3t_1$ yechimni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan

$\frac{f(1)}{3} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(1) = -6$, $f'(x) = 12x^2 + 14x - 7$, $f'(1) = 19$ bo'lgani uchun$-2 + 19t_1 \equiv 0(mod3) \rightarrow t_1 \equiv -1(mod3) \rightarrow t_1 = -1 + 3t_2 \rightarrow x = -2 + 9t_2$.

$a_2)$ $x = -1 + 3t_1$ yechimni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(-1)}{3} + f'(-1)t_1 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(-1) = 0$, $f'(-1) = -9$ bo'lgani uchun$-9t_1 \equiv 0(mod3) \rightarrow 0 \cdot t_1 \equiv 0(mod3)$.Bu taqqoslama ayniy taqqoslama bo'lib t_1 ning ixtiyoriy qiymati qanoatlantiradi.

Endi (1) dagi ikkinchi taqqoslamani $4x^3 + 7x^2 - 7x - 10 \equiv 0(mod5) \rightarrow -x^3 + 2x^2 - 2x \equiv 0(mod5)$ ni qaraymiz. Bundan $x(-x^2 + 2x - 2) \equiv 0(mod5) \rightarrow x \equiv 0, -1, -2(mod5)$.

$b_1)$ $x \equiv 0(mod5) \rightarrow x = 5t_1$ ni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(0)}{5} + f'(0)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(0) = -10$, $f'(0) = -7$ bo'lgani uchun$-2 - 7t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow 3t_1 \equiv -3(mod5) \rightarrow t_1 = -1 + 5t_2 \rightarrow x = -5 + 25t_2$.

$b_2)$ $x \equiv -1(mod5) \rightarrow x = -1 + 5t_1$ yechimni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(-1)}{5} + f'(-1)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(-1) = 0$, $f'(-1) = -9$ bo'lgani uchun$-9t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow t_1 = 5t_2 \rightarrow x = -1 + 25t_2$.

$b_3)$ $x \equiv -2(mod5) \rightarrow x = -2 + 5t_1$ yechimni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(-2)}{5} + f'(-2)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(-2) = 0$, $f'(-2) = 13$ bo'lgani uchun$13t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow t_1 = 5t_2 \rightarrow x = -2 + 25t_2$.

Bulardan quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasiga kelamiz.

$c_1)\begin{cases} x \equiv 7(mod9) \\ x \equiv -5(mod25) \end{cases}; c_2)\begin{cases} x \equiv 7(mod9) \\ x \equiv -1(mod25) \end{cases}; \quad c_3)\begin{cases} x \equiv 7(mod9) \\ x \equiv -2(mod25) \end{cases}.$

Bularni yechamiz:

$c_1)$ dan

$$\begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 7 + 9t_1 \equiv -5(mod25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 9t_1 \equiv -12(mod25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 3t_1 \equiv -4(mod25) \end{cases} \rightarrow$$

$\begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ t_1 \equiv 7(mod25) \end{cases} \rightarrow x = 7 + 9(7 + 25t_2) = 70 + 225t_2.$

c_2) dan

$\begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 7 + 9t_1 \equiv -1(mod25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 9t_1 \equiv -8(mod25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 9t_1 \equiv 117(mod25) \end{cases} \rightarrow$

$\begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ t_1 \equiv 13(mod25) \end{cases} \rightarrow x = 7 + 9(13 + 25t_2) = 124 + 225t_2.$

c_3) dan

$\begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 7 + 9t_1 \equiv -2(mod25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ 9t_1 \equiv -9(mod25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x \equiv 7 + 9t_1 \\ t_1 \equiv -1(mod25) \end{cases} \rightarrow$

$$\rightarrow x = 7 + 9(-1 + 25t_2) = -2 + 225t_2.$$

Javob: $x \equiv 70; 124; 223(mod225)$.

7). $31x^4 + 57x^3 + 96x + 191 \equiv 0(mod225)$ taqqoslamani qaraymiz. Bu yerda $225 = 3^2 \cdot 5^2$ bo'lgani uchun bu taqqoslama

$$\begin{cases} f(x) \equiv 0(mod\ 3^2) \\ f(x) \equiv 0(mod\ 5^2) \end{cases} \qquad (1)$$

ga, ya'ni

$$\begin{cases} 31x^4 + 57x^3 + 96x + 191 \equiv 0(mod3^2) \\ 31x^4 + 57x^3 + 96x + 191 \equiv 0(mod5^2) \end{cases}$$

ga teng kuchli. Birinchi taqqoslamani qaraymiz:

$31x^4 + 57x^3 + 96x + 191 \equiv 0(mod3) \rightarrow x^4 - 1 \equiv 0(mod3) \rightarrow (x^2 - 1)(x^2 + 1) \equiv 0(mod3) \rightarrow (x - 1)(x + 1)(x^2 + 1) \equiv 0(mod3)$ bo'lgani uchun bu taqqoslamaning yechimlari $x \equiv -1, 1(mod3)$ dan iborat.

a_1) $x = -1 + 3t_1$ yechimni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(-1)}{3} + f'(-1)t_1 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(-1) = 69$, $f'(x) = 124x^2 + 171x + 96$, $f'(-1) = 143$ bo'lgani uchun$23 + 143t_1 \equiv 0(mod3) \rightarrow 2t_1 \equiv 1(mod3) \rightarrow t_1 \equiv 2(mod3) \rightarrow t_1 = -1 + 3t_2 \rightarrow x = -4 + 9t_2$.

a_2) $x = 1 + 3t_1$ yechimni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(1)}{3} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(1) = 375$, $f'(x) = 124x^2 + 171x + 96$, $f'(1) = 391$ bo'lgani uchun$125 + 391t_1 \equiv$

$0(mod3) \to t_1 \equiv -2(mod3) \to t_1 \equiv 1(mod3) \to t_1 = 1 + 3t_2 \to x = 4 + 9t_2$.Endi (1) dagi ikkinchi taqqoslamani yechamiz. Buning uchun avvalo, $f(x) \equiv 0(\mathrm{mod}\,5)$ ni, ya'ni $31x^4 + 57x^3 + 96x + 191 \equiv 0(mod\ 5)$ ni qaraymiz. Bu taqqoslama $x^4 + 2x^3 + x + 1 \equiv 0(mod\ 5)$ ga teng kuchli. Bundan $x \equiv 1, 2(mod5)$ lar berilgan taqqoslamaning yechimi ekanligini topamiz.

$b_1) x \equiv 1(mod5) \to x = 1 + 5t_1$ ni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(1)}{5} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(1) = 375$, $f'(1) = 391$ bo'lgani uchun$75 + 391t_1 \equiv 0(mod5) \to t_1 \equiv 0(mod5) \to t_1 = 5t_2 \to x = 1 + 25t_2$.

$b_2) x \equiv 2(mod5) \to x = 2 + 5t_1$ ni qaraymiz. Bundan foydalanib t_1 ga nisbatan $\frac{f(2)}{5} + f'(2)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamani tuzib olamiz. Bunda $f(2) = 1335$, $f'(1) = 1772$ bo'lgani uchun $267 + 1772t_1 \equiv 0(mod5) \to 2t_1 \equiv -2(mod5) \to t_1 = -1 + 5t_2 \to x = -3 + 25t_2$.

Bulardan quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasiga kelamiz:

$$c_1) \begin{cases} x \equiv 5(mod9) \\ x \equiv 1(mod25) \end{cases}; c_2) \begin{cases} x \equiv 5(mod9) \\ x \equiv -3(mod25) \end{cases};$$

$$c_3) \begin{cases} x \equiv 4(mod9) \\ x \equiv 1(mod25) \end{cases}; c_4) \begin{cases} x \equiv 4(mod9) \\ x \equiv -3(mod25) \end{cases}.$$

Bularni yechamiz:

c_1) dan

$$\begin{cases} x \equiv 5 + 9t_1 \\ 5 + 9t_1 \equiv 1(mod25) \end{cases} \to \begin{cases} x \equiv 5 + 9t_1 \\ 9t_1 \equiv -4(mod25) \end{cases} \to \begin{cases} x \equiv 5 + 9t_1 \\ 9t_1 \equiv 21(mod25) \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} x = 5 + 9t_1 \\ 3t_1 \equiv 7(mod25) \end{cases} \to \begin{cases} x = 5 + 9t_1 \\ 3t_1 \equiv -18(mod25) \end{cases} \to \begin{cases} x = 5 + 9t_1 \\ t_1 \equiv -6(mod25) \end{cases} \to$$

$$x = -49 + 225t_2, t_2 \in Z.$$

c_2) dan

$$\begin{cases} 5 + 9t_1 \equiv -3(mod25) \\ x = 5 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} 9t_1 \equiv -8(mod25) \\ x = 5 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} 9t_1 \equiv -33(mod25) \\ x = 5 + 9t_1 \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} 3t_1 \equiv -11(mod25) \\ x = 5 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} 3t_1 \equiv -36(mod25) \\ x = 5 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} t_1 \equiv -12(mod25) \\ x = 5 + 9t_1 \end{cases} \to$$

$$x = -103 + 225t_2, t_2 \in Z.$$

c_3) dan

$$\begin{cases} 4+9t_1 \equiv 1(mod25) \\ x = 4+9t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 9t_1 \equiv -3(mod25) \\ x = 4+9t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 3t_1 \equiv -1(mod25) \\ x = 4+9t_1 \end{cases}$$

$$\begin{cases} t_1 \equiv 8(mod25) \\ x = 4+9(5+25t_2) = 76+225t_2 \end{cases} \rightarrow x = 76+225t_2, t_2 \in Z.$$

c_4) dan

$$\begin{cases} 4+9t_1 \equiv -3(mod25) \\ x = 4+9t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 9t_1 \equiv -7(mod25) \\ x = 4+9t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 2(mod25) \\ x = 4+9t_1 \end{cases} \rightarrow$$

$x = 22+225t_2, t_2 \in Z$. **Javob**: $x \equiv -103, -49, 22, 76(mod225)$.

8). $f(x) = 2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod\ 441)$ taqqoslamani qaraymiz. Bu yerda $441 = 3^2 \cdot 7^2$ bo'lgani uchun bu taqqoslama

$$\begin{cases} f(x) \equiv 0(mod\ 9) \\ f(x) \equiv 0(mod\ 49) \end{cases} \qquad (1)$$

ga teng kuchli. Buning birinchisidan $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod\ 3^2)$ ni yechish uchun $-x^6 - x^2 - 1 \equiv 0(mod\ 3) \rightarrow -x^2 + 1 \equiv 0(mod\ 3)$. Buni 3 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm 1,$ dagi chegirmalarni sinab ko'rish usuli bilan yechsak $x \equiv 1, -1(mod\ 3)$ laruning yechimi ekanligini topamiz.

a_1) $x \equiv 1(mod\ 3) \rightarrow x = 1+3t_1$ yechimni qaraymiz. 290-misoldagi (7) – formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(1)}{3} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda $f(1) = -15$ va $f'(x) = 12x^5 - 24x^3 - 14x,\ f'(1) = -26$ bo'lgani uchun$-5 - 26t_1 \equiv 0(mod3) \rightarrow t_1 \equiv 2(mod3) \rightarrow t_1 \equiv -1+3t_2 \rightarrow x = -2+9t_2, t_2 \in Z$.

a_2) $x \equiv -1(mod\ 3) \rightarrow x = -1+3t_1$ yechimni qaraymiz. 290-misoldagi (7) –formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(-1)}{3} + f'(-1)t_1 \equiv 0(mod3)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda$f(-1) = -15$ va $f'(x) = 12x^5 - 24x^3 - 14x,\ f'(-1) = 26$bo'lgani uchun$-5 + 26t_1 \equiv 0(mod3) \rightarrow 2t_1 \equiv 2(mod3) \rightarrow t_1 \equiv 1+3t_2 \rightarrow x = 2+9t_2, t_2 \in Z$.

Endi (1) dagi ikkinchi taqqoslamani yechamiz. Buning uchun avvalo, $f(x) \equiv 0(\text{mod } 7)$ ni, ya'ni $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod\ 7)$ ni qaraymiz. Bu

taqqoslama $2x^6 + x^4 + 3 \equiv 0(mod\ 7)$ ga teng kuchli. Buni 7 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm1, \pm2, \pm3$ larni qo'yib tanlash usuli bilan yechsak $x \equiv \pm2(mod7)$ lar berilgan taqqoslamaning yechimi ekanligini topamiz.

$b_1)\ x \equiv 2(mod\ 7) \to x = 2 + 7t_1$ yechimni qaraymiz. 2 90-misoldagi (7) – formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(2)}{3} + f'(2)t_1 \equiv 0(mod7)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda $f(2) = 0$ va $f'(12) = 164$ bo'lgani uchun$164t_1 \equiv 0(mod7) \to t_1 \equiv 0(mod7) \to t_1 \equiv 7t_2 \to x = 2 + 49t_2, t_2 \in Z.$

$b_2)\ x \equiv -2(mod\ 7) \to x = -2 + 7t_1$ yechimni qaraymiz. 290-misoldagi (7) –formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(-2)}{3} + f'(-2)t_1 \equiv 0(mod7)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda $f(-1) = 0$ va $f'(-1) = -164$ bo'lgani uchun$-164t_1 \equiv 0(mod7) \to t_1 \equiv 0(mod7) \to t_1 \equiv 7t_2 \to x = -2 + 49t_2, t_2 \in Z.$

Shunday qilib, quyidagi chiziqli taqqoslamalar sistemasini yechishga keldik:

$$c_1)\begin{cases} x \equiv -2\ (mod\ 9) \\ x \equiv 2\ (mod\ 49) \end{cases} c_2)\begin{cases} x \equiv -2\ (mod\ 9) \\ x \equiv -2\ (mod\ 49) \end{cases}$$

$$c_3)\begin{cases} x \equiv 2\ (mod\ 9) \\ x \equiv 2\ (mod\ 49) \end{cases} c_4)\begin{cases} x \equiv 2\ (mod\ 9) \\ x \equiv -2\ (mod\ 49) \end{cases}$$

$c_1)$ dan

$$\begin{cases} x = -2 + 9t_1 \\ -2 + 9t_1 \equiv 2\ (mod\ 49) \end{cases} \to \begin{cases} 9t_1 \equiv 4\ (mod\ 49) \\ x = -2 + 9t_1 \end{cases} \to$$

$$\begin{cases} 9t_1 \equiv -45\ (mod\ 49) \\ x = -2 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} t_1 \equiv -5\ (mod\ 49) \\ x = -2 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} t_1 \equiv -5 + 49t_2 \\ x = -47 + 441t_2 \end{cases} \to x = -47 + 441t_2, t_2 \in Z.$$

$c_2)$ dan

$$\begin{cases} x = -2 + 9t_1 \\ -2 + 9t_1 \equiv -2\ (mod\ 49) \end{cases} \to \begin{cases} 9t_1 \equiv 0\ (mod\ 49) \\ t_1 \equiv 0\ (mod\ 49) \end{cases} \to \begin{cases} t_1 \equiv 49t_2 \\ x = -2 + 441t_2 \end{cases} \to$$

$$x = -2 + 441t_2, t_2 \in Z.$$

$c_3)$ dan

$$\begin{cases} x = 2 + 9t_1 \\ 2 + 9t_1 \equiv 2\ (mod\ 49) \end{cases} \to \begin{cases} 9t_1 \equiv 0\ (mod\ 49) \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases} \to \begin{cases} t_1 \equiv 0\ (mod\ 49) \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases}$$

$$\to \begin{cases} t_1 = 49t_2 \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases} x = 2 + 441t_2, t_2 \in Z.$$

c_4) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 9t_1 \\ 2 + 9t_1 \equiv -2\ (mod\ 49) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 9t_1 \equiv -4\ (mod\ 49) \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases} \rightarrow$$

$$\begin{cases} 9t_1 \equiv 45\ (mod\ 49) \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 5\ (mod\ 49) \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 5 + 49t_2 \\ x = 2 + 9t_1 \end{cases} \rightarrow x = 47 +$$

$441t_2, t_2 \in Z$. **Javob:** $x \equiv -47,\ -2,\ 2,\ 47\ (mod\ 441)$.

9*).*$2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0\ (mod\ 1225)$taqqoslamani qaraymiz. Bu yerda $1225 = 5^2 \cdot 7^2$ bo'lgani uchun bu taqqoslama

$$\begin{cases} f(x) \equiv 0(mod\ 25) \\ f(x) \equiv 0(mod\ 49) \end{cases} \qquad (1)$$

ga teng kuchli. (1) dagi 2-taqqoslamani 291.8) misolda yechgan edik.Uning yechimlari $x \equiv -2\ (mod\ 49)$va $x \equiv 2\ (mod\ 49)$ iborat edi. Shuning uchun ham (1) dagi 1-taqqoslama $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod\ 5^2)$ ni yechamiz. Buning uchun $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod\ 5) \rightarrow 2x^6 - x^4 - 2x^2 + 1 \equiv 0(mod\ 5) \rightarrow 2x^2 - 1 - 2x^2 + 1 \equiv 0(mod\ 5)$ni qaraymiz. Bu taqqoslama $2x^6 - x^4 - 2x^2 + 1 \equiv 0(mod\ 5) \rightarrow 2x^2 - 1 - 2x^2 + 1 \equiv 0(mod\ 5)$ ayniy taqqoslamaga teng kuchli bo'lgani uchun uning yechimlari $x \equiv -1, 1, 2, -2\ (mod\ 5)$ dan iborat. Endi bu yechimlardan foydalanib $2x^6 - 6x^4 - 7x^2 - 4 \equiv 0(mod\ 5^2)$ ning yechimini topishga harakat qilamiz.

a_1) $x \equiv -1\ (mod\ 5\ )$, $x = -1 + 5t_1$ni qaraymiz. 290-misoldagi (7) – formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(-1)}{5} + f'(-1)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda$f(-1) = -15$ va $f'(x) = 12x^5 - 24x^3 - 14x,\ f'(-1) = 26$ bo'lgani uchun $-3 + 26t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow t_1 \equiv 3(mod5) \rightarrow t_1 \equiv 3 + 5t_2 \rightarrow x = 14 + 25t_2, t_2 \in Z$.

a_2) $x \equiv 1(mod\ 5) \rightarrow x = 1 + 5t_1$ yechimni qaraymiz. 290-misoldagi (7) – formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(1)}{5} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda$f(1) = -15$ va $f'(-1) = -26$ bo'lgani uchun$-3 - 26t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow t_1 \equiv -3(mod5) \rightarrow t_1 \equiv -3 + 5t_2 \rightarrow x = -14 + 25t_2, t_2 \in Z$.

$a_3)$ $x \equiv 2(mod\ 5) \to x = 2 + 5t_1$ yechimni qaraymiz. 290-misoldagi (7) – formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(2)}{5} + f'(2)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda $f(2) = 0$ va $f'(2) = 164$ bo'lgani uchun $164t_1 \equiv 0(mod5) \to t_1 \equiv 0(mod5) \to t_1 \equiv 5t_2 \to x = 2 + 25t_2, t_2 \in Z$.

$a_4)$ $x \equiv -2(mod\ 5) \to x = -2 + 5t_1$ yechimni qaraymiz. 290-misoldagi (7) –formulaga asosan t_1 ga nisbatan $\frac{f(-2)}{5} + f'(-2)t_1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamaga ega bo'lamiz. Bunda$f(-2) = 0$ va $f'(-2) = -164$ bo'lgani uchun$164t_1 \equiv 0(mod5) \to t_1 \equiv 0(mod5) \to t_1 \equiv 5t_2 \to x = -2 + 25t_2, t_2 \in Z$.Shunday qilib, quyidagi chiziqli taqqoslamalar sistemasini yechishga keldik:

$$c_1)\begin{cases} x \equiv -2(mod\ 49) \\ x \equiv 14\ (mod\ 25) \end{cases}; c_2)\begin{cases} x \equiv -2(mod\ 49) \\ x \equiv -14\ (mod\ 25) \end{cases};$$

$$c_3)\begin{cases} x \equiv -2(mod\ 49) \\ x \equiv 2\ (mod\ 25) \end{cases}; \qquad c_4)\begin{cases} x \equiv -2(mod\ 49) \\ x \equiv -2\ (mod\ 25) \end{cases};$$

$$c_5)\begin{cases} x \equiv 2(mod\ 49) \\ x \equiv 14\ (mod\ 25) \end{cases}; \qquad c_6)\begin{cases} x \equiv 2(mod\ 49) \\ x \equiv -14\ (mod\ 25) \end{cases};$$

$$c_7)\begin{cases} x \equiv 2(mod\ 49) \\ x \equiv 2\ (mod\ 25) \end{cases}; c_8)\begin{cases} x \equiv 2(mod\ 49) \\ x \equiv -2\ (mod\ 25) \end{cases}.$$

$c_1)$ dan

$$\begin{cases} x = -2 + 49t_1 \\ -2 + 49t_1 \equiv 14\ (mod\ 25) \end{cases} \to \begin{cases} 49t_1 \equiv 16\ (mod\ 25) \\ x = -2 + 49t_1 \end{cases} \to$$

$$\to \begin{cases} t_1 \equiv 9\ (mod\ 25) \\ x = -2 + 49t_1 \end{cases} \to x = -2 + 49(9 + 25t_2) = 439 + 1225t_2, t_2 \in Z.$$

$c_2)$ dan

$$\begin{cases} x = -2 + 49t_1 \\ -2 + 49t_1 \equiv -14\ (mod\ 25) \end{cases} \to \begin{cases} x = -2 + 49t_1 \\ 49t_1 \equiv -12\ (mod\ 25) \end{cases} \to$$

$$\to \begin{cases} t_1 \equiv 12\ (mod\ 25) \\ x = -2 + 49t_1 \end{cases} \to x = -2 + 49 \cdot (12 + 25t_2) = 586 + 1225t_2, t_2 \in Z.$$

$c_3)$ dan

$$\begin{cases} x = -2 + 49t_1 \\ -2 + 49t_1 \equiv 2\ (mod\ 25) \end{cases} \to \begin{cases} t_1 \equiv -4\ (mod\ 25) \\ x = -2 + 49t_1 \end{cases} \to x = -2 + 49(-4 + 25\ t_2) =$$

$-198 + 1225\ t_2,\ t_2 \in Z.$

$c_4)$ dan

$$\begin{cases} x = -2 + 49t_1 \\ -2 + 49t_1 \equiv -2\ (mod\ 25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 0\ (mod\ 25) \\ t_1 = 25t_2 \end{cases} \rightarrow$$

$$x = -2 + 1225t_2\ , t_2 \in Z.$$

c_5) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 49t_1 \\ 2 + 49t_1 \equiv 14\ (mod\ 25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv -12\ (mod\ 25) \\ x = 2 + 49t_1 \end{cases} \rightarrow$$

$$x = -586 + 1225t_2\ , t_2 \in Z.$$

c_6) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 49t_1 \\ 2 + 49t_1 \equiv -14\ (mod\ 25) \end{cases} \rightarrow \qquad \begin{cases} t_1 \equiv 16\ (mod\ 25) \\ x = 2 + 49t_1 \end{cases} \rightarrow$$

$$x = 786 + 1225t_2\ , t_2 \in Z.$$

c_7) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 49t_1 \\ 2 + 49t_1 \equiv 2\ (mod\ 25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 0\ (mod\ 25) \\ x = 2 + 49t_1 \end{cases} \rightarrow t_1 = 25t_2 \rightarrow$$

$$x = 2 + 1225t_2\ , t_2 \in Z.$$

c_8) dan

$$\begin{cases} x = 2 + 49t_1 \\ 2 + 49t_1 \equiv -2\ (mod\ 25) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 4\ (mod\ 25) \\ x = 2 + 49t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 4 + 25t_2 \\ x = 2 + 49t_1 \end{cases} \rightarrow$$

$$x = 198 + 1225t_2, t_2 \in Z.$$

Shunday qilib, berilgan taqqoslamaning yechimlari:$x \equiv -586,\ -198,\ -2,\ 2,\ 198,\ 439,\ 586,\ 786(mod\ 1225)$.

IV.6-§.

292.1). Avvalo, berilgan $2x^2 + 4x - 1 \equiv 0(mod5)$ taqqoslamani bosh hadining koeffisienti 1 ga teng bo'lgan holga keltiramiz. $2a \equiv 1(mod5) \rightarrow a \equiv 3(mod5)$ bo`lgani uchun berilgan taqqoslamaning ikkala tomonini 3 ga ko`paytiramiz. U holda $6x^2 + 12x - 3 \equiv 0(mod5)$ tenglama hosil bo`ladi. Bundan $x^2 + 2x + 2 \equiv 0(mod5) \rightarrow (x+1)^2 + 1 \equiv 0(mod5) \rightarrow (x+1)^2 \equiv -1(mod5) \rightarrow (x+1)^2 \equiv 4(mod5) \rightarrow x + 1 \equiv 2(mod5)vax + 1 \equiv -2(mod5) \rightarrow x \equiv 1(mod5)vax \equiv -3(mod5)$ hosil bo'ladi.

Javob: $x \equiv -3, 1\ (mod5)$.

2). Avvalo, berilgan $3x^2+2x\equiv 1(mod7)$ taqqoslamani bosh hadining koeffisenti 1 ga teng bo'lgan holga keltiramiz. $3a\equiv 1(mod7)\rightarrow a\equiv 5(mod7)$ bo`lgani uchun $3x^2+2x\equiv 1(mod7)$ taqqoslamaning ikkala tomonini 5 ga ko`paytiramiz. U holda $15x^2+10x-5\equiv 0(mod7)\rightarrow x^2+10x+9\equiv 0(mod7)\rightarrow (x+5)^2-16\equiv 0(mod7)\rightarrow (x+5)^2\equiv 16(mod7)\rightarrow x+5\equiv 4(mod7)$ va $x+5\equiv -4(mod7)\rightarrow x\equiv -1(mod7)$va $x\equiv -2(mod7)$ hosil bo'ladi. **Javob:** $x\equiv -1,-2(mod7)$.

3).Avvalo, berilgan $2x^2-2x-1\equiv 0(mod7)$ taqqoslamani bosh hadining koeffisenti 1 ga teng bo'lgan holga keltiramiz. $2a\equiv 1(mod7)\rightarrow a\equiv 4(mod7)$ bo`lgani uchun $2x^2-2x-1\equiv 0(mod7)$ taqqoslamaning ikkala tomonini 4 ga ko`paytiramiz. U holda $8x^2-8x-4\equiv 0(mod7)$, $x^2-x+3\equiv 0(mod7)\rightarrow x^2+6x+10\equiv 0(mod7)\rightarrow (x+3)^2+1\equiv 0(mod7)\rightarrow (x+3)^2\equiv -1(mod7)\rightarrow (x+3)^2\equiv 6(mod7)$. Bu taqqoslamaga 7 moduli bo`yicha chegirmalarning to'la sistemasidagi chegirmalarning to'la sistemasi $0,\pm 1,\pm 2,\pm 3$ qo'yib tekshirsak taqqoslama yechimga ega emas.

Javob: taqqoslama yechimga ega emas.

4). Berilgan $3x^2-x\equiv 0(mod5)$ taqqoslamani bosh hadining koeffisenti 1 ga teng bo'lgan holga keltiramiz. $3a\equiv 1(mod5)\rightarrow a\equiv 2(mod5)$ bo`lgani uchun $3x^2-x\equiv 0(mod5)$ taqqoslamaning ikkala tomonini 2 ga ko`paytiramiz. U holda $6x^2-2x\equiv 0(mod5)\rightarrow x^2-2x\equiv 0(mod5)\rightarrow (x-1)^2-1\equiv 0(mod5)\rightarrow (x-1)^2\equiv 1(mod5)\rightarrow x-1\equiv 1(mod5)$ va $x-1\equiv -1(mod5)\rightarrow x\equiv 2(mod5)$va $x\equiv 0(mod5)$ hosil bo'ladi. **Javob:** $x\equiv 0,2(mod5)$.

5).Berilgan $3x^2+7x+8\equiv 0(mod17)$ taqqoslamani bosh hadining koeffisenti 1 ga teng bo'lgan holga keltiramiz. $3a\equiv 1(mod17)\rightarrow a\equiv 6(mod17)$ bo`lgani uchun $3x^2+7x+8\equiv 0(mod17)$ taqqoslamaning ikkala tomonini 6 ga ko`paytiramiz. U holda $18x^2+42x+48\equiv 0(mod17)\rightarrow x^2+8x+48\equiv 0(mod17)\rightarrow (x+4)^2+32\equiv 0(mod17)\rightarrow (x+4)^2\equiv 2(mod17)\rightarrow (x+4)^2\equiv 36(mod17)\rightarrow x+4\equiv 6(mod17)$va $x+4\equiv -6(mod17)\rightarrow x\equiv 2(mod17)$va $x\equiv 7(mod17)$ hosil bo'ladi. **Javob**: $x\equiv 2,7(mod17)$.

6). Berilgan $3x^2+4x+7\equiv 0(mod31)$ taqqoslamani $9x^2+12x+21\equiv 0(mod31)\to(3x+2)^2+17\equiv 0(mod31)\to(3x+2)^2\equiv 14+31\cdot 5(mod31)\to(3x+2)^2\equiv 169(mod31)\to 3x+2\equiv 113(mod31)$va $3x+2\equiv -13(mod31)\to 3x\equiv 11(mod31)$va $3x\equiv -15(mod31)\to x\equiv 14(mod31)$ va $x\equiv -5(mod31)$.

Javob: $x-5,14(mod31)$.

7). $4x^2-11x-3\equiv 0(\text{mod}13)$ taqqoslamani ikkihadli taqqoslama ko'rinishiga keltirib, keyin yeching.

$4x^2-24x-16\equiv 0(\text{mod}13)\to x^2-6x-4\equiv 0(\text{mod}13)\to(x-3)^2\equiv 0(\text{mod}13)\to x\equiv 3(\text{mod}\,13).$

8). $3x^2+7x+8\equiv 0(\text{mod}17)$ taqqoslamani ikkihadli taqqoslama ko'rinishiga keltirib, keyin yeching.

$3x^2+24x-9\equiv 0(\text{mod}17)\to x^2+8x-3\equiv 0(\text{mod}17)\to(x+4)^2\equiv 19(\text{mod}17)\to$

$(x+4)^2\equiv 36(\text{mod}17)\to x+4\equiv 6(\text{mod}17)$ *va* $x+4\equiv -6(\text{mod}17)\to x\equiv 6-4(\text{mod}17)$

va $x\equiv -10(\text{mod}17)\to x\equiv 2(\text{mod}17)$ *va* $x\equiv 7(\text{mod}17)$.

293.1).Berilgan kasr butun qiymat qabul qilishi uchun uning surati maxrajiga bo`limishi kerak, yani$x^2+2x+7\equiv 0(mod55)$ bajarilishi kerak. Bundan $(x+1)^2\equiv -6(mod55)\to\begin{cases}(x+1)^2\equiv -6(mod5)\\(x+1)^2\equiv -6(mod11)\end{cases}\to$

$\begin{cases}(x+1)^2\equiv 4(mod5)\\(x+1)^2\equiv 16(mod11)\end{cases}\to\begin{cases}x+1\equiv\pm 2(mod5)\\x+1\equiv\pm 4(mod11)\end{cases}$ larga ega bo'lamiz. Keyingi sistemadagi birinchi taqqoslamaning yechimlari $x\equiv 1,2(mod5)$, ikkinchi taqqoslamaning yechimlari $x\equiv -5,3(mod11)$ dan iborat ekanligi kelib chiqadi. Bulardan quyidagi taqqoslamalar sistemalarini hosil qilamiz:

$a_1)\begin{cases}x\equiv 1(mod5)\\x\equiv 6(mod11)\end{cases}$; $a_2)\begin{cases}x\equiv 1(mod5)\\x\equiv 3(mod11)\end{cases}$; $a_3)\begin{cases}x\equiv 2(mod5)\\x\equiv 6(mod11)\end{cases}$;

$a_4)\begin{cases}x\equiv 2(mod5)\\x\equiv 3(mod11)\end{cases}$.

Bu sistemalarni yechmiz. U holda

$a_1)$ dan$\begin{cases}x\equiv 1+5t_1\\1+5t_1\equiv 6(mod11)\end{cases}\to\begin{cases}5t_1\equiv 5(mod11)\\x\equiv 1+5t_1\end{cases}\to\begin{cases}t_1\equiv 1(mod11)\\x\equiv 1+5t_1\end{cases}\to$

$$x\equiv 6+5t_2,\qquad t_2\in Z.$$

a_2) dan $\begin{cases} x \equiv 1 + 5t_1 \\ 1 + 5t_1 \equiv 3(mod11) \end{cases} \begin{cases} 5t_1 \equiv 2(mod11) \\ x \equiv 1 + 5t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 7(mod11) \\ x \equiv 1 + 5t_1 \end{cases} \rightarrow$

$x = 36 + 55t_2,\ t_2 \in Z.$

a_3) dan $\begin{cases} x \equiv 2 + 5t_1 \\ 2 + 5t_1 \equiv 6(mod11) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 5t_1 \equiv 4(mod11) \\ x \equiv 2 + 5t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv 3(mod11) \\ x \equiv 2 + 5t_1 \end{cases} \rightarrow$

$x = 17 + 55t_2,\ t_2 \in Z.$

a_4) dan $\begin{cases} x \equiv 2 + 5t_1 \\ 2 + 5t_1 \equiv 3(mod11) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 5t_1 \equiv 1(mod11) \\ x \equiv 2 + 5t_1 \end{cases} \rightarrow \begin{cases} t_1 \equiv -2(mod11) \\ x \equiv 2 + 5t_1 \end{cases} \rightarrow$

$x = -8 + 55t_2,\ t_3 \in Z.$

Javob: $x = 6 + 55t,\ x = 17 + 55t,\ x = 36 + 55t,\ x = 47 + 55t, t \in Z.$

2).Berilgan kasr butun qiymat qabul qilishi uchun uning surati maxrajiga bo`limishi kerak, yani$x^2 + 3x + 1 \equiv 0(mod25)$ bajarilishi kerak. $x^2 + 3x + 1 \equiv 0(mod5)$ ni qaraymiz. Bu taqqoslamani 5 moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm1, \pm2$ dagi sonlarni sinab ko'rish usuli bilan yechsak, $x \equiv 1(mod5)$ uning yechimi ekanligini topamiz. Endi 5 moduldan 25 modulga o'tamiz. Buning uchun 290-misoldagi singari ish tutamiz. U holda (7)-formulaga asosan $\frac{f(1)}{5} + f'(1)t_1 \equiv 0(mod25)$ ga ega bo'lamiz. Bu yerda

$f(1) = 5, f'(1) = 2x + 3$ va $f'(1) = 5$ bo'lgani uchun $1 + 5t_1 \equiv 0(mod5) \rightarrow 5t_1 \equiv 4(mod5)$ ga ega bo'lamiz. Bunda$(5,25) = 5$, lekin 4 soni 5 ga bo`linmagani uchun bu taqqoslama yechimga ega emas, yani berilgan ifoda butun qiymat qabul qiladigan x ning natural qiymatlari mavjud emas.

Javob: berilgan ifoda butun qiymat qabul qiladigan x ning natural qiymatlari mavjud emas.

3).Berilgan kasr butun qiymat qabul qilishi uchun uning surati maxrajiga bo`limishi kerak, yani $x^2 + 3x + +5 \equiv 0(mod15)$ bajarilishi kerak. Bu taqqoslama ushbu

$$\begin{cases} x^2 + 3x + 5 \equiv 0(mod3) \\ x^2 + 3x + 5 \equiv 0(mod5) \end{cases}$$

taqqoslamalar sistemasiga teng kuchli. Bu sistemaning 1-taqqoslamasini yechamiz. U holda $x^2+3x+5\equiv 0(mod3)\to x^2-1\equiv 0(mod3)\to x\equiv -1$ va$x\equiv 1(mod3)$ larni hosil qilamiz.

Endi 2- taqqoslamasini yechamiz:

$$x^2+3x+5\equiv 0(mod5\to x^2-2x\equiv 0(mod5)\to x\equiv 0{,}2(mod5).$$

Bulargaasoslanibquyidagisistemalarnituzib olamiz:

$a_1)\begin{cases}x\equiv -1(mod3)\\ x\equiv 0(mod5)\end{cases}; a_2)\begin{cases}x\equiv -1(mod3)\\ x\equiv 2(mod5)\end{cases}; a_3)\begin{cases}x\equiv 1(mod3)\\ x\equiv 0(mod5)\end{cases}$

$a_4)\begin{cases}x\equiv 1(mod3)\\ x\equiv 2(mod5)\end{cases}.$

Bu sistemalarni yechib yechimlarini topamiz:

$a_1)$ dan $\begin{cases}x\equiv -1+3t_1\\ -1+3t_1\equiv 0(mod5)\end{cases}\to\begin{cases}3t_1\equiv 1(mod5\\ x=-1+3t\end{cases}\to\begin{cases}t_1\equiv 2(mod5)\\ x=-1+3t_1\end{cases}\to$

$x=5+15t_2, t_2\in Z.$

$a_2)$ dan $\begin{cases}x\equiv -1+3t_1\\ -1+3t_1\equiv 2(mod5)\end{cases}\to\begin{cases}3t_1\equiv 3(mod5\\ x=-1+3t_1\end{cases}\to\begin{cases}t_1\equiv 1(mod5)\\ x=-1+3t_1\end{cases}$

$x=2+15t_2, t_2\in Z.$

$a_3)$ dan $\begin{cases}x\equiv 1+3t_1\\ 1+3t_1\equiv 0(mod5)\end{cases}\begin{cases}3t_1\equiv -1(mod5)\\ x=1+3t_1\end{cases}\to\begin{cases}t_1\equiv -2(mod5)\\ x=1+3t_1\end{cases}$

$x=-5+15t_2, t_2\in Z.$

$a_4)$ dan $\begin{cases}x\equiv 1+3t_1\\ 1+3t_1\equiv 2(mod5)\end{cases}\to\begin{cases}3t_1\equiv 1(mod5)\\ x=1+3t_1\end{cases}\to\begin{cases}t_1\equiv 2(mod5)\\ x=1+3t_1\end{cases}$

$$x=7+15t_2,\qquad t_2\in Z.$$

Javob: $x=2+15t_2,\ x=5+15t_2,\ x=7+15t_2,\ x=10+15t_2, t_2\in Z.$

294. $x^2\equiv a(modp)$ taqqoslama yechimga ega bo`lishi uchun Eyler kiriteryasiga asosan $a^{\frac{p-1}{2}}\equiv 1(modp)$ bajarilishi kerak. Budan $p=7$ da $a^3\equiv 1(mod7)$ ga ega bo`lamiz 7 moduli bo`yicha 1,2,3,4,5,6 dan iborat . Bularni Eyler kriteryasiga qo`yib tekshirib ko`ramiz; $1^3\equiv 1, 2^3\equiv 1, 3^3\equiv -1, 4^3\equiv 1,\quad 5^3\equiv -1, 6^3\equiv -1.$ Demak, 1,2,4 sonlari 7 modul bo`yicha kvadratik chegirma, qolganlari, ya’ni 3,5,6 lar esa kvadratik chegirma emas.

295. 1). $p = 11$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar sinflarini aniqlash uchun Eyler kiriteryasi $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1(modp) \to a^5 \equiv 1(mod11)$ ning bajarilishini chegirmalarning keltirilgan sistemasi $1,2,3,4,5,6,7,8,9,10$ dagi chegirmalar uchun tekshirib ko'ramiz. U holda quyidagilarga ega bo'lamiz:

$1^5 \equiv 1(mod11)$,

$2^5 \equiv -1(mod11), 3^5 \equiv 81 \cdot 3 \equiv 1(mod11), 4^5 \equiv 16 \cdot 16 \cdot 4 \equiv 5 \cdot 5 \cdot 4 \equiv 3 \cdot 4 \equiv 1(mod11), 5^5 \equiv 25 \cdot 25 \cdot 5 \equiv 3 \cdot 3 \cdot 5 \equiv 1(mod11)$,

$6^5 \equiv 36 \cdot 36 \cdot 6 \equiv 3 \cdot 3 \cdot 6 \equiv -1(mod11)$, $7^5 \equiv 49 \cdot 49 \cdot 7 \equiv 5 \cdot 5 \cdot 7 \equiv -1(mod11)$, $8^5 \equiv 64 \cdot 64 \cdot 8 \equiv (-2) \cdot (-2) \cdot 8 \equiv -1(mod11)$, $9^5 \equiv 81 \cdot 81 \cdot 9 \equiv 4 \cdot 4 \cdot (-2) \equiv 1(mod11)$. Bizga ma'lumki, $p > 2$ moduli bo'yichachegirmalarning keltirilgan sistemasidagi chegirmalar yarmi kvadratik chegirma qolganlari esa kvadratik chegirma emas bo'ladi. Biz yuqorida $1,3,4,5,9$larning $p = 11$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar bo'lishini ko'rdik. Demak, $1 + 11k, 3 + 11k, 4 + 11k, 5 + 11k, 9 + 11k$ lar $p = 11$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar sinflari bo'ladi.

Javob: $1 + 11k, 3 + 11k, 4 + 11k, 5 + 11k, 9 + 11k, k \in Z$.

2). $p = 13$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar sinflarini aniqlash uchun Eyler kiriteryasi $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1(modp) \to a^6 \equiv 1(mod13)$ ning bajarilishini chegirmalarning keltirilgan sistemasi $1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12$ dagi chegirmalar uchun tekshirib ko'ramiz. U holda quyidagilarga ega bo'lamiz:

$1^6 \equiv 1(mod13)$,

$2^6 \equiv -1(mod13), 3^6 \equiv 27 \cdot 27 \equiv 1(mod13), 4^6 \equiv 16 \cdot 16 \cdot 16 \equiv 27 \equiv 1(mod13), 5^6 \equiv 25 \cdot 25 \cdot 25 \equiv -1(mod13)$,

$6^6 \equiv 36 \cdot 36 \cdot 36 \equiv -3 \cdot (-3) \cdot (-3) \equiv -1(mod13)$, $7^6 \equiv 49 \cdot 49 \cdot 49 \equiv -3 \cdot (-3) \cdot (-3) \equiv -1(mod13)$, $8^6 \equiv 64 \cdot 64 \cdot 64 \equiv (-1) \cdot (-1) \cdot (-1) \equiv -1(mod13), 9^6 \equiv 81 \cdot 81 \cdot 81 \equiv 3 \cdot 3 \cdot 3 \equiv 1(mod13)$, $10^6 \equiv 100 \cdot 100 \cdot 100 \equiv -3 \cdot (-3) \cdot (-3) \equiv -1(mod13)$, $11^6 \equiv 121 \cdot 121 \cdot 121 \equiv 4 \cdot 4 \cdot 4 \equiv -1(mod13)$, $12^6 \equiv 144 \cdot 144 \cdot 144 \equiv 1(mod13)$. Bizga ma'lumki, $p > 2$

moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasidagi chegirmalar yarmi kvadratik chegirma qolganlari esa kvadratik chegirma emas bo'ladi. Biz yuqorida 1,3,4,9,10,12 larning $p = 13$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar bo'lishini ko'rdik. Demak, $1 + 13k, 3 + 13k, 4 + 13k, 9 + 13k, 10 + 13k, 12 + 13k$ lar $p = 13$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar sinflari bo'ladi.

Javob: $1 + 13k, 3 + 13k, 4 + 13k, 9 + 13k, 10 + 13k, 12 + 13k, k \in Z.$

3). $p = 17$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar sinflarini aniqlash uchun Eyler kiriteryasi $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1(modp) \rightarrow a^8 \equiv 1(mod17)$ ning bajarilishini chegirmalarning keltirilgan sistemasi $1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16$ dagi chegirmalar uchun tekshirib ko'ramiz. U holda quyidagilarga ega bo'lamiz: $1^8 \equiv 1(mod17),\ 2^8 \equiv 2^4 \cdot 2^4 \equiv 1(mod17), 3^8 \equiv 81 \cdot 81 \equiv -4(-4) \equiv 1(mod17), 4^8 \equiv 16 \cdot 16 \cdot 16 \cdot 16 \equiv 1(mod17), 5^8 \equiv 25 \cdot 25 \cdot 25 \cdot 25 \equiv 8^2 \cdot 8^2 \equiv 1(mod17), 6^8 \equiv 36^4 \equiv 2^4 \equiv -1(mod17),\ 7^8 \equiv 49^4 \equiv (-2)^4 \equiv -1(mod17),\ 8^8 \equiv 64^4 \equiv (-4)^4 \equiv 1(mod17), 9^8 \equiv 81^4 \equiv (-4)^4 \equiv 1(mod17),\ \ 10^8 \equiv 100^4 \equiv (-2)^2 \equiv -1(mod17),\ 11^8 \equiv 121^4 \equiv 2^4 \equiv -1(mod17),\ \ 12^8 \equiv 144^4 \equiv 8^4 \equiv 64 \cdot 64 \equiv -1(mod17),\ \ 13^8 \equiv 169^4 \equiv (-1)^4 \equiv 1(mod17),\ \ 14^8 \equiv (-3)^8 \equiv 81^2 \equiv (-4)^2 \equiv -1(mod17),\ \ 15^8 \equiv (-2)^8 \equiv 2^4 \cdot 2^4 \equiv 1(mod17),\ \ 16^8 \equiv (-1)^8 \equiv 1(mod17)$. Bizga ma'lumki, $p > 2$ moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasidagi chegirmalar yarmi kvadratik chegirma qolganlari esa kvadratik chegirma emas bo'ladi. Biz yuqorida 1,2,4,8,9,13,15,16 larning $p = 17$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar bo'lishini ko'rdik. Demak, $1 + 17k, 2 + 17k, 4 + 17k, 9 + 17k, 9 + 17k, 13 + 17k, 15 + 17k, 16 + 17k$ lar $p = 17$ moduli bo'yicha kvadratik chegirmalar sinflari bo'ladi. **Javob:** $1 + 17k, 2 + 17k, 4 + 17k, 9 + 17k, 9 + 17k, 13 + 17k, 15 + 17k,\ 16 + 17k\ k \in Z.$

296.1).7 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini absolyut qiymati jihatidan eng kichik qilib olsak,$\pm 1, \pm 2, \pm 3$ lardan iborat. Bularni berilgan taqqoslama $x^2 \equiv 2(mod7)$ ga qo'yib tekshirsak, $x \equiv \pm 3(mod7)$ ning uni qanoatlantirishini ko'ramiz. **Javob:** $x \equiv \pm 3(mod7)$.

2).7 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini absolyut qiymati jihatidan eng kichik qilib olsak,$\pm1, \pm2, \pm3$ lardan iborat. Bularni berilgan taqqoslama $x^2 \equiv 4(mod7)$ga qo'yib tekshirsak, $x \equiv \pm2(mod7)$ ning uni qanoatlantirishini ko'ramiz. **Javob:** $x \equiv \pm2(mod7)$.

3).7 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini absolyut qiymati jihatidan eng kichik qilib olsak,$\pm1, \pm2, \pm3$ lardan iborat. Bularni berilgan taqqoslama $x^2 \equiv 3(mod7)$ga qo'yib tekshirsak, ularning birortasi ham uni qanoatlantirmasligini ko'ramiz. **Javob:** taqqoslama yechimga ega emas.

4).13 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini absolyut qiymati jihatidan eng kichik qilib olsak,$\pm1, \pm2, \pm3, \pm4, \pm5, \pm6$ lardan iborat. Bularni berilgan taqqoslama $x^2 \equiv 3(mod13)$ga qo'yib tekshirsak, $x \equiv \pm4(mod7)$ ning uni qanoatlantirishini ko'ramiz. **Javob:** $x \equiv \pm4(mod13)$.

5).11 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasini absolyut qiymati jihatidan eng kichik qilib olsak,$\pm1, \pm2, \pm3, \pm4, \pm5$ lardan iborat. Bularni berilgan taqqoslama $x^2 \equiv 4(mod11)$ga qo'yib tekshirsak, $x \equiv \pm2(mod11)$ ning uni qanoatlantirishini ko'ramiz. **Javob:** $x \equiv \pm2(mod11)$.

297. Lejandr simvolining qiymatini hisoblash uchun uning xossalaridan foydalanamiz.

1).$\left(\frac{63}{131}\right) = \left(\frac{3^2 \cdot 7}{131}\right)$ dan 4^0 –xossaga asosan $\left(\frac{3^2 \cdot 7}{131}\right) = \left(\frac{3^2}{131}\right) \cdot \left(\frac{7}{131}\right)$ ni hosil qilamiz. Ta'rifga ko'ra $\left(\frac{3^2}{131}\right) = \left(\frac{3}{131}\right)^2 = 1$, shuning uchun ham $\left(\frac{3^2 \cdot 7}{131}\right) = \left(\frac{7}{131}\right)$. Oxirgi tenglikning o'ng tomoniga kvadratik chegirmalarning o'zgalik qonuni 6^0 –xossani qo'llaymiz. U holda $\left(\frac{7}{131}\right) = (-1)^{\frac{131-1}{2}\cdot\frac{7-1}{2}}\left(\frac{131}{7}\right) = -\left(\frac{18 \cdot 7+5}{7}\right)$ hosil bo'ladi. Bu yerda 1^0 –xossadan foydalansak $\left(\frac{7}{131}\right) = -\left(\frac{5}{7}\right)$ ekanligi kelib chiqadi. Bu tenglikning o'ng tomonida yana bir marta 6^0 –xossadan foydalanamiz: $\left(\frac{7}{131}\right) = -\left(\frac{5}{7}\right) = -(-1)^{\frac{5-1}{2}\cdot\frac{7-1}{2}}\left(\frac{7}{5}\right) = -\left(\frac{5 \cdot 1+2}{5}\right) = -\left(\frac{2}{5}\right)$. Bunga 5^0 – xossani qo'llaymiz. U holda $-\left(\frac{2}{5}\right) = -(-1)^{\frac{5^2-1}{8}}$=1. Demak, $\left(\frac{63}{131}\right) = 1$.

Javob:1.

2).$\left(\frac{35}{97}\right)=\left(\frac{5\cdot7}{97}\right)$ dan 4^0 −xossaga asosan $\left(\frac{5\cdot7}{97}\right)=\left(\frac{5}{97}\right)\cdot\left(\frac{7}{97}\right)$ ni hosil qilamiz. Oxirgi tenglikning o'ng tomonida har bir ko'paytuvchi uchun kvadratik chegirmalarning o'zgalik qonuni 6^0 −xossani qo'llaymiz. U holda $\left(\frac{5}{97}\right)\cdot\left(\frac{7}{97}\right)=(-1)^{\frac{97-1}{2}\cdot\frac{5-1}{2}}\cdot\left(\frac{97}{5}\right)\cdot(-1)^{\frac{97-1}{2}\cdot\frac{7-1}{2}}\cdot\left(\frac{97}{7}\right)=\left(\frac{97}{5}\right)\cdot\left(\frac{97}{7}\right)=\left(\frac{5\cdot19+2}{5}\right)\cdot\left(\frac{7\cdot13+6}{7}\right)$ hosil bo'ladi. Bu yerda 1^0 −xossadan foydalansak $\left(\frac{2}{5}\right)\cdot\left(\frac{6}{7}\right)$ ekanligi kelib chiqadi. Bu tenglikning o'ng tomonidagi birinchi ko'paytuvchiga 5^0- xossani qo'llaymiz, ikkinchisini esa $\left(\frac{6}{7}\right)=\left(\frac{2}{7}\right)\left(\frac{3}{7}\right)$ deb yozish mumkin. Shuning uchun ham $\left(\frac{2}{5}\right)\cdot\left(\frac{6}{7}\right)=(-1)^{\frac{5^2-1}{8}}\cdot(-1)^{\frac{7^2-1}{8}}\cdot\left(\frac{3}{7}\right)=-1\cdot1\cdot\left(\frac{3}{7}\right)=-\left(\frac{3}{7}\right)$ ga ega bo'lamiz. Bu tenglikning o'ng tomonida yana bir marta 6^0 −xossadan foydalanamiz: $-\left(\frac{3}{7}\right)=-(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{7-1}{2}}\left(\frac{7}{3}\right)=\left(\frac{3\cdot2+1}{3}\right)=\left(\frac{1}{5}\right)=1$. Demak, $\left(\frac{35}{97}\right)=1$. **Javob:**1.

3).$\left(\frac{47}{73}\right)$ dan 6^0 −xossaga asosan $(-1)^{\frac{47-1}{2}\cdot\frac{73-1}{2}}\cdot\left(\frac{73}{47}\right)=\left(\frac{47\cdot1+26}{47}\right)$ ni hosil qilamiz. Bu yerda 1^0 −xossadan foydalansak $\left(\frac{47\cdot1+26}{47}\right)=\left(\frac{26}{47}\right)=\left(\frac{2}{47}\right)\left(\frac{13}{47}\right)$ ekanligi kelib chiqadi. Bu tenglikning o'ng tomonidagi birinchi ko'paytuvchiga 5^0- xossani, ikkinchisiga esa 6^0 −xossani qo'llaymiz.$\left(\frac{2}{47}\right)\left(\frac{13}{47}\right)=(-1)^{\frac{47^2-1}{8}}\cdot(-1)^{\frac{13-1}{2}\cdot\frac{47-1}{2}}\left(\frac{47}{13}\right)=\left(\frac{47}{13}\right)=\left(\frac{13\cdot3+8}{13}\right)$ deb yozish mumkin. Bu yerda 1^0 −xossadan foydalansak $\left(\frac{8}{13}\right)=\left(\frac{2^2\cdot2}{13}\right)=\left(\frac{2^2}{13}\right)\cdot\left(\frac{2}{13}\right)=\left(\frac{2}{13}\right)$. Shuning uchun ham $\left(\frac{2}{13}\right)=(-1)^{\frac{13^2-1}{8}}=-1$ ga ega bo'lamiz. Demak, $\left(\frac{47}{73}\right)=-1$. **Javob:** -1.

4).$\left(\frac{29}{383}\right)$ dan 6^0 −xossaga asosan $(-1)^{\frac{383-1}{2}\cdot\frac{29-1}{2}}\cdot\left(\frac{383}{29}\right)=\left(\frac{13\cdot29+6}{29}\right)$ ni hosil qilamiz. bo'ladi. Bu yerda 1^0 −xossadan foydalansak $\left(\frac{13\cdot29+6}{29}\right)=\left(\frac{6}{29}\right)=\left(\frac{2}{29}\right)\cdot\left(\frac{3}{29}\right)$ ekanligi kelib chiqadi. Bu tenglikning o'ng tomonidagi birinchi ko'paytuvchiga 5^0- xossani, ikkinchisiga esa 6^0 −xossani qo'llaymiz.$\left(\frac{2}{29}\right)\cdot\left(\frac{3}{29}\right)=(-1)^{\frac{29^2-1}{8}}\cdot(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{29-1}{2}}\left(\frac{29}{3}\right)=\left(\frac{29}{3}\right)=\left(\frac{9\cdot3+2}{3}\right)$ deb yozish mumkin. Bu

yerda 1^0 −xossadan foydalansak $\left(\frac{9\cdot3+2}{3}\right)=\left(\frac{2}{3}\right)=(-1)^{\frac{3^2-1}{8}}=-1$. Demak, $\left(\frac{29}{383}\right)=-1$. **Javob:** -1.

5).$\left(\frac{241}{593}\right)$ dan 6^0 −xossaga asosan $(-1)^{\frac{593-1}{2}\cdot\frac{241-1}{2}}\cdot\left(\frac{593}{241}\right)=\left(\frac{593}{241}\right)=\left(\frac{241\cdot2+111}{241}\right)=\left(\frac{111}{241}\right)=\left(\frac{37\cdot3}{241}\right)=\left(\frac{37}{241}\right)\cdot\left(\frac{3}{241}\right)$ ni hosil qilamiz. bo'ladi. Bu tenglikning o'ng tomonidagi ikkala ko'paytuvchiga ham 6^0 −xossani qo'llaymiz. U holda $\left(\frac{37}{241}\right)\cdot\left(\frac{3}{241}\right)=(-1)^{\frac{37-1}{2}\cdot\frac{241-1}{2}}\cdot\left(\frac{241}{37}\right)\cdot(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{241-1}{2}}\cdot\left(\frac{241}{3}\right)=\left(\frac{241}{37}\right)\cdot\left(\frac{241}{3}\right)=\left(\frac{37\cdot6+19}{37}\right)\cdot\left(\frac{3\cdot80+1}{3}\right)$. Bu yerda 1^0 −xossadan foydalansak $\left(\frac{37\cdot6+19}{37}\right)\cdot\left(\frac{3\cdot80+1}{3}\right)=\left(\frac{19}{37}\right)\cdot\left(\frac{1}{3}\right)=\left(\frac{19}{37}\right)$. Endi bunga yana 6^0 −xossani qo'llaymiz. U holda $\left(\frac{19}{37}\right)=(-1)^{\frac{37-1}{2}\cdot\frac{19-1}{2}}\cdot\left(\frac{37}{19}\right)=\left(\frac{37}{19}\right)=\left(\frac{19\cdot1+18}{19}\right)$. Bunga 1^0 −xossani tadbiq etsak $\left(\frac{19\cdot1+18}{19}\right)=\left(\frac{18}{19}\right)=\left(\frac{2\cdot3^2}{19}\right)=\left(\frac{2}{19}\right)\cdot\left(\frac{3^2}{19}\right)=\left(\frac{2}{19}\right)$. Endi oxirgi tenglikning o'ng tomoniga 5^0- xossani qo'llab $\left(\frac{2}{19}\right)=(-1)^{\frac{19^2-1}{8}}=-1$. Demak, $\left(\frac{241}{593}\right)=-1$. **Javob:** -1.

6). Lejandr simvolining qiymatini hisoblash uchun uning xossalaridan foydalanamiz. Yuqoridagi misollarning ishlanishiga qarang.

$\left(\frac{257}{571}\right)\overset{6^0}{=}(-1)^{\frac{571-1}{2}\cdot\frac{257-1}{2}}\cdot\left(\frac{571}{257}\right)=\left(\frac{571}{257}\right)=\left(\frac{257\cdot2+57}{257}\right)\overset{1^0}{=}\left(\frac{57}{257}\right)=\left(\frac{3\cdot19}{257}\right)\overset{4^0}{=}\left(\frac{3}{257}\right)\cdot\left(\frac{19}{257}\right)\overset{6^0}{=}(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{257-1}{2}}\cdot\left(\frac{257}{3}\right)\cdot(-1)^{\frac{19-1}{2}\cdot\frac{257-1}{2}}\cdot\left(\frac{257}{19}\right)=\left(\frac{257}{3}\right)\cdot\left(\frac{257}{19}\right)=\left(\frac{3\cdot85+2}{3}\right)\cdot\left(\frac{19\cdot13+10}{19}\right)\overset{1^0}{=}\left(\frac{2}{3}\right)\cdot\left(\frac{10}{19}\right)\overset{5^0}{=}(-1)^{\frac{3^2-1}{8}}\cdot\left(\frac{2\cdot5}{19}\right)=-\left(\frac{2}{19}\right)\cdot\left(\frac{5}{19}\right)\overset{5^0,6^0}{=}-(-1)^{\frac{19^2-1}{8}}\cdot(-1)^{\frac{19-1}{2}\cdot\frac{5-1}{2}}\left(\frac{19}{5}\right)=\left(\frac{19}{5}\right)=\left(\frac{5\cdot3+4}{5}\right)\overset{1^0}{=}\left(\frac{4}{5}\right)=\left(\frac{2^2}{5}\right)=1$.**Javob:**1.

7). Lejandr simvolining qiymatini hisoblash uchun uning xossalaridan foydalanamiz. Yuqoridagi misollarning ishlanishiga qarang.

$\left(\frac{251}{577}\right)\overset{6^0}{=}(-1)^{\frac{577-1}{2}\cdot\frac{251-1}{2}}\cdot\left(\frac{577}{251}\right)=\left(\frac{577}{251}\right)=\left(\frac{251\cdot2+75}{251}\right)\overset{1^0}{=}\left(\frac{75}{251}\right)=\left(\frac{5^2\cdot3}{251}\right)$

$$\overset{4^0}{=}\left(\frac{5^2}{251}\right)\cdot\left(\frac{3}{251}\right)\overset{6^0}{=}(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{251-1}{2}}\cdot\left(\frac{251}{3}\right)=-\left(\frac{251}{3}\right)=$$

$$-\left(\frac{3\cdot 83+2}{3}\right)\overset{1^0}{=}-\left(\frac{2}{3}\right)\overset{5^0}{=}-(-1)^{\frac{3^2-1}{8}}=1.$$ **Javob:**1.

8).Lejandr simvolining qiymatini hisoblash uchun uning xossalaridan foydalanamiz. Yuqoridagi misollarning ishlanishiga qarang.

$$\left(\frac{342}{677}\right)=\left(\frac{2\cdot 3^2\cdot 19}{677}\right)\overset{4^0}{=}\left(\frac{2}{677}\right)\cdot\left(\frac{3^2}{677}\right)\cdot\left(\frac{19}{677}\right)=\left(\frac{2}{677}\right)\cdot\left(\frac{19}{677}\right)\overset{5^0,6^0}{=}(-1)^{\frac{677^2-1}{8}}\cdot$$

$$(-1)^{\frac{677-1}{2}\cdot\frac{19-1}{2}}\cdot\left(\frac{677}{19}\right)=-\left(\frac{677}{19}\right)=-\left(\frac{19\cdot 35+12}{19}\right)\overset{1^0}{=}-\left(\frac{12}{19}\right)=-\left(\frac{2^2\cdot 3}{19}\right)\overset{4^0}{=}-\left(\frac{2^2}{19}\right)\cdot$$

$$\left(\frac{3}{19}\right)=-\left(\frac{3}{19}\right)\overset{6^0}{=}-(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{19-1}{2}}\cdot\left(\frac{19}{3}\right)=\left(\frac{19}{3}\right)=\left(\frac{3\cdot 6+1}{3}\right)\overset{1^0}{=}\left(\frac{1}{3}\right)=1.$$ **Javob:**1.

298. 1).Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2\equiv 6(mod7)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2\equiv 6(mod7)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{6}{7}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz.

$$\left(\frac{6}{7}\right)=\left(\frac{2}{7}\right)\cdot\left(\frac{3}{7}\right)=(-1)^{\frac{7^2-1}{8}}\cdot\left(\frac{3}{7}\right)=\left(\frac{3}{7}\right)=(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{7-1}{2}}\cdot\left(\frac{7}{3}\right)=-\left(\frac{3\cdot 2+1}{3}\right)=$$

$-\left(\frac{1}{3}\right)=-1$. Demak, berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

Javob: berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

2). Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2\equiv 3(mod11)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2\equiv 3(mod11)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{6}{7}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz.

$$\left(\frac{3}{11}\right)=(-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{11-1}{2}}\cdot\left(\frac{11}{3}\right)=-\left(\frac{3\cdot 3+2}{3}\right)=-\left(\frac{2}{3}\right)=-(-1)^{\frac{3^2-1}{8}}=1.$$

Demak, berilgan taqqoslama 2 ta yechimga ega.

Berilgan taqqoslamaning yechimlarini topish uchun 11 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasidagi chegirmalar $\pm1,\pm2,\pm3,\pm4,\pm5$ larni taqqoslamaga qoyib sinab ko'rishimiz yoki taqqoslamalarning xossalaridan

foydalanishimiz mumkin. Biz bu yerda birinchi yo'ldan boramiz va berilgan taqqoslamaning yechimlari $x \equiv \pm 5(mod 11)$ ekanligini topamiz.

Javob: berilgan taqqoslama yechimga ega va uning yechimlari $x \equiv \pm 5(mod 11)$ dan iborat.

3).Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2 \equiv 12(mod 13)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2 \equiv 12(mod 13)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{12}{13}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz.

$\left(\frac{12}{13}\right) = \left(\frac{2^2 \cdot 3}{13}\right) = \left(\frac{2^2}{13}\right) \cdot \left(\frac{3}{13}\right) = \left(\frac{3}{13}\right) = (-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{13-1}{2}} \cdot \left(\frac{13}{3}\right) = \left(\frac{3 \cdot 4+1}{3}\right) = \left(\frac{1}{3}\right) = 1.$

Demak, berilgan taqqoslama 2 ta yechimga ega.Berilgan taqqoslamaning yechimlarini topish uchun taqqoslamalarning xossalaridan foydalanamiz. U holda $x^2 \equiv 12(mod 13) \rightarrow x^2 \equiv 25(mod 13) \rightarrow x \equiv \pm 5(mod 13)$ ekanligini topamiz.

Javob: berilgan taqqoslama yechimga egava uning yechimlari $x \equiv \pm 5(mod 13)$ dan iborat.

4).Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2 \equiv 3(mod 13)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2 \equiv 3(mod 13)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{12}{13}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz.

$\left(\frac{3}{13}\right) = (-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{13-1}{2}} \cdot \left(\frac{13}{3}\right) = \left(\frac{3 \cdot 4+1}{3}\right) = \left(\frac{1}{3}\right) = 1$. Demak, berilgan taqqoslama 2 ta yechimga ega.Berilgan taqqoslamaning yechimlarini topish uchun taqqoslamalarning xossalaridan foydalanamiz. U holda $x^2 \equiv 3(mod 13) \rightarrow x^2 \equiv 16(mod 13) \rightarrow x \equiv \pm 4(mod 13)$ ekanligini topamiz.

Javob: berilgan taqqoslama yechimga egava uning yechimlari $x \equiv \pm 4(mod 13)$ dan iborat.

5).Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2 \equiv 5(mod 11)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni

topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2 \equiv 5(mod11)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{5}{11}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz. $\left(\frac{5}{11}\right) = (-1)^{\frac{5-1}{2}\cdot\frac{11-1}{2}} \cdot \left(\frac{11}{5}\right) = \left(\frac{5\cdot 2+1}{5}\right) = \left(\frac{1}{5}\right) = 1$. Demak, berilgan taqqoslama 2 ta yechimga ega. Berilgan taqqoslamaning yechimlarini topish uchun taqqoslamalarning xossalaridan foydalanamiz. U holda $x^2 \equiv 5(mod11) \rightarrow x^2 \equiv 16(mod11) \rightarrow x \equiv \pm 4(mod11)$ ekanligini topamiz.

Javob: berilgan taqqoslama yechimga egava uning yechimlari $x \equiv \pm 4(mod11)$ dan iborat.

6). Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2 \equiv 13(mod17)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2 \equiv 13(mod17)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{13}{17}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz. $\left(\frac{13}{17}\right) = (-1)^{\frac{13-1}{2}\cdot\frac{17-1}{2}} \cdot \left(\frac{17}{13}\right) = \left(\frac{13\cdot 1+4}{13}\right) = \left(\frac{4}{13}\right) = \left(\frac{2^2}{13}\right) = 1$. Demak, berilgan taqqoslama 2 ta yechimga ega.Berilgan taqqoslamaning yechimlarini topish uchun taqqoslamalarning xossalaridan foydalanamiz. U holda $x^2 \equiv 13(mod17) \rightarrow x^2 \equiv 13 + 17 \cdot 3(mod17) \rightarrow x^2 \equiv 64(mod17) \rightarrow x \equiv \pm 8(mod17)$ ekanligini topamiz.

Javob: berilgan taqqoslama yechimga egava uning yechimlari $x \equiv \pm 8(mod17)$ dan iborat.

7).Lejandr simvolidan foydalanib berilgan $x^2 \equiv 5(mod17)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlashimiz kerak va yechimlari bo'lsa uni topishimiz kerak. Avvalo, berilgan $x^2 \equiv 5(mod17)$ taqqoslamaning yechimga ega yoki ega emasligini aniqlaymiz. Buning uchun $\left(\frac{5}{17}\right)$ ning qiymatini aniqlaymiz. $\left(\frac{5}{17}\right) = (-1)^{\frac{5-1}{2}\cdot\frac{17-1}{2}} \cdot \left(\frac{17}{5}\right) = \left(\frac{5\cdot 3+2}{5}\right) = \left(\frac{2}{5}\right) = (-1)^{\frac{5^2-1}{8}} = -1$ Demak, berilgan taqqoslama yechimga ega emas. **Javob:** berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

299. 1). Berilgan taqqoslama $x^2 \equiv a(mod5)$ taqqoslama yechimga a ning qiymatini topishimiz kerak. Bizga ma'lumki, $x^2 \equiv a(modp)$ taqqoslama

yechimga bo'lishi uchun a soni $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp)$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bundan $a^2 \equiv 1\ (mod5) \to a^2 - 1 \equiv\ (mod5) \to (a-1)(a+1) \equiv 0(mod5) \to a - 1 \equiv 0(mod5)$ yoki $a + 1 \equiv 0(mod5) \to a \equiv \pm 1(mod5)$.

Javob: $a = \pm 1 + 5t, t \in Z$.

2). Berilgan taqqoslama $x^2 \equiv a(mod7)$ taqqoslama yechimga a ning qiymatini topishimiz kerak. Bizga ma'lumki, $x^2 \equiv a(modp)$ taqqoslama yechimga bo'lishi uchun a soni $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp)$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bundan $a^3 \equiv 1\ (mod7)$. Bu taaqoslamani 7 moduli bo'yicha chegirmalarning keltilgan sistemasi $\pm 1, \pm 2, \pm 3$ larni taqqoslamaga qoyib sinab ko'ramiz. U holda $a \equiv -3, 1, 2(mod7)$ larning berilgan taqqoslamani qanoatlantirishini ko'ramiz.

Javob: $a = -3 + 5t, a = 1 + 5t, a = 2 + 5t, t \in Z$.

3). Berilgan taqqoslama$x^2 \equiv a(mod11)$ taqqoslama yechimga a ning qiymatini topishimiz kerak. Bizga ma'lumki, $x^2 \equiv a(modp)$ taqqoslama yechimga bo'lishi uchun a soni $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp)$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bundan $a^5 \equiv 1\ (mod11)$. Bu taaqoslamani 11 moduli bo'yicha chegirmalarning keltilgan sistemasi $\pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5$ larni taqqoslamaga qoyib sinab ko'ramiz. U holda $a \equiv\ 1, 3, 4, 5, 9(mod11)$ larning berilgan taqqoslamani qanoatlantirishini ko'ramiz.

Javob: $x = 1 + 11t, a = 3 + 11t, a = 4 + 11t, a = 5 + 11t, a = 9 + 11t, t \in Z$.

4).Berilgan taqqoslama$x^2 \equiv a(mod13)$ taqqoslama yechimga a ning qiymatini topishimiz kerak. Bizga ma'lumki, $x^2 \equiv a(modp)$ taqqoslama yechimga bo'lishi uchun a soni $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp)$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bundan $a^6 \equiv 1\ (mod13)$. Bu taaqoslamani 13 moduli bo'yicha chegirmalarning keltilgan sistemasi $\pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5, \pm 6$ larni taqqoslamaga qoyib sinab ko'ramiz. U holda $a \equiv \pm 1, \pm 3, \pm 4\ (mod13)$ larning berilgan taqqoslamani qanoatlantirishini ko'ramiz. **Javob:** $a = 1 + 13t, a = 3 + 13t, a = 4 + 13t, a = 9 + 13t, a = 10 + 13t, a = 10 + 13t, t \in Z$.

5).Berilgan taqqoslama$x^2 \equiv a(mod3)$ taqqoslama yechimga a ning qiymatini topishimiz kerak. Bizga ma'lumki, $x^2 \equiv a(modp)$ taqqoslama yechimga ega bo'lishi uchun a soni $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp)$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bundan $a \equiv 1\ (mod3)$. **Javob:** $a = 1 + 3t, t \in Z$.

300. $x^2 + 1 \equiv 0(modp)$ taqqoslama yechimga ega bo'lishi uchun $(-1)^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp)$ shart bajarlishi kerak. Agar $p = 4n + 1$ ko'rinishidagi tub son bo'lsa, u holda $(-1)^{2n} \equiv 1\ (modp)$ bajariladi va taqqoslama ikkita yechimga ega.

Endi agar berilgan taqqoslama $x^2 + 1 \equiv 0(modp)$ yechimga ega bo'lsa, $p = 4n + 1$ ko'rinishidagi tub son bo'lishini ko'rsatamiz. Butun sonlarni 4ga bo'lgandagi qoldiqlar bo'yicha yozsak: $4n, 4n + 1, 4n + 2, 4n + 3$ ko'rinishlarda bo'ladi. $p -$ tub son bo'lsa $p = 4n + 1$ yoki $p = 4n + 3$ ko'rinishda bo'lishi mumkin. Agar $p = 4n + 3$ ko'rinishda bo'lsa, Eyler kriteriyasiga ko'ra $(-1)^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1\ (modp) \rightarrow (-1)^{2n+1} \equiv 1\ (modp)$ bo'lishi kerak, lekin bu taqqoslama bu taqqoslama o'rinli emas. Shuning uchun ham $p = 4n + 1$.

301. $a^2 + b^2 \equiv 0(modp)$ bo'lsa, $(a, b) = 1$ bo'lgani uchun $a \not\equiv 0(modp)$ va $b \not\equiv 0(modp)$ bo'lishi kerak. Faraz etaylik, x soni $bx \equiv 1(modp)$ taqqoslamaning yechimi bo'lsin. U holda $(bx)^2 \equiv 1(modp)$ va $(ax)^2 + (bx)^2 \equiv (ax)^2 + 1 \equiv 0(modp)$ bo'lishi kerak. 300-misolga asosan$(ax)^2 + 1 \equiv 0(modp)$taqqoslama faqat va faqat $p = 4n + 1$ ko'rinishidagi tub son bo'lsagina o'rinli.

302. $x(x + 1) \equiv 1(mod13)$ desak, $x^2 + x - 1 \equiv 0(mod13) \rightarrow \left(x + \frac{1}{2}\right)^2 - \frac{5}{4} \equiv 0(mod13) \rightarrow (2x + 1)^2 \equiv 5(mod13)$. Bu taqqoslama yechimga ega emas. Chunki, Lejandr simvolining qiymati $\left(\frac{5}{13}\right) = (-1)^{\frac{13-1}{2}\cdot\frac{5-1}{2}} \cdot \left(\frac{13}{5}\right) = \left(\frac{5\cdot 2+3}{5}\right) = \left(\frac{3}{5}\right) = (-1)^{\frac{3-1}{2}\cdot\frac{5-1}{2}} \cdot \left(\frac{5}{3}\right) = \left(\frac{3\cdot 1+2}{3}\right) = \left(\frac{2}{3}\right) = (-1)^{\frac{9-1}{8}} = -1$ ga teng.

303. 302-misolga asosan berilgan $x(x + 1) \equiv a(mod13)$ taqqoslamani $(2x + 1)^2 \equiv 4a + 1(mod13)$ ko'rinishida yozish mumkin. Ma'lumki, $p > 2 -$

moduli bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $0, \pm1, \pm2, \dots, \pm\frac{p-1}{2}$ dagi chegirmalarning yarmi kvadratik chegirma, qolgan yarmi esa kvadratik chegirma emas bo'ladi. Kvadratk chegirmalar sifatida $0, 1, 2, \dots, \frac{p-1}{2}$ larning kvadratlarini olish mumkin. Shuning uchun ham $4a + 1 \equiv 0, 1, 4, 9, 3, 12, 10 (mod 13) \rightarrow 4a \equiv -1, 0, 3, 8, 2, 11, 9 (mod 13) \rightarrow a \equiv 3, 0, 4, 2, 7, 6, 12 (mod 13)$. Shunday qilib, $a = 13t,\ a = 2 + 13t, 3 + 13t, 4 + 13t, 6 + 13t, 7 + 13t, 12 + 13t, t \in Z$.

Javob: $a = 13t, a = 2 + 13t, 3 + 13t, 4 + 13t, 6 + 13t, 7 + 13t, 12 + 13t, t \in Z$.

304. Faraz etaylik, bunday tub sonlarning soni chekli bo'lib, ular $p_1, p_2, \dots, p_k$ lardan iborat bo'lsin. $N = (p_1 p_2 \cdots p_k)^2 + 1$ sonini qaraymiz. Bu son 300-misolga asosan faqat $4n + 1$ ko'rinishidagi tub sonlarga bo'linadi. Lekin N soni $p_1, p_2, \dots, p_k$ ning birortasiga ham bo'linmaydi. Shuning uchun ham N ning o'zi tub son yoki u biror p_{k+1} tub bo'luvchiga ega. Demak, $4n + 1$ ko'rinishidagi tub sonlar soni cheksiz ko'p.

305. 1). $4x^2 - 5y = 6 \rightarrow 4x^2 = 6 + 5y \rightarrow 4x^2 \equiv 6 (mod 5) \rightarrow 2x^2 \equiv 3 (mod 5) \rightarrow 2x^2 \equiv 8 (mod 5) \rightarrow x^2 \equiv 4 (mod 5) \rightarrow x \equiv \pm2 (mod 5) \rightarrow x = \pm2 + 5t, t \in Z$. x ning topilgan qiymatini berilgan tenglamaga qo'yib y ning qiymatini aniqlaymiz: $4(\pm2 + 5t)^2 - 5y = 6 \rightarrow 4(4 \pm 20t + 25t^2) - 5y = 6 \rightarrow 5y = 10 \pm 80t + 100t^2 \rightarrow y = 2 \pm 16t + 20t^2$. Shunday qilib, izlanayotgan yechim $(\pm2 + 5t, 2 \pm 16t + 20t^2), t \in Z$.

Javob: $(\pm2 + 5t, 2 \pm 16t + 20t^2), t \in Z$.

2). $5x^2 = 11y + 7 \rightarrow 5x^2 \equiv 7 (mod 11) \rightarrow x^2 \equiv 8 (mod 11)$. Oxirgi taqqoslamada $\left(\frac{8}{11}\right) = \left(\frac{4 \cdot 2}{11}\right) = \left(\frac{2}{11}\right) = (-1)^{\frac{121-1}{8}} = -1$ bo'lgani uchun u yechimga ega emas. Demak, berilgan egri chiziq butun koordinatali nuqtadan o'tmaydi. **Javob:** $\emptyset$.

3). $x^2 - 10x + 5 = 11y \rightarrow (x - 5)^2 - 20 = 11y \rightarrow (x - 5)^2 \equiv 20 (mod 11) \rightarrow (x - 5)^2 \equiv 9 (mod 11) \rightarrow x - 5 \equiv \pm3 (mod 11) \rightarrow x \equiv 5 \pm 3 (mod 11) \rightarrow x \equiv 2 (mod 11)$ va $x \equiv 8 (mod 11) \rightarrow x = 2 + 11t$ va $x = 8 +$

$11t, t \in Z. x$ ning bu topilgan qiymatlariga mos y ning qiymatlarini aniqlaymiz. Avvalo, $x = 2 + 11t$ ga mos y ning qiymatini aniqlaymiz Buning uchun x ning topilgan qiymatini berilgan tenglamaga olib borib qo'yamiz:

$$(2 + 11t)^2 - 10(2 + 11t) + 5 = 11y \rightarrow 11y = 121t^2 - 66t - 11 \rightarrow$$
$$y = 11t^2 - 6t - 1.$$

Endi $x = 8 + 11t$ ga mos y ning qiymatini aniqlaymiz:

$(8 + 11t)^2 - 10(8 + 11t) + 5 = 11y \rightarrow 11y = 121t^2 + 176t + 64 - 80 -$ $-110t + 5 \rightarrow 11y = 121t^2 + 66t - 11 \rightarrow y = 11t^2 + 6t - 1$.Demak, yechimlar $(2 + 11t, 11t^2 - 6t - 1)$ va $(8 + 11t, 11t^2 + 6t - 1), t \in Z$.

Javob: $(2 + 11t, 11t^2 - 6t - 1)$ va $(8 + 11t, 11t^2 + 6t - 1), t \in Z$.

4).$x^2 - 21x + 110 = 13y \rightarrow x^2 - 21x + 110 \equiv 0(mod13) \rightarrow x^2 - 8x +$ $6 \equiv 0(mod13) \rightarrow (x - 4)^2 \equiv 10(mod13) \rightarrow (x - 4)^2 \equiv 36(mod13) \rightarrow$ $x - 4 \equiv \pm 6(mod13) \rightarrow x \equiv 4 \pm 6(mod13) \rightarrow x \equiv -2(mod13)$va $x \equiv$ $10(mod13) \rightarrow x = -2 + 13t$ va $x = 10 + 13t, t \in Z$. x ning bu topilgan qiymatlariga mos y ning qiymatlarini aniqlaymiz. Avvalo, $x = -2 + 13t$ ga mos y ning qiymatini aniqlaymiz Buning uchun x ning topilgan qiymatini berilgan tenglamaga olib borib qo'yamiz: $(-2 + 13t)^2 - 21(-2 + 13t) + 110 = 13y \rightarrow$ $4 - 52t + 169t^2 + 42 - 273t + 110 = 13y \rightarrow 169t^2 - 325t + 156 = 13y \rightarrow$ $y = 13t^2 - 25t + 12, t \in Z$. Endi $x = 10 + 13t$ ga mos y ning qiymatini aniqlaymiz: $(10 + 13t)^2 - 21(10 + 13t) + 110 = 13y \rightarrow 13y = 169t^2 +$ $260t + 100 - 210 - 273t + 110 \rightarrow 13y = 169t^2 - 13t \rightarrow y = 13t^2 - t, t \in$ Z.Demak, yechimlar $(-2 + 13t, 13t^2 - 25t + 12)$ va $(10 + 13t, 13t^2 - t), t \in Z$.

Javob: $((-2 + 13t, 13t^2 - 25t + 12)$ va $(10 + 13t, 13t^2 - t), t \in Z$.

5).$15x^2 - 7y^2 = 9 \rightarrow 15x^2 \equiv 9(mod7) \rightarrow x^2 \equiv 9(mod7) \rightarrow x = \pm 3 +$ $7t$. x ning bu topilgan qiymatlariga mos y ning qiymatlarini aniqlaymiz. Avvalo, $x = -3 + 7t$ ga mos y ning qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun x ning topilgan qiymatini berilgan tenglamaga olib borib qo'yamiz: $15(-3 + 7t)^2 - 7y^2 = 9 \rightarrow$ $15(9 - 42t + 49t^2) - 7y^2 = 9 \rightarrow 135 - 630t + 735t^2 - 7y^2 = 9 \rightarrow 126 -$ $630t + 735t^2 = 7y^2 \rightarrow y^2 = 105t^2 - 90t + 18$. Bunda oxirgi ifodaning o'ng

tomonidagi uchhadning diskriminanti 540 ga teng va shuning uchun ham u to'liq kvadratni bermaydi, ya'ni y ning butun qiymatlari mavjud emas. Endi $x = 3 + 7t$ ga mos y ning qiymatini aniqlaymiz: : $15(3 + 7t)^2 - 7y^2 = 9 \rightarrow 15(9 + 42t + 49t^2) - 7y^2 = 9 \rightarrow 135 + 630t + 735t^2 - 7y^2 = 9 \rightarrow 126 + 630t + 735t^2 = 7y^2 \rightarrow y^2 = 105t^2 + 90t + 18$. Bunda ham oxirgi ifodaning o'ng tomonidagi uchhadning diskriminanti 540 ga teng va shuning uchun ham u to'liq kvadratni bermaydi, ya'ni y ning butun qiymatlari mavjud. Demak, berilgan tenglama butun sonlarda yechimga ega emas. **Javob:** berilgan tenglama yechimga ega emas.

306.1).Lejandr simvolining ta'rifiga asosan$\left(\frac{5}{p}\right) = (-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{5-1}{2}} \cdot \left(\frac{p}{5}\right) = \left(\frac{p}{5}\right)$ bo'lganidan, $a = 5$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'lishi uchun Eyler kriteriyasiga asosan $p^{\frac{5-1}{2}} \equiv 1(mod5) \rightarrow p^2 \equiv 1(mod5)$ ning bajarilishi zarur va yetarlidir. Bundan $p^2 \equiv 16(mod5) \rightarrow p \equiv \pm 4(mod5) \rightarrow p \equiv \pm 1(mod5)$ ni hosil qilamiz. Buni $p = \pm 1 + 5k$ ko'rinishida yozish mumkin.

Umuman, butun sonlarni 5 moduli bo'yicha 5 ta: $5k, 5k + 1, 5k + 2, 5k + 3, 5k + 4$ sinfga ajratish mumkin bo'lgani uchun, agar $p = 5k + 1$ yoki $p = 5k + 4$ ko'rinishdagi tub son bo'lsa, $a = 5$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma,agar $p = 5k + 2$ yoki $p = 5k + 3$ ko'rinishdagi tub son bo'lsa, $a = 5$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'lar ekan.

Javob: $a = 5$ soni $p = 5k + 1$ va $p = 5k + 4$ ko'rinishdagi tub modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p = 5k + 2$ va $p = 5k + 3$ ko'rinishdagi tub modullar bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi.

2).Lejandr simvolining ta'rifiga asosan$\left(\frac{-3}{p}\right) = \left(\frac{-1\cdot 3}{p}\right) = \left(\frac{-1}{p}\right)\left(\frac{3}{p}\right) = (-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{p-1}{2}}(-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{3-1}{2}} \cdot \left(\frac{p}{3}\right) = \left(\frac{p}{3}\right)$ bo'lganidan, $a = -3$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'lishi uchun Eyler kriteriyasiga asosan $p^{\frac{3-1}{2}} \equiv 1(mod3) \rightarrow p \equiv 1(mod3)$ ning bajarilishi zarur va yetarlidir. Buni $p = 1 + 3k$ ko'rinishida yozish mumkin.

Umuman, butun sonlarni 3 moduli bo'yicha 3 ta: $3k, 3k + 1, 3k + 2$ sinfga ajratish mumkin bo'lgani uchun, agar $p = 3k + 1$ ko'rinishdagi tub son bo'lsa,

$a=-3$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma,agar $p=3k+2$ yoki ko'rinishdagi tub son bo'lsa, $a=-3$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'lar ekan.

Javob: $a=-3$ soni $p=3k+1$ ko'rinishdagi tub modul bo'yicha kvadratik chegirma, $p=3k+2$ ko'rinishdagi tub modul bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi.

3).Lejandr simvolining ta'rifiga asosan$\left(\frac{3}{p}\right)=(-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{3-1}{2}}\cdot\left(\frac{p}{3}\right)=(-1)^{\frac{p-1}{2}}\cdot\left(\frac{p}{3}\right)$ bo'lganidan,agar$p=3k+1$ ko'rinishida bo'lsa,

$$\left(\frac{3}{p}\right)=(-1)^{\frac{3k}{2}}\cdot\left(\frac{3k+1}{3}\right)=(-1)^{\frac{3k}{2}}\cdot\left(\frac{1}{3}\right)=(-1)^{\frac{3k}{2}} \qquad (*)$$

bo'ladi. Agar bunda $k=4q$ bo'lsa, (*) dan $\left(\frac{3}{p}\right)=1$ hosil bo'ladi, ya'ni 3 soni $p=12q+1$ ko'rinishdagi tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi. 12 moduli bo'yicha barcha butun sonlarni 12 ta sinfga ajratish mumkin. Bulardan $12q+1,12q+5,12q+7,12q+11$ sinflardagina tub sonlar bo'ladi. Agar $p=12q+5$ bo'lsa, u holda

$$\left(\frac{3}{p}\right)=(-1)^{\frac{12q+4}{2}}\cdot\left(\frac{12q+5}{3}\right)=\left(\frac{3\cdot(4q+1)+2}{3}\right)=\left(\frac{2}{3}\right)=(-1)^{\frac{9-1}{8}}=-1;$$

agarda $p=12q+7$ bo'lsa,

$$\left(\frac{3}{p}\right)=(-1)^{\frac{12q+6}{2}}\cdot\left(\frac{12q+7}{3}\right)=-\left(\frac{3\cdot(4q+2)+1}{3}\right)=-\left(\frac{1}{3}\right)=-1;$$

agarda $p=12q+11$ bo'lsa,

$$\left(\frac{3}{p}\right)=(-1)^{\frac{12q+10}{2}}\cdot\left(\frac{12q+11}{3}\right)=-\left(\frac{3\cdot(4q+3)+2}{3}\right)=-\left(\frac{2}{3}\right)=1$$

larni hosil qilamiz. Shunday qilib, 3 soni $p=12q+1,p=12q+11$ ko'rinishdagi tub modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p=12q+5,p=12q+7$ ko'rinishdagi tub modullar bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'lar ekan.

Javob: 3 soni $p=12q+1,p=12q+11$ ko'rinishdagi tub modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p=12q+5,p=12q+7$ ko'rinishdagi tub modullar bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi.

4). $a = 2$ ning p moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'lishi uchun Lejandr simvolining ta'rifiga asosan $\left(\frac{2}{p}\right) = (-1)^{\frac{p^2-1}{8}} = 1$ bajarilishi kerak. Buning uchun esa $\frac{p^2-1}{8} = 2q \to p^2 = 1 + 16q \to p^2 \equiv 1(mod16)$ ko'rinishida bo'lishi kerak. Oxirgi taqqoslamani $p = 16k + 1, p = 16k + 3, p = 16k + 5, p = 16k + 7, p = 16k + 9, p = 16k + 11, p = 16k + 13, p = 16k + 15$ lardan foydalanib tekshirsak $p = 16k + 1, p = 16k + 7,\ p = 16k + 9,\ p = 16k + 15$ uni qanoatlantiradi. Qolganlari qanoatlantirmaydi. Shuning uchun ham 2 soni $p = 16k + 1, p = 16k + 7,\ p = 16k + 9,\ p = 16k + 15$ modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p = 16k + 3, p = 16k + 5,\ p = 16k + 11, p = 16k + 13$modullar bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi. Bularni 8 moduli birlashtirib yozib olishimiz mumkin. U holda 2 soni $p = 8k + 1, p = 8k + 7$modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p = 8k + 3, p = 8k + 5$,modullar bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi.

Javob: 2 soni $p = 8k + 1, p = 8k + 7$modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p = 8k + 3, p = 8k + 5$,modullar bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi.

5).Lejandr simvolining ta'rifiga asosan$\left(\frac{-7}{p}\right) = \left(\frac{-1 \cdot 7}{p}\right) = \left(\frac{-1}{p}\right)\left(\frac{7}{p}\right) = (-1)^{\frac{p-1}{2}}(-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{7-1}{2}} \cdot \left(\frac{p}{7}\right) = \left(\frac{p}{7}\right)$ bo'lganidan, $a = -7$ soni p-tub moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'lishi uchun Eyler kriteriyasiga asosan $p^{\frac{7-1}{2}} \equiv 1(mod7) \to p^3 \equiv 1(mod7)$ ning bajarilishi zarur va yetarlidir. Buni $p = 1 + 7k,\ p = 2 + 7k, p = 3 + 7k, p = 4 + 7k, p = 5 + 7k, p = 6 + 7k$ larni qo'yib tekshirsak, $p = 1 + 7k,\ p = 2 + 7k, p = 4 + 7k$ lar uni qanoatlantiradi, qolganlari esa qanoatlantirmaydi. Demak, $a = -7$ soni $p = 1 + 7k,\ p = 2 + 7k, p = 4 + 7k$ modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p = 3 + 7k,\ p = 5 + 7k, p = 6 + 7k$ modullari bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'lar ekan.

Javob: $a=-7$ soni $p=1+7k,\ p=2+7k, p=4+7k$ modullar bo'yicha kvadratik chegirma, $p=3+7k,\ p=5+7k, p=6+7k$ modullari bo'yicha kvadratik chegirma emas bo'ladi.

307.1).Berilgan taqqoslamadan$x(x+1)\equiv 1(modp)\rightarrow x^2+x-1\equiv 0(modp)\rightarrow \left(x+\frac{1}{2}\right)^2-\frac{1}{4}-1\equiv 0(modp)\rightarrow (2x+1)^2\equiv 5(modp).$ Bu taqqoslama yechimga ega bo'lishi uchun $\left(\frac{5}{p}\right)=(-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{5-1}{2}}\cdot\left(\frac{p}{5}\right)=\left(\frac{p}{5}\right)=1$ bo'lishi kerak. $p=1+5k,\ p=2+5k, p=3+5k, p=4+5k$ larni qo'yib tekshirsak, $p=1+5k,\ p=4+5k$ lar uni qanoatlantiradi, qolganlari esa qanoatlantirmaydi.

Javob:$p=1+5k,\ p=4+5k$ modullar bo'yicha berilgan taqqoslama yechimga ega, $p=2+5k, p=3+5k$ modullar bo'yicha taqqoslama yechimga ega.

2).Berilgan taqqoslamadan$x(x-1)\equiv 2(modp)\rightarrow x^2-x-2\equiv 0(modp)\rightarrow \left(x-\frac{1}{2}\right)^2-\frac{1}{4}-2\equiv 0(modp)\rightarrow (2x-1)^2\equiv 9(modp).$ Bu yerda $\left(\frac{9}{p}\right)=1$ bo'lgani uchun. Ixtiyoriy $p>2$ tub modul uchun berilgan taqqoslama yechimga ega bo'ladi.

Javob: Ixtiyoriy $p>2$ modul bo'yicha berilgan taqqoslama yechimga ega.

3).Berilgan taqqoslamadan$x(x-1)\equiv 3(modp)\rightarrow x^2-x-3\equiv 0(modp)\rightarrow \left(x-\frac{1}{2}\right)^2-\frac{1}{4}-3\equiv 0(modp)\rightarrow (2x-1)^2\equiv 13(modp).$ Bu taqqoslama yechimga ega bo'lishi uchun $\left(\frac{13}{p}\right)=(-1)^{\frac{p-1}{2}\cdot\frac{13-1}{2}}\cdot\left(\frac{p}{13}\right)=\left(\frac{p}{13}\right)=1$ bo'lishi kerak. $p=1+13k,\ p=3+13k,\ p=4+13k,\ p=9+13k, p=10+13k, p=12+13k$ va $p=13$ lar uni qanoatlantiradi, qolganlari esa qanoatlantirmaydi.

Javob:$p=1+13k,\ p=3+13k,\ p=4+13k,\ p=9+13k, p=10+13k,\ p=12+13k$ va $p=13$ modullar bo'yicha taqqoslama yechimga ega. $p=2+13k,\ p=5+13k,\ p=6+13k,\ p=7+13k, p=8+13k,\ p=11+13k$modullar bo'yicha berilgan taqqoslama yechimga ega emas.

308.1). Agar $x^2 \equiv 13(modp)$ yoki $x^2 \equiv 17(modp)$ lardan birortasi o'rinli bo'lsa, berilgan taqqoslama$(x^2-13)(x^2-17)(x^2-221) \equiv 0(modp)$ yechimga ega bo'ladi. Agar ularning ikkalasi ham yechimga ega bo'lmasa, $\left(\frac{13}{p}\right) = \left(\frac{17}{p}\right) = -1$ bajarilishi kerak. Bundan $\left(\frac{13}{p}\right) \cdot \left(\frac{17}{p}\right) = \left(\frac{221}{p}\right) = 1$ kelib chiqadi. Bu esa $x^2 \equiv 221(modp)$ bajariladi degani. Demak, berilgan taqqoslama ixtiyoriy $p > 2$ tub modul bo'yicha o'rinli.

2). Agar $x^2 \equiv 3(modp)$, yoki $x^2 \equiv 5(modp)$, yoki$x^2 \equiv 7(modp)$,yoki $x^2 \equiv 11(modp)$ lardan birortasi o'rinli bo'lsa, berilgan taqqoslama$(x^2-3)(x^2-5)(x^2-7)(x^2-11)(x^2-1155) \equiv 0(modp)$ yechimga ega bo'ladi. Agar ularning to'rtalasi ham yechimga ega bo'lmasa, $\left(\frac{3}{p}\right) = \left(\frac{5}{p}\right) = \left(\frac{7}{p}\right) = \left(\frac{11}{p}\right) = -1$ bajarilishi kerak. Bundan $\left(\frac{3}{p}\right) \cdot \left(\frac{5}{p}\right) \cdot \left(\frac{7}{p}\right) \cdot \left(\frac{11}{p}\right) = 1$ kelib chiqadi. Bu esa $x^2 \equiv 1155(modp)$ bajariladi degani. Demak, berilgan taqqoslama ixtiyoriy $p > 2$ tub modul bo'yicha o'rinli.

V.1-§.

309.1). Buning uchun a soninng$m$ moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichi $\varphi(m)$ ning bo'luvchilari orasida bo'lishidan (2-natijadan) foydalanamiz. Bu misolda $a = 2, m = 7$ va $\varphi(7) = 6,$ bo'lib 6 ning bo'luvchilari: 1,2,3,6 lardan iborat. Shuning uchun ham 2 ning ana shu darajalarini tekshiramiz. U holda $2^1 \equiv 2,\ 2^2 \equiv 4,\ 2^3 \equiv 1(mod7)$lardan 2 sonining 7 moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichi $\delta = P_7(2) = 3$ ga teng degan xulosaga kelamiz. **Javob**: $P_7(2) = 3$.

2).1-misoldagi singari mulohaza yuritamiz. Bu misolda $a = 3, m = 7$ va $\varphi(7) = 6,$ bo'lib 6 ning bo'luvchilari: 1,2,3,6 lardan iborat. Shuning uchun ham 3 ning ana shu darajalarini tekshiramiz. U holda $3^1 \equiv 3,\ 3^2 \equiv 2,\ 3^3 \equiv 6,\ 3^6 \equiv (3^3)^2 \equiv 1(mod7)$lardan 3 sonining 7 moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichi $\delta = P_7(3) = 6$ ga teng degan xulosaga kelamiz. **Javob**:$P_7(3) = 6$.

3).1va 2-misollardagi singari mulohaza yuritamiz. Bu misolda $a = 5, m = 7$ va $\varphi(7) = 6,$ bo'lib 6 ning bo'luvchilari: 1,2,3,6 lardan iborat. Shuning uchun

ham 3 ning ana shu darajalarini tekshiramiz. U holda $5^1 \equiv 5,\ \ 5^2 \equiv 4,\ 5^3 \equiv 6,$ $5^6 \equiv (5^3)^2 \equiv 1(mod7)$lardan 5 sonining 7 moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichi $\delta = P_7(5) = 6$ ga teng degan xulosaga kelamiz.

Javob: $P_7(5) = 6.$

Shunday qilib birta m moduli bo'yicha bir nechta boshlang'ich ildizlar bo'lishi mumkin ekan.

310. 1).Tanlash usuli bilan m moduli bo'yicha 2 dan $m-1$ gacha sonlar orasidan m bilan o'zaro tublari tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini topishimiz kerak.Bu misolda $m = 5$ bo'lgani uchun 2 dan 4 gacha sonlar orasidan 5 bilan o'zaro tublari: 2, 3, 4 lardan iborat. Bu sonlarning $m = 5$ moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Buning uchun 309-misollardagi singari mulohaza yuritamiz. $\varphi(5) = 4,$ bo'lib 4 ning bo'luvchilari: 1,2,4 lardan iborat.U holda $2^1 \equiv 2,\ \ 2^2 \equiv 4,\ 2^4 \equiv 1(mod5);\ 3^1 \equiv 3,\ \ 3^2 \equiv 4,\ 3^4 \equiv 1(mod5);\ 4^1 \equiv 4,\ \ 4^2 \equiv 1(mod5)$lardan 2 va 3 sonlari 5 moduli bo'yicha 4 daraja ko'rsatkichiga, 4 soni esa 2 daraja ko'rsatkichiga tegishli ekan degan xulosaga kelamiz. **Javob**: $P_5(2) = P_5(3) = 4,\ P_5(4) = 2$.

2). Bu misolda $m = 7$ bo'lgani uchun 2 dan 6 gacha sonlar orasidan 7 bilan o'zaro tublari: 2, 3, 4, 5, 6 lardan iborat. Bu sonlarning $m = 7$ moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Buning uchun 1-misoldagi singari mulohaza yuritamiz. 309-misolda $P_7(2) = 3, P_7(3) = P_7(5) = 6$ ekanliklarini aniqlagan edik. Shuning uchun 4, 6 sonlarining $m = 7$ moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. $\varphi(7) = 6,$ bo'lib 6 ning bo'luvchilari: 1,2,3,6 lardan iborat. U holda $4 = 2^2$ bo'lib $(2,3) = 1$ bo'lgani uchun $P_7(4) = 3.\ \ 6^1 \equiv -1,\ \ 6^2 \equiv 1(mod7)$dan 6 soni 7 moduli bo'yicha 2 daraja ko'rsatkichiga tegishli ekan degan xulosaga kelamiz.

Javob: $P_7(2) = P_7(4) = 3,\ P_7(3) = P_7(5) = 6, P_7(6) = 2.$

3). Bu misolda $m = 8$ bo'lgani uchun 2 dan 7 gacha sonlar orasidan 8 bilan o'zaro tublari: 3, 5, 7 lardan iborat. Bu sonlarning $m = 8$moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Buning uchun 1,2-misollardagi singari mulohaza yuritamiz. $\varphi(8) = 4,$ bo'lib 4 ning bo'luvchilari: 1,2,4 lardan iborat.U

holda $3^1 \equiv 3,\ \ 3^2 \equiv 1(mod8);\ \ 5^1 \equiv 5,\ \ 5^2 \equiv 1(mod5);\ 7^1 \equiv -1,\ \ 7^2 \equiv 1(mod8)$lardan qaralayotgan sonlarning barchasi 8 moduli bo'yicha 2 daraja ko'rsatkichiga tegishli ekan degan xulosaga kelamiz.

Javob: $P_8(3) = P_8(5) = P_8(7) = 2$.

4). Bu misolda $m = 10$ bo'lgani uchun 2 dan 9 gacha sonlar orasidan 10 bilan o'zaro tublari: 3, 7, 9 lardan iborat. Bu sonlarning $m = 10$ moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Buning uchun 1,2, 3-misollardagi singari mulohaza yuritamiz. $\varphi(10) = 4,$ bo'lib 4 ning bo'luvchilari: 1,2,4 lardan iborat. U holda $3^1 \equiv 3,\ \ 3^2 \equiv -1, 3^4 \equiv 1(mod10);$
$7^1 \equiv 7,\ \ 7^2 \equiv -1, 7^4 \equiv 1(mod10);\ 9^1 \equiv -1,\ \ 9^2 \equiv 1(mod10)$lardan qaralayotgan 3 va 7 sonlari 10 moduli bo'yicha 4 daraja ko'rsatkichiga, 9 soni esa 2 daraja ko'rsatkichiga tegishli ekan degan xulosaga kelamiz.

Javob: $P_{10}(3) = P_{10}(7) = 4, P_{10}(9) = 2$.

5). Bu misolda $m = 11$ bo'lgani uchun 2 dan 10 gacha sonlar orasidan 11 bilan o'zaro tublari: 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 lardan iborat. Bu sonlarning $m = 11$ moduli bo'yicha tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Buning uchun 1,2, 3-misollardagi singari mulohaza yuritamiz. $\varphi(11) = 10,$ bo'lib 10 ning bo'luvchilari: $1,2,5,10$ lardan iborat. U holda $2^1 \equiv 2,\ \ 2^2 \equiv 4, 2^5 \equiv -1, 2^{10} \equiv 1(mod11); 3^1 \equiv 3,\ \ 3^2 \equiv -2, 3^5 \equiv 1(mod11); 4^1 \equiv 4,\ \ 4^2 \equiv 5, 4^5 \equiv 1(mod11);\ 5^1 \equiv 5,\ \ 5^2 \equiv 3, 5^5 \equiv 1(mod11);\ \ 6^1 \equiv 6, 6^2 \equiv 3, 6^5 \equiv -1, 6^{10} \equiv 1(mod11);\ \ 7^1 \equiv 7,\ 7^2 \equiv 5,\ 7^5 \equiv -1,\ 7^{10} \equiv 1(mod11);\ \ 8^1 \equiv 8,\ 8^2 \equiv -2,\ 8^5 \equiv -1,\ 8^{10} \equiv 1(mod11);\ 9^1 \equiv -2,\ 9^2 \equiv 4,\ 9^5 \equiv 1(mod11);$
$10^1 \equiv -1, 10^2 \equiv 1(mod11)$ lardan qaralayotgan 2,6,7 va 8 sonlari 11 moduli bo'yicha 10 daraja ko'rsatkichiga, 3, 4, 5, 9 sonlari 5 daraja ko'rsatkichiga, 10 soni esa 2 daraja ko'rsatkichiga tegishli ekan degan xulosaga kelamiz.

Javob: $P_{11}(2) = P_{11}(6) = P_{11}(7) = P_{11}(8) = 10,\ P_{11}(3) = P_{11}(4) = P_{11}(5) = P_{11}(9) = 5, P_{11}(10) = 2.$

6). Bu misolda $m = 9$ bo'lgani uchun 2 dan 8 gacha sonlar orasidan 9 bilan o'zaro tublari: 2, 4, 5, 7, 8 lardan iborat. Bu sonlarning $m = 9$ moduli bo'yicha

tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Buning uchun yuqoridagi misollardagi singari mulohaza yuritamiz. $\varphi(9)=6,$ bo'lib 6 ning bo'luvchilari: 1,2,3,6 lardan iborat. U holda $2^1\equiv 2,\ 2^2\equiv 4, 2^3\equiv -1, 2^6\equiv 1(mod 9); 4^1\equiv 4,$ $4^2\equiv -2, 4^3\equiv 1, (mod 9); 5^1\equiv 5,\ 5^2\equiv -2, 5^3\equiv -1, 5^6\equiv 1(mod 9); 7^1\equiv -2,$ $7^2\equiv 4, 7^3\equiv 1(mod 9);\ 8^1\equiv -1,\ 8^2\equiv 1(mod 9);$ lardan qaralayotgan 2va 5 sonlari 9 moduli bo'yicha 6 daraja ko'rsatkichiga, 4, 7 sonlari 3 daraja ko'rsatkichiga, 8 soni esa 2 daraja ko'rsatkichiga tegishli ekan degan xulosaga kelamiz. **Javob**:$P_9(2)=P_9(5)=6,\ P_9(4)=P_9(7)=3\,, P_9(8)=2.$

311. Ta'rifga ko'ra $(m-1)^\delta\equiv 1(mod m)$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik $\delta>0$ natural sonni topish kerak. Bu taqqoslama $(-1)^\delta\equiv 1(mod m$ ga teng kuchli. Bundan, agar $m=2$ bo'lsa, $\delta=1$ va agar $m\geq 3$ bo'lsa, $\delta=2$ kelib chiqadi. **Javob**: $P_m(m-1)=\begin{cases}1, \text{agar } m=2 \text{ bo'lsa},\\ 2, \text{agar } m\geq 3 \text{ bo'lsa}.\end{cases}$

312. 1). 7 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarni topish uchun shu modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi 2,3,4,5,6 lar orasidan $\varphi(7)=6$daraja ko'rsatkichiga tegishlilarini ajratib olamiz. $\varphi(7)=6$ ning bo'luvchilari 2,3 bo'lgani uchun $g^2\not\equiv 1(mod 7),\ g^3\not\equiv 1(mod 7)$ shartlarni qanoatlantiruvchilari ajratib olishimiz kerak. 2,3,4,5,6 larni g ning o'rniga qo'yib tekshirib ko'ramiz: $2^2\not\equiv 1(mod 7),\ 2^3\equiv 1(mod 7);\ 3^2\not\equiv 1(mod 7),\ 3^3\not\equiv 1(mod 7);\ 4^2\not\equiv 1(mod 7),\ 4^3\equiv 1(mod 7);\ 5^2\not\equiv 1(mod 7),\ 5^3\not\equiv 1(mod 7);$ $6^2\equiv 1(mod 7).$ Demak, 7 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlar 3,5 lardan iborat bo'lar ekan. Ularning soni $\varphi\big(\varphi(p)\big)=\varphi(p-1)=\varphi(6)=2$ ta.

Javob: 3,5.

2). 11 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarni topish uchun shu modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,5,6,7,8,9,10$ lar orasidan $\varphi(11)=10$daraja ko'rsatkichiga tegishlilarini ajratib olamiz. $\varphi(11)=10$ ning bo'luvchilari 2,5 bo'lgani uchun $g^2\not\equiv 1(mod 7),\ g^5\not\equiv 1(mod 11)$ shartlarni qanoatlantiruvchilari ajratib olishimiz kerak. $2,3,4,5,6,7,8,9,10$ larni g ning o'rniga qo'yib tekshirib ko'ramiz: $2^2\not\equiv 1(mod 11),\ 2^5\not\equiv 1(mod 11);\ 3^2\not\equiv 1(mod 11),\ 3^5\equiv 1(mod 11);\ 4^2\not\equiv 1(mod 11),\ 4^5\equiv 1(mod 11);\ 5^2\not\equiv$

$1(mod11)$, $5^5 \equiv 1(mod11)$; $6^2 \not\equiv 1(mod11)$, $6^5 \not\equiv 1(mod11)$; $7^2 \not\equiv 1(mod11)$, $7^5 \not\equiv 1(mod11)$; $8^2 \not\equiv 1(mod11)$, $8^5 \not\equiv 1(mod11)$; $9^2 \not\equiv 1(mod11)$, $9^5 \equiv 1(mod11)$; $10^2 \equiv 1(mod11)$. Demak, 11 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlar 2,6,7,8 lardan iborat bo'lar ekan. Ularning soni $\varphi\big(\varphi(p)\big) = \varphi(p-1) = \varphi(10) = 4$ ta. **Javob**: 2,6,7,8.

3). 13 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarni topish uchun shu modul bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12$ lar orasidan $\varphi(13) = 12$daraja ko'rsatkichiga tegishlilarini ajratib olamiz. $\varphi(13) = 12 = 2^2 \cdot 3$ ning tub bo'luvchilari 2,3 bo'lgani uchun $g^4 \not\equiv 1(mod13)$, $g^6 \not\equiv 1(mod13)$ shartlarni qanoatlantiruvchilari ajratib olishimiz kerak. $2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12$ larni g ning o'rniga qo'yib tekshirib ko'ramiz: $2^4 \not\equiv 1(mod13)$, $2^6 \not\equiv 1(mod13)$. Demak, 13 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildiz 2 ekan. Boshlang'ich ildizlarni aniqlashning ikkinchi bir usuli bu agar p moduli bo'yicha boshlang'ich ildizlardan birortasi (yaxshisi eng kichigi) $g$ma'lum bo'lsa qolgan barchasini $g^k\ (modp)$ ning eng kichik musbat chegirmasi sifatida aniqlash mumkin. Bunda $(k, p-1) = 1\ va\ 1 < k < p-1$. Qolgan boshlang'ich ildizlarni topish uchun ana shu tasdiqdan foydalanamiz. Bizda $g = 2$ va $2^k\ (mod13)$ ni qaraymiz. Bunda $(k, 12) = 1$ va$1 < k < 12$ bajarilishi kerak. Bundan $k = 5,7,11$ ekanligini topamiz. U holda $g^k\ (mod13)$ larni eng kichik musbat chegirma ko'rinishida yozib $2^5 \equiv 6\ (mod13)$; $2^7 \equiv 11(mod13)$; $2^{11} \equiv 7\ (mod13)$ larni hosil qilamiz. Shunday qilib, 13 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlar $2,6,7,11$ lardan iborat bo'lar ekan. Ularning soni $\varphi\big(\varphi(p)\big) = \varphi(p-1) = \varphi(12) = 4$ ta. **Javob**: $2,6,7,11$.

4). 17 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarni topish uchun shu modul bo'yichachegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15,16$ lar orasidan $\varphi(17) = 16$daraja ko'rsatkichiga tegishlilarini ajratib olamiz. $\varphi(17) = 16 = 2^4$ ning tub bo'luvchilari 2 bo'lgani uchun $g^8 \not\equiv 1(mod17)$ shartlarni qanoatlantiruvchilari ajratib olishimiz kerak. $2,3,4,\dots,16$ larni g ning o'rniga qo'yib tekshirib

ko'ramiz: $2^8 \equiv 1(mod17)$; $3^8 \not\equiv 1(mod17), 4^8 \equiv 1(mod17)$; $5^8 \equiv (5^2)^4 \equiv 8^4 \equiv 64^2 \equiv (-4)^2 \equiv -1 \not\equiv 1(mod17)$; $6^8 \equiv 2^4 \equiv -1 \not\equiv 1(mod17)$; $7^8 \equiv (-2)^4 \equiv -1 \not\equiv 1(mod17)$; $8^8 \equiv (-4)^4 \equiv 1(mod17)$; $9^8 \equiv (-4)^4 \equiv 1(mod17)$; $10^8 \equiv (-2)^4 \equiv -1 \not\equiv 1(mod17)$;
$11^8 \equiv 2^4 \equiv -1 \not\equiv 1(mod17)$; $12^8 \equiv (-5)^8 \equiv -1 \not\equiv 1(mod17)$; $13^8 \equiv (-4)^8 \equiv 1(mod17)$; $14^8 \equiv (-3)^8 \not\equiv 1(mod17)$; $15^8 \equiv (-2)^8 \equiv 1(mod17)$; $16^8 \equiv (-1)^8 \equiv 1(mod17)$ larni hosil qilamiz. Shunday qilib, 17 moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlar $3,5,6,7,10,11,12,14,$ lardan iborat bo'lar ekan. Ularning soni $\varphi(\varphi(p)) = \varphi(p-1) = \varphi(16) = 8$ ta. **Javob**: $3,5,6,7,10,11,12,14$.

313. 1).$p-$ tub moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni $\varphi(\varphi(p)) = \varphi(p-1)$ ga teng. Bizning misolimizda $p = 19$ bo'lgani uchun $\varphi(19-1) = \varphi(18) = 6, ya'ni 19$ moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni 6 ga teng. Endi 19 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni topamiz. Buning uchun 19 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,\ldots,18$ lar orasidan $\varphi(19) = 18$daraja ko'rsatkichiga tegishli eng kichik sonni topishimiz kerak. $\varphi(19) = 18 = 2 \cdot 3^2$ning tub bo'luvchilari 2 va 3 bo'lgani uchun $g^6 \not\equiv 1(mod19)$, $g^9 \not\equiv 1(mod19)$shartlarni qanoatlantiruvchi eng kichik son g topishimiz kerak.

$$2^6 \equiv -4 \not\equiv 1(mod17), \qquad 2^9 \equiv -32 \equiv 6 \not\equiv 1(mod19).$$

Bulardan 2 sonining 19 moduli bo'yicha eng kichik boilang'ich ildiz ekaligi kelib chiqadi. **Javob**: 6 va 2.

2).Bizda $p = 23$ bo'lgani uchun $\varphi(23-1) = \varphi(22) = 10, ya'ni 23$ moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni 10 ga teng. Endi 23 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni topamiz. Buning uchun 23 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,\ldots.,22$ lar orasidan $\varphi(23) = 22$daraja ko'rsatkichiga tegishli eng kichik sonni topishimiz kerak. $\varphi(23) = 22 = 2 \cdot 11$ning tub bo'luvchilari 2 va 3 bo'lgani uchun $g^2 \not\equiv 1(mod23), g^{11} \not\equiv 1(mod23)$shartlarni qanoatlantiruvchi eng kichik son g topishimiz kerak.

$2^2 \equiv 4 \not\equiv 1(mod23)$, $2^{11} \equiv (2^5)^2 \cdot 2 \equiv 81 \cdot 2 \equiv -22 \equiv 1(mod23)$;

$3^2 \equiv 9 \not\equiv 1(mod23)$, $3^{11} \equiv (3^5)^2 \cdot 3 \equiv 13^2 \cdot 3 \equiv 8 \cdot 3 \equiv 1(mod23)$;

$4^2 \equiv -7 \not\equiv 1(mod23)$, $4^{11} \equiv (4^3)^3 \cdot 4^2 \equiv (-5)^3 \cdot 16 \equiv -125 \cdot 16$
$\equiv -10 \cdot 16 \equiv 1(mod23)$;

$5^2 \equiv 2 \not\equiv 1(mod23)$, $5^{11} \equiv (5^2)^5 \cdot 5 \equiv 2^5 \cdot 5 \equiv 45 \equiv -1 \not\equiv 1(mod23)$;

Bulardan 5 sonining 23 moduli bo'yicha eng kichik boilang'ich ildiz ekanligi kelib chiqadi. **Javob**: 10 va 2.

3). Bizda $p = 31$ bo'lgani uchun $\varphi(31-1) = \varphi(30) = 8, ya'ni31$ moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni 8 ga teng. Endi 31 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni topamiz. Buning uchun 31 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,\ldots.,30$ lar orasidan $\varphi(31) = 30$ daraja ko'rsatkichiga tegishli eng kichik sonni topishimiz kerak. $\varphi(31) = 30 = 2 \cdot 3 \cdot 5$ning tub bo'luvchilari 2 ,3 va 5 bo'lgani uchun $g^6 \not\equiv 1(mod31), g^{10} \not\equiv 1(mod31)$, $g^{15} \not\equiv 1(mod31)$ shartlarni qanoatlantiruvchi eng kichik son g topishimiz kerak.

$2^6 \equiv 2 \not\equiv 1(mod31), 2^{10} \equiv (2^5)^2 \equiv 1(mod31); 3^6 \equiv (3^3)^2 \equiv (-4)^2 \not\equiv 1(mod31)$, $3^{10} \equiv (3^5)^2 \equiv (-5)^2 \equiv 25 \equiv 1 \not\equiv 1(mod31);$, $3^{15} \equiv (3^5)^5 \equiv (-5)^3 \equiv -125 \equiv -1 \not\equiv 1(mod31)$. Bulardan 3 sonining 31 moduli bo'yicha eng kichik boilang'ich ildiz ekanligi kelib chiqadi. **Javob**: 8 va 3.

4). Bizda $p = 37$ bo'lgani uchun $\varphi(37-1) = \varphi(36) = 12, ya'ni37$ moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni 12 ga teng. Endi 37 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni topamiz. Buning uchun 37 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,\ldots.,36$ lar orasidan $\varphi(37) = 36$daraja ko'rsatkichiga tegishli eng kichik sonni topishimiz kerak. $\varphi(37) = 36 = 2^2 \cdot 3^2$ning tub bo'luvchilari 2 va 3 bo'lgani uchun $g^{12} \not\equiv 1(mod37)$, $g^{18} \not\equiv 1(mod37)$ shartlarni qanoatlantiruvchi eng kichik son g topishimiz kerak.

$2^{12} \equiv (2^6)^2 \equiv (-10)^2 \equiv -11 \not\equiv 1(mod37), 2^{18} \equiv (2^6)^3 \equiv (-10)^3 \equiv (37 \cdot 27 + 1) \equiv -1 \not\equiv 1(mod37)$. Bulardan 2 sonining 37 moduli bo'yicha eng kichik boslang'ich ildiz ekanligi kelib chiqadi. **Javob**: 12 va 2.

5). Bizda $p = 43$ bo'lgani uchun $\varphi(43-1) = \varphi(42) = 12, ya'ni 43$ moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni 12 ga teng. Endi 43 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni topamiz. Buning uchun 43 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,\ldots,42$ lar orasidan $\varphi(43) = 42$daraja ko'rsatkichiga tegishli eng kichik sonni topishimiz kerak. $\varphi(43) = 42 = 2 \cdot 3 \cdot 7$ ning tub bo'luvchilari $2, 3 va\ 7$ bo'lgani uchun $g^6 \not\equiv 1(mod 43)$, $g^{14} \not\equiv 1(mod 43), g^{21} \not\equiv 1(mod 43)$ shartlarni qanoatlantiruvchi eng kichik son g topishimiz kerak.$2^6 \equiv 64 \equiv 21 \not\equiv 1(mod 43), 2^{14} \equiv (2^7)^2 \equiv (-1)^2 \equiv 1(mod 43);\ 3^6 \equiv 3^4 \cdot 3^2 \equiv -5 \cdot 9 \equiv -2 \not\equiv 1(mod 43), 3^{14} \equiv (3^6)^2 \cdot 3^2 \equiv (-2)^2 \cdot 9 \equiv 36 \not\equiv 1(mod 43),\quad 3^{21} \equiv (3^7)^3 \equiv (-6)^3 \equiv -216 \equiv -1 \not\equiv 1(mod 43)$. Bulardan 3 sonining 43 moduli bo'yicha eng kichik boslang'ich ildiz ekanligi kelib chiqadi. **Javob**: 12 va 3.

6). Bizda $p = 53$ bo'lgani uchun $\varphi(53-1) = \varphi(52) = 24, ya'ni 53$ moduli bo'yicha barcha boshlang'ich ildizlarsoni 24 ga teng. Endi 53 moduli bo'yicha eng kichik boshlang'ich ildizni topamiz. Buning uchun 53 moduli bo'yicha chegirmalarning keltirilgan sistemasi $2,3,4,\ldots,52$ lar orasidan $\varphi(53) = 52$daraja ko'rsatkichiga tegishli eng kichik sonni topishimiz kerak. $\varphi(53) = 52 = 2^2 \cdot 13$ ning tub bo'luvchilari 2 va 13 bo'lgani uchun $g^4 \not\equiv 1(mod 53)$, $g^{26} \not\equiv 1(mod 53)$ shartlarni qanoatlantiruvchi eng kichik son g topishimiz kerak. $2^4 \not\equiv 1(mod 53), 2^{26} \equiv (2^7)^3 \cdot 2^5 \equiv (22)^3 \cdot (-21) \equiv -11^3 \cdot 8 \cdot 21 \equiv -121 \cdot 11 \cdot 168 \equiv -15 \cdot 11 \cdot 8 \equiv -6 \cdot 8 \equiv 5 \not\equiv 1(mod 53)$; Bulardan 2 sonining 53 moduli bo'yicha eng kichik boslang'ich ildiz ekanligi kelib chiqadi.

Javob: 24 va 2.

314.1). $p = 19$ moduli bo'yicha eng kichik boslang'ich ildiz 313.1)-misolga asosan $g = 2$ ga teng.Boshlang'ich ildizlarni aniqlashning usuli bu agar p moduli bo'yicha boshlang'ich ildizlardan birortasi (yaxshisi eng kichigi) $g$ma'lum bo'lsa qolgan barchasini $g^k\ (mod p)$ ning eng kichik musbat chegirmasi sifatida aniqlash mumkin. Bunda $(k, p-1) = 1\ va\ 1 < k < p-1$. Bizning misolimizda $p = 19, g = 2$ bo'lgani uchun $2^k\ (mod 19)$ ning $(k, 18) = 1$ va $1 < k < 18$

shartlarda eng kichik musbat chegirmasinianiqlaymiz. Bundan $k = 5, 7, 11, 13, 17$ va $2^5 \equiv 13(mod19)$; $2^7 \equiv 13 \cdot 4 \equiv 14(mod19)$; $2^{11} \equiv 14 \cdot 16 \equiv -5 \cdot (-3) \equiv 15(mod19)$; $2^{13} \equiv 15 \cdot 4 \equiv 4 \cdot (-4) \equiv 3(mod19)$; $2^{17} \equiv 3 \cdot 16 \equiv 10(mod19)$. Demak, $2, 3, 10, 13, 14, 15$ sonlari 19 moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'ladi. **Javob**:$2, 3, 10, 13, 14, 15$.

2). $p = 23$ moduli bo'yicha eng kichik boslang'ich ildiz 313.2)-misolga asosan $g = 5$ ga teng.Bizning misolimizda $p = 23, g = 5$ bo'lgani uchun $5^k(mod23)$ ning $(k, 22) = 1$ va $1 < k < 22$ shartlarda eng kichik musbat chegirmasinianiqlaymiz. Bundan $k = 3, 5, 7, 9, 13, 15, 17, 19, 21$ va $5^3 \equiv 125 \equiv 10(mod23)$; $5^5 \equiv 10 \cdot 25 \equiv 10 \cdot 2 \equiv 20\ (mod23)$; $5^7 \equiv -3 \cdot 2 \equiv 17(mod23)$; $5^9 \equiv -6 \cdot 2 \equiv 11(mod23)$; $5^{13} \equiv 5^9 \cdot 5^4 \equiv 11 \cdot 4 \equiv 21(mod23)$; $5^{15} \equiv -2 \cdot 2 \equiv 19(mod23)$; $5^{17} \equiv -4 \cdot 2 \equiv 15(mod23)$; $5^{19} \equiv -8 \cdot 2 \equiv 7(mod23)$; $5^{21} \equiv 7 \cdot 2 \equiv 14(mod23)$.
Demak, $5, 7, 10, 13, 14, 15, 17, 19, 20, 21$ sonlari 23 moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'ladi. **Javob**:$5, 7, 10, 13, 14, 15, 17, 19, 20, 21$.

3). $p = 31$ moduli bo'yicha eng kichik boslang'ich ildiz 313.3)-misolga asosan $g = 3$ ga teng. Bizning misolimizda$p = 31$, $g = 3$ bo'lgani uchun $3^k(mod31)$ ning $(k, 30) = 1$ va $1 < k < 30$ shartlarda eng kichik musbat chegirmasinianiqlaymiz. Bundan $k = 7, 11, 13, 17, 19, 23, 29$ va $3^7 \equiv 3^3 \cdot 3^3 \cdot 3 \equiv (-4)^2 \cdot 3 \equiv 17(mod31)$; $3^{11} \equiv 3^7 \cdot 3^4 \equiv 17 \cdot 19 \equiv 323 \equiv 13(mod31)$; $3^{13} \equiv 13 \cdot 9 \equiv 24(mod31)$; $3^{17} \equiv -7 \cdot 19 \equiv -133 \equiv 22(mod31)$; $3^{19} \equiv 22 \cdot 9 \equiv -81 \equiv 12(mod31)$; $3^{23} \equiv 12 \cdot 81 \equiv 12 \cdot 19 \equiv 228 \equiv 11(mod31)$; $3^{29} \equiv 3^{23} \cdot 3^2 \cdot 3^4 \equiv 11 \cdot 9 \cdot 19 \equiv 6 \cdot 19 \equiv 114 \equiv 21(mod31)$. Demak, $3, 11, 12, 13, 17, 21, 22, 24$ sonlari 31 moduli bo'yicha boshlang'ich ildiz bo'ladi. **Javob**:$3, 11, 12, 13, 17, 21, 22, 24$.

315. 6 moduli bo'yicha $\varphi\big(\varphi(6)\big) = \varphi(2) = 1$ ta boshlang'ich ildizlar sinfi mavjud. U $1 < x < 6$, $(x, 6) = 1$ shartni qanoatlantirishi kerak. Bu shartni qanoatlantiruvchi birta 5 soni mavjud va $5^1 \equiv 5(mod6)$; $5^2 \equiv 25 \equiv 1(mod6)$

bo’lgani uchun 6 moduli bo’yicha 1 ta boshlang’ich ildizlar sinfi mavjud va u $x \equiv 5(mod6)$ dan iborat. **Javob**: $x \equiv 5(mod6)$.

316. 312.2)-misolga asosan$g = 2$ soni $p = 11$ moduli bo’yicha boshlang’ich ildiz. $2^0 -$ xossaga asosan $2, 2^2, \dots, 2^{10}$ sonlari $p = 11$ moduli bo’yicha chegermalarning keltirilgan sistemasini tashkil etadi.

317. $p > 2 -$ tub soni $2^{2^n} + 1, (n = 1,2, \dots)$sonining tub bo’luvchisi bo’lsa, $2^{2^n} + 1 \equiv 0(modp)$ bajarilishi kerak, bundan $2^{2^n} \equiv -1(modp)$. Buning ikkala tomonini kvadratga ko’tarsak $2^{2^{n+1}} \equiv 1(modp)$ hosil bo’ladi. Bundan esa 2 soni p moduli bo’yicha 2^{n+1} ko’rsatkichiga tegishli ekanligi kelib chiqadi. U holda 2^{n+1}soni $\varphi(p) = p - 1$ ning bo’luvchisi bo’lishi kerak, ya’ni $p - 1 \equiv 0(mod2^{n+1}) \rightarrow p \equiv 1(mod2^{n+1}) \rightarrow p = k \cdot 2^{n+1} + 1$.

318. Ma’lumki agar$a, (a, m) = 1$ soni m moduli bo’yicha $\delta > 0$ ko’rsatkichga tegishli bo’lsa, δ soni $a^\delta \equiv 1(modm)$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik musbat son bo’lib $\varphi(m)$ ning bo’luvchisi bo’lishi kerak. Endi $a > 1$ sonining $a^m - 1$ moduli bo’yicha qanday ko’rsatkichga tegishli ekanligini aniqlaylik. Tushunarliki, $a^m \equiv 1\big(mod(a^m - 1)\big)$ bajariladi. $a > 1$ bo’lgani uchun $1 < k < m$ bo’lsa, $a^k \not\equiv 1\big(mod(a^m - 1)\big)$ bo’ladi. Shuning uchun ham $P_{a^m-1}(a) = m$ va m soni $\varphi(a^m - 1)$ ning bo’luvchisi bo’lishi kerak. Demak, $\varphi(a^m - 1) \equiv 0(modm)$ bajariladi.

11). Berilgan $x^2 \equiv 32(mod43)$ ning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $2indx \equiv ind32(mod42)$ hosil bo'ladi. Bu yerdagi $ind32$ ning qiymatlarini 43 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan topib olib kelib qo'yamiz. $ind32 = 9$ bo'lgani uchun $2indx \equiv 9(mod42)$. Bu yerda $(2,42) = 2$, lekin 9 soni 2 ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham oxirgi taqqoslama va demak, berilgan taqqoslama ham yechimga ega emas. **Javob:** taqqoslama yechimga ega emas.

12).Berilgan taqqoslama $x^2 \equiv -17(mod53)$ni $x^2 \equiv 36(mod53)$ ko'rinishda yozib olib, uning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $2indx \equiv$

$ind36(mod52)$ hosil bo'ladi. Bu yerdagi $ind36$ ning qiymatlarini 53 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan topib olib kelib qo'yamiz. $ind36 = 36$ bo'lgani uchun$2indx \equiv 36(mod52) \rightarrow indx \equiv 18(mod26) \rightarrow indx \equiv 18{,}44(mod52)$. Endi anti indekslar jadvallaridan foydalanib x ni topamiz. U holda$x \equiv 6{,}47(mod53)$ ni hosil bo'ladi. **Javob:** $x \equiv \pm 6(mod53)$.

13). Berilgan taqqoslama $x^2 \equiv -28(mod67)$ ni $x^2 \equiv 39(mod67)$ ko'rinishda yozib olib, uning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $2indx \equiv ind39(mod66)$ hosil bo'ladi. Bu yerdagi $ind39$ ning qiymatlarini 67 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan topib olib kelib qo'yamiz. $ind39 = 58$ bo'lgani uchun $2indx \equiv 58(mod66) \rightarrow indx \equiv 29(mod33) \rightarrow indx \equiv 29{,}62(mod66)$. Endi anti indekslar jadvallaridan foydalanib x ni topamiz. U holda$x \equiv 46{,}21(mod67)$ ni hosil bo'ladi. **Javob:** $x \equiv \pm 21(mod67)$.

14). Berilgan taqqoslama $x^2 \equiv 56(mod41)$ ni $x^2 \equiv 15(mod41)$ ko'rinishda yozib olib, uning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $2indx \equiv ind15(mod40)$ hosil bo'ladi. Bu yerdagi $ind15$ ning qiymatlarini 41 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan topib olib kelib qo'yamiz. $ind15 = 37$ bo'lgani uchun $2indx \equiv 37(mod40)$. Bu yerda $(2{,}40) = 2$, lekin 37 soni 2 ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham oxirgi taqqoslama va demak, berilgan taqqoslama ham yechimga ega emas. **Javob:** taqqoslama yechimga ega emas.

331. Eyler kriteriyasiga asosan$a$ sonining $p -$ tub modul bo'yicha kvadratik chegirma bo'lishi uchun $a^{\frac{p-1}{2}} \equiv 1(modp)$ $(*)$ shart bajarilishi kerak.

1). $p = 23$ da (*) dan $a^{11} \equiv 1(mod23)$ kelib chiqadi. Berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan shu shartni ajratib olish uchun oxirgi taqqoslamani indekslardan foydalanib yechamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz: $11inda \equiv 0(mod22) \rightarrow inda \equiv 0(mod2)$. Bu yerdan $inda$ ning juft son bo'lishi kerak ekanligi kelib chiqadi. $p = 23$moduli bo'yicha indekslar jadvalidan berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan indekslari juft son bo'lganlarini ajratib olamiz. $ind15 = 17, ind16 = 8, ind17 = 7, ind18 = 12, ind19 = 15, ind20 = 5$ bo'lgani uchun qaralayotgan shartni qanoatlantiruvchilari 16 va 18 bo'ladi.

Shuning uchun ham 16 va 18 sonlari 23 moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi. **Javob:** 16 va 18.

2). $p = 29$ da (*) dan $a^{14} \equiv 1(mod29)$ kelib chiqadi. Berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$ orasidan shu shartni ajratib olish uchun oxirgi taqqoslamani indekslardan foydalanib yechamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz: $14inda \equiv 0(mod28) \rightarrow inda \equiv 0(mod2)$. Bu yerdan $inda$ ning juft son bo'lishi kerak ekanligi kelib chiqadi. $p = 29$ moduli bo'yicha indekslar jadvalidan berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan indekslari juft son bo'lganlarini ajratib olamiz. $ind15 = 27, ind16 = 4, ind17 = 21, ind18 = 11, ind19 = 9, ind20 = 24$ bo'lgani uchun qaralayotgan shartni qanoatlantiruvchilari 16 va 20 bo'ladi. Shuning uchun ham 16 va 20 sonlari 29 moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi. **Javob:** 16 va 20.

3). $p = 41$ da (*) dan $a^{20} \equiv 1(mod41)$ kelib chiqadi. Berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan shu shartni ajratib olish uchun oxirgi taqqoslamani indekslardan foydalanib yechamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz: $20inda \equiv 0(mod40) \rightarrow inda \equiv 0(mod2)$. Bu yerdan $inda$ ning juft son bo'lishi kerak ekanligi kelib chiqadi. $p = 41$ moduli bo'yicha indekslar jadvalidan berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan indekslari juft son bo'lganlarini ajratib olamiz. $ind15 = 37, ind16 = 24, ind17 = 33, ind18 = 16, ind19 = 9, ind20 = 34$ bo'lgani uchun qaralayotgan shartni qanoatlantiruvchilari 16,18va 20 bo'ladi. Shuning uchun ham 16,18 va 20 sonlari 41moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi. Javob: 16,18 va 20.

4). $p = 73$ da (*) dan $a^{36} \equiv 1(mod73)$ kelib chiqadi. Berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$ orasidan shu shartni ajratib olish uchun oxirgi taqqoslamani indekslardan foydalanib yechamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz: $36inda \equiv 0(mod72) \rightarrow inda \equiv 0(mod2)$. Bu yerdan $inda$ ning juft son bo'lishi kerak ekanligi kelib chiqadi. $p = 73$moduli bo'yicha indekslar jadvalidan berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$ orasidan indekslari juft son bo'lganlarini ajratib olamiz. $ind15 = 7, ind16 = 32, ind17 = 21, ind18 = 20, ind19 = 62, ind20 = 17$ bo'lgani uchun qaralayotgan shartni qanoatlantiruvchilari 16,18va 19 bo'ladi.

Shuning uchun ham 16,18 va 19 sonlari 73moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi. **Javob:** 16,18 va 19.

5). $p = 97$ da (*) dan $a^{48} \equiv 1(mod97)$ kelib chiqadi. Berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan shu shartni ajratib olish uchun oxirgi taqqoslamani indekslardan foydalanib yechamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz: $48inda \equiv 0(mod96) \rightarrow inda \equiv 0(mod2)$. Bu yerdan $inda$ ning juft son bo'lishi kerak ekanligi kelib chiqadi. $p = 97$moduli bo'yicha indekslar jadvalidan berilgan sonlar $15, 16, 17, 18, 19, 20$orasidan indekslari juft son bo'lganlarini ajratib olamiz. $ind15 = 71, ind16 = 40, ind17 = 89, ind18 = 78, ind19 = 81, ind20 = 69$ bo'lgani uchun qaralayotgan shartni qanoatlantiruvchilari 16 va 18 bo'ladi. Shuning uchun ham 16 va18 sonlari 97moduli bo'yicha kvadratik chegirma bo'ladi. **Javob:** 16 va 18.

332. Berilgan modul bo'yicha indekslarninga_1 asosga ko'ra sistemasidan ikkinchi bir a_2 ko'ra sistemasiga o'tish formulasini keltirib chiqarish talab etilsin. Ma'lumki, ${a_2}^{ind_{a_2}b} \equiv b(modp)$. Buning ikkala tomonini a_1 asosga ko'ra indekslaymiz. U holda $ind_{a_2}b \cdot ind_{a_1}a_2 \equiv ind_{a_1}b(modp-1)$. Bundan

$$ind_{a_2}b \equiv (ind_{a_1}a_2)^{\varphi(p-1)-1} ind_{a_1}b(modp-1).$$

Misol uchun $ind_2 7 = 7(mod11)$ dan $ind_8 7 \equiv 7 \cdot (ind_2 8)^{\varphi(10)-1}(mod10) \equiv 7 \cdot (ind_2 8)^3(mod10) \equiv 7 \cdot 3^3(mod10) \equiv 9(mod10)$. Demak, $ind_8 7 = 9\ (mod11)$.

Javob: $ind_{a_2}b \equiv (ind_{a_1}a_2)^{\varphi(p-1)-1} ind_{a_1}b(modp-1)$.

333. 1). a ning qanday butun qiymatlarida $3a^2 - 5 \vdots 17$ munosabat o'rinli ekanligini aniqlashimiz kerak. Bu munosabat $3a^2 \equiv 5(mod17)$ taqqoslamaga teng kuchli. Bundan $ind3 + 2inda \equiv ind5(mod16)$. Bu yerda $ind3 = 1, ind5 = 5$ bo'lgani uchun $1 + 2inda \equiv 5(mod16) \rightarrow 2inda \equiv 4(mod16) \rightarrow inda \equiv 2(mod8) \rightarrow inda \equiv 2, 10(mod16) \rightarrow a \equiv 9, 8(mod17)$.

Javob: $a \equiv \pm 8(mod17)$.

2). a ning qanday butun qiymatlarida $7a^2 + 13 \vdots 23$munosabat o'rinli ekanligini aniqlashimiz kerak. Bu munosabat $7a^2 \equiv -13(mod23) \rightarrow 7a^2 \equiv 10(mod23)$ taqqoslamaga teng kuchli. Bundan $ind7 + 2inda \equiv ind10(mod22)$.

Bu yerda $in\square 7 = 19, ind10 = 3$ bo'lgani uchun $19 + 2inda \equiv 3(mod22) \rightarrow 2inda \equiv -16(mod22) \rightarrow 2inda \equiv 6(mod22) \rightarrow inda \equiv 3(mod11) \rightarrow inda \equiv 3{,}14(mod22) \rightarrow a \equiv 10, 13(mod23)$. **Javob:** $a \equiv \pm 10(mod23)$.

3).a ning qanday butun qiymatlarida $13a^2 - 11 \vdots 29$ munosabat o'rinli ekanligini aniqlashimiz kerak. Bu munosabat $13a^2 \equiv 11(mod29)$ taqqoslamaga teng kuchli. Bundan $ind13 + 2inda \equiv ind11(mod28)$. Bu yerda $ind13 = 18, ind11 = 25$bo'lgani uchun $18 + 2inda \equiv 25(mod28) \rightarrow 2inda \equiv 7(mod28)$. Bu yerda $(2{,}28) = 2$, lekin25 soni 2 ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham oxirgi taqqoslama yechimga ega emas. Demak, a ning $13a^2 - 11 \vdots 29$ ifoda o'rinli bo'lgan butun qiymatlari mavjud emas.

Javob: bunday qiymatlar mavjud emas.

V.3-§.

334. 1).$a = 2^{64}$ sonini $m = 360$ ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish uchun$2^{64} \equiv r(mod360)$ taqqoslamadan r ni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirma sifatida aniqlash kerak bo'ladi. $2^{64} = (2^{15})^4 \cdot 2^4 = 32768^4 \cdot 16 \equiv (360 \cdot 91 + 8)^4 \cdot 16 \equiv 8^4 \cdot 16 \equiv 4096 \cdot 16 \equiv (360 \cdot 11 + 136) \cdot 16 \equiv 136 \cdot 16 \equiv (360 \cdot 6 + 16) \equiv 16(m\square d360)$. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 16 ga teng. **Javob:** 16.

2).$a = 1532^5 - 1$ sonini $m = 9$ ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish uchun$1532^5 - 1 \equiv r(mod9)$ taqqoslamadan r ni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirma sifatida aniqlash kerak bo'ladi. $1532^5 - 1 \equiv (9 \cdot 170 + 2)^5 - 1 \equiv 2^5 - 1 \equiv 31 \equiv 4(mod9)$. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 4 ga teng.**Javob:** 4.

3).$a = (12371^{56} + 34)^{28}$sonini $m = 111$ ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish uchun$(12371^{56} + 34)^{28} \equiv r(mod111)$ taqqoslamadan r ni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirma sifatida aniqlash kerak bo'ladi. $(12371^{56} + 34)^{28} \equiv (50^{56} + 34)^{28} \equiv ((50^4)^{14} + 34)^{28} \equiv (34^{14} + 34)^{28} \equiv ((34^2)^7 + 34)^{28} \equiv (46^7 + 34)^{28} \equiv ((46^2)^3 \cdot 46 + 34)^{28} \equiv (7^3 \cdot 46 + 34)^{28} \equiv (16 + 34)^{28} \equiv 50^{28} \equiv (50^4)^7 \equiv 34^7 \equiv (34^2)^3 \cdot 34 \equiv 46^3 \cdot 34 \equiv 7 \cdot 46 \cdot 34 \equiv 70(mod111)$. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 70 ga teng. **Javob:** 70.

4). $a = 8!$ sonini $m = 11$ ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish uchun $8! \equiv r(mod11)$ taqqoslamadan r ni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirma sifatida aniqlash kerak bo'ladi. $8! \equiv 4! \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \equiv 2 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 1 \equiv 5(mod11)$. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 5 ga teng. **Javob:** 5.

335. Agar$a^x \equiv 2(mod13)$va $a^{x+1} \equiv 6(mod13)$ bo'lsa, $a$sonini $m = 13$ ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish uchun ikkinchi taqqoslamani birinchi taqqoslamaga hadlab bo'lamiz. U holda $a \equiv 3(mod13)$ hosil bo'ladi. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 3 ga teng. **Javob:** 3.

336. 1). $(13, 174) = 1$ bo'lgani uchun Eyler teoremasiga asosan $174^{\varphi(13)} \equiv 1(mod13) \rightarrow (13 \cdot 13 + 5)^{12} \equiv 1(mod13) \rightarrow 5^{12} \equiv 1(mod13)$ bajarilishi kerak. Bundan $174^{249} \equiv (5^{12})^{20} \cdot 5^9 \equiv (5^3)^3 \equiv (-5)^3 \equiv 5(mod13)$. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 5 ga teng. **Javob:** 5.

2).$1863^5 - 5 \equiv r(mod10)$ taqqoslamadan r ni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirma sifatida aniqlash kerak bo'ladi. Bu yerda $1863^5 - 5 \equiv 3^5 - 5(mod10)$ va $(3, 10) = 1$ bo'lgani uchun Eyler teoremasiga asosan $3^{\varphi(10)} \equiv 1(mod10) \rightarrow 3^4 \equiv 1(mod10)$ bajarilishi kerak. Bundan $3^5 - 5 \equiv 3^4 \cdot 3 - 5 \equiv 3 - 5 \equiv 8(mod10)$.Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 8 ga teng. **Javob:** 8.

3). $2^{37 \cdot 73 - 1} \equiv r(mod37 \cdot 73)$ taqqoslamadan r ni manfiy bo'lmagan eng kichik chegirma sifatida aniqlash kerak bo'ladi. Eyler teoremasiga asosan $2^{\varphi(37)} \equiv 1(mod37) \rightarrow 2^{36} \equiv 1(mod37) \rightarrow 2^{72} \equiv 1(mod37) \rightarrow 2^{73} \equiv 2(mod37)$ (1) bajarilishi kerak. Ikkinchi tomondan $2^{\varphi(73)} \equiv 1(mod73) \rightarrow 2^{72} \equiv 1(mod73) \rightarrow 2^{73} \equiv 2(mod73)$(2) bajariladi. (1) va (2) lardan $2^{73} \equiv 2(mod37 \cdot 73)$ (3) kelib chiqadi. Shuningdek $2^9 \equiv 1(mod73) \rightarrow 2^{36} \equiv 1(mod73) \rightarrow 2^{37} \equiv 2(mod73)$ va $2^{37} \equiv 2(mod37)$ bo'lgani uchun $2^{37} \equiv 2(mod37 \cdot 73)$ (4). (3)va (4) larga ko'ra $(2^{37})^{73} \equiv 2^{73} \equiv 2(mod37 \cdot 73)$. Bundan$2^{37 \cdot 73 - 1} \equiv 1(mod37 \cdot 73)$ ga ega bo'lamiz. Shuning uchun ham izlanayotgan qoldiq 1 ga teng. **Javob:**1.

337. Berilgan sonning oxirgi ikkita raqamini topish uchun uni 100 bo'lishdan chiqqan qoldig'ini topish yetarli bo'ladi.

1).$203^{20} \equiv r(mod100)$ dan $r \geq 0$ ni aniqlaymiz. Bu yerda $203^{20} = (100 \cdot 2 + 3)^{20} \equiv (3^5)^4 \equiv 243^4 \equiv 43^4 \equiv (43^2)^2 \equiv 1849^2(mod100) \equiv 49^2 \equiv 2401(mod100)$. Bu yerdan berilgan sonning oxirgi ikki raqami 0 va 1 ekanligi kelib chiqadi. **Javob:** 0 va 1.

2).$243^{402} \equiv 43^{402}(mod100)$ dan $r \geq 0$ ni aniqlaymiz. Bu yerda $43^{402} = (43^2)^{201} \equiv 49^{201} \equiv (49^2)^{100} \cdot 49 \equiv 49(mod100))$. Bundan berilgan sonning oxirgi ikki raqami 4 va 9 ekanligi kelib chiqadi. **Javob:** 4 va 9.

3). Bu yerda$1812 \cdot 1941 \cdot 1965 \equiv 12 \cdot 41 \cdot 65 \equiv 492 \cdot 65 \equiv -8 \cdot 65 \equiv 8 \cdot 35 \equiv 280\ (mod100)$ Bundan berilgan sonning oxirgi ikki raqami 8 va 0 ekanligi kelib chiqadi. **Javob:** 8 va 0.

4).$(116 + 17^{17})^{21} \equiv (16 + 17^{17})^{21}$ dan $r \geq$ 0 ni aniqlaymiz. Bu yerda $17^{17} \equiv (17^2)^8 \cdot 17 \equiv 289^8 \cdot 17 \equiv (-11)^8 \cdot 17 \equiv 121^4 \cdot 17 \equiv 21^4 \cdot 17 \equiv (21^2)^2 \cdot 17 \equiv 41^2 \cdot 17 \equiv 1681 \cdot 17 \equiv (-19) \cdot 17 \equiv -323 \equiv -23(mod100)$ bo'lgani uchun $(16 - 23)^{21} \equiv (-7)^{21} \equiv ((-7)^4)^5 \cdot (-7) \equiv 2401^5 \cdot (-7) \equiv -7 \equiv 93(mod100)$. Bundan berilgan sonning oxirgi ikki raqami 9 va 3 ekanligi kelib chiqadi. **Javob:** 9 va 3.

338.1).$2^{32} + 1$ ning 641 ga bo'linishini isbotlash uchun $2^{32} + 1 \equiv 0(mod641)$ taqqoslamaning bajarilishini ko'rsatamiz. Bu taqqoslamadan $2^{32} \equiv -1(mod641) \rightarrow 2^{32} \equiv 640(mod641) \rightarrow 2^{25} \equiv 5 \rightarrow 2^{25} = (2^{12})^2 \cdot 2 = 4096 \cdot 2 = (641 \cdot 6 + 250)^2 \cdot 2 \equiv 250^2 \cdot 2 \equiv 125000 \equiv 641 \cdot 195 + 5 \equiv 5\ (mod641)$. Demak, berilgan $2^{32} + 1$ soni 641 ga bo'linadi.

2). $A = 222^{555} + 555^{222}$ ning 7 ga bo'linishini isbotlash uchun$222^{555} + 555^{222} \equiv 0(mod7)$ taqqoslamaning bajarilishini ko'rsatamiz. Bu taqqoslamadan $A = (7 \cdot 31 + 5)^{555} + (7 \cdot 79 + 2)^{222} \equiv 5^{555} + 2^{222} \equiv (-2)^{555} + 2^{222} \equiv -2^{555} + 2^{222} \equiv 2^{222}(-2^{333} + 1)$. Bu yerda $2^{222} \equiv (2^3)^{74} \equiv 1(mod7)$ va$2^{333} \equiv (2^3)^{111} \equiv 1(mod7)$ bo'lgani uchun $A \equiv 1 \cdot (-1 + 1) \equiv 0\ (mod7)$. Demak, berilgan A soni 7 ga bo'linadi.

3). $A = 220^{119^{69}} + 69^{220^{119}} + 119^{69^{220}}$ ning 102 ga bo'linishini isbotlash uchun$220^{119^{69}} + 69^{220^{119}} + 119^{69^{220}} \equiv 0(mod102)$ taqqoslamaning bajarilishini

ko’rsatamiz. Bu yerda $102 = 2 \cdot 3 \cdot 17$ bo’lgani uchun $220^{119^{69}} + 69^{220^{119}} + 119^{69^{220}} \equiv 0(mod2), 220^{119^{69}} + 69^{220^{119}} + 119^{69^{220}} \equiv 0(mod3),$ $220^{119^{69}} + 69^{220^{119}} + 119^{69^{220}} \equiv 0(mod17)$larning bajarilishini ko’rsatamiz. Bundan esa $A \equiv 0(mod102)$ kelib chiqadi. Bu yerda $220^{119^{69}} \equiv 0(mod2),$ $69^{220^{119}} \equiv 1(mod2)va119^{69^{220}} \equiv 1(mod2)$bo’lgani uchun$A \equiv (0 + 1 + 1) \equiv 0\ (mod2)$ bo’ladi. $220^{119^{69}} \equiv 1(mod3),\ 69^{220^{119}} \equiv 0(mod3)va(-1)^{69^{220}} \equiv -1(mod3)$bo’lgani uchun$A \equiv (1 + 0 - 1) \equiv 0\ (mod3)$ bo’ladi. $220^{119^{69}} \equiv -1(mod17),\ 69^{220^{119}} \equiv 1(mod17)va119^{69^{220}} \equiv 0(mod17)$bo’lgani uchun$A \equiv (-1 + 1 + 0) \equiv 0\ (mod17)$ bo’ladi. Demak, berilgan A soni 102 ga bo’linadi.

4). $A = 6^{2n+1} + 5^{n+2}$ ning 31 ga bo’linishini isbotlash uchun$6^{2n+1} + 5^{n+2} \equiv 0(mod31)$ taqqoslamaning bajarilishini ko’rsatamiz. Bu yerda $6^{2n+1} = (6^2)^n \cdot 6 \equiv 36^n \cdot 6 \equiv 5^n \cdot (-25) \equiv -5^{n+2}$ bo’lgani uchun $A = 6^{2n+1} + 5^{n+2} \equiv -5^{n+2} + 5^{n+2} \equiv 0(mod31)$bo’ladi. Demak, berilgan A soni 31 ga bo’linadi.

339.$4^{\varphi(m)-1} \equiv r(modm)$ dan $m > 1 -$ toq son bo’lganida $0 \le r < m$ shartni qanoatlantiruvchi r ni aniqlaymiz. $4^{\varphi(m)-1} \equiv r(modm) \to 4^{\varphi(m)} \equiv 4r(modm)$ va bundan $(4, m) = 1$ bo’lgani uchun Eyler teoremasiga asosan $4r \equiv 1(modm)$. Bu yerda $m > 1 -$ toq son bo’lgani uchun uni 4 moduli bo’yicha $m = 4q \pm 1$ ko’rinishlarida yozish mumkin. Agar $m = 4q + 1$ ko’rinishida bo’lsa, $4r \equiv 1(modm) \to 4r = 1 + 3m(modm) \equiv 12q + 4(modm) \to r \equiv 3q + 1(modm) \to 3 \cdot \frac{m-1}{4} + 1 \equiv \frac{3m+1}{4}(modm)$. Bu yerda $\frac{3m+1}{4} < m$ va $m > 1$ bo’lganda izlanayotgan qoldiqni beradi.Agar $m = 4q - 1$ ko’rinishida bo’lsa, $4r \equiv 1(modm) \to 4r = 1 + m(modm) \equiv 4q(modm) \to r \equiv q(modm) \to r \equiv \frac{m+1}{4}(modm)$. Demak, bu holda $\frac{m+1}{4} < m, (m > 1)$ izlanayotgan qoldiq bo’ladi.

Javob: Agar $m = 4q + 1$ ko’rinishida bo’lsa, $\frac{3m+1}{4}$ ga va agar r $m = 4q - 1$ ko’rinishida bo’lsa, $\frac{m+1}{4}$ ga teng.

340.1).Indekslardan foydalanib berilgan$a = 10^{10}$ sonini $m = 67$ga bo’lishdan chiqqan qoldiqni topish talab qilnayapti. Buning uchun $10^{10} \equiv$

$r(mod67)$ dan $0 \le r < 67$ shartni qanoatlantiruvchi r ni aniqlaymiz. Taqqoslamaning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $10ind10 \equiv indr(mod66)$ga ega bo'lamiz. Bu yerda 67 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan $ind10 = 16$ ekanligini aniqlaymiz. U holda $10 \cdot 16 \equiv indr(mod66) \to indr \equiv 28(mod66)$. Anti indekslar jadvalidan foydalanib bu yerdan $r \equiv 23(mod67)$ ekanligini topamiz. Demak, izlanayotgan qoldiq 23 ga teng ekan. **Javob:** 23.

2).Indekslardan foydalanib berilgan$a = 178^{52}$ sonini $m = 11$ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish talab qilnayapti. Buning uchun $178^{52} \equiv r(mod11)$ dan $0 \le r < 11$ shartni qanoatlantiruvchi r ni aniqlaymiz. Taqqoslamani $178^{52} \equiv r(mod11) \to (11 \cdot 16 + 2)^{52} \equiv r(mod11) \to 2^{52} \equiv r(mod11)$ ko'rinishda yozib olamiz va uning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $52ind2 \equiv indr(mod10)$ga ega bo'lamiz. Bu yerda 67 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan $ind2 = 1$ ekanligini aniqlaymiz. U holda $52 \equiv indr(mod10) \to indr \equiv 2(mod10)$. Anti indekslar jadvalidan foydalanib bu yerdan $r \equiv 4(mod11)$ ekanligini topamiz. Demak, izlanayotgan qoldiq 4 ga teng ekan. **Javob:** 4.

3).Indekslardan foydalanib berilgan$a = 2017^{2018}$ sonini $m = 11$ga bo'lishdan chiqqan qoldiqni topish talab qilnayapti. Buning uchun $2017^{2018} \equiv r(\square od11)$ dan $0 \le r < 11$ shartni qanoatlantiruvchi r ni aniqlaymiz. Taqqoslamani $2017^{2018} \equiv r(mod11) \to (11 \cdot 183 + 4)^{2018} \equiv r(mod11) \to 4^{2018} \equiv r(mod11)$ ko'rinishda yozib olamiz va uning ikkala tomonini indekslaymiz. U holda $2018ind4 \equiv indr(mod10) \to (10 \cdot 201 + 8)ind4 \equiv indr(mod10) \to 8ind4 \equiv indr(mod10)$ga ega bo'lamiz. Bu yerda 11 moduli bo'yicha indekslar jadvalidan $ind4 = 2$ ekanligini aniqlaymiz. U holda $16 \equiv indr(mod10) \to indr \equiv 6(mod10)$. Anti indekslar jadvalidan foydalanib bu yerdan $r \equiv 9(mod11)$ ekanligini topamiz. Demak, izlanayotgan qoldiq 9 ga teng ekan. **Javob:** 9.

341. Paskalning umumiy bo'linish belgisini ifodalovchi nazaruy qismdagi (1)-formuuladan foydalanamiz.Unga ko'ra $N = a_0 + a_1 \cdot 10 + a_2 \cdot 10^2 + \ldots +$

$a_n \cdot 10^n \equiv a_0 + a_1 \cdot r_1 + a_2 \cdot r_2 + \ ... + \ a_n \cdot r_n \ (modm)$(1) bajariladi. Bu yerda $10^k \equiv r_k(modm),\ k = 1, 2, \dots, n.$

1). 6 ga bo'linish belgisini keltirib chiqarish uchun yuqoridagi formulada $m = 6$ deb olamiz. U holda $10 \equiv 4(mod6),\ 10^2 \equiv 4(mod6), 10^3 \equiv 4(modm), \dots$ bo'lgani uchun $10^k \equiv 4(mod6), k = 1,2,3, \dots, n$ bo'ladi. Shuning uchun (1) dan $N \equiv a_0 + 4(a_1 + a_2 + \ ... + \ a_n)\ (mod6)$ ni hosil qilamiz. Bu yerdan quyidagi xulosaga kelamiz. Berilgan N sonining 6 ga bo'linishi uchun $a_0 + 4(a_1 + a_2 + \ ... + \ a_n)$ ifodaning 6 ga bo'linishi zarur va yetarlidir. Misol uchun 26676 sonining 6 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiraylik. Bu yerda $6 + 4(7 + 6 + 6 + 2\ ) = 6 + 84 = 90$ bo'lib, 90 soni 6 ga bo'linadi. Shuning uchun berilgan son ham 6 ga bo'linadi. Endi 22593 sonining 6 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiraylik. Bu yerda $3 + 4(9 + 5 + 2 + 2\ ) = 3 + 72 = 75$ bo'lib, 75 soni 6 ga bo'linmaydi. Shuning uchun berilgan son ham 6 ga bo'linmaydi.

2). 8 ga bo'linish belgisini keltirib chiqarish uchun yuqoridagi formulada $m = 8$ deb olamiz. U holda $10 \equiv 2(mod8),\ 10^2 \equiv 4(mod8)$va $l \geq 3$ bo′lsa, $10^l \equiv 0(mod8)$ bo'lgani uchun (1) dan $N \equiv (a_0 + 2a_1 + 4a_2\ )\ (mod8)$ ni hosil qilamiz. Bu yerdan quyidagi xulosaga kelamiz. Berilgan N sonining 8 ga bo'linishi uchun $a_0 + 2a_1 + 4a_2$ ifodaning 8 ga bo'linishi zarur va yetarlidir. Misol uchun 38624 sonining 8ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiraylik. Bu yerda $4 + 2 \cdot 2 + 4 \cdot 6 = 32$ bo'lib, 32 soni 8 ga bo'linadi. Shuning uchun berilgan son ham 8 ga bo'linadi. Endi 24674 sonining 8 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiraylik. Bu yerda $4 + 2 \cdot 7 + 4 \cdot 6 = 42$ bo'lib, 42 soni 8 ga bo'linmaydi. Shuning uchun berilgan son ham 8 ga bo'linmaydi.

3). 12 ga bo'linish belgisini keltirib chiqarish uchun yuqoridagi formulada $m = 8$ deb olamiz. U holda $10 \equiv 10(mod12),\ 10^2 \equiv 4(mod12)$
va $l \geq 2$ bo′lsa, $10^l \equiv 4(mod12)$ bo'lgani uchun (1) dan $N \equiv 4(a_n + a_{n-1} + \cdots + a_2) + \overline{a_1 a_0}\ (mod12)$ ni hosil qilamiz. Bu yerdan quyidagi xulosaga kelamiz. Berilgan N sonining 12 ga bo'linishi uchun $4(a_n + a_{n-1} + \cdots + a_2) + \overline{a_1 a_0}$

ifodaning 12 ga bo'linishi zarur va yetarlidir. Misol uchun 264816 sonining 12 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiraylik. Bu yerda $4(2+6+4+8)+16=96$ bo'lib, 96 soni 12 ga bo'linadi. Shuning uchun berilgan son ham 12 ga bo'linadi. Endi 24674 sonining 8 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiraylik. Bu yerda $4+2\cdot 7+4\cdot 6=42$ bo'lib, 42 soni 8 ga bo'linmaydi. Shuning uchun berilgan son ham 8 ga bo'linmaydi.

4). a).15 ga bo'linish belgisini keltirib chiqarish uchun yuqoridagi formulada $m=15$ deb olamiz. U holda $10\equiv 10(mod15),\ 10^2\equiv 10(mod15)$va $l\geq 2$ bo'lsa, $10^l\equiv 10(mod15)$ bo'lgani uchun (1) dan $N\equiv 10(a_n+a_{n-1}+\cdots+a_2+a_1)+a_0\ (mod15)$ ni hosil qilamiz.

b).18 ga bo'linish belgisini keltirib chiqarish uchun yuqoridagi formulada $m=18$ deb olamiz. U holda $10\equiv 10(mod18),\ 10^2\equiv 10(mod18)$va $l\geq 2$ bo'lsa, $10^l\equiv 10(mod15)$ bo'lgani uchun (1) dan $N\equiv 10(a_n+a_{n-1}+\cdots+a_2+a_1)+a_0\ (mod18)$ ni hosil qilamiz.

c).45 ga bo'linish belgisini keltirib chiqarish uchun yuqoridagi formulada $m=45$ deb olamiz. U holda $10\equiv 10(mod45),\ 10^2\equiv 10(mod45)$va $l\geq 2$ bo'lsa, $10^l\equiv 10(mod45)$ bo'lgani uchun (1) dan $N\equiv 10(a_n+a_{n-1}+\cdots+a_2+a_1)+a_0\ (mod45)$ ni hosil qilamiz.

Bu yerdan quyidagi xulosaga kelamiz. Berilgan N sonining 15, 18 va 45 ga bo'linish belgisi bir xil ekan, ya'ni berilgan N sonining 15, 18 va 45 ga bo'linishi uchun $10(a_n+a_{n-1}+\cdots+a_2+a_1)+a_0$ ifodaning mos ravishda shu sonlarga bo'linishi zarur va yetarlidir.

342. 792 ga bo'linadigan $13xy45z$ ko'rinishidagi barcha sonlarni topish uchun $13xy45z\equiv 0\ (mod\ 792)$ shartni qanoatlantiruvchi barcha x,y,z raqamlarni aniqlashimiz kerak. Bu yerda $792=8\cdot 9\cdot 11$ bo'lgani uchun yuqoridagi taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi

$$\begin{cases} 13xy45z\equiv 0\ (mod\ 8) \\ 13xy45z\equiv 0\ (mod\ 9) \\ 13xy45z\equiv 0\ (mod\ 11) \end{cases}$$

ga teng kuchli. Bu sistemaning 1-taqqoslamasidan 8 ga bo'linish belgisiga ko'ra $\overline{45z} \equiv 0\ (mod\ 8) \rightarrow 4 \cdot 10^2 + 5 \cdot 10 + z \equiv 0\ (mod\ 8) \rightarrow 450 + z \equiv 0(mod8) \rightarrow z \equiv 6(mod8)$ ga ega bo'lamiz. Bu yerdan z raqam bo'lgani uchun $z = 6$ ekanligi kelib chiqadi. Shuningdek, yuqoridagi sistemaning 2 va 3-taqqoslamalaridan 9 ga va 11 ga bo'linish belgilariga asosan

$$\begin{cases} 1+3+x+y+4+5+6 \equiv 0\ (mod\ 9) \\ 1-3+x-y+4-5+6 \equiv 0\ (mod\ 11) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} x+y \equiv 8\ (mod\ 9) \\ x-y \equiv 8\ (mod\ 11) \end{cases} \rightarrow$$

$x = 8, y = 0$ ekanligi kelib chiqadi. Demak, izlanayotgan son yagona va u 1380456 ga teng. **Javob**: 1380456.

343. Agar $\frac{a}{b}-$ qisqarmas kasr berilgan bo'lib, (10,b)=1 bo'lsin va m soni b moduli bo'yicha 10 soni tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichi, $10^m \equiv 1(modb)$ taqqoslama o'rinli bo'lgan eng kichik ko'rsatkich bo'lsin. U holdaberilgan kasrni cheksiz o'nli kasrlarga aylantirganda davr uzunligi m ga teng bo'ladi. Davr uzunligi kasrning suratiga bog'liq emas.

1).Bunda $b = 21$ va $10^m \equiv 1(mod21)$ dan m ni aniqlaymiz: $10 \equiv 10(mod21);\ 10^2 \equiv -5(mod21);\ 10^3 \equiv -8(mod21);\ 10^4 \equiv 4(mod21); 10^5 \equiv -2(mod21);\ 10^6 \equiv 1(mod21)$. Demak, $m = 6$. **Javob:** 6.

2).Bunda $b = 91$ va $10^m \equiv 1(mod91)$ dan m ni aniqlaymiz: $10 \equiv 10(mod91);\ 10^2 \equiv 9(mod91);\ 10^3 \equiv -1(mod91);\ 10^4 \equiv -10(mod91); 10^5 \equiv -9(mod91);\ 10^6 \equiv 1(mod91)$. Demak, $m = 6$.**Javob**: 6.

3).Bunda $b = 43$ va $10^m \equiv 1(mod43)$ dan m ni aniqlaymiz. Buning uchun indekslardan foydalanish qulay: $m\ ind10 \equiv 0(mod42)$. Bu yerda $ind_{43}10 = 10$ bo'lgani uchun $10m \equiv 0(mod42) \rightarrow 5m \equiv 0(mod21) \rightarrow m \equiv 0(mod21)$. Demak, $m = 6$. **Javob:** 21.

5).Bunda $b = 97$ va $10^m \equiv 1(mod97)$ dan m ni aniqlaymiz. Buning uchun indekslardan foydalanish qulay: $m\ ind10 \equiv 0(mod96)$. Bu yerda $ind_{97}10 = 35$ bo'lgani uchun $35m \equiv 0(mod96) \rightarrow m \equiv 0(mod96)$. Demak, $m = 96$.
Javob: 96.

344. 1). $\frac{10}{17\cdot 23}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b = 17 \cdot 23$ va $10^m \equiv 1(mod 17 \cdot 23)$ dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases} 10^m \equiv 1(mod 17) \\ 10^m \equiv 1(mod 23) \end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases} m\ ind_{17} 10 \equiv 0(mod 16) \\ m\ ind_{23} 10 \equiv 0(mod 22) \end{cases}$.

Bu yerda $ind_{17} 10 = 3$ va$ind_{23} 10 = 7$ bo'lgani uchun $\begin{cases} 3m \equiv 0(mod 16) \\ 7m \equiv 0(mod 22) \end{cases} \rightarrow$ $\begin{cases} m \equiv 0(mod 16) \\ m \equiv 0(mod 22) \end{cases} \rightarrow m \equiv 0(mod[16;22]) \rightarrow m \equiv 0(mod 176)$.

Demak, $m = 176$. **Javob:** 176.

2). $\frac{1}{53\cdot 59}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b = 53 \cdot 59$ va $10^m \equiv 1(mod\ 53 \cdot 59)$ dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases} 10^m \equiv 1(mod 53) \\ 10^m \equiv 1(mod 59) \end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases} m\ ind_{53} 10 \equiv 0(mod 52) \\ m\ ind_{59} 10 \equiv 0(mod 58) \end{cases}$.

Bu yerda $ind_{53} 10 = 48$ va$ind_{59} 10 = 7$ bo'lgani uchun $\begin{cases} 48m \equiv 0(mod 52) \\ 7m \equiv 0(mod 58) \end{cases} \rightarrow$ $\begin{cases} 12m \equiv 0(mod 13) \\ m \equiv 0(mod 58) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} m \equiv 0(mod 13) \\ m \equiv 0(mod 58) \end{cases} \rightarrow m \equiv 0(mod[13;58]) \rightarrow m \equiv$ $0(mod 734)$. Demak, $m = 734$. **Javob:** 734.

3). $\frac{1}{7\cdot 23\cdot 31}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b = 7 \cdot 23 \cdot 31$ va $10^m \equiv 1(mod\ 7 \cdot 23 \cdot 31)$dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases} 10^m \equiv 1(mod 7) \\ 10^m \equiv 1(mod 23) \\ 10^m \equiv 1(mod 31) \end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases} m\ ind_7 3 \equiv 0(mod 6) \\ m\ ind_{23} 10 \equiv 0(mod 22). \\ m\ ind_{31} 10 \equiv 0(mod 30) \end{cases}$

Bu yerda $ind_7 3 = 1,\ ind_{23} 10 = 3$ va$ind_{31} 10 = 14$ bo'lgani uchun $\begin{cases} m \equiv 0(mod6) \\ 3m \equiv 0(mod22) \\ 14m \equiv 0(mod30) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} m \equiv 0(mod6) \\ m \equiv 0(mod22) \\ 7m \equiv 0(mod15) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} m \equiv 0(mod6) \\ m \equiv 0(mod22) \\ m \equiv 0(mod15) \end{cases} \rightarrow m \equiv 0(mod[6; 22; 15]) \rightarrow m \equiv 0(mod330)$. Demak, $m = 330$. **Javob:** 330.

4). $\frac{1}{11 \cdot 13 \cdot 17}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b = 11 \cdot 13 \cdot 17$ va $10^m \equiv 1(mod\ 11 \cdot 13 \cdot 17)$ dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases} 10^m \equiv 1(mod11) \\ 10^m \equiv 1(mod13) \\ 10^m \equiv 1(mod17) \end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases} m\ ind_{11} 10 \equiv 0(mod10) \\ m\ ind_{13} 10 \equiv 0(mod12). \\ m\ ind_{17} 10 \equiv 0(mod16) \end{cases}$

Bu yerda $ind_{11} 10 = 5,\ ind_{13} 10 = 10$ va $ind_{17} 10 = 3$ bo'lgani uchun $\begin{cases} 5m \equiv 0(mod10) \\ 10m \equiv 0(mod12) \\ 3m \equiv 0(mod16) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} m \equiv 0(mod2) \\ 5m \equiv 0(mod6) \\ m \equiv 0(mod16) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} m \equiv 0(mod2) \\ m \equiv 0(mod6) \\ m \equiv 0(mod16) \end{cases} \rightarrow m \equiv 0(mod[2; 6; 16]) \rightarrow m \equiv 0(mod48)$. Demak, $m = 48$. **Javob:** 48.

5). $\frac{1}{13 \cdot 37}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b = 13 \cdot 37$ va $10^m \equiv 1(mod\ 13 \cdot 37)$ dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases} 10^m \equiv 1(mod\ 13) \\ 10^m \equiv 1(mod\ 37) \end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases} m\ ind_{13} 10 \equiv 0(mod12) \\ m\ ind_{37} 10 \equiv 0(mod36) \end{cases}$. Bu yerda $ind_{13} 10 = 10,$ va$ind_{37} 10 = 24$ bo'lgani uchun

$$\begin{cases} 10m \equiv 0(mod12) \\ 24m \equiv 0(mod36) \end{cases} \rightarrow \begin{cases} 5m \equiv 0(mod6) \\ 2m \equiv 0(mod3) \end{cases} \rightarrow m \equiv 0(mod6).$$

Demak, $m = 6$. **Javob:** 6.

345. Agar $\frac{a}{b}$ – qisqarmas kasr berilgan bo'lib, $(10, b) = 1$ bo'lmasa, b ni $b = 2^\alpha \cdot 5^\beta \cdot b_1$ ko'rinishda yozib olamiz, bunda $(b_1, 10) = 1$ va m soni $b_1$moduli bo'yicha 10 soni tegishli bo'lgan daraja ko'rsatkichi, $10^m \equiv 1(modb_1)$ taqqoslama o'rinli bo'lgan eng kichik ko'rsatkich bo'lsin. U holdaberilgan kasrni

cheksiz o'nli kasrlarga aylantirganda davr uzunligi m ga teng bo'ladi. Davr uzunligi kasrning suratiga bog'liq emas.

1). $\frac{a}{b}=\frac{1}{14}$. Bunda $b=14=2\cdot 7$ va $b_1=7$ bo'lgani uchun $10^m\equiv 1(mod7)$ dan m ni aniqlaymiz: $10\equiv 3(mod7)$; $10^2\equiv 2(mod7)$; $10^3\equiv 6(mod7)$; $10^4\equiv 4(mod7)$; $10^5\equiv 5(mod7)$; $10^6\equiv 1(mod7)$. Demak, $m=6$.

Javob: 6.

2). $\frac{a}{b}=\frac{7}{550}$.Bunda $b=550=2\cdot 5^2\cdot 11$ va $b_1=11$ bo'lgani uchun $10^m\equiv 1(mod11)$ dan m ni aniqlaymiz: $10\equiv -1(mod11)$; $10^2\equiv 1(mod11)$; Demak, $m=2$. **Javob**: 2.

3). $\frac{1}{5\cdot 23\cdot 31}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b_1=23\cdot 31$ va $10^m\equiv 1(mod\ 23\cdot 31)$ dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases}10^m\equiv 1(mod\ 23)\\ 10^m\equiv 1(mod\ 31)\end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases}m\ ind_{23}10\equiv 0(mod22)\\ m\ ind_{31}10\equiv 0(mod30)\end{cases}$. Bu yerda $ind_{23}10=3$ va$ind_{31}10=14$ bo'lgani uchun $\begin{cases}3m\equiv 0(mod22)\\ 14m\equiv 0(mod30)\end{cases}\rightarrow\begin{cases}m\equiv 0(mod22)\\ 7m\equiv 0(mod15)\end{cases}\rightarrow$ $\begin{cases}m\equiv 0(mod22)\\ m\equiv 0(mod15)\end{cases}\rightarrow m\equiv 0(mod330)$. Demak, $m=330$. **Javob:** 330.

4). $\frac{1}{4\cdot 53\cdot 73}$ oddiy kasrlarni o'nli kasrlarga aylantirganda hosil bo'ladigan davr uzunligini aniqlaymiz. Bunda $b_1=53\cdot 73$ va $10^m\equiv 1(mod\ 53\cdot 73)$ dan m ni aniqlaymiz. Bu taqqoslama ushbu taqqoslamalar sistemasi $\begin{cases}10^m\equiv 1(mod\ 53)\\ 10^m\equiv 1(mod\ 73)\end{cases}$ ga teng kuchli. Bundan $\begin{cases}m\ ind_{53}10\equiv 0(mod52)\\ m\ ind_{73}10\equiv 0(mod72)\end{cases}$. Bu yerda $ind_{53}10=48$ va$ind_{73}10=9$ bo'lgani uchun

$\begin{cases}48m\equiv 0(mod52)\\ 9m\equiv 0(mod72)\end{cases}\rightarrow\begin{cases}12m\equiv 0(mod13)\\ m\equiv 0(mod8)\end{cases}\rightarrow\begin{cases}m\equiv 0(mod13)\\ m\equiv 0(mod8)\end{cases}\rightarrow m\equiv$ $0(mod104)$. Demak, $m=104$. **Javob:** 104.

5). $\frac{a}{b} = \frac{1}{10 \cdot 37}$.Bunda $b = 10 \cdot 37$ va $b_1 = 37$ bo'lgani uchun $10^m \equiv 1(mod37)$ dan m ni aniqlaymiz: $m\ ind_{37}10 \equiv 0(mod36)$. Bu yerda $ind_{37}10 = 24$ bo'lgani uchun $24m \equiv 0(mod36) \rightarrow 2m \equiv 0(mod3) \rightarrow m \equiv 0(mod3)$.Demak, $m = 3$.

Javob: 32.

346. Berilgan tengliklarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini 11 moduli bo'yicha taqqoslamaga o'tish yo'li bilan tekshiramiz.

1). $4237 \cdot 27925 = 118275855$ dan$4237 \cdot 27925 \equiv 118275855(mod11)$.

Bu yerda $4237 = 11 \cdot 385 + 2;\ 27925 = 11 \cdot 2538 + 7; 118275855 = 11 \cdot 10743259 + 6$ ekanligini e'tiborga olsak, $2 \cdot 7 \equiv 6(mod11) \rightarrow 3 \equiv 6(mod11) \rightarrow 1 \equiv 2(mod11)$. Oxirgi taqqoslama o'rinli emas. Shuning uchun ham berilgan tenglik noto'g'ri.

2).$42981 : 8264 = 5201$dan$42981 = 5201 \cdot 8264$. Bundan $5201 \cdot 8264 \equiv 42981(mod11)$.Bu yerda $5201 = 11 \cdot 472 + 9;\ 8264 = 11 \cdot 751 + 3; 42981 = 11 \cdot 3907 + 4$ ekanligini e'tiborga olsak, $9 \cdot 3 \equiv 4(mod11) \rightarrow 5 \equiv 4(mod11)$. Oxirgi taqqoslama o'rinli emas. Shuning uchun ham berilgan tenglik noto'g'ri.

3).$1965^2 = 3761225$dan$1965^2 \equiv 3761225(mod11)$. Bu yerda $1965 = 11 \cdot 178 + 7;\ 3761225 = 11 \cdot 341929 + 6$ ekanligini e'tiborga olsak, $7^2 \equiv 6(mod11) \rightarrow 5 \equiv 6(mod11)$. Oxirgi taqqoslama o'rinli emas. Shuning uchun ham berilgan tenglik noto'g'ri.

347. 1).$25041 + 91382 = 116423$. Bu tenglikdan qulaylik uchun 9 moduli bo'yicha taqqoslamaga o'tamiz. U holda $25041 + 91382 \equiv 116423(mod9)$. Bu yerdagi sonlarni 9 moduli bo'yicha eng kichik manfiy bo'lmagan chegirmalar bilan almashtirsak $3 + 5 \equiv 8(mod9) \rightarrow 8 \equiv 8(mod9)$ ayniy taqqoslama hosil bo'ladi. Demak, berilgan tenglik to'g'ri.

2).$42932 - 18265 = 24667$. Bu tenglikdan qulaylik uchun 9 moduli bo'yicha taqqoslamaga o'tamiz. U holda $42932 - 18265 \equiv 24667(mod9)$. Bu yerdagi sonlarni 9 moduli bo'yicha eng kichik manfiy bo'lmagan chegirmalar bilan almashtirsak $2 - 4 \equiv 7(mod9) \rightarrow 7 \equiv 7(mod9)$ ayniy taqqoslama hosil bo'ladi. Demak, berilgan tenglik to'g'ri.

3). $13547 - 9862 = 3685$. Bu tenglikdan qulaylik uchun 9 moduli bo'yicha taqqoslamaga o'tamiz. U holda $13547 - 9862 \equiv 3685(mod9)$. Bu yerdagi sonlarni 9 moduli bo'yicha eng kichik manfiy bo'lmagan chegirmalar bilan almashtirsak $2 - 7 \equiv 4(mod9) \rightarrow 4 \equiv 4(mod9)$ ayniy taqqoslama hosil bo'ladi. Demak, berilgan tenglik to'g'ri.

4). $235463 - 25376 = 210087$. Bu tenglikdan qulaylik uchun 9 moduli bo'yicha taqqoslamaga o'tamiz. U holda $235463 - 25376 \equiv 210087(mod9)$. Bu yerdagi sonlarni 9 moduli bo'yicha eng kichik manfiy bo'lmagan chegirmalarbilan almashtirsak $5 - 5 \equiv 0(mod9) \rightarrow 0 \equiv 0(mod9)$ ayniy taqqoslama hosil bo'ladi. Demak, berilgan tenglik to'g'ri.

VI.1 -§.

348. 1).Berilgan kasr $\frac{127}{52}$ ni uzluksiz kasrga yoyish uchun Evklid algoritmidan foydalanamiz. Unga ko'ra: $127 = 52 \cdot \boxed{2} + 23;\ 52 = 23 \cdot \boxed{2} + 6;\ 23 = 6 \cdot \boxed{3} + 5;\ 6 = 5 \cdot \boxed{1} + 1;\ 5 = 1 \cdot \boxed{5}$. Bundan $\frac{127}{52} = (2,2,3,1,5)$.

Javob: $(2,2,3,1,5)$.

2).Berilgan kasr $\frac{24}{35}$ ni uzluksiz kasrga yoyish uchun Evklid algoritmidan foydalanamiz. Unga ko'ra: $24 = 35 \cdot \boxed{0} + 35;\ 35 = 24 \cdot \boxed{1} + 11;\ 24 = 11 \cdot \boxed{2} + 2;\ 11 = 2 \cdot \boxed{5} + 1;\ 2 = 1 \cdot \boxed{2}$. Bundan $\frac{127}{52} = (0,1,2,5,2)$.

Javob: $(0,1,2,5,2)$.

3). Berilgan kasr $1{,}23 = \frac{123}{100}$ ni uzluksiz kasrga yoyish uchun Evklid algoritmidan foydalanamiz. Unga ko'ra: $123 = 100 \cdot \boxed{1} + 23;\ 100 = 23 \cdot \boxed{4} + 8;\ 23 = 8 \cdot \boxed{2} + 7;\ 8 = 7 \cdot \boxed{1} + 1;\ 7 = 1 \cdot \boxed{7}$. Bundan $1{,}23 = (1,4,2,1,7)$.

Javob: $(1,4,2,1,7)$.

4).Berilgan kasr $\frac{29}{37}$ ni uzluksiz kasrga yoyish uchun Evklid algoritmidan foydalanamiz. Unga ko'ra: $29 = 37 \cdot \boxed{0} + 29;\ 37 = 29 \cdot \boxed{1} + 8;\ 29 = 8 \cdot \boxed{3} + 5;\ 8 = 5 \cdot \boxed{1} + 3;\ 5 = 3 \cdot \boxed{1} + 2,\ 3 = 2 \cdot \boxed{1} + 1,\ 2 = 1 \cdot \boxed{2}$. Bundan $\frac{29}{37} = (0,1,3,1,1,1,2)$. **Javob:** $(0,1,3,1,1,1,2)$.

349. Berilgan chekli uzluksiz kasrlarga mos qisqarmas oddiy kasr $\frac{a}{b}$ ni topishuchun munosib kasrlar $\frac{P_k}{Q_k}$ dan foydalanamiz. Bunda $(P_k, Q_k) = 1$ va $\frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$.

1). $(1,1,2,1,2,1,2) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		1	1	2	1	2	1	2
P_i	$P_0 = 1$	1	2	5	7	19	26	71
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	3	4	11	15	41

Demak,$(1,1,2,1,2,1,2) = \frac{71}{41}$. **Javob:** $\frac{71}{41}$.

2). $(0,1,2,3,4,5) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		0	1	2	3	4	5
P_i	$P_0 = 1$	0	1	2	7	30	157
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	3	10	43	225

Demak,$(0,1,2,3,4,5) = \frac{157}{225}$. **Javob:** $\frac{157}{225}$.

3). $(5,4,3,2,1) = (5,4,3,3) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		5	4	3	3
P_i	$P_0 = 1$	5	21	68	225
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	4	13	43

Demak,$(5,4,3,2,1) = \frac{225}{43}$. **Javob:**$\frac{225}{43}$.

4). $(a,a,a,a,a) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		a	a	a	a	a
P_i	$P_0 = 1$	a	$a^2 + 1$	$a^3 + 2a$	$a^4 + 3a^2 + 1$	$a^5 + 4a^3 + 3a$
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	a	$a^2 + 1$	$a^3 + 2a$	$a^4 + 3a^2 + 1$

Demak,$(a, a, a, a, a) = \frac{a^5+4a^3+3a}{a^4+3a^2+1}$. **Javob:** $\frac{a^5+4a^3+3a}{a^4+3a^2+1}$.

5). $(a, b, a, b, a) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		a	b	a	b	a
P_i	$P_0 = 1$	a	$ab + 1$	$a^2b + 2a$	$a^2b^2 + 3ab + 1$	$a^3b^2 + 4a^2b + 3a$
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	b	$ab + 1$	$ab^2 + 2b$	$a^2b^2 + 3ab + 1$

Demak,$(a, a, a, a, a) = \frac{a^3b^2+4a^2b+3a}{a^2b^2+3ab+1}$. **Javob:** $\frac{a^3b^2+4a^2b+3a}{a^2b^2+3ab+1}$.

6). $(2,1,1,3,1,2) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		2	1	1	3	1	2
P_i	$P_0 = 1$	2	3	5	18	23	64
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	2	7	9	25

Demak,$(2,1,1,3,1,2) = \frac{64}{25}$. **Javob:** $\frac{64}{25}$.

7). $(1,1,2,3,4) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		1	1	2	3	4
P_i	$P_0 = 1$	1	2	5	17	73
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	3	10	43

Demak,$(1,1,2,3,4) = \frac{73}{43}$. **Javob:** $\frac{73}{43}$.

8). $(2,5,3,2,1,4,2,3) = \frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ni aniqlashimiz kerak. $\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		2	5	3	2	1	4	2	3
P_i	$P_0 = 1$	2	11	35	81	116	545	1206	4163
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	5	16	37	53	249	551	1902

Demak,$(2,5,3,2,1,4,2,3) = \frac{4163}{1902}$. **Javob:** $\frac{4163}{1902}$.

350. Berilgan $\frac{a}{b}$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyishdan foydalanib qisqartirish uchun uni chekli uzluksiz kasrlarga yoyib munosib kasrlari $\frac{P_k}{Q_k}$ ni hisoblaymiz hamda bunda $(P_k, Q_k) = 1$ va $\frac{P_n}{Q_n} = \frac{a}{b}$ ekanliklaridan foydalanamiz.

1). $\frac{3587}{2743}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda$3587 = 2743 \cdot \boxed{1} + 844$; $2743 = 844 \cdot \boxed{3} + 211$; $844 = 211 \cdot \boxed{4}$ dan $\frac{3587}{2743} = (1,3,4)$. Munosib kasrlari $\frac{P_k}{Q_k}$ ni hisoblaymiz:

q_i		1	3	4
P_i	$P_0 = 1$	1	4	17
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	3	13

Demak, $\frac{3587}{2743} = (1,3,4) = \frac{17}{13}$. Tekshirish $\frac{3587}{2743} = \frac{17 \cdot 211}{13 \cdot 211} = \frac{17}{13}$. **Javob:** $\frac{17}{13}$.

2). $\frac{1043}{3427}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda$1043 = 3427 \cdot \boxed{0} + 1043$; $3427 = 1043 \cdot \boxed{3} + 298$; $1043 = 298 \cdot \boxed{3} + 149$; $298 = 149 \cdot \boxed{2}$ dan $\frac{1043}{3427} = (0,3,3,2)$. Munosib kasrlari $\frac{P_k}{Q_k}$ ni hisoblaymiz:

q_i		0	3	3	2
P_i	$P_0 = 1$	0	1	3	7
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	3	10	23

Demak, $\frac{1043}{3427} = (0,1,3,3) = \frac{7}{23}$. Tekshirish $\frac{1043}{3427} = \frac{7 \cdot 149}{23 \cdot 149} = \frac{7}{23}$. **Javob:** $\frac{7}{23}$.

3). $\frac{3653}{3107}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $3653 = 3107 \cdot \boxed{1} + 546$; $3107 = 546 \cdot \boxed{5} + 377$; $546 = 377 \cdot \boxed{1} + 169$; $377 = 169 \cdot \boxed{2} + 39$; $169 = 39 \cdot \boxed{4} + 13$; $39 = 13 \cdot \boxed{3}$ dan $\frac{3653}{3107} = (1,5,1,2,4,3)$. Munosib kasrlari $\frac{P_k}{Q_k}$ ni hisoblaymiz:

q_i		1	5	1	2	4	3
P_i	$P_0 = 1$	1	6	7	20	87	281
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	5	6	17	74	239

Demak, $\frac{3653}{3107} = (1,5,1,2,4,3) = \frac{281}{239}$. Tekshirish: $\frac{3653}{3107} = \frac{281 \cdot 13}{239 \cdot 13} = \frac{281}{239}$. **Javob:** $\frac{281}{239}$.

4). $\frac{11281}{6583}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $11281 = 6583 \cdot \boxed{1} + 4698$; $6583 = 4698 \cdot \boxed{1} + 1885$; $4698 = 1885 \cdot \boxed{2} + 928$; $1885 = 928 \cdot \boxed{2} + 29$; $928 = 29 \cdot \boxed{32}$ dan $\frac{11281}{6583} = (1,1,2,2,32)$. Munosib kasrlari $\frac{P_k}{Q_k}$ ni hisoblaymiz:

q_i		1	1	2	2	32
P_i	$P_0 = 1$	1	2	5	12	389
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	3	7	227

Demak, $\frac{11281}{6583} = (1,1,2,2,32) = \frac{389}{227}$. Tekshirish: $\frac{11281}{6583} = \frac{389 \cdot 29}{227 \cdot 29} = \frac{389}{227}$. **Javob:** $\frac{389}{227}$.

5). $\frac{1491}{2247}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $1491 = 2247 \cdot \boxed{0} + 1491$; $2247 = 1491 \cdot \boxed{1} + 756$; $1491 = 756 \cdot \boxed{1} + 735$; $756 = 735 \cdot \boxed{1} + 21$; $735 = 21 \cdot \boxed{35}$ dan $\frac{1491}{2247} = (0,1,1,1,35)$. Munosib kasrlari $\frac{P_k}{Q_k}$ ni hisoblaymiz:

q_i		0	1	1	1	35
P_i	$P_0 = 1$	0	1	1	2	71
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	2	3	107

Demak, $\frac{1491}{2247} = (0,1,1,1,35) = \frac{71}{107}$. Tekshirish: $\frac{1491}{2247} = \frac{71 \cdot 21}{107 \cdot 21} = \frac{71}{107}$. **Javob:** $\frac{71}{107}$.

351. 1). $(x,2,3,4) = \frac{73}{30}$ tenglamalarni yechish uchun uning chap tomoni orqali ifodalanuvchi qisqarmas kasrni topib olamiz. Buning uchun $\frac{P_n}{Q_n}$ –munosib kasrni hisoblaymiz:

q_i		x	2	3	4
P_i	$P_0 = 1$	x	$2x+1$	$7x+3$	$30x+13$
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	2	7	30

Bundan $\frac{30x+13}{30} = \frac{73}{30} \rightarrow 30x + 13 = 73 \rightarrow 30x = 60 \rightarrow x = 2$. **Javob:** $x = 2$.

2). $7(xyz + x + z) = 10(yz + 1)$ tenglamalarni yechish uchun uni

$$\frac{xyz + x + z}{yz + 1} = \frac{10}{7}$$

ko’rinishida yozib olib uning chap va o’ng tomonlarini uzluksiz kasrlarga yoyamiz. $xyz + x + z = (yz + 1) \cdot \boxed{x} + z$; $yz + 1 = z \cdot \boxed{y} + 1$; $z = 1 \cdot \boxed{z}$ bundan $\frac{xyz+x+z}{yz+1} = (x, y, z)$. Shuningdek $10 = 7 \cdot \boxed{1} + 3$; $7 = 3 \cdot \boxed{2} + 1$; $3 = 1 \cdot \boxed{3}$ dan $\frac{10}{7} = (1,2,3)$. Hosil bo’lgan yoyilmalarni yuqoridagi tenglamaga olib borib qo’ysak $(x, y, z) = (1,2,3)$ bundan esa $x = 1, y = 2, z = 3$ kelib chiqadi.

Javob: $x = 1, y = 2, z = 3$.

352. Berilgan kasrlarni uzluksiz kasrga yoyib uni $\frac{P_4}{Q_4}$ – munosib kasr bilan almashtirib xatoligini aniqlash hamda almashtirishni taqribiy tenglik yordamida xatoligini ko’rsatgan holda yozish uchun berilgan kasrlarni uzluksiz kasrga yoymiz va $\frac{P_4}{Q_4}$ – munosib kasrni aniqlaymiz. Bundagi xatolik $\frac{1}{Q_4 Q_5}$ dan oshmaydi.

1). $\frac{29}{37}$ – kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $29 = 37 \cdot \boxed{0} + 29$; $37 = 29 \cdot \boxed{1} + 8$; $29 = 8 \cdot \boxed{3} + 5$; $8 = 5 \cdot \boxed{1} + 3$; $5 = 3 \cdot \boxed{1} + 2; 3 = 2 \cdot$

$\boxed{1}+1;\ \ 2=1\cdot\boxed{2}$. Bundan $\frac{29}{37}=(0,1,3,1,1,1,2)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		0	1	3	1	1	1	2
P_i	$P_0=1$	0	1	3	4	7	11	29
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	1	4	5	9	14	37

Bu yerdan $\frac{P_4}{Q_4}=\frac{4}{5}=0{,}8$. Bundagi xatolik $\frac{1}{Q_4Q_5}=\frac{1}{5\cdot9}=\frac{1}{45}\approx0{,}02$ ga teng. Bulardan foydalanib berilgan kasrni quyidagicha yozishimoz mumkin:

$\frac{29}{37}\approx\frac{4}{5}(-0{,}02)=0{,}78$. **Javob:** $\frac{29}{37}\approx\frac{4}{5}(-0{,}02)$.

2). $\frac{163}{159}-$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $163=159\cdot\boxed{1}+4;\ \ 159=4\cdot\boxed{39}+3;\ \ 4=3\cdot\boxed{1}+1;\ 3=1\cdot\boxed{3}$. Bundan $\frac{163}{159}=(1,39,1,3)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	39	1	3
P_i	$P_0=1$	1	40	41	163
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	39	40	79

Bu yerdan $\frac{P_4}{Q_4}=\frac{163}{79}$. Bundan ko'rinaduki, $\frac{P_4}{Q_4}-$ munosib kasr berilgan kasrning o'ziga teng. Shuning uchun ham bu yerda xatolik no'lga teng bo'ladi.

Javob: $\frac{163}{159}=\frac{163}{159}(\pm0)$.

3). $\frac{648}{385}-$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $648=385\cdot\boxed{1}+263;\ \ 385=263\cdot\boxed{1}+122;\ \ 263=122\cdot\boxed{2}+19;\ 122=19\cdot\boxed{6}+8;\ \ 19=8\cdot\boxed{2}+3;8=3\cdot\boxed{2}+2;\ \ 3=2\cdot\boxed{1}+1;\ 2=1\cdot\boxed{2}$. Bundan $\frac{648}{385}=(1,1,2,6,2,2,1,2)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	1	2	6	2	2	1	2
P_i	$P_0=1$	1	2	5	32	69	170	239	648
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	1	3	19	41	101	142	385

Bu yerdan $\frac{P_4}{Q_4}=\frac{32}{19}=0{,}6842$. Bundagi xatolik $\frac{1}{Q_4Q_5}=\frac{1}{19\cdot 41}=\frac{1}{779}\approx 0{,}0013$ ga teng. Bulardan foydalanib berilgan kasrni quyidagicha yozishimoz mumkin: $\frac{648}{385}\approx\frac{32}{19}(-0{,}0013)=1{,}6831$. **Javob:** $\frac{648}{385}\approx\frac{32}{19}(-0{,}0013)$.

4). $\frac{1882}{1651}$ – kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $1882=1651\cdot\boxed{1}+231;\ 1651=231\cdot\boxed{7}+34;\ 231=34\cdot\boxed{6}+27;\ 34=27\cdot\boxed{1}+7;\ 27=7\cdot\boxed{3}+6;7=6\cdot\boxed{1}+1;\ 6=1\cdot\boxed{6}$. Bundan $\frac{1882}{1651}=(1,7,6,1,3,1,6)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	7	6	1	3	1	6
P_i	$P_0=1$	1	8	49	57	220	277	1882
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	7	43	50	193	207	1651

Bu yerdan $\frac{P_4}{Q_4}=\frac{57}{50}=1{,}14$. Bundagi xatolik $\frac{1}{Q_4Q_5}=\frac{1}{50\cdot 193}=\frac{1}{9650}\approx 0{,}000103$ ga teng. Bulardan foydalanib berilgan kasrni quyidagicha yozishimoz mumkin: $\frac{1882}{1651}\approx\frac{57}{50}(-0{,}000103)=1{,}139897$. **Javob:** $\frac{1882}{1651}\approx\frac{57}{50}(-0{,}000103)$.

353. Berilgan kasrlarni uzluksiz kasrga yoying va uni $\frac{P_5}{Q_5}$ – munosib kasr bilan almashtirib xatoliogini aniqlang hamda almashtirishni taqribiy tenglik yordamida xatoligini ko’rsatgan holda yozing. Bu misolda ham 352-misoldagi singari mulohaza yuritamiz.

1). $\frac{571}{359}$ – kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $571=359\cdot\boxed{1}+212;\ 359=212\cdot\boxed{1}+147;\ 212=147\cdot\boxed{1}+65;\ 147=65\cdot\boxed{2}+17;\ 65=17\cdot\boxed{3}+14;\ 17=14\cdot\boxed{1}+3;\ 14=3\cdot\boxed{4}+2,\ 3=2\cdot\boxed{1}+1,\ 2=1\cdot\boxed{2}$. Bundan $\frac{571}{359}=(1,1,1,2,3,1,4,1,2)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	1	1	2	3	1	4	1	2
P_i	$P_0=1$	1	2	3	8	27	35	167	202	571
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	1	2	5	17	22	105	127	359

Bu yerdan $\frac{P_5}{Q_5}=\frac{27}{17}=1{,}14$. Bundagi xatolik $\frac{1}{Q_5Q_6}=\frac{1}{17\cdot 22}=\frac{1}{374}\approx 0{,}0027$ ga teng.

Bulardan foydalanib berilgan kasrni quyidagicha yozishimoz mumkin: $\frac{571}{359}\approx\frac{27}{17}(+0{,}0027)$. **Javob:** $\frac{571}{359}\approx\frac{27}{17}(+0{,}0027)$.

2). $\frac{2341}{1721}$ –kasrni uzluksiz kasrlarga yoyamiz. U holda $2341=1721\cdot\boxed{1}+620;\ 1721=620\cdot\boxed{2}+481;\ 620=481\cdot\boxed{1}+139;\ 481=139\cdot\boxed{3}+64;\ 139=64\cdot\boxed{2}+11;\ 64=11\cdot\boxed{5}+9;\ 11=9\cdot\boxed{1}+2,\ 9=2\cdot\boxed{4}+1,\ 2=1\cdot\boxed{2}$. Bundan $\frac{2341}{1721}=(1,2,1,3,2,5,1,4{,}2)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	2	1	3	2	5	1	4	2
P_i	$P_0=1$	1	3	4	15	34	185	219	1061	2341
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	2	3	11	25	136	161	780	1721

Bu yerdan $\frac{P_5}{Q_5}=\frac{34}{25}=1{,}14$. Bundagi xatolik $\frac{1}{Q_5Q_6}=\frac{1}{25\cdot 136}=\frac{1}{3400}\approx 0{,}00029$ ga teng. Bulardan foydalanib berilgan kasrni quyidagicha yozishimoz mumkin: $\frac{2341}{1721}\approx\frac{34}{25}(+0{,}00029)$. **Javob:** $\frac{2341}{1721}\approx\frac{34}{25}(+0{,}00029)$.

354. Qo’yilgan masala berilgan kasrni shunday munosib kasr bilan almashtirish kerakki, bunda xatolik $0{,}001$ dan kichik bo’lsin degan masalani yechishga keltiriladi. $\frac{571}{359}-$ kasrni uzluksiz kasrga 353.1)- misolda yoygan edik. Unga ko’ra $\frac{571}{359}=(1,1,1,2,3,1,4,1{,}2)$ va munosib kasrlar $\frac{P_1}{Q_1}=\frac{1}{1}$, $\frac{P_2}{Q_2}=\frac{2}{1}$, $\frac{P_3}{Q_3}=\frac{3}{5}$, $\frac{P_4}{Q_4}=\frac{8}{5}$, $\frac{P_5}{Q_5}=\frac{27}{17}$, $\frac{P_6}{Q_6}=\frac{35}{22}$, $\frac{P_7}{Q_7}=\frac{167}{105}$, $\frac{P_8}{Q_8}=\frac{202}{127}$, $\frac{P_9}{Q_9}=\frac{571}{359}$ dan iborat. O’sha misolda biz berilgan kasrni $\frac{P_5}{Q_5}=\frac{27}{17}$ kasr bilan almashtirib xatoligini hisoblagan edik. Bunda xatolik $\approx 0{,}0027$ ga teng chiqqan edi. Bu bizdan talab etilayotgan aniqlikdan katta. Shuning uchun ham $\frac{P_6}{Q_6}=\frac{35}{22}$ ni olib xatoligini hisoblab ko’ramiz. Bunda $\frac{1}{Q_6Q_7}=\frac{1}{22\cdot 105}=\frac{1}{2310}<0{,}00044<0{,}001$ bo’lgani uchun bu aniqlik bizni qanoatlantiradi. Shunday qilib tishlari soni nisbatan kam

bo’lgan uzatmani texnik jihatidan qurish mumkin. Bu uzatmada tishlari soni kam bo’lgani uchun qulay va tishlari katta bo’lgani uchun mustaxkam bo’ladi. **Javob:** mumkin.

355. Berilgan uzluksiz kasrni $\alpha_n = (\underbrace{2,\ 2,2,\ \dots\ ,2}_{n\ ta})$ deb belgilab olamiz.

Agar $n = 2k -$ juft son bo’lsa, u holda

$$\alpha_2 = (2,2) = 2 + \frac{1}{2} \rightarrow \frac{\alpha_2}{2} = 1 + \frac{1}{4} = (1,4);$$

$$\alpha_4 = (2,2,\alpha_2) = 2 + \frac{1}{2+\frac{1}{\alpha_2}} \rightarrow \frac{\alpha_4}{2} = 1 + \frac{1}{4+(\alpha_2:2)} = 1 + \frac{1}{4+\frac{1}{1+\frac{1}{4}}} = (1,4,1,4)$$

bo’ladi. Endi faraz qilaylik $\frac{\alpha_{2k}}{2} = (\underbrace{1,4,1,4,\ \dots\ ,1,4}_{2k\ ta})$ o’ronli bo’lsin. U holda

$\frac{\alpha_{2(k+1)}}{2} = \frac{(2,2,\alpha_{2k})}{2} = 1 + \frac{1}{4+(\alpha_{2k}:2)} = (\underbrace{1,4,1,4,\ \dots\ ,1,4}_{2(k+1)\ ta})$bajariladi. Demak, matematik induksiya metodiga asosan agar $n = 2k -$ juft son bo’lsa izlanayotgan bo’linma $(\underbrace{1,4,1,4,\ \dots\ ,1,4}_{2(k+1)\ ta})$ dan iborat bo’lar ekan.

Endi $n = 2k + 1 -$ toq son bo’lsin. U holda

$$\alpha_1 = (2), \qquad \alpha_3 = (2,2,2) = 2 + \frac{1}{2+\frac{1}{2}} \rightarrow \frac{\alpha_3}{2} = 1 + \frac{1}{4+\frac{1}{1}} = (1,5).$$

Bundan umumiy holda $\frac{\alpha_{2k+1}}{2} = (\underbrace{1,4,1,4,\ \dots\ ,1,4,1,5}_{2k+1\ ta})$bo’ladi.

Javob: agar $n = 2k -$ juft son bo’lsa izlanayotgan bo’linma $(\underbrace{1,4,1,4,\ \dots\ ,1,4}_{2k\ ta})$ dan iborat va $n = 2k + 1 -$ toq son bo’lsa $(\underbrace{1,4,1,4,\ \dots\ ,1,4,1,5}_{2k+1\ ta})$bo’ladi.

356. Berilgan uzluksiz kasrni $\alpha_n = (\underbrace{a,a,a,a,\ \dots\ ,a,a}_{n\ ta}), a > 1$ deb belgilab olamiz. Agar $n = 2k -$ juft son bo’lsa, u holda

$$\alpha_2 = (a,a) = a + \frac{1}{a} \rightarrow \frac{\alpha_2}{a} = 1 + \frac{1}{a^2} = (1,a^2);$$

$\alpha_4 = (a, a, \alpha_2) = a + \frac{1}{a+\frac{1}{\alpha_2}} \rightarrow \frac{\alpha_4}{2} = 1 + \frac{1}{a^2+(\alpha_2:2)} = 1 + \frac{1}{a^2+\frac{1}{1+\frac{1}{a^2}}} = (1, a^2, 1, a^2)$

bo'ladi. Endi faraz qilaylik $\frac{\alpha_{2k}}{a} = (\underbrace{1, a^2, 1, a^2, \ \ldots \ , 1, a^2}_{2k\ ta})$ o'ronli bo'lsin. U holda

$$\frac{\alpha_{2(k+1)}}{2} = \frac{(a, a, \alpha_{2k})}{2} = 1 + \frac{1}{a^2 + (\alpha_{2k}: 2)} = (\underbrace{1, a^2, 1, a^2, \quad \ldots \ , 1, a^2}_{2(k+1)\ ta})$$

bajariladi. Demak, matematik induksiya metodiga asosan agar $n = 2k -$ juft son bo'lsa izlanayotgan bo'linma $(\underbrace{1, a^2, 1, a^2, \ \ldots \ , 1, a^2}_{2k\ ta})$ dan iborat bo'lar ekan.

Endi $n = 2k + 1 -$ toq son bo'lsin. U holda

$$\alpha_1 = (a), \qquad \alpha_3 = (a, a, a) = a + \frac{1}{a + \frac{1}{a}} \rightarrow \frac{\alpha_3}{a} = 1 + \frac{1}{a^2 + \frac{1}{1}} = (1, a^2 + 1).$$

Bundan umumiy holda $\frac{\alpha_{2k+1}}{a} = (\underbrace{1, a^2, 1, a^2, \ \ldots \ , 1, a^2, 1, a^2 + 1}_{2k+1\ ta})$bo'ladi.

Javob: agar $n = 2k -$ juft son bo'lsa izlanayotgan bo'linma $(\underbrace{1, a^2, 1, a^2, \ \ldots \ , 1, a^2}_{2k\ ta})$ dan iborat va $n = 2k + 1 -$ toq son bo'lsa $(\underbrace{1, a^2, 1, a^2, \ \ldots \ , 1, a^2 1, a^2 + 1}_{2k+1\ ta})$bo'ladi.

357. $\left(\frac{P_{n+2}}{P_n} - 1\right) \cdot \left(1 - \frac{P_{n-1}}{P_{n+1}}\right) = \left(\frac{Q_{n+2}}{Q_n} - 1\right)\left(1 - \frac{Q_{n-1}}{Q_{n+1}}\right)$ tenglikni isbotlash uchun rekurent formulalar

$P_k = P_{k-1}q_k + P_{k-2}$ va $Q_k = Q_{k-1}q_k + Q_{k-2}$ (*)

lardan foydalanamiz. Avvalo (*) da $k = n + 2$ deb olamiz. U holda $P_{n+2} = P_{n+1}q_{n+2} + P_n$ va $Q_{n+2} = Q_{n+1}q_{n+2} + Q_n$ larga ega bo'lamiz. Bulardan $q_{n+2} = \frac{P_{n+2}-P_n}{P_{n+1}}$ va $q_{n+2} = \frac{Q_{n+2}-Q_n}{Q_{n+1}}$ bo'lgani uchun

$$\frac{P_{n+2}-P_n}{P_{n+1}} = \frac{Q_{n+2}-Q_n}{Q_{n+1}} \rightarrow \left(\frac{P_{n+2}}{P_n} - 1\right)\frac{P_n}{P_{n+1}} = \left(\frac{Q_{n+2}}{Q_n} - 1\right)\frac{Q_n}{Q_{n+1}}. \quad (*_1)$$

Endi (*) da $k = n + 1$ deb olamiz. U holda $P_{n+1} = P_n q_{n+1} + P_{n-1}$ va $Q_{n+1} = Q_n q_{n+1} + Q_{n-1}$ larga ega bo'lamiz. Bundan $P_n q_{n+1} = P_{n+1} - P_{n-1}$ va $Q_n q_{n+1} = Q_{n+1} - Q_{n-1}$ hosil bo'ladi. $(*_1)$ tenglikning ikkala tomonini q_{n+1}ko'paytirib oxirgi ikki tenglikdan foydalansak

$\left(\frac{P_{n+2}}{P_n}-1\right)\frac{P_n q_{n+1}}{P_{n+1}}=\left(\frac{Q_{n+2}}{Q_n}-1\right)\frac{Q_n q_{n+1}}{Q_{n+1}}\to\left(\frac{P_{n+2}}{P_n}-1\right)\frac{P_{n+1}-P_{n-1}}{P_{n+1}}=\left(\frac{Q_{n+2}}{Q_n}-1\right)\frac{Q_{n+1}-Q_{n-1}}{Q_{n+1}}$ kelib chiqadi. Bundan esa isbotlanishi talab etilgan tenglik

$$\left(\frac{P_{n+2}}{P_n}-1\right)\cdot\left(1-\frac{P_{n-1}}{P_{n+1}}\right)=\left(\frac{Q_{n+2}}{Q_n}-1\right)\left(1-\frac{Q_{n-1}}{Q_{n+1}}\right)$$

kelib chiqadi.

358. 357-misoldagi(*) formulaning birinchisiga asosan $P_n=P_{n-1}q_n+P_{n-2}\to\frac{P_n}{P_{n-1}}=q_n+\frac{P_{n-2}}{P_{n-1}}$. Bu yerda $\frac{P_{n-1}}{P_{n-2}}=q_{n-1}+\frac{P_{n-3}}{P_{n-2}}$, $\frac{P_{n-2}}{P_{n-3}}=q_{n-2}+\frac{P_{n-4}}{P_{n-3}}$, $\dots$, $\frac{P_2}{P_1}=q_2+\frac{P_0}{P_1}=q_2+\frac{1}{q_1}$ bo'lgani uchun $\frac{P_n}{P_{n-1}}=q_n+\cfrac{1}{q_{n-1}+\cfrac{1}{q_{n-2}+\ddots+\cfrac{1}{q_1}}}=$

$$(q_n,q_{n-1},\dots,q_1).$$

357-misoldagi(*) formulaning birinchisiga asosan $Q_n=Q_{n-1}q_n+Q_{n-2}\to\frac{Q_n}{Q_{n-1}}=q_n+\frac{Q_{n-2}}{Q_{n-1}}$. Bu yerda $\frac{Q_{n-1}}{Q_{n-2}}=q_{n-1}+\frac{Q_{n-3}}{Q_{n-2}}$, $\frac{Q_{n-2}}{Q_{n-3}}=q_{n-2}+\frac{Q_{n-4}}{Q_{n-3}}$, $\dots$, $\frac{Q_2}{Q_1}=q_2+\frac{Q_0}{Q_1}=q_2$ bo'lgani uchun

$$\frac{Q_n}{Q_{n-1}}=q_n+\cfrac{1}{q_{n-1}+\cfrac{1}{q_{n-2}+\ddots+\cfrac{1}{q_2}}}=(q_n,q_{n-1},\dots q_2).$$

359. $(P_n,P_{n-1})=d$ bo'lsin. U holda $P_n=P_{n-1}q_n+P_{n-2}$ dan $(P_{n-1},P_{n-2})=d$. Shu mulohazani takrorlab $n=3$ da $d=(P_2,P_1)=(q_2q_1+1,q_1)=1$. Demak, $d=(P_n,P_{n-1})=(P_{n-1},P_{n-2})=\dots=(P_2,P_1)=1$. $(Q_n,Q_{n-1})=1$ ham aynan yuqoridagi singari mulohazalar yordamida isbotlanadi.

360. Tenglikni matematik induksiya meatodidan foydalanib isbotlaymiz. $n=1$ bo'lsa, berilgan tenglik to'g'ri

$$2=\frac{\left(1+\sqrt{2}\right)^2-\left(1-\sqrt{2}\right)^2}{\left(1+\sqrt{2}\right)-\left(1-\sqrt{2}\right)}=\left(1+\sqrt{2}\right)+\left(1-\sqrt{2}\right)=2$$

tenglikga aylanadi. Endi faraz qilaylik isbotlanayotgan tenglik n uchun o'rinli bo'lsin, ya'ni

$$\alpha_n = (\underbrace{2,2,2,\dots,2}_{nta}) = \frac{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1}}{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n}}$$

o'rinli bo'lsin, u holda

$$\alpha_{n+1} = (2, \alpha_n) = 2 + \frac{1}{\alpha_n} = 2 + \frac{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n}}{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1}} =$$

$$\frac{2\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1} + \left(1+\sqrt{2}\right)^{n} - 2\left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n}}{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1}} =$$

$$\frac{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n}(2+2\sqrt{2}+1) - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n}(2-2\sqrt{2}+1)}{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1}} =$$

$$\frac{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+2} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n+2}}{\left(1+\sqrt{2}\right)^{n+1} - \left(1-\sqrt{2}\right)^{n+1}}$$

bajariladi, ya'ni isbotlanayotgan tenglik $n+1$ uchun o'rinli. Shuning uchun ham matematik induksiya prinsipiga asosan isbotlanayotgan tenglik ixtiyoriy n natural soni uchun o'rinli.

361. $ax + by = c, a > 0, b > 0, (a,b) = 1$ tenglamani qaraymiz. $\frac{a}{b}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $P_n = a$, $Q_n = b$ bo'lgani uchun berilgan munosabat $P_nQ_{n-1} - Q_nP_{n-1} = (-1)^n$dan $aQ_{n-1} - bP_{n-1} = (-1)^n \to a((-1)^n cQ_{n-1}) + b((-1)^{n-1}cP_{n-1}) = c$ ga ega bo'lamiz. Bundan $x_0 = (-1)^n cQ_{n-1}$ va $y_0 = (-1)^{n-1}cP_{n-1}$. Demak, biz munosib kasrlardan foydalanib ikki noma'lumli birinchidarajalianiqmas tenglamaning birta yechimini topishimiz mumkin bo'lar ekan. U holda umumiy yechim $x = x_0 + bt, y = y_0 - at, t \in Z$ bo'ladi.

362.1).$38x + 117y = 209$ tenglamani qaraymiz. $\frac{38}{117}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $38 = 117 \cdot \boxed{0} + 38;\ 117 = 38 \cdot \boxed{3} + 3;\ 38 = 3 \cdot \boxed{12} + 2;\ 3 = 2 \cdot \boxed{1} + 1;\ 2 = 1 \cdot \boxed{2}$. Bundan $\frac{38}{117} = (0,3,12,1,2)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		0	3	12	1	2
P_i	$P_0 = 1$	0	1	12	$\boxed{13}$	38
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	3	37	$\boxed{40}$	117

Bu yerdan $n = 5, P_{n-1} = P_4 = 13,\ Q_{n-1} = Q_4 = 40$ bo'lgani uchun $x_0 = -209 \cdot 40 = -8360$ va $y_0 = 209 \cdot 13 = 2717$. Bundan berilgan tenglamaning umumiy yechimi $x = -8360 + 117t,\ y = 2717 - 38t, t \in Z$ ni hosil qilamiz.

Javob: $x = -8360 + 117t,\ y = 2717 - 38t, t \in Z.$

2). $122x + 129y = 2$ tenglamani qaraymiz. $\frac{122}{129}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $122 = 129 \cdot \boxed{0} + 122;\ 129 = 122 \cdot \boxed{1} + 7;\ 122 = 7 \cdot \boxed{17} + 3;\ 7 = 3 \cdot \boxed{2} + 1;\ 3 = 1 \cdot \boxed{3}$. Bundan $\frac{122}{129} = (0, 1, 17, 2, 3)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		0	1	17	2	3
P_i	$P_0 = 1$	0	1	17	$\boxed{35}$	122
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	18	$\boxed{37}$	129

Bu yerdan $n = 5, P_{n-1} = P_4 = 35,\ Q_{n-1} = Q_4 = 37$ bo'lgani uchun $x_0 = -2 \cdot 37 = -74$ va $y_0 = 2 \cdot 35 = 70$. Bundan berilgan tenglamaning umumiy yechimi $x = -74 + 129t,\ y = 70 - 122t, t \in Z$ ni hosil qilamiz.

Javob: $x = -74 + 129t,\ y = 70 - 122t, t \in Z.$

3). $119x - 68y = 34 \rightarrow 119x + 68(-y) = 34$ tenglamani qaraymiz. $\frac{119}{68}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $119 = 68 \cdot \boxed{1} + 51;\ 68 = 51 \cdot \boxed{1} + 17;\ 51 = 17 \cdot \boxed{3} + 0.$ Bundan $\frac{119}{68} = (1, 1, 3)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	1	3
P_i	$P_0 = 1$	1	$\boxed{2}$	7
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	$\boxed{1}$	4

Bu yerdan berilgan tenglama $7x-4y=2$ tenglamaga teng kuchli ekanligi kelib chiqadi va demak, $n=3, P_{n-1}=P_2=2,\ Q_{n-1}=Q_2=1$ bo'lgani uchun $x_0=-2\cdot 1=-2$ va $y_0=-2\cdot 2-4$. Bundan berilgan tenglamaning umumiy yechimi $x=-2-4t,\ y=-4-7t, t\in Z$ ni hosil qilamiz.

Javob: $x=-2-4t,\ y=-4-7t, t\in Z.$

4). $258x-175y=113\ \rightarrow 258x+175(-y)=113$ tenglamani qaraymiz. $\frac{258}{175}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $258=175\cdot\boxed{1}+83;\ 175=83\cdot\boxed{2}+9;\ 83=9\cdot\boxed{9}+2;\ 9=2\cdot\boxed{4}+1;$

$2=1\cdot\boxed{2}+0.$ Bundan $\frac{258}{175}=(1,2,9,4,2).$ Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	2	9	4	2
P_i	$P_0=1$	1	3	28	$\boxed{115}$	258
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	2	19	$\boxed{78}$	175

Bu yerdan $n=5,\ P_{n-1}=P_4=115,\ Q_{n-1}=Q_4=78$ bo'lgani uchun $x_0=-78\cdot 113=-8814$ va $y_0=-115\cdot 113=-12995$. Bundan berilgan tenglamaning umumiy yechimi $x=-8814+175t,\ y=-12995-258t, t\in Z$ ni hosil qilamiz. **Javob:** $x=-8814+175t,\ y=-12995-258t, t\in Z.$

5).$41x+114y=5$ tenglamani qaraymiz. $\frac{41}{114}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $41=114\cdot\boxed{0}+41;\ 114=41\cdot\boxed{2}+32;\ 41=32\cdot\boxed{1}+9;\ 32=9\cdot\boxed{3}+5;\ 9=5\cdot\boxed{1}+4;\ 5=4\cdot\boxed{1}+1; 4=1\cdot\boxed{4}+0.$ Bundan $\frac{41}{114}=(0,2,1,3,1,1,4).$Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		0	2	1	3	1	1	4
P_i	$P_0=1$	0	1	1	4	5	$\boxed{9}$	41
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	2	3	11	14	$\boxed{25}$	114

Bu yerdan $n=7,\ P_{n-1}=P_6=9,\ Q_{n-1}=Q_5=25$ bo'lgani uchun $x_0=-25\cdot 5=-125$ va $y_0=9\cdot 5=45$. Bundan berilgan tenglamaning umumiy yechimi $x=-125+114t,\ y=45-41t,\ t\in Z$ ni hosil qilamiz.

Javob: $x=-125+114t,\ y=45-41t,\ t\in Z$.

6). $70x+33y=1$ tenglamani qaraymiz. $\frac{70}{33}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $70=33\cdot\boxed{2}+4;\ 33=4\cdot\boxed{8}+1;\ 4=1\cdot\boxed{4}+0$. Bundan $\frac{70}{33}=(2,8,4,)$.Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		2	8	4
P_i	$P_0=1$	2	$\boxed{17}$	70
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	$\boxed{8}$	333

Bu yerdan $n=3,\ P_{n-1}=P_2=17,\ Q_{n-1}=Q_2=8$ bo'lgani uchun $x_0=-8\cdot 1=-8$ va $y_0=17\cdot 1=17$. Bundan berilgan tenglamaning umumiy yechimi $x=-8+33t,\ y=17-70t,\ t\in Z$ ni hosil qilamiz.

Javob: $x=-8+33t,\ y=17-70t,\ t\in Z$.

363. Buning uchun berilgan $\frac{A}{B}=\frac{a^4+3a^2+1}{a^3+2a}$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyib munosib kasrlarini aniqlaymiz. Agar bunda $\frac{P_n}{Q_n}=\frac{A}{B}$ tenglik o'rinli bo'lsa, berilgan kasr qisqarmas kasr bo'ladi.

$\frac{a^4+3a^2+1}{a^3+2a}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyib munosib kasrlarini topamiz. U holda $a^4+3a^2+1=(a^3+2a)\cdot\boxed{a}+(a^2+1);\ a^3+2a=(a^2+1)\cdot\boxed{a}+a;\ (a^2+1)=a\cdot\boxed{a}+1; a=1\cdot\boxed{a}+0.$

Bundan $\frac{a^4+3a^2+1}{a^3+2a}=(a,a,a,a)$.Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		a	a	a	a
P_i	$P_0=1$	a	a^2+1	a^3+2a	a^4+3a^2+1
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	a	a^2+1	a^3+2a

Bu yerdan $\frac{P_n}{Q_n} = \frac{a^4+3a^2+1}{a^3+2a}$ ni hosil qilamiz. Demak, berilgan kasr qisqarmas kasr ekan.

364. 358-misolga asosan $\frac{P_n}{P_{n-1}} = (q_n, q_{n-1}, \dots, q_1)$. Bundan masalaning shartini e'tiborga olib $\frac{P_n}{P_{n-1}} = (q_n, q_{n-1}, \dots, q_1) = (q_1, q_2, \dots, q_n) = \frac{P_n}{Q_n}$ ekanligini hosil qilamiz. $\frac{P_n}{P_{n-1}}$ kasr (359-misol) qisqarmas kasr, shuningdek $\frac{P_n}{Q_n}$ ham qisqarmas kasr bo'lgani uchun oxirgi tenglikdan $P_{n-1} = Q_n$ ga ega bo'lamiz.

365. Tengsizlikni $Q_n = Q_{n-1}q_n + Q_{n-2} \geq 2Q_{n-2}$ munosabatdan foydalanib matematik induksiya metodi yordamida isbotlaymiz. $n = 2$ da yuqoridagi munosabatdan $Q_2 = Q_1q_2 + Q_0 \geq 2Q_0$ kelib chiqadi. Bunda $Q_1 = 1,\ Q_0 = 0$ ekanligini etiborga olsak doimo bajariladigan $Q_2 = q_2 \geq 0$ munosabatga ega bo'lamiz. $n = 3$ da yuqoridagi munosabatdan $Q_3 = Q_2q_3 + Q_1 \geq 2Q_1$ kelib chiqadi. Bunda $Q_2 = q_2, Q_1 = 1,\ Q_0 = 0$ ekanligini etiborga olsak doimo bajariladigan $Q_3 = q_2q_3 + 1 \geq 2$ munosabatga ega bo'lamiz.

Endi faraz qilaylik isbotlanishi talab etilayotgan tengsizlik n=k uchun o'rinli bo'lsin, ya'ni $Q_k \geq 2^{\frac{k-1}{2}}$ bajarilsin. u holda n=k+1 da $Q_{k+1} \geq 2^{\frac{k}{2}}$ ning bajarilishini ko'rsatamiz. Haqiqatan ham, induktivlik farazimizga asosan $Q_{k-1} \geq 2^{\frac{k-2}{2}}$ bo'lgani uchun $Q_{k+1} = Q_kq_{k+1} + Q_{k-1} \geq 2Q_{k-1} \geq 2 \cdot 2^{\frac{k-2}{2}} = 2^{\frac{k}{2}}$ bajariladi. Demak, isbotlanayotgan munosabat barcha $n \geq 2$ natural sonlar uchun o'rinli.

366. $P_nQ_{n-1} - P_{n-1}Q_n = (-1)^n$ tenglikdan foydalanib $ax \equiv b(mod m)$, $(a, m) = 1$ taqqoslamani yechich uchun $\frac{P_n}{Q_n} = \frac{m}{a}$ ekanligidan foydalanamiz. Bunda $(P_n, Q_n) = 1$ bo'lganidan $P_n = m,\ Q_n = a$ kelib chiqadi. Bundan foydalanib yuqoridagi tenglikni quyidagicha yozish mumkin:

$$mQ_{n-1} - aP_{n-1} = (-1)^n \rightarrow aP_{n-1} = (-1)^{n-1} + mQ_{n-1} \rightarrow a(P_{n-1}b)$$
$$= (-1)^{n-1}b + m(Q_{n-1}b) \rightarrow a((-1)^{n-1}P_{n-1}b)$$
$$= b + m((-1)^{n-1}Q_{n-1}b).$$

Oxirgi tenglikdan taqqoslamaga o'tsak $a((-1)^{n-1}P_{n-1}b) \equiv b(modm)$ hosil bo'ladi. Bundan va berilgan taqqoslamadan $x \equiv (-1)^{n-1}P_{n-1}b(modm)$ kelib chiqadi. **Javob:** $x \equiv (-1)^{n-1}P_{n-1}b(modm)$.

367. 1). $\frac{308}{95}$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyib $(n-1)-$ munosib kasrning surati P_{n-1} ni topamiz. U holda $308 = 95 \cdot \boxed{3} + 23;\ 95 = 23 \cdot \boxed{4} + 3;\ 23 = 3 \cdot \boxed{7} + 2,\ 3 = 2 \cdot \boxed{1} + 1,\ 2 = 1 \cdot \boxed{2} + 0.$

Bundan $\frac{308}{95} = (3, 4, 7, 1, 2)$.Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		3	4	7	1	2
P_i	$P_0 = 1$	3	13	94	$\boxed{107}$	308

Bu yerdan $n = 5,\ P_{n-1} = P_4 = 107$ bo'lgani 366-misoldagi $x \equiv (-1)^{n-1}P_{n-1}b(modm)$ formuladan $x \equiv 107 \cdot 59(mod308) \rightarrow x \equiv 6313(mod308) \rightarrow x \equiv 308 \cdot 20 + 153(mod308) \rightarrow x \equiv 153(mod308)$ ni hosil qilamiz. **Javob:** $x \equiv 153(mod308)$.

2). $\frac{132}{91}$ kasrni uzluksiz kasrlarga yoyib $(n-1)-$ munosib kasrning surati P_{n-1} ni topamiz. U holda $132 = 91 \cdot \boxed{1} + 41;\ 91 = 41 \cdot \boxed{2} + 93;\ 41 = 9 \cdot \boxed{4} + 5,\ 9 = 5 \cdot \boxed{1} + 4,\ 5 = 4 \cdot \boxed{1} + 1,\ 4 = 1 \cdot \boxed{4} + 0$.

Bundan $\frac{132}{91} = (1, 2, 4, 1, 1, 4)$. Endi munosib kasrlarini aniqlaymiz.

q_i		1	2	4	1	1	4
P_i	$P_0 = 1$	1	3	13	16	$\boxed{29}$	132

Bu yerdan $n = 6,\ P_{n-1} = P_5 = 29$ bo'lgani 366-misoldagi $x \equiv (-1)^{n-1}P_{n-1}b(modm)$ formuladan $x \equiv -29 \cdot 1(mod132) \rightarrow x \equiv -29(mod132) \rightarrow x \equiv 103(mod132)$ni hosil qilamiz.

Javob: $x \equiv 103(mod132)$.

VI.2 -§.

368. 1). $\alpha = \frac{587}{103}$ sonini $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasr bilan almashtirib uning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholashimiz talab etilayapti. Buning uchun avvalo $\frac{587}{103}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyib munosiob kasrlarini topamiz: $587 = 103 \cdot \boxed{5} + 72$; $103 = 72 \cdot \boxed{1} + 31$; $72 = 31 \cdot \boxed{2} + 10$; $31 = 10 \cdot \boxed{3} + 1$; $10 = 1 \cdot \boxed{10} + 0$. Demak, $\frac{587}{103} = (5,1,2,3,10)$ ekan. Endi $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasrni aniqlaymiz:$\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		5	1	2	3	10
P_i	$P_0 = 1$	5	6	17	$\boxed{57}$	587
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	3	$\boxed{10}$	103

Demak, $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{57}{10}$ va xatolik $\Delta\alpha = |\alpha - a| = \left|\frac{587}{103} - \frac{57}{10}\right| = \left|\frac{5870-5871}{1030}\right| = \frac{1}{1030} \approx 0{,}00097 < 0{,}001$ va shuning uchun ham $\frac{587}{103} \approx \frac{57}{10}(-0{,}001) = 5{,}699$. Bu yerda xatolikni "–" ishora bilan olamiz, chunki $\frac{P_4}{Q_4} > \alpha$. Taqqoslash uchun $\frac{587}{103} = 5{,}69902912621$ ekanligini ta'kidlab o'tamiz. **Javob:** $\frac{57}{10}$, $\Delta\alpha = \frac{1}{1030}$.

Eslatma: Xatolikni $\Delta\alpha < \frac{1}{Q_4 Q_5}\left(= \frac{1}{10 \cdot 103} = \frac{1}{1030}\right)$ ko'rinishda baholash ham mumkin.

2). $\alpha = 3{,}14159$ sonini $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasr bilan almashtirib uning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholashimiz talab etilayapti. Buning uchun avvalo $3{,}14159$ ni uzluksiz kasrlarga yoyib munosiob kasrlarini topamiz: $3{,}14159 = 3 + \frac{14159}{100000}$, bunda $14159 = 100000 \cdot \boxed{0} + 14159$; $100000 = 14159 \cdot \boxed{7} + 887$; $14159 = 887 \cdot \boxed{15} + 854$; $887 = 854 \cdot \boxed{1} + 33$; $854 = 33 \cdot \boxed{25} + 29$, $33 = 29 \cdot \boxed{1} + 4$, $29 = 4 \cdot \boxed{7} + 1$, $4 = 1 \cdot \boxed{4} + 0$. Demak, $3{,}14159 = (3,7,15,1,25,7,4)$ ekan. Endi $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasrni aniqlaymiz:

$\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		3	7	15	1	25	7	4
P_i	$P_0 = 1$	3	22	333	$\boxed{355}$	9208		
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	7	106	$\boxed{113}$	2931		

Demak, $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{355}{113}$ va xatolik $\Delta\alpha = |\alpha - a| = \left|3{,}14159 - \frac{355}{113}\right| = |3{,}14159 - 3{,}14159292| < 0{,}000003 < 0{,}00001$ va shuning uchun ham$3{,}14159 \approx \frac{355}{113}(-0{,}00001) = 3{,}1415829$. Bu yerda xatolikni "$-$" ishora bilan olamiz, chunki $\frac{P_4}{Q_4} > \alpha$. **Javob:** $\frac{355}{113}$, $\Delta\alpha = 0.00001$.

Eslatma: Xatolikni $\Delta\alpha < \frac{1}{Q_4 Q_5}\left(= \frac{1}{113 \cdot 2931} = \frac{1}{331203} < 0{,}00001\right)$ ko'rinishda baholash ham mumkin.

3). $\alpha = \frac{-1+\sqrt{5}}{2}$ sonini $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasr bilan almashtirib uning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholashimiz talab etilayapti. Buning uchun avvalo $\frac{-1+\sqrt{5}}{2}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyib munosiob kasrlarini topamiz:

$\alpha = \frac{-1+\sqrt{5}}{2} = 0 + \frac{1}{\frac{2}{-1+\sqrt{5}}} = 0 + \frac{1}{\alpha_1}$, bunda $\alpha_1 = \frac{2}{-1+\sqrt{5}} = \frac{2(1+\sqrt{5})}{4} = \frac{1+\sqrt{5}}{2} = 1 + \left(\frac{1+\sqrt{5}}{2} - 1\right) = 1 + \frac{\sqrt{5}-1}{2} = 1 + \frac{2}{\sqrt{5}+1} = 1 + \frac{1}{\frac{1+\sqrt{5}}{2}} = 1 + \frac{1}{\alpha_1}$. Demak, $\alpha = \frac{-1+\sqrt{5}}{2} = (0,1,1,1,1,1,\ldots)$ ekan. Endi $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasrni aniqlaymiz:

$\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		0	1	1	1	1	1	…
P_i	$P_0 = 1$	0	1	1	$\boxed{2}$	3	5	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	2	$\boxed{3}$	5	8	…

Demak, $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{2}{3}$ va xatolik $\Delta\alpha = |\alpha - a| = \left|\frac{-1+\sqrt{5}}{2} - \frac{2}{3}\right| = |0{,}61803399 - 0{,}66666667| < 0{,}049 < 0{,}05$ va shuning uchun ham$\frac{-1+\sqrt{5}}{2} \approx \frac{2}{3}(-0{,}05) = 0{,}61666667$. Bu yerda xatolikni "$-$" ishora bilan olamiz, chunki $\frac{P_4}{Q_4} > \alpha$.

Javob: $\frac{2}{3},\ \Delta\alpha = 0{,}05.$

Eslatma: Xatolikni $\Delta\alpha < \frac{1}{Q_4 Q_5}\left(= \frac{1}{3\cdot 5} = \frac{1}{15} < 0{,}067 < 0{,}1\right)$ ko'rinishda baholash ham mumkin.

4). $\alpha = \frac{2-\sqrt{3}}{5}$ sonini $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasr bilan almashtirib uning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholashimiz talab etilayapti. Buning uchun avvalo $\frac{2-\sqrt{3}}{5}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyib munosiob kasrlarini topamiz: $(\sqrt{3} = 1{,}73050807\ )$

$\alpha = \frac{2-\sqrt{3}}{5} = 0 + \frac{1}{\frac{5}{2-\sqrt{3}}} = 0 + \frac{1}{\alpha_1}$, bunda $\alpha_1 = \frac{5}{2-\sqrt{3}} = 5\left(2+\sqrt{3}\right) = 10 + 5\sqrt{3} = 18 + \left(5\sqrt{3} - 8\right) = 18 + \frac{75-64}{5\sqrt{3}+8} = 18 + \frac{11}{5\sqrt{3}+8} = 18 + \frac{1}{\frac{8+5\sqrt{3}}{11}} = 18 + \frac{1}{\alpha_2};$

$$\alpha_2 = \frac{8+5\sqrt{3}}{11} = 1 + \left(\frac{8+5\sqrt{3}}{11} - 1\right) = 1 + \frac{5\sqrt{3}-3}{11} = 1 + \frac{1}{\alpha_3};$$

$$\alpha_3 = \frac{11}{5\sqrt{3}-3} = \frac{11\left(5\sqrt{3}+3\right)}{66} = 1 + \left(\frac{5\sqrt{3}+3}{6} - 1\right) = 1 + \frac{5\sqrt{3}-3}{6} = 1 + \frac{1}{\alpha_4};$$

$$\alpha_4 = \frac{6}{5\sqrt{3}-3} = \frac{6(5\sqrt{3}+3)}{66} = \frac{5\sqrt{3}+3}{11} = 1 + \left(\frac{5\sqrt{3}+3}{11} - 1\right) = 1 + \frac{5\sqrt{3}-8}{11}$$

$$= 1 + \frac{1}{\frac{11}{5\sqrt{3}-8}} = 1 + \frac{1}{\alpha_5};\ \alpha_5 = \frac{11}{5\sqrt{3}-8} = 5\sqrt{3} + 8, \ldots .$$

Demak, $\alpha = \frac{2-\sqrt{3}}{5} = (0{,}18{,}1{,}1{,}1{,}16{,}\ldots)$ ekan. Endi $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasrni aniqlaymiz. Uni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		0	18	1	1	1	16	…
P_i	$P_0 = 1$	0	1	1	$\boxed{2}$	3	50	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	18	19	$\boxed{37}$	56	933	…

Demak, $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{2}{37}$ va xatolik $\Delta\alpha = |\alpha - a| = \left|\frac{2-\sqrt{3}}{4} - \frac{2}{37}\right| = |0{,}06737299\ - 0{,}05405405| < 0{,}014 < 0{,}02$ va shuning uchun ham $\frac{2-\sqrt{3}}{4} \approx \frac{2}{37}(+0{,}014) = 0{,}06805405$. Bu yerda xatolikni "$-$" ishora bilan olamiz, chunki $\frac{P_4}{Q_4} > \alpha$.

Javob: $\frac{2}{3},\ \Delta\alpha = 0{,}05.$

Eslatma: Xatolikni $\Delta\alpha < \frac{1}{Q_4 Q_5}\left(= \frac{1}{37\cdot 56} = \frac{1}{2072} < 0{,}0005 < 0{,}001\right)$ ko'rinishda baholash ham mumkin.

5). $\alpha = \frac{1+\sqrt{5}}{2}$ sonini $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasr bilan almashtirib uning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholashimiz talab etilayapti. Buning uchun avvalo $\frac{1+\sqrt{5}}{2}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyib munosiob kasrlarini topamiz: ($\sqrt{5} = 2{,}236067975$)

$\alpha = \frac{1+\sqrt{5}}{2} = 1 + \left(\frac{1+\sqrt{5}}{2} - 1\right) = 1 + \frac{\sqrt{5}-1}{2} = 1 + \frac{1}{\alpha_1}$, bunda $\alpha_1 = \frac{2}{\sqrt{5}-1} = \frac{2(\sqrt{5}+1)}{4} = \frac{\sqrt{5}+1}{2} = \alpha$. Demak, $\alpha = \frac{1+\sqrt{5}}{2} = ((1))$ ekan. Endi $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasrni aniqlaymiz.$\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		1	1	1	1	1	1	…
P_i	$P_0 = 1$	1	2	3	$\boxed{5}$	8	13	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	2	$\boxed{3}$	5	8	…

Demak, $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{5}{3}$ va xatolik $\Delta\alpha = |\alpha - a| = \left|\frac{1+\sqrt{5}}{2} - \frac{5}{3}\right| = |1{,}618033989 - 1{,}66666666| < 0{,}04864 < 0{,}05$ va shuning uchun ham $\frac{1+\sqrt{5}}{2} \approx \frac{5}{3}(-0{,}04864) = 1{,}61802666$. Bu yerda xatolikni "$-$" ishora bilan olamiz, chunki $\frac{P_4}{Q_4} > \alpha$.

Javob: $\frac{5}{3},\ \Delta\alpha = 0{,}05.$

Eslatma: Bu yerdagi $\frac{P_i}{Q_i}\left(\frac{1}{1}, \frac{2}{1}, \frac{3}{2}, \frac{5}{3}, \frac{8}{5}, \frac{13}{8}, \frac{21}{13}, \frac{34}{21}, \ldots\right)$sonlariga Fibonachchi ketma-ketligi deyiladi.

6). $\alpha = \frac{-1+\sqrt{2}}{2}$ sonini $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasr bilan almashtirib uning natijasida hosil bo'ladigan xatolikni baholashimiz talab etilayapti. Buning uchun avvalo $\frac{-1+\sqrt{2}}{2}$ ni uzluksiz kasrlarga yoyib munosiob kasrlarini topamiz: ($\sqrt{2} = 2{,}236067975$)

$\alpha = \frac{-1+\sqrt{2}}{2} = 0 + \frac{-1+\sqrt{2}}{2} = 1 + \frac{1}{\frac{2}{-1+\sqrt{2}}} = 1 + \frac{1}{\alpha_1}$, bunda $\alpha_1 = \frac{2}{\sqrt{2}-1} =$

$2(\sqrt{2}+1) = 4 + (2\sqrt{2}-2) = 4 + \frac{(2\sqrt{2}-2)(2\sqrt{2}+2)}{(2\sqrt{2}+2)} = 4 + \frac{2}{\sqrt{2}+1} = 4 + \frac{1}{\alpha_2}$;

$$\alpha_2 = \frac{\sqrt{2}+1}{2} = 1 + \frac{\sqrt{2}-1}{2} = 1 + \frac{1}{\alpha_3}; \alpha_3 = \frac{2}{\sqrt{2}-1} = \alpha_1.$$

Demak, $\alpha = \frac{-1+\sqrt{2}}{2} = (0,(4,1))$ ekan. Endi $\frac{P_4}{Q_4}$ munosib kasrni aniqlaymiz.$\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		0	4	1	4	1	4	…
P_i	$P_0 = 1$	0	1	1	$\boxed{5}$	6	29	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	4	5	$\boxed{24}$	29	140	…

Demak, $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{5}{24}$ va xatolik $\Delta\alpha = |\alpha - a| = \left|\frac{-1+\sqrt{2}}{2} - \frac{5}{24}\right| = |0{,}2071067812 - 0{,}2083333333| < 0{,}001227 < 0{,}002$ va shuning uchun ham$\frac{-1+\sqrt{2}}{2} \approx \frac{5}{24}(-0{,}001227) = 0{,}20710633333$. Bu yerda xatolikni "–" ishora bilan olamiz, chunki $\frac{P_4}{Q_4} > \alpha$. **Javob:** $\frac{5}{24}$, $\Delta\alpha = 0{,}002$.

369. Buning uchunuchun berilgan $\frac{1261}{881}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyamiz. Berilgan aniqlikni ta’minlash uchun k ni $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}0001}} = 100$ bajariladigan tanlash kifoya. Avvalo $\frac{1261}{881}$ kasrni uzluksiz kasrga yoyamiz: $1261 = 881 \cdot \boxed{1} + 380$; $881 = 380 \cdot \boxed{2} + 121$; $380 = 121 \cdot \boxed{3} + 17$; $121 = 17 \cdot \boxed{7} + 2$; $17 = 2 \cdot \boxed{8} + 1$, $2 = 1 \cdot \boxed{2} + 0$. Demak, $\frac{1261}{881} = (1,2,3,7,8,2)$ ekan. Endi munosib kasrni aniqlaymiz:$\frac{P_k}{Q_k}$ larni topish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

q_i		1	2	3	7	8	2
P_i	$P_0 = 1$	1	3	10	73	594	1261
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	2	7	51	$\boxed{415}$	881

Jadvaldan $Q_k > 100$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 5$ va $Q_5 = 415$. Shuning uchun ham $\frac{1261}{881} \approx \frac{594}{415}(-0.0001)$ deb yoza olamiz. Lekinda $\left|\frac{1261}{881} - \frac{P_k}{Q_k}\right| < 0{,}0001$shartni qanoatlantiruvchi eng kichik maxrajli munosib kasr bilan almashtirish talab etilgani uchun $\frac{P_4}{Q_4}$ tekshirib ko'ramiz. Bu holda $\left|\frac{1261}{881} - \frac{P_4}{Q_4}\right| = \left|\frac{1261}{881} - \frac{73}{51}\right| = |1{,}43132803632 - 1{,}43137254901| = 0{,}00004451269 < 0{,}00005 < 0{,}0001$ bajariladi va shu uchun $\frac{1261}{881} \approx \frac{73}{51}(-0.0001)$ deb yozish mumkin. Lekinda $\left|\frac{1261}{881} - \frac{P_3}{Q_3}\right| = \left|\frac{1261}{881} - \frac{10}{7}\right| = |1{,}43132803632 - 1{,}42857142857| = 0{,}00275660775 > 0{,}0001$. Berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi $\frac{1261}{881}$ kasrga eng yaxshi yaqinlashish sifatida $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{73}{51}$ munosib kasrni olsak bo'ladi. **Javob:** $\frac{73}{51}$.

370. 1).$\sqrt{2} = 1 + (\sqrt{2} - 1) = 1 + \frac{1}{\sqrt{2}+1} = 1 + \frac{1}{2+(\sqrt{2}-1)} = 1 + \frac{1}{2+\frac{1}{(\sqrt{2}+1)}} = 1 + \frac{1}{2+\frac{1}{2+\ddots}}$=(1,(2)) bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}001}} > 31$, ya'ni $31 < Q_k$ shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		1	2	2	2	2	2	…
P_i	$P_0 = 1$	1	3	7	17	41	99	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	2	5	12	29	70	…

Jadvaldan $Q_k > 31$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 6$ va $Q_6 = 70$. Shuning uchun ham $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{99}{70}$, ya'ni $\sqrt{2} \approx \frac{99}{70}(-0{,}001)$ deb yoza olamiz. Lekinda $\left|\sqrt{2} - \frac{P_k}{Q_k}\right| < 0{,}001$shartni qanoatlantiruvchi eng kichik maxrajli munosib kasr bilan almashtirish talab etilgani uchun $\frac{P_5}{Q_5}$ tekshirib ko'ramiz. Bu holda $\left|\sqrt{2} - \frac{P_5}{Q_5}\right| = \left|\sqrt{2} - \frac{41}{29}\right| = |1{,}4142135624 - 1{,}41379310344\,| = 0{,}000421 < 0{,}001$

bajariladi va shu uchun $\sqrt{2} \approx \frac{41}{29}(+0{,}001)$ deb yozish mumkin. Lekinda $\left|\sqrt{2} - \frac{P_4}{Q_4}\right| = \left|\sqrt{2} - \frac{17}{12}\right| = |1{,}4142135624 - 1{,}4166666667| = 0{,}00245310426 > 0{,}001$. Berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi $\sqrt{2}$ ga eng yaxshi yaqinlashish sifatida $\frac{P_5}{Q_5} = \frac{41}{29}$ munosib kasrni olsak bo'ladi. **Javob:** $\frac{41}{29}$.

2). $\sqrt{3} = 1 + \left(\sqrt{3} - 1\right) = 1 + \frac{2}{\sqrt{3}+1} = 1 + \frac{1}{\frac{\sqrt{3}+1}{2}} = 1 + \frac{1}{1+\left(\sqrt{3}-1\right)} = 1 + \frac{1}{1+\frac{2}{\sqrt{3}+1}} = 1 + \frac{1}{1+\frac{1}{\frac{\sqrt{3}+1}{2}}} = (1,(1,2))$ bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}001}} > 31$, ya'ni $31 < Q_k$ shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		1	1	2	1	2	1	2	…
P_i	$P_0 = 1$	1	2	5	7	19	26	71	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	3	4	11	15	41	…

Jadvaldan $Q_k > 31$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 7$ va $Q_7 = 41$. Shuning uchun ham $\frac{P_7}{Q_7} = \frac{71}{41}$, ya'ni $\sqrt{3} \approx \frac{71}{41}(+0{,}001)$ deb yoza olamiz. Lekinda $\left|\sqrt{3} - \frac{P_k}{Q_k}\right| < 0{,}001$shartni qanoatlantiruvchi eng kichik maxrajli munosib kasr bilan almashtirish talab etilgani uchun $\frac{P_6}{Q_6}$ tekshirib ko'ramiz. Bu holda $\left|\sqrt{3} - \frac{P_6}{Q_6}\right| = \left|\sqrt{3} - \frac{26}{15}\right| = |1{,}73050807 - 1{,}73333333| = 0{,}031 > 0{,}001$ bajariladi va shu uchun berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi $\sqrt{3}$ga eng yaxshi yaqinlashish sifatida $\frac{P_7}{Q_7} = \frac{71}{41}$ munosib kasrni olsak bo'ladi. **Javob:** $\frac{71}{41}$.

3). $\sqrt{7} = 2 + \left(\sqrt{7} - 2\right) = 2 + \frac{3}{\sqrt{7}+2} = 2 + \frac{1}{\frac{\sqrt{7}+2}{3}} = 2 + \frac{1}{\alpha_1}$,

bu yerda $\alpha_1 = \frac{\sqrt{7}+2}{3} = 1 + \left(\frac{\sqrt{7}+2}{3} - 1\right) = 1 + \frac{\sqrt{7}-1}{3} = 1 + \frac{1}{\alpha_2}$;

$$\alpha_2 = \frac{3}{\sqrt{7}-1} = \frac{3(\sqrt{7}+1)}{6} = \frac{\sqrt{7}+1}{2} = 1 + \frac{\sqrt{7}-1}{2} = 1 + \frac{1}{\frac{2}{\sqrt{7}-1}} = 1 + \frac{1}{\alpha_3};$$

$$\alpha_3 = \frac{2}{\sqrt{7}-1} = \frac{2(\sqrt{7}+1)}{6} = \frac{\sqrt{7}+1}{3} = 1 + \frac{\sqrt{7}-2}{3} = 1 + \frac{1}{\frac{3}{\sqrt{7}-2}} = 1 + \frac{1}{\alpha_4};$$

$$\alpha_4 = \frac{3}{\sqrt{7}-2} = \frac{3}{\sqrt{7}-2} = \sqrt{7}+2 = 4 + \left(\sqrt{7}-2\right) = 4 + \frac{3}{\sqrt{7}+2} = 4 + \frac{1}{\frac{\sqrt{7}+2}{3}}$$

$$= 4 + \frac{1}{\alpha_4};$$

$\alpha_4 = \frac{\sqrt{7}+2}{3} = \alpha_1$. Demak, $\sqrt{7} = (2,(1,1,1,4))$

bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}001}} > 31$, ya'ni $31 < Q_k$ shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		2	1	1	1	4	1	1	1	4	…
P_i	$P_0 = 1$	2	3	5	8	37	45	82	127	590	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	2	3	14	17	31	48	223	…

Jadvaldan $Q_k > 31$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 8$ va $Q_8 = 48$. Shuning uchun ham $\frac{P_8}{Q_8} = \frac{127}{48}$, ya'ni $\sqrt{7} \approx \frac{127}{48}(+0{,}001)$ deb yoza olamiz.

Lekinda $\left|\sqrt{7} - \frac{P_k}{Q_k}\right| < 0{,}001$shartni qanoatlantiruvchi eng kichik maxrajli munosib kasr bilan almashtirish talab etilgani uchun $\frac{P_7}{Q_7}$ tekshirib ko'ramiz. Bu holda $\left|\sqrt{7} - \frac{P_7}{Q_7}\right| = \left|\sqrt{7} - \frac{82}{31}\right| = |2{,}645751311 - 2{,}64583333333| = 0{,}00008 <$ $0{,}001$ bajariladi va shu uchun berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi $\sqrt{7}$ga eng yaxshi yaqinlashish sifatida $\frac{P_7}{Q_7} = \frac{82}{31}$ munosib kasrni olsak bo'ladi. **Javob:** $\frac{82}{31}$.

4).$\sqrt{11} = 3 + \left(\sqrt{11} - 3\right) = 3 + \frac{2}{\sqrt{11}+3} = 3 + \frac{1}{\frac{\sqrt{11}+3}{2}} = 3 + \frac{1}{\alpha_1}$,

bu yerda$\alpha_1 = \frac{\sqrt{11}+3}{2} = 3 + \left(\frac{\sqrt{11}+3}{2} - 3\right) = 3 + \frac{\sqrt{11}-3}{2} = 3 + \frac{1}{\alpha_2};$

$$\alpha_2 = \frac{2}{\sqrt{11}-3} = \sqrt{11}+3 = 6+(\sqrt{11}-3) = 6+\frac{2}{\sqrt{11}+3} = 6+\frac{1}{\frac{\sqrt{11}+3}{2}}$$

$$= 6+\frac{1}{\alpha_3};$$

$\alpha_3 = \frac{\sqrt{11}+3}{2} = \alpha_1$. Demak, $\sqrt{11} = (3,(3,6))$ bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}001}} >$ 31, ya'ni $31 < Q_k$ shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		3	3	6	3	6	…
P_i	$P_0 = 1$	3	10	63	199	1257	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	3	19	60	379	…

Jadvaldan $Q_k > 31$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 4$ va $Q_4 = 60$. Shuning uchun ham $\frac{P_4}{Q_4} = \frac{199}{60} = 3{,}31(6)$, ya'ni $\sqrt{11} \approx \frac{199}{60}(-0{,}001)$ deb yoza olamiz. Lekinda $\left|\sqrt{11} - \frac{P_k}{Q_k}\right| < 0{,}001$shartni qanoatlantiruvchi eng kichik maxrajli munosib kasr bilan almashtirish talab etilgani uchun $\frac{P_3}{Q_3}$ tekshirib ko'ramiz. Bu holda $\left|\sqrt{11} - \frac{P_3}{Q_3}\right| = \left|\sqrt{11} - \frac{63}{19}\right| = |3{,}3166247903 - 3{,}31578947368| <$ $0{,}00084 < 0{,}001$ bajariladi va shu uchun berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi $\sqrt{11}$ ga eng yaxshi yaqinlashish sifatida $\frac{P_3}{Q_3} = \frac{63}{19}$ munosib kasrni olsak bo'ladi.

Javob: $\frac{63}{19}$.

371. 1).$x^2 - 5x + 2 = 0$ tenglamaning ildizlarini topamiz. $x_{1,2} = \frac{5\pm\sqrt{25-4\cdot1\cdot2}}{2} = \frac{5\pm\sqrt{17}}{2}$; $x_1 = \frac{5+\sqrt{17}}{2}$, $x_2 = \frac{5-\sqrt{17}}{2}$. Avvalo birinchi ildiz $x_1 = \frac{5+\sqrt{17}}{2}$ ni qaraymiz. $x_1 = \frac{5+\sqrt{17}}{2} = 4+\frac{\sqrt{17}-3}{2} = 4+\frac{1}{\alpha_1}$,bu yerda $\alpha_1 = \frac{2}{\sqrt{17}-3} = \frac{2(\sqrt{17}+3)}{8} = \frac{\sqrt{17}+3}{4} = 1+\frac{\sqrt{17}-1}{4} = 1+\frac{1}{\frac{4}{\sqrt{17}-1}} = 1+\frac{1}{\alpha_2}$;

$$\alpha_2 = \frac{4}{\sqrt{17}-1} = \frac{\sqrt{17}+1}{4} = 1+\frac{\sqrt{17}-3}{4} = 1+\frac{1}{\frac{4}{\sqrt{17}-3}} = 1+\frac{1}{\alpha_3};$$

$\alpha_3 = \frac{4}{\sqrt{17}-3} = \frac{\sqrt{17}+3}{2} = 3 + \frac{\sqrt{17}-3}{2} = 3 + \frac{1}{\frac{2}{\sqrt{17}-3}} = 3 + \frac{1}{\alpha_1}$.Demak, $x_1 = \frac{5+\sqrt{17}}{2} =$

$\big(4,(1,1,3)\big)$ bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}0001}} = 100$ shartni qanoatlantiruvchi

Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		4	1	1	3	1	1	3	1	1	3	…
P_i	$P_0 = 1$	4	5	9	32	41	73	260	333	593	2112	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	2	7	9	16	57	73	130	463	…

Jadvaldan $Q_k > 100$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 8$ va $Q_8 =$ 130. Shuning uchun ham $\frac{P_8}{Q_8} = \frac{593}{130} = 4{,}56153846153,$ ya'ni $\frac{5+\sqrt{17}}{2} \approx$

$\frac{593}{130}(-0{,}0001)$ deb yoza olamiz. Bunda xatolik $<\frac{1}{Q_8 Q_9} = \frac{1}{130 \cdot 463} =$

$\frac{1}{60190}$<0,000017<0,0001 bo'ladi.

Endi ikkinchi $x_2 = \frac{5-\sqrt{17}}{2}$ ildizni qaraymiz. $x_2 = \frac{5-\sqrt{17}}{2} = 0 + \frac{1}{\frac{2}{5-\sqrt{17}}} = 0 + \frac{1}{\alpha_1}$, bu

yerda $\alpha_1 = \frac{2}{5-\sqrt{17}} = \frac{2(\sqrt{17}+5)}{8} = \frac{\sqrt{17}+5}{4} = 2 + \frac{\sqrt{17}-3}{4} = 2 + \frac{1}{\frac{4}{\sqrt{17}-3}} = 2 + \frac{1}{\alpha_2}$;

$$\alpha_2 = \frac{4}{\sqrt{17}-3} = \frac{\sqrt{17}+3}{2} = 3 + \frac{\sqrt{17}-3}{2} = 3 + \frac{1}{\frac{2}{\sqrt{17}-3}} = 3 + \frac{1}{\alpha_3};$$

$$\alpha_3 = \frac{2}{\sqrt{17}-3} = \frac{\sqrt{17}+3}{4} = 1 + \frac{\sqrt{17}-1}{4} = 1 + \frac{1}{\frac{4}{\sqrt{17}-1}} = 1 + \frac{1}{\alpha_4};$$

$\alpha_4 = \frac{4}{\sqrt{17}-1} = \frac{\sqrt{17}+1}{4} = 1 + \frac{\sqrt{17}-3}{4} = 1 + \frac{1}{\frac{4}{\sqrt{17}-3}} = 1 + \frac{1}{\alpha_2}$.

Demak, $x_2 = \frac{5-\sqrt{17}}{2} = (0{,}2,(3,1,1))$bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}0001}} =$

100 shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		0	2	3	1	1	3	1	1	3	1	1	…

P_i	$P_0=1$	0	1	3	4	7	25	32	57	203	260	463	…
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	2	7	9	16	57	73	130	463	593	1056	…

Jadvaldan $Q_k > 100$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k=8$ va $Q_8 = 130$. Shuning uchun ham $\frac{P_8}{Q_8} = \frac{57}{130} = 0{,}43846153846$, ya'ni $\frac{5-\sqrt{17}}{2} \approx \frac{57}{130}(+0{,}0001)$ deb yoza olamiz. Bunda xatolik $< \frac{1}{Q_8 Q_9} = \frac{1}{130 \cdot 463} = \frac{1}{60190} < 0{,}000017 < 0{,}0001$ bo'ladi.

Javob: $x_1 = \frac{5+\sqrt{17}}{2} \approx \frac{593}{130}(-0{,}0001); x_2 = \frac{5-\sqrt{17}}{2} \approx \frac{57}{130}(+0{,}0001)$.

$4x^2 + 20x + 23 = 0$ tenglamaning ildizlarini topamiz.

$$x_{1,2} = \frac{-10 \pm \sqrt{100-92}}{4} = \frac{-10 \pm 2\sqrt{2}}{4} = \frac{-5 \pm \sqrt{2}}{2};\ x_1 = \frac{-5+\sqrt{2}}{2},\ x_2 = \frac{-5-\sqrt{2}}{2}.$$

Avvalo birinchi ildiz $x_1 = \frac{-5+\sqrt{2}}{2}$ ni qaraymiz.

$$x_1 = \frac{-5+\sqrt{2}}{2} = -2 + \frac{\sqrt{2}-5}{2} + 2 = -2 + \frac{\sqrt{2}-1}{2} = -2 + \frac{1}{\alpha_1},$$

bu yerda

$$\alpha_1 = \frac{2}{\sqrt{2}-1} = 2\left(\sqrt{2}+1\right) = 4 + 2\sqrt{2} - 2 = 4 + \frac{2}{\sqrt{2}+1} = 4 + \frac{1}{\frac{\sqrt{2}+1}{2}} = 4 + \frac{1}{\alpha_2}; \alpha_2 = \frac{\sqrt{2}+1}{2} = 1 + \frac{\sqrt{2}-1}{2} = 1 + \frac{1}{\frac{2}{\sqrt{2}-1}} = 1 + \frac{1}{\alpha_1}.$$

Demak, $x_1 = \frac{-5+\sqrt{2}}{2} = \left(-2,(4,1)\right)$bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}0001}} = 100$ shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		-2	4	1	4	1	4	1	…
P_i	$P_0=1$	-2	-7	-9	-43	-52	-251	-303	…
Q_i	$Q_0=0$	$Q_1=1$	4	5	24	29	140	169	…

Jadvaldan $Q_k > 100$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k=6$ va $Q_6 = 140$. Shuning uchun ham $\frac{P_6}{Q_6} = -\frac{251}{140} = -1{,}79285714285$, bunda $\frac{-5+\sqrt{2}}{2} \approx$

$-1{,}792893238$, ya'ni $\frac{-5+\sqrt{2}}{2} \approx -\frac{251}{140}(-0{,}0001)$ deb yoza olamiz. Bunda xatolik $<\frac{1}{Q_8 Q_9} = \frac{1}{140 \cdot 169} = \frac{1}{23660} <0{,}000043<0{,}0001$ bo'ladi.

Endi ikkinchi$x_2 = \frac{-5-\sqrt{2}}{2}$ ildizni qaraymiz. $x_2 = \frac{-5-\sqrt{2}}{2} = -4 + \frac{3-\sqrt{2}}{2} = -4 + \frac{1}{\frac{2}{3-\sqrt{2}}} = -4 + \frac{1}{\alpha_1}$, bu yerda

$$\alpha_1 = \frac{2}{3-\sqrt{2}} = \frac{2(\sqrt{2}+3)}{7} = 1 + \frac{2\sqrt{2}-1}{7} = 1 + \frac{1}{\frac{7}{2\sqrt{2}-1}} = 1 + \frac{1}{\alpha_2};$$

$$\alpha_2 = \frac{7}{2\sqrt{2}-1} = 2\sqrt{2}+1 = 3 + (2\sqrt{2}-2) = 3 + \frac{1}{\frac{\sqrt{2}+1}{2}} = 3 + \frac{1}{\alpha_3};$$

$$\alpha_3 = \frac{\sqrt{2}+1}{2} = ((1{,}4)).$$

Demak, $x_2 = \frac{-5-\sqrt{2}}{2} = (-4{,}1{,}3{,}(1{,}4))$ bo'lgani uchun $Q_k > \sqrt{\frac{1}{\varepsilon}} = \sqrt{\frac{1}{0{,}0001}} = 100$ shartni qanoatlantiruvchi Q_k ning eng kichik qiymatini aniqlaymiz.Buning uchun munosib kasrni aniqlaymiz:

q_i		-4	1	3	1	4	1	4	1	…
P_i	$P_0 = 1$	-4	-3	-13	-16	-77	-93	-449	-547	…
Q_i	$Q_0 = 0$	$Q_1 = 1$	1	4	5	24	29	140	169	…

Jadvaldan $Q_k > 100$ shartni qanoatlantiruvchi eng kichik k bu $k = 7$ va $Q_7 = 140$. Shuning uchun ham $\frac{P_7}{Q_7} = -\frac{449}{140} = -3{,}20714285714$, $\frac{-5-\sqrt{2}}{2} = -3{,}207106812$, ya'ni $-\frac{449}{140}(-0{,}0001)$ deb yoza olamiz. Bunda xatolik $< \frac{1}{Q_8 Q_9} = \frac{1}{140 \cdot 169} = \frac{1}{23660} < 0{,}0001$ bo'ladi.

Javob: $x_1 = \frac{-5+\sqrt{2}}{2} \approx -\frac{251}{140}(-0{,}0001)$; $x_2 = \frac{-5-\sqrt{2}}{2} \approx -\frac{449}{140}(-0{,}0001)$.

3). $x^2 + 9x + 6 = 0$ tenglamaning ildizlarini topamiz.

$$x_{1,2} = \frac{-9 \pm \sqrt{81-24}}{2} = \frac{-9 \pm \sqrt{57}}{2};\ x_1 = \frac{-9+\sqrt{57}}{2}, \qquad x_2 = \frac{-5-\sqrt{57}}{2}.$$

Avvalo birinchi ildiz $x_1 = \frac{-9+\sqrt{57}}{2}$ ni qaraymiz.

$$x_1 = \frac{-9+\sqrt{57}}{2} = -1 + \frac{\sqrt{57}-9}{2} + 1 = -1 + \frac{\sqrt{57}-7}{2} = -1 + \frac{1}{\alpha_1},$$

bu yerda

$$\alpha_1 = \frac{2}{\sqrt{57}-7} = \frac{\sqrt{57}+7}{4} = 3 + \frac{\sqrt{57}-5}{4} = 3 + \frac{1}{\frac{4}{\sqrt{57}-5}} = 3 + \frac{1}{\alpha_2};$$

$$\alpha_2 = \frac{4}{\sqrt{57}-5} = \frac{\sqrt{57}+5}{8} = 1 + \frac{\sqrt{57}-3}{8} = 1 + \frac{1}{\frac{8}{\sqrt{57}-3}} = 1 + \frac{1}{\alpha_3};$$

$$\alpha_3 = \frac{8}{\sqrt{57}-3} = \frac{\sqrt{57}+3}{6} = 1 + \left(\frac{\sqrt{57}+3}{6} - 1\right) = 1 + \frac{\sqrt{57}-3}{6} = 1 + \frac{1}{\alpha_4};$$

$$\alpha_4 = \frac{6}{\sqrt{57}-3} = \frac{\sqrt{57}+3}{8} = 1 + \left(\frac{\sqrt{57}+3}{8} - 1\right) = 1 + \frac{\sqrt{57}-5}{8} = 1 + \frac{1}{\alpha_5};$$

